O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT ARXITEKTURA QURILISH INSTITUTI

«O‘zbek tili va adabiyoti» kafedrasi




# «O‘zbek tili» fanidan

# O‘QUV-USLUBIY MAJMUA




TOSHKENT-2020

Mazkur o‘quv-uslubiy majmua O‘zbekiston Respublikasi Oliy va O‘rta maxsus ta’lim vazirligi tasarrufidagi Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2017-yil 18-avgustdagi 4-sonli bayonnomasi bilan ma’qullangan “Namunaviy dastur” asosida ishlab chiqilgan.


**Tuzuvchi**: **Xolmurodova J. I**
“O‘zbek tili va adabiyoti ”
kafedrasi professori, f.f.n.

**Taqrizchilar**: **Mahkamova M.M.**
“O‘zbek tili va adabiyoti”
kafedrasi mudirasi dotsent, p.f.n

**Abdulxayrov B.H.**
“O‘zbek tili va adabiyoti”
kafedrasi katta o`qituvchisi, f.f.n.



Fan bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmua Toshkent arxitektura-qurilish instituti Ilmiy-uslubiy kengashining 2020-yil 28-avgustdagi 1-sonli majlisida muhokama qilingan va ma’qullangan.


**Ilmiy-uslubiy kengash raisi: ______________A. O‘. Mirisayev**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**

**OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT ARXITEKTURA QURILISH INSTITUTI**

**“O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI” KAFEDRASI**

# “O‘ZBEK TILI” FANI BO‘YICHA

# O‘QUV-USLUBIY MAJMUA

| | | | |
|---|---|---|---|
| **Ta`lim sohasi:** | 340 000 | – | Arxitektura va qurilish |
| | 310000 | – | Muhandislik ishi |
| **Ta`lim yo`nalishlari:** | 5150900 | – | Dizayn (arxitekturaviy muhit dizayni) |
| | 5341700 | – | Arxitektura yodgorliklari rekonstruksiyasi va restavratsiyasi |
| | 5340100 | _ | Arxitektura (turlari bo`yicha) |
| | 5340700 | _ | Gidrotexnika qurilishi (daryo inshootlari va gidroelektrostansiyalar qurilishi |
| | 5340200 | _ | Bin ova inshootlar qurilishi (neft-gazni qayta ishlash sanoati ob`yektlari) |
| | 5340200 | _ | Bino va inshootlar qurilishi (sanoat va fuqaro binolari ) |
| | 5340900 | _ | Qiymat injiniringi va ko`chmas mulk ekspertizasi |
| | 5230200 | _ | Menejment (qurilish) |
| | 5340300 | _ | Shahar qurilishi hamda kommunal infratuzilmani tashkil etish va boshqarish |
| | 5230100 | _ | Iqtisodiyot (qurilish) |
| | 5630100 | _ | Ekologiya va atrof – muhit muhofazasi ( tarmoqlar va sohalar bo`yicha |
| | 5320100 | - | Materialshunoslik va yangi materiallar texnologiyasi (qurilish) |
| | 5340400 | _ | Muhandislik kommunikatsiyalari qurilishi va montaji (turlari bo`yicha) |
| | 5340500 | _ | Qurilish materiallari, buyumlari va konstruksiyalarini ishlab chiqarish |
| | 5341200 | _ | Suv ta`minoti va kanalizatsiya tizimlarini loyihalashtirish va ekspluatatsiyasi |
| | 5341800 | _ | Devorbop va pardozbop qurilish materiallari texnologiyasi |

## MUNDARIJA

1. Fanning oʻquv dasturi (namunaviy va ishchi)
2. Har bir mavzu uchun metodik material
3. Glossaryi (Oʻzbek, rus va Ingliz tilida)
4. Fan boyicha xorijyi, adabyiotlar
5. Har bir mavzu uchun, taqdimotlar
6. Qushimcha oʻkuv va Ilmiy material (maqolalar)
7. Mavzuni oʻzlashtirilish uchun qushimcha videolar, keys stadiyalar va h. k. materiallar

## ОГЛАВЛЕНИЕ

1. Учебная программа предмета (типовая и рабочая)
2. Учебно-методический материал для каждой темы
3. Глоссарий (на русском, английском и узбекском языке)
4. Зарубежная литература по предмету
5. Презентации для каждой темы
6. Дополнительный учебный и научный материал (статьи)
7. Дополнительные видеоролики, кейс стадии и прочие материалы для освоения темы

## CONTENTS

1.Curriculum 0f the subject (standard and working)
2. Educational – methodical material for each topic
3. Glossary (on Uzbek, Russian and English languages)
4. Foreign Literature on the subject
5. Presentations for each topic
6. Additional educational and scientific material (articles)
7. Additional videos? Stage of case and other materials for the development of the topic

# MUNDARIJA


| № | AMALIY MASHG‘ULOT MAVZULARI | |
|---|---|---|
| **1** | **O‘zbekiston - yagona vatan:** | |
| | 1.1 “O‘zbekiston – yagona vatan” mavzusida mustaqillik darsi. O‘zbek tili – Davlat tili ......…………………………………… | |
| **2** | **Til – ma’naviat ko‘zgusi:** | |
| | 2.1 Til ma’naviyat - ko‘zgusi. Dunyo tillari. Til va nutq ………<br>2.2 Til – eng muhim aloqa vositasi. O‘zbek adabiy tili va shevalari | |
| **3** | **Universitetim bilan fahrlanaman:** | |
| | 3.1 Institutim bilan faxrlanaman. Leksikologiya. So‘z ma’nolari va ularning ifodalanishi ……………………………………………<br>3.2 “O‘zbekiston me’morchiligi” matni ustida ishlash. So‘zlarning shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra turlari ……………………… | |
| **4** | **Inson va jamiat:** | |
| | 4.1 Inson va uning jamiyat hayotida tutgan o‘rni. Leksikologiya. Lug‘at va uning turlari……………………………………………<br>4.2 Oila-jamiyat tayanchi. Terminologiya. Ixtisoslikka oid atamalar ustida ishlash…………………………………………………………<br>4.3 Oilam va men. So‘z va uning qo‘llanishi………………………….. | |
| **5** | **Salomatlik u`z qo‘lingda** | |
| | 5.1 O‘zbekiston sporti. Frazeologiya. Iboralar, uning turlari, qo‘llanilishi……………………………………………………..<br>5.2 Yoshlar va sport o‘yinlari. Fonetika. Nutq shakllari va ularning rivojlanishi……………………………………………………………<br>5.3 Mening sevimli sport turim. Nutq tovushlari. Unli va undosh tovushlar tasnifi…………………………………………………..... | |
| **6** | **Tarix va zamonamiz** | |
| | 6.1 O‘tmishi buyuk xalq. Bo‘g‘in va uning turlari…………………..<br>6.2 Dunyoviy fanlar va ularning rivojlanishda allomalarimizning o‘rni. Urg‘u. Uning turlari va nutqda qo‘llanilishi…………….……<br>6.3 Milliy hunarmandchilik rivoji. O‘zbek yozuvi tarixidan……….<br>6.4 O‘zbekistonning qadimiy shaharlari. Alifbo. Tovush va harf.…<br>6.5Buyuk ipak yo‘li bo‘ylab sayohat. Orfografiya. Talaffuz qoidalari……………………………………………………………….<br>6.6 O‘zbekistonning zamonaviy shaharlari. Orfografiya. Imlo va uning qoidalari……………………………………………………<br>6.7 “Konstitutsiya - qomusimiz ”. “Men sevgan kasb” mavzusida insho yozish | |

| № | AMALIY MASHG'ULOT MAVZULARI | |
|---|---|---|
| **7** | **Yetuk mutaxassis bo'laman** | |
| | 7.1 Men sevgan kasb. Morfemika. So'z yasalishi va tuzilishi………….. | |
| **8** | **Adabiyot - ma'naviat o'chog'i.** | |
| | 8.1 Alisher Navoiy-so'z mulkining sultoni. Grammatika. So'z turkumlari.<br>8.2 Z.M.Bobur-shoh va shoir. Ot va uning grammatik xususiyatlari…<br>8.3 Mumtoz adabiyotimiz salohiyati. Otlarning yasalishi…………….<br>8.4 Xalq og'zaki ijodi durdonalari.Otlarda egalik va kelishik kategoriyasi……………………………………………<br>8.5 Hozirgi o'zbek adabiyoti namoyandalari (E.Vohidov, A.Oripov, Zulfiya) Otlarda birlik va ko'plik kategoriyalarining ifodalanishi……..<br>8.6 Men sevgan asar. Sifat va uning grammatik xususiyatlari……….. | |
| **9** | **O'zbek sanati ustalari** | |
| | 9.1 O'zbek san'ati kamoli. Sifat va uning darajalari………………….<br>9.2 Men sevgan san'atkor. Son va uning grammatik xususiyatlari…... | |
| **10** | **Milliy qadriyatlar e`zozi** | |
| | 10.1O'zbek ma'naviyati yulduzlari. (Amir Temur, Mirzo Ulug'bek) Sonning ma'no turlari…………………………………………………<br>10.2 O'zbek ma'naviyati yulduzlari. Jaloliddin Manguberdi, Pahlavon Mahmud. Numerativlar……………………………………………….<br>10.3 Inson odobi bilan. Insho…………………<br>10.4 O'zbek udumlari. Olmosh va uning ma'no turlari(so'roq, belgilash, bo'lishsizlik, gumon olmoshlari)…………………………..<br>10.5 Xalqona muomala ma'daniyati. Fe'l va uning grammatik xususiyatlari (bo'lishli- bo'lishsiz, o'timli-o'timsiz fe'llar)…………<br>10.6 Milliy va zamonaviy bayramlarimiz. Fe'l nisbatlari……………..<br>10.7 Milliy qadriyatlar e'zozi. Fe'l zamonlari………………………… | |
| **11** | **Kelajak yoshlar qo'lida** | |
| | 11.1 Zamon va yoshlar. Fe'l maillari…………………………………..<br>11.2 XXI asr - texnika asri. Fe'lning xoslangan shakllari…………….<br>11.3 O'zbekiston ta'lim tizimi. Ravish va uning ma'no turlari………..<br>11.4 Barkamol avlod orzusi. Yordamchi so'zlar turkumi( ko'makchi, bog'lovchi, yuklama)………………………………………………… | |
| **12** | **Kitob - oftob** | |
| | 12.1 Kitob – bilim manbai. Undov, taqlid va modal so'zlar………….. | |
| **13** | **Inson va jamiat** | |
| | 13.2 Inson hayotida tabiatning o'rni. Sintaksis. Gap va uning asosiy belgilari…………………………………………………………..<br>13.3 Yurtimiz tabiati. So'z birikmasi va uning birikish usullari………<br>13.4 Inson odobi bilan go'zal. Gap bo'laklari. Gapning bosh bo'laklari. | |
| **14** | **Shaxsiy hujjatlar bilan ishlash** | |
| | 14.1 Ariza, bildirishnoma, bildirgi Gapning ikkinchi darajali bo'laklari (aniqlo'vchi, to'ldirovchi, hol)……………………………..<br>14.2 Buyruq, farmoyish, ko'rsatma. Gapning tuzulishiga ko'ra turlari<br>14.3 Takrorlash. Ko'chirma va o'zlashtirma gaplar. | |

# HAR BIR MAVZU UCHUN
# O‘QUV-METODIK MATERIAL

**1 - Mavzu: “O‘zbekiston – yagona vatan” mavzusida mustaqillik darsi.**

**O‘zbek tili –Davlat tili.**

**Reja:**

1.O‘zbekiston – Vatanim manim.
2.O‘zbekiston – ko‘p millatli Respublika
3.“Davlat tili haqida”gi qonun.
4.“Davlat tili haqida”gi qonuning tarixiy va amaliy ahamiyati.

Vatan mehr bilan, muhabbat bilan tilga olinadigan – so‘z.Vatan - bitta, shuning uchun ham u muqaddas. Yagona bo‘lgan narsalarning barchasi e’zozda.

Vatan, Ona, Zamin, Osmon, Quyosh…. Bittadan oshdimi, muqaddaslik qolmaydi. Ha Vatan ona kabi yagonadir. Bepayon Vatanimizning ba’zi go‘shalarida “Vatan” so‘zi uy xona ma’nosini ham bildiradi. Aytadilar-ku - “O‘g‘lim uchun bir vatan qurdiray…” Yoxud kimdir omadsizlikdan uyidan mahrum bo‘lib qolsa afsus bilan “bevatan bo‘lib qolibdi” - deydilar.

Vatan bu - yashab turgan uyimiz.

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XARITASI**

Yer maydoni –447 400 km²




1.Aholisi –33 085 200 kishi
2.Chegaradosh davlatlar – Qirg‘iziston, Qozoqiston, Turkmaniston, Afg‘oniston, Tojikiston.
3.Millatlar – o‘zbek, rus, tojik, qirg‘iz, totor, koreys, qozoq, turkman, ukrain, qoraqalpoq.
4.Ob-havo – qish, bahor, yoz, kuz.

## BAYROQ



- 1991-yil 18-noyabrda qabul qilingan
- Moviy rang - zangori osmon va musaffo suv
- Oq rang - tinchlik va poklik timsoli
- Yashil rang - serne’mat va orombaxsh tabiat ramzi

Qizil chiziqlar - har bir tirik jonning qon tomirida urib turgan hayotiy kuch, hayot ramzi

## GERB




- 1992-yil 2-iyulda qabul qilingan.
- Humo qushi – baxt va erk sevarlik ramzi, rizq-ro‘zimiz timsoli – bug‘doy boshoqlari, bebaho boyligimiz – paxta, tog‘lar va daryolar, quyosh, sakkiz burchak yulduz va uning ichida yarim oy va yulduz.

## MADHIYA

1992-yil 10-dekabrda qabul qilingan.
Muallifi: Abdulla Oripov
Bastakor: Mutal Burhonov

Serquyosh, hur o‘lkam, elga baxt, najot,
Sen o‘zing do‘stlarga yo‘ldosh, mehribon!
Yashnagay to abad ilmu fan, ijod,
Shuhrating porlasin toki bor jahon!

N A Q O R A T
Oltin bu vodiylar – jon O‘zbekiston,
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!
Ulug‘ xalq qudrati jo‘sh urgan zamon,
Olamni mahliyo aylagan diyor!

Bag‘ri keng o‘zbekning o‘chmas iymoni,
Erkin yosh avlodlar senga zo‘r qanot!

Istiqlol mash’ali, tinchlik posboni’
Haqsevar, ona yurt, mangu bo‘l omon!
N A Q O R A T
Oltin bu vodiylar – jon O‘zbekiston,
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!
Ulug‘ xalq qudrati jo‘sh urgan zamon,
Olamni mahliyo aylagan diyor!

Jahon siyosiy xaritasiga boqsam, aziz Vatanimni izlayman. Vatan qadri undan uzoq bo‘lganingda sezilarkan. Vatanga muhabbat tuyg‘usi haqiqatdan ham ilohiy ne’mat ekanligi yaqqol bilinarkan! Safarlarda bo‘laman goho …. Ittifoqo taqdir taqozosi bilan qo‘shni mamlakatda umr guzaronlik qilayotgan bir So‘xlikning uyida bo‘ldim. Turmushi farovon, sog‘-salomat lekin yuragida dard borligi – unga nimadir yetishmayotganligi sezilib turardi. O‘zbekiston xaritasini tuhfa qilgandim ko‘zlariga yosh keldi.

Mamlakatimiz istiqlolga erishgach xorijdagi vatandoshlarimizda ona diydor tuprog‘ini tavof aylash baxti nasib etdi.

1989-yil 21-oktabrda O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni qabul qilindi. O‘zbek tiliga O‘zbekiston Respublikasining davlat tili huquqi berildi. Har yili o‘zbek tiliga davlat tili huquqi berilgan 21-oktabr sanasi o‘zbek tili kuni sifatida keng nishonlanib kelinadi. O‘zbekistonning 1991-yil 1-sentabrdan mustaqil davlat deb e’lon qilinishi bilan mazkur Qonunning davrdan ortda qolayotgan ayrim moddalarini qayta tahrir qilishga to‘g‘ri keldi. 1995-yil 21-dekabrda “Davlat tili haqidagi” qonun yangi tahrirda qabul qilindi. Mazkur qonun 24 moddadan iborat. Uning 1-moddasida O‘zbekiston respublikasining davlat tili o‘zbek tili ekanligi ta’kidlangan.

1993-yil 2-sentabrda “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida” qonun qabul qilindi. Mazkur qonunlarga binoan O‘zbekiston respublikasidagi barcha o‘rta umumta’lim maktablari, litseylar, kollejlar, oily o‘quv yurtlarida 2005-yil 1-sentabrdan davlat tilida yangi alifboda o‘qish-o‘qitish ishlari va ish qog‘ozlari yuritishga to‘liq o‘tildi.

Mazkur qonunga binoan respublikamizdagi maktablar, litseylar, kollejlar, oily o‘quv yurtlarining boshqa tillarda ta’lim-tarbiya olib boriladigan guruhlari o‘quvchilari va talabalariga ham o‘zbek tili chuqur o‘rgatilmoqda. Korxonalarda ham ish yuritish davlat tilida, lotin yozuviga asoslangan yangi alifboda olib borishga bosqichma-bosqich o’tilmoqda.

## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI
## DAVLAT TILI HAQIDA

***1-modda.*** O‘zbekiston Respublikasining davlat tili o‘zbek tilidir.

***2-modda.*** O‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi respublika hududida yashovchi millat va elatlarning o‘z ona tilini qo‘llashdan iborat konstitutsiyaviy huquqlariga monelik qilmaydi.

***3-modda.*** O‘zbek tilining O‘zbekiston Respublikasi hududida davlat tili sifatida amal qilishining huquqiy asoslari ushbu Qonun va boshqa qonunlar bilan belgilab beriladi. Tilning Qoraqalpog‘iston Respublikasida amal qilishiga bog‘liq masalalar, shuningdek, Qoraqalpog‘iston Respublikasining qonun hujjatlari bilan belgilanadi. Ushbu qonun tillarning turmushda, shaxslararo muomalada hamda diniy va ibodat bilan bog‘liq udumlarni ado etishda qo‘llanishini tartibga solmaydi. Fuqarolar millatlararo muomala tilini o‘z xohishlariga ko‘ra tanlash huquqiga egadirlar.

***4-modda.*** O‘zbekiston Respublikasida Davlat tilini o‘rganish uchun barcha fuqarolarga shart-sharoit hamda uning hududida yashovchi millatlar va elatlarning tillariga izzat-hurmat bilan munosabatda bo‘lish ta’minlanadi, bu tillarni rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratiladi. Fuqarolarga davlat tilini o‘qitish bepul amalga oshiriladi.

***5-modda.*** O‘zbekiston Respublikasida davlat tilida faoliyat ko‘rsatadigan, milliy guruhlar zich yashaydigan joylarda esa ularning tillarida faoliyat ko‘rsatadigan maktabgacha tarbiya, bolalar muassasalarini tashkil etish ta’minlanadi.

***6-modda.*** O‘zbekiston Respublikasida yashovchi shaxslarga ta’lim olish tilini erkin tanlash huquqi beriladi. O‘zbekiston Respublikasi davlat tilida, shuningdek boshqa tillarda ham umumiy, hunar-texnika, o‘rta maxsus va oliy ma’lumot olishni ta’minlaydi.

***7-modda.*** Davlat tili rasmiy amal qiladigan doiralarda o‘zbek adabiy tilining amaldagi ilmiy qoidalari va normalariga rioya etiladi. Davlat o‘zbek tilining boyitilishi va takomillashtirilishini ta’minlaydi, shu jumladan unga hamma e’tibor qilgan ilmiy-texnikaviy va ijtimoiy-siyosiy atamalarni joriy etish hisobiga ta’minlaydi.Yangi ilmiy asoslangan atamalar jamoatchilik muhokamasidan keyin va Oliy Majlisga tegishli qo‘mitasining roziligi bilan o‘zbek tiliga joriy etiladi.

***8-modda.*** O‘zbekiston Respublikasining qonunlari, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining boshqa hujjatlari davlat tilida qabul qilinadi va e’lon etiladi. Bu hujjatlarning tarjimalari boshqa tillarda ham e’lon qilinadi.Mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlarining hujjatlari Davlat tilida qabul qilinadi va e’lon etiladi. Muayyan millat vakillari zich yashaydigan joylarda mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlarining hujjatlari respublika davlat tilida hamda mazkur millat tilida qabul qilinadi va e’lon etiladi.

***9-modda.*** Davlat hokimiyati va boshqaruv organlarida ish davlat tilida yuritiladi va zaruriyatga qarab boshqa tillarga tarjima qilinishi ta’minlanadi. O‘zbekistonda o‘tkaziladigan xalqaro anjumanlarda davlat tili shuningdek, qatnashchilarning o‘zlari tanlagan tillar anjumanning ish tili hisoblanadi.

***10-modda.*** Korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va jamoat birlashmalarida ish yuritish, hisob-kitob, statistika va moliya hujjatlari davlat tilida yuritiladi, ishlovchilarning ko‘pchiligi o‘zbek tilini bilmaydigan jamoalarda davlat tili bilan bir qatorda boshqa tillarda ham amalga oshirilishi mumkin.

***11-modda.*** Sudlov ishlarini yuritish davlat tilida yoki o‘sha joydagi ko‘pchilik aholi tilida olib boriladi. Ishda ishtirok etayotgan, sud ishlari yuritilayotgan tilni bilmaydigan shaxslarga tarjimon orqali ishga oid materiallar bilan tanishish, sud jarayonida ishtirok etish huquqi hamda sudda ona tilida so‘zlash huquqi ta’minlanadi. Korxonalar, tashkilotlar va muassasalar o‘rtasidagi xo‘jalik nizolarini ko‘rib chiqish va hal qilishda davlat tili qo‘llaniladi. Xo‘jalik nizolari taraflarning roziligi bilan boshqa tilda ham ko‘rib chiqilishi mumkin.

***12-modda.*** O‘zbekiston respublikasida notarial harakatlar davlat tilida amalga oshiriladi. Fuqarolarning talabiga ko‘ra rasmiylashtirilgan hujjat matni davlat notariusi yoki notarial harakatni bajarayotgan shaxs tomonidan rus tilida yoki imkoniyat bo‘lgan taqdirda - boshqa maqbul tilda beriladi.

***13-modda.*** Fuqarolik holatini qayd etuvchi hujjatlar, shaxsning kim ekanligini va uning huquqlarini tasdiqlovchi hujjatlar davlat tilida rasmiylashtiriladi, zaruriyatga qarab boshqa tilda tarjimasi takrorlanishi mumkin.

***14-modda.*** O‘zbekiston respublikasi hududida yashovchi shaxslarga davlat tashkilotlar va muassasalariga, jamoat birlashmalariga arizalar, takliflar, shikoyatlar bilan davlat tilida va boshqa tillarda murojaat qilish huquqi ta’minlanadi.

***15-modda.*** O‘zbekiston respublikasida yashovchi shaxslar, o‘z millatidan qat'iy nazar, o‘z ismini, otasining ismi va familiyasini milliy-tarixiy an'analarga muvofiq yozish huquqiga egadirlar.

***16-modda.*** Televideniye va radio eshittirishlari davlat tilida, shuningdek, boshqa tillarda olib boriladi.

***17-modda.*** Noshirlik faoliyati davlat tilida, ehtiyojlarni hisobga olgan holda esa, boshqa tillarda ham amalga oshiriladi.

***18-modda.*** Pochta-telegraf jo‘natmalari davlat tilida yoki fuqarolarning xohishiga ko‘ra boshqa tilda amalga oshiriladi.

***19-modda.*** Muassasalar, tashkilotlar va jamoat birlashmalari muhrlari, tamg‘alari, ish qog‘ozlarining matnlari davlat tilida bo‘ladi. O‘zbekiston respublikasi hududida joylashgan xalqaro tashkilotlar va muassasalar, qo‘shma korxonalarning,

shuningdek, milliy madaniy jamiyatlar va markazlarning muhrlari, tamg‘alari, ish qog‘ozlari matnlarining tarjimasi davlat tilida takrorlanadi.
***20-modda.*** Lavhalar, e’lonlar, narxnomalar va boshqa ko‘rgazmali hamda og‘zaki axborot matnlari davlat tilida rasmiylashtiriladi va e’lon qilinadi hamda boshqa tillarda tarjimasi berilishi mumkin.
***21-modda.*** Korxonalarda ishlab chiqariladigan mahsulot davlat tilidagi va boshqa tillardagi yorliqlar, yo‘riqnomalar, etiketkalar bilan ta’minlanadi.
***22-modda.*** Respublikaning ma’muriy-hududiy birliklari, maydonlari, ko‘chalar va geografik ob’yektlarining nomlari davlat tilida aks ettiriladi.
***23-modda.*** O‘zbekiston respublikasi xalqaro shartnomasi matnlari, agar shartnomaning o‘zida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, davlat tilida va ahdlashuvchi tomonning (tomonlarning) tilida yoziladi.
***24-modda.*** O‘zbekiston respublikasida davlat tiliga yoki boshqa tillarga mensimay yoki xusumat bilan qarash taqiqlanadi. Fuqarolarning o‘zaro muomala, tarbiya va ta’lim olish tilini erkin tanlash huquqini amalga oshirishga to‘sqinlik qiluvchi shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo‘ladilar.

Toshkent shahri, 1995-yil 21-dekabr

**Tayanch so‘zlar:** qonun, huquq, hujjat, davlat tili, alifbo, shaxs, fuqaro, o‘zbek adabiy tili, hokimiyat.




**Grafik organayzerlar-** o‘quv jarayonida qo‘yilgan maqsadga erishishda yordam beruvchi chizma, jadval, grafiklardan foydalanish ham yuqori natijalarni kafolatlaydi. Agar grafik organayzerlarni o‘qituvchi tayyor(to‘ldirilgan) holda qo‘llasa vosita vazifasini talabalarning mashg‘ulot mavzusiga doir bilimlarini mustahkamlash va fikrlashini rivojlantirish maqsadida ishlatilsa, metod vazifasini bajaradi. Masalan shunday grafik organayzerlardan "BBB", “Qanday”, “Nima uchun?” kabi ko‘plab organayzerlarni misol keltirishimiz mumkin.

## Topshiriqlar

**1-topshiriq:** Berilgan matnni oʻzbek tiliga tarjima qiling.

Что такое дружба?

Когда учишься в школе, кажется, что взрослая жизнь будет в каком-то другом мире. От настоявшего не останется ничего. А на самом деле всё иначе. Друзья молодости оказываются самыми верными. Круг знакомых увеличился, но настоящие друзья - старые.

Молодость - это время сближения. Об этом нужно помнить и друзей надо беречь, потому что настоящая дружба очень помогает и в горе и в радости. В радости ведь тоже нужна помощь. Неразделённая радость - не радость. А когда наступит пора несчастий, пора утрат, тоже нельзя быть одному. Горе человеку, если он один. Поэтому берегите молодость до глубокой старость.

**2-topshiriq:** Vatan, ona yurt haqida qanday hikmatli soʻzlarni bilasiz? Ularni yozing va ma’nosini sharhlab bering.

VATANGA OID HIKMATLI SOʻZLAR

1.Vatan onaning koʻksidan boshlanadi. 2. Vatan tuygʻusining manzillari beshikdan qabirgachadir. 3. Vatanni sevish hissi – bu shunchaki tugʻma mayl emas, u sarbaland va muqqaddas tuygʻudir. 4. Vatan tuprogʻi oyoqdan emas, balki qadoq bogʻlagan qoʻllardan boʻsa olgisi keladi. 5. Belingiz Vatan yukidan bukchaysin. 6. Vatan yuki zalvarli boʻsa-da, maloli yoʻq. 7. Quyoshga juftlik yarashmaganidek, Vatanning ham sherigi yoʻq. 8. Vatan sadaqaga berilmagan, uni bizga taqdir ato etgan. 9. Vatan – eng katta taqdir. 10.Sen Vatanni madh etgan minbar – mehrobdir. 11. Iymon – vijdonning qiblasi. Vatan ham bamisoli qiblagohdir. 12. Vatan nechogʻlik ulkan boʻlmasin, u qalbga ham, koʻz qorachigʻiga ham jo boʻla oladi. 13. Vatan ishqi oshiq sevgisidek qalbning tub-tubidan joy olgan boʻladi. 14. Vatan hokini toʻtiyoga aylantirish uchun alkimyogar boʻlish shart emas. 15. Vatanfurush oʻz oltin beshigini pullaydi. 16.Vatan tuygusi ustuvor yurtda vatanfurushning bozori kasoddir (*Murod Xidir*).

## 2-mavzu: Til - ma’naviyat ko‘zgusi.
## Tilshunoslik. Dunyo tillari.

REJA:

1.Til va nutq munosabati.

2.Tilshunoslik fanlari.

3.Dunyo tillari.

4.Til oilalari.

5.Turkiy tillar.

Kishilar hamma vaqt bir-birlari bilan muomalada bo‘ladilar. Til vositasida o‘z fikrlarini, his-tuyg‘ularini ifodalaydilar. Til kishilarning bir-birlarini tushunishlariga, yashash uchun vositalar topishda birlashishlariga, ishlab chiqarishni tashkil qilish, tabiat kuchlari bilan kurashishga yordam bergan.

Til - aloqa quroli, u vosita.Nutq esa ana shu aloqa jarayonini amalga oshirish uchun xizmat qiladi. Tilning umri uni yaratgan xalqning umridan uzoq bo‘ladi. Nutqning umri esa qisqadir. Tilning xizmat doirasi juda keng,hajmi o‘lchovsiz bo‘ladi.Nutq esa aniq hajmli, shaklli bo‘ladi. Nutq yakka shaxs (monolog), ikki shaxs (dialog) yoki ko‘p shaxs (polilog) o‘rtasida bo‘lishi mumkin. Nutq yozma va og‘zaki bo‘ladi.

Til kishilarning birgalashib mehnat qilishlarida, boshqa kishilar bilan aloqada bo‘lish zaruriyatidan paydo bo‘lgan. Ibtidoiy jamoa tuzumi boshlarida paydo bo‘lgan til uzoq davrlar o‘tishi bilan o‘zgarib, boyib borgan. Til rivoji kishilarning turli-tuman tajribalarining takomillashiga,bu tajribalarning avloddan-avlodga o‘tishiga imkon bergan. Natijada fan, madaniyat, texnika taraqqiy qilgan, ya’ni kishilik jamiyati rivojlangan. Tilning rivojlanishi jamiyat rivojlanishi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, ijtimoiy hayotda ro‘y bergan o‘zgarishlar tilda aks etadi. Bu o‘zgarishlar hammadan ko‘proq tilning **lug‘at boyligida** o‘z ifodasini topadi. Yangi narsa-buyum va tushunchalarning keng iste’moldan chiqib ketishi hammadan avval tilning **lug‘at boyligida** o‘zgarish bo‘lishiga olib keadi.

Til haqidagi fan **tilshunoslik** yoki **lingvistika** deb yuritiladi.

Umumiy tilshunoslik fani til haqida umumiy nazariy masalalarni bayon qilish , tillarning paydo bo‘lishi va ularning istiqboli , dunyodagi tillarning chog‘ishtirish , ularning o‘zaro ta’siri , tillarni tansuv qilish kabi masalalar bilan shug‘ullanadi.

Tilshunoslik bo‘limlari, avvalo, ikkiga bo‘linadi:

1.Mazmuniga ko‘ra: fonetika, leksika, morfologiya, sintaksis.

II.Qo‘llanishga ko‘ra: alifbo , imzo , talaffuz , tinish belgilari, uslubiyat.

Ma’lum bir til lingvistika fanining quyidagi bo‘limlarida o‘rganiladi:

1**. ”Fonetika”** bo‘limida og‘zaki nutqning tovushi tizimio‘rganiladi.

2**.”Grafika”** bo‘limida harflar tizimi o‘rganiladi.

3.**”Leksikologiya”** bo‘limi so‘zining atash (lug‘aviy, leksik) ma’nosini o‘rganadi.
4.**”Leksikografiya”** turli lug‘atlar tuzilshning nazariy va amaliy masalalari bilan shug‘unlanadi.
5.**”Frazeologiya”**da iboralar o‘rganiladi.
6.**”Morfemika”**da so‘z yasashlishi, so‘zning ma’noli qismlari o‘rganiladi.
7.”**Morfologiya”** bo‘limida so‘zning grammatik ma’nosi o‘rganiladi.
8.**”Sintaksis”**ning o‘rganish ob’yekti gapdir.
9.**”Grafika”** bo‘limida harflar tizimi o‘rganiladi.
10.**”Orfografiya”** bo‘limida to‘g‘ri yozish (imlo) qoidalari o‘rganiladi.
11.”**Orfoepiya”**da nutq tovushlari va so‘zlarni to‘g‘ri aytish, talaffuz qilishni o‘rganiladi.
12.**”Til tarixi”** tilning fonetikasida, lug‘at boyligi va grammatikasida ro‘y bergan o‘zgarishlarni tekshiradi.
13.**”Dialektologiya”**da tilning shevalari, ularning fonetik, leksik va grammatik xususiyatlari o‘rganiladi.
14.”**Etimologiya”** so‘zlarning paydo bo‘lishi o‘rganiladi.
15.**”Stilistika”**da uslublar, til vositalarini nutqda ishlatish imkoniyatlari o‘rganiladi.
16.**”Punktuatsiya”**da tinish belgilari va ularning qo‘llanish qoidalari o‘rganiladi.
17.**”Umumiy tilshunoslik”**da dunyo tillari, ularning tasnifi, tillar haqidagi bahs-munozaralar o‘rganiladi.
18.**”Nutq madaniyati”**da madaniyatli kishining nutqi oldiga qo‘yiladigan talablar o‘rganiladi.
19.”**Qiyosiy tilshunoslik”**da tillar bir-biriga qiyosan tekshiriladi.
20.**”Pragmatika**”da muloqotni ifodalashda verbal va noverbal vositalar mushtarakligini yuzaga keltiruvchi hodisalar o‘rganiladi.

Shuningdek, “**Toponimiya**”da geografik joy nomlari, “**Zoonimiya**”da barcha mavjudotlarning nomlari, ”**Kosmonimiya**”da astronomik jismlarning nomlari,**”Bionimiya**”da o‘simliklarning nomlari kabilar o‘rganiladi.

BMTning ma’lumotlariga ko‘ra, ayni paytda yer yuzida 6 mlrd.dan ziyod aholi yashaydi. Dunyodagi xalqlar 2976 xil tilda gaplashadi.

Bu tillarning ayrimlarida bir necha o‘n, hatto yuz millionlab kishilar gaplashsa, ba’zilaridan bir necha ming kishigina foydalanadi, xolos. 200 tilning har birida milliondan ortiq, 70 tilning har birida 5 milliondan ortiq, faqat 13 tilning har birida 50 milliondan ortiq kishi so‘zlashadi. Qolganlarining har birida esa bir milliondan oz kishi gaplashadi. Masalan, xitoy tilida hozir bir milliardga yaqin kishi gaplashsa, chukot (bu til Chukotka yarimoroiida) va vele (bu til Kareliya hududida) tilida atigi bir necha ming kishi muloqotda Yangi Gvineyada deyarli har bir qishloq aholisi tiliga ega. Kongoda aholi 500 tilda, lndoneziyada 250 tilda, Sudanda 117 tilda gaplashadi.

Kavkaz tog‘larining bag‘rida joylashgan Dog‘istonda 1mln.dan ortiq xalq bo‘lib, ular 40ga yaqin tilda so‘zlashadi .

Tillar **tirik tillar** va **o‘lik tillarga** bo‘linadi. Xalqiar hozir gaplashadigan tillar **tirik til** hisoblanadi, masalan, ukrain tili, ozarbayjon tili, turk tili va boshqalar. Bizga yozma yodgorliklari yetib kelgan, ammo yer yuzida yashayotgan xalqlarning hech biri muomalada ishlatmaydigan til **o‘lik til** deb yuritiladi. Masalan, lotin tili, qadimgi hind till yoki sanskrit, qadimgi slavyan, gadimgi xorazmiy till va boshqalar. Lotin tili ko‘p asrlar davomida tirik til bolgan: antik davrda rimliklar va Rim imperiyasidagi ko‘p xalqlar lotin tilida gaplashganlar. Mazkur tild dunyoviy va publitsistik asarlar yozilgan., ajoyib badiiy asarlar yaratilgan. Asarlar hozir ham turli tillarga tarjima qilinib, nashr etilyapti. Bu tilda hozir ham o‘rta va oliy tibbiyot o‘quv yurtlarida ta’lim beriladi. Tibbiyotda odam a’zolarining nomlari, dorilarning nomlari va boshqalar lotin tilida aytiladi va yoziladi. O‘lik til hisoblanadigan qadimiy xorazmiy tili va yozuvi eroniy tillarning sharqiy turkumiga mansub bo‘lib Xorazmning qadimiy aholisi shu tilda gaplashgan. Xorazmiy tili XI asrlarda iste’moldan qolgan va o‘lik tilga aylangan. Bugungi kundagi jonli tillar qadimgi tillar asosida paydo bolgan va rivojlangan. Dunyodagi tillar qanchalik rang-barang bo‘lmasin, ular sanoqli tillar oilasiga birlashadi. Har bir oila, o‘z navbatida, qarindoshlikning yaqinlik darajasiga ko‘ra, ya’ni kelib chiqishi lug‘aviy va grammatik jihatdan yaqinligiga qarab bir necha **til oillalariga** bo‘linadi. Yer yuzida 20ga yaqin til oilasi bor.

Ma’lum tillarning paydo bo‘lishi uchun manba bo‘lib, o‘zi aloqa vositasi sifatida ishlatilmaydigan bo‘lib qolgan til **asos til (bobo til)** deb yuritiladi.

Bu odatda mana bunday ro‘y bergan.Bir tilda gaplashadigan xalq qandaydir tarixiy sabablar bilan qabilalarga bo‘linib, turli tomonlarga tarqalgan va bu qabilalarning tili o‘z taraqqiyotida davom eta bergan. Chunki til hamma vaqt rivojanib turadi.Ammo bu kabilarning turmush sharoitlari har xil bo‘lgan. Demak, ularning tillari ham turli yo‘llar bilan rivojanib borgan. Oradan ma’lum davr o‘tishi bilan bir vaqtlar bir xalqdan paydo bo‘lgan qabilalar tilidan o‘zgarishlar ro‘y berib, bir qabila kishilari boshqa bir qabila kishilarining tilini yaxshi tushunmaydigan bo‘lib qolgan.

Shunday qilib,bir vaqtlar umumiy bo‘lgan til qabilalarining yangi paydo bo‘lgan tillariga nisbatan **asos til** hisoblanadi.

Jahonda keng targalgan **til oilalari** quyidagilardan iborat bo‘lib, ushbu til oilalalari o‘z navbatida **til turkumlariga** bo‘linadi

**1.Oltoy tillar oilasi -** bu oilaga turk, mo‘g‘ul, manjur, yapon, koreys va boshqa til tarmoqlari kiradi. Turkiy tillar tarmog‘i esa, o‘z navbatida, quyidagi guruhlarga bo‘linadi: o‘g‘uz guruhi (turkman, gagauz, ozarbayjon, turk, grim tatar va bolqon turklari qipchoq guruhi (qumiq, qarayim, balkar, tatar, boshqird, no‘g‘ay, qoraqalpoq, qozoq tillari, o‘zbeklaming qipchoq lahjasi), qarluq-uyg‘ur guruhi (o‘zbek va yangi

uyg‘ur tillarvia) ub q yo?h,Ur; o‘g‘uz guruhi (tuva, tofalar, yoqut, xakas, shor, sariq uyg‘ur tillar), dirgiz-qipchoq guruhi (qirg‘iz va oltoy tillari) kiradi.

**2.Fin-ugor tillar oilasi –** bu oilaga fin guruhi (fin, eston, karel, komjziryan, komi-permyak, udmurt, mariy, mord va boshqa tillar), ugor guruhiga (venger, mansiy, xantiy) tillari kiradi.

**3.Som-xom tillari oilasi -** bu til oilasiga semit (yoki som) tillari guruhi (arab, axmar, xarari, oysor, ivrit), qushit tillari guruhi (galla, somali, saho, berber guruhi (kobil, shilx, rif, tamazist), chad-xom tillari guruhi (xause, kotoko, angas, karekare, sura, chuzgu, mubi va boshqa tillar), arab guruhi (qadimgi arab) tillari kiradi.

**4.Kavkaz tillari oilasi -** bu til oilasiga g‘arbiy guruh (abxaz, dungan, bardin, ubix tillari), nax guruhi (chechen, ingush, batsbiy tillari), dogiston guruhi (avar. dargin, lezgin, lak, karatin, gunzib va boshqa tillar), janubiy guruh (megrel, chap, gruzin, kartaliy, svan, guriy va boshqa tillar) kiradi.

**5.Xitoy-tibet tillari oilasi** - bu oilaga tay-xitoy guruhi (xitoy, dungan, tay laos, chjuan, vyetnam tillari), tibet-birma guruhi (tibet, birma tillari) kiradi.

**6.Hind-yevropa tillari oilasi** - bu oilaga slavyan guruhi (belorus, rus, ukrain, chex, slovak, polyak, makedon, serb, xorvat, sloven -11 tirik til, 4 o‘lik til ), german guruhi (ingliz, nemis, shved, norveg, dat, island, golland, norveg, yahudiy tillari), roman guruhi (fransuz, ispan, portugal, italyan, rumin, moldavan, lotin tillari), boltiq guruhi (litva, latish, latgal, prus tillari), kelt guruhi (irland, shotland, breton, uels tillari), eron guruhi (fors, afg‘on, osetin, kurd, tojik - 11 tirik til, 10 o‘lik til ), hind guruhi (hind, urdu, bengal, panjob, gujarot kabi 90 tirik til, 3 o‘lik til ), shuningdek grek, alban, arman tillari hamda anatoliy va tohar kabi o‘lik guruh tillari kiradi.

Mazkur til oilalaridan tashqari dravid, malay-polinez, avstraliya, papua, afrika kabi til oilalari ham mavjud.

Tillarni oilalarga birlashtirish, har bir oilaning tarmoq, guruh va guruhchalarini aniqlash tillarning kelib chiqish tasnifi deb ataladi.

**O‘zbek tili** oltoy tillar oilasining turkiy tillar turkumiga kiradi.Dunyoda 24 xil turkiy til bor: o‘zbek, turkman, qirg‘iz, qozoq, ozarbayjon, chechen,tatar, boshqird, qoraqalpoq, uyg‘ur, yoqut, qorachoy, balkar, tuva, turk, kurd, xakas, gagauz, shor, qoraim, qumiq, no‘g‘oy, oyrot, karagas.

O‘zbek tili XI asrdan boshlab mustaqil til sifatida shakllana boshladi va XIII asrda eski o‘zbek adabiy tili shakllanib bo‘ldi ( u vaqtda qadimgi turkiy til deb yuritilgan). O‘zbek adabiy tilining rivojida Alisher Navoiyning xizmati juda katta: u o‘zbek tilida ajoyib asarlar yaratdi, til masalalariga bag‘ishlangan “Muhokamat- ul-lug‘atayn” nomli asar yozdi.

XI asrgacha ajdodlarimiz qadimgi turk tilida so‘zlashganlar. Bu tilning yodgorliklari: O‘rxun-Enasoy yodgorliklari (VI–VII asrlar) Mahmud Qoshg‘ariyning

“Devonu-lug‘otit-turk”(“Turk tillari devoni), Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” (“Saodatga yo‘lovchi bilim”).

O‘zbek va tojik xalqlari asrlar davomida bir hududda yashab, bir xil tarixiy sharoitda hayot kechirganlar. Bu xalqlarning tillari bir-birlarini boyitgan, masalan tojik tilidan o‘zbek tiliga *barg, korxona, chamadon, dastro‘mol* kabi so‘zlar o‘tgan. O‘zbek tilidan tojik tiliga *qaymoq, qayroq, qanor, yurt*kabi so‘zlar o‘tgan. Lekin bu tillarning fonetikasi va grammatikasi bir-biriga o‘xshamaydi,chunki tojik tili hind-yevropa oilasining eron tillar guruhiga kiradi.

**Tayanch so‘zlar:** til, nutq, muomala, lug‘at boyligi, til oilalari, til turkumlari, hind-yevropa oilasi, oltoy tillar oilasi, turkiy tillar, tirik tillar, o‘lik tillar.

**Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1.“Til - ma’naviyat ko‘zgusi” - deganda nimani tushunasiz?

2.Til va nutqning o‘zaro farqli va mushtarak jihatlari haqida nimalarni bilasiz?

3.Tilshunoslik fani haqida tushunchalaringizni izohlang.

4.Dunyo tillari haqida nimalarni bilasiz?

5.Qanday til oilalari bor?

6.Turkiy tillar guruhi haqida gapiring.

**Keys-stadi** inglizcha ***case - aniq vaziyat, stadi - ta’lim*** so‘zlarining birikuvidan hosil qilingan bo‘lib, aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil etish va ijtimoiy ahamiyatga ega natijalarga erishishga asoslangan ta’lim metodidir.

Keyslar metodi o‘qituvchining tafakkur turi sifatida, alohida paradigma ko‘rinishida gavdalanib, ijodiy salohiyatni rivojlantirish, noan'anaviy tarzda fikrlash imkoniyatini beradi. keys-stadi ta’lim texnologiyasining asosiy tushunchalari qatoriga "vaziyat" va "tahlil", ushbu ikki tushunchaning uyg‘unlashuvidan keiib chiqqan "vaziyat tahlili" kiradi.

Keys-stadi metodining yana bir bazaviy kategoriyasi bu "tahlil”dir. Tahlil etish kategoriyasi obyektni xayolan bo‘laklarga bo‘lish yoki ilmiy tadqiq etish sifatida tushunilishi mumkin.

Keys stadining tarkibiy qismi - muammoli vaziyat (keys)ning yana bir muhim manbai bu ta’Iim tizimidir. U ta’lim va tarbiya maqsad va vazifalarini keys stadi texnologiyasining ta’limning boshqa metodlariga integratsiyasini belgilaydi. O‘quv modul bu keyslarning uchinchi manbaidir aynan o‘quv modul keyslarning ikki asosiy metodologiyasini belgilab beradi. Ular esa o‘z navbatida analitik faoliyat va tizimiy yondashuv hamda muammoli vaziyatni hal etish jaravonida keys-stadi texnologiyasi tarkibiga integraisiyalashgan boshqa bir qator ilmiy metodlar bilan belgilanadi.

Har qanday keys quyidagi tuzilishiga ega bo‘ladi:

*Vaziyat - muammo. hayotdan misol;*

*vaziyatning konteksti - xronologik, tarixiy, joy konteksti, harakat ishtirokchilari o‘ziga xosliklari;*

*muallif tomonidan keltirilgan izoh;*
*keys-stadi metodi bilan ishlashda topshiriqlar va savollar to'plami.*

Jahon tajribasi ko'rsatishicha, agar tinglovchilarning keysni hal etish texnologiyasi ikki bosqichdan. iborat bo'Isa, ta'limiy maqsadlarga erishishda yanada ko'proq samaraga erishish mumkin:

Birinchi bosqich-keysni hal etish bo'yicha individual (auditoriyadan tashqari) ish.
Ikkinchi bosqich - keys bilan birgalikda jamoa bo'lib (auditoriyada) ishlash.
Birinchi bosqich - keysni hal etish bo'yicha individual ish.

*Tinglovchi mustaqil ravishda:*

*1) keys materiallari bilan tanishadi;*
*2) taqdim etilgan vaziyatni o'rganadi, izohlaydi va asoslaydi;*
*3)muammo va muammo osti muammolarni ajratadi, vaziyatni tadqiq va tahlil qilish usullarini tanlaydi;*
*4) berilgan amaliy vaziyatni tahlil qiladi; ajratilgan muammoni hal etish usullari va vositalarini belgilaydi va asoslaydi;*
*5) taklif etiladigan qarorni amalga oshirish bo'yicha tadbirlarni ishlab chiqadi.*

Ikkinchi bosqich - keys bo'yicha jamoa bo'lib ishlash.

Tinglovchilar kichik guruhlarga bo'linib, birgalikda keys ustida ishlashadi:

*1)guruh a'zolarining vaziyati, asosiy muammolar va ularni hal etish yo'llari haqidagi turli tasavvurlarini muvofiqlashtirishadi;*
*2)yechimnmg taklif etilgan variantlarini muhokama qiladilar va baholaydilar, qo'yilgan muammo nuqtai nazaridan ushbu vaziyat uchun eng maqbul variantni tanlashadi;*
*3) muammoli vaziyat yechimiga olib keladigan tanlangan harakatlar yo'lini amalga oshirishning aniq qadamba-qadam dasturini batafsil ishlab chiqadilar;*
*4) taqdimotga tayyorlanadilar va namoyish etiladigan materiallar rasmiylashtirishadi.*

Keysni yechish natijalarini kichik guruhlar tomonidan taqdimotini otkazish:

*1) real vaziyat yechimiga doir o'z variantlarini taqdim etadilar;*
*2) tanlangan harakatlar yo'lini izohlaydilar va yechimning to'g'riligini asoslaydilar;*
*3) boshqa guruh a'zolarining savollariga javob beradilar va o'z takliflarini asoslaydilar.*

Jamoa bo'lib keys ustida ishlash:

*guruhlar taklif etgan yechimlar variantlarining muhokamasi;*
*taklif etgan yechimlarning o'zaro baholanishi;*
*taklif etilgan yechimlarning hayotiyligi va amalga oshirilishiga birgalikda (tinglovchilar va o'qituvchi) baho berilishi ham mumkin.*

## “Aqliy hujum” metodi asosida talabalarni faollashtirish

Talabalarni faollashtirish uchun savollar:

1.”Til-ma’naviyat  ko’zgusi” deganda nimani tushunasiz?
2.Dunyoda qancha  til bor?
3.Dunyoda nechta til oilalari bor?
4.”Davlat tili” deganda  nimani tushunasiz?
5.Til nima?
6.Nutq nima?

### Topshiriqlar

**1-topshiriq:** Berilgan matnni o‘zbek tiliga tarjima qiling va gaplarni o‘z o‘rniga qo‘ying.

Дружба

Где есть дружба там самое тяжелое становится легким. Прочность дружбы познается в беде. У каждого человека должен быть хотя бы один преданный друг.

Дружба часто проверяется временем и расстоянием. Мы часто заблуждаемся думая, что у нас много друзей. Настоящий друг может помочь не только делом, но и словом. Когда друзья вместе, любая работа им по плечу. Дружба - это самые светлые отношения между людьми. В дружбе проявляются такие качества человека, как преданность, честность, открытость и верность.

**2-topshiriq:** Matnni o‘qing va undan o‘zingizga tegishli xulosa chiqarib oling.

**Aflotunning o‘z shogirdi Arastuga qilgan nasihatlarj..**

Hamisha ilm payida bo‘lib, qalbing ham, ko‘zing ham doimo bedor bo‘lsin. Uyqu va oromni o‘ylab bugungi ishni ertaga qoldirma. Badbaxt shunday kishiki, ishining oqibatini o‘ylamaydi, gunoh ishlardan o‘zini tiymaydi. Barchani birdek sev, biror kishi baloga duchor bo‘lsa, unga ko‘mak qo‘lini cho‘z. Har kimning gapi to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligini bilmay turib, tekshirmay turib hukm chiqarma. Qaysi ishda bo‘lmasin, sustkashlik qilma. Yaxshilik qilishda chegara bor deb o‘ylama. Hakimlar hikmatini yod ol. Mol-dunyo hirsini ko‘nglingdan quv. Yoqimli odoblardan ko‘z yumma. Tuban ishlarga qo‘l urma. Kim bilan gaplashsang ham kamtarlikm qo‘ldan berma. Birovni xor sanama, hamisha adolatni o‘zingga shior qil!

**3-mavzu: Til - eng muhim aloqa vositasi.**
**O‘zbek adabiy tili va shevalari.**
**Reja:**

1.Umumxalq tili va milliy til.
2.Shevalar va ularning o‘ziga xos xususiyatlari.
3.O‘zbek adabiy tili

Mutafakkirimiz Alisher Navoiy o‘zbek tilining asoschisimi yoki o‘zbek adabiy tilining? Bu savolga javob topish uchun **umumxalq tili** va **adabiy til**ning farqini ajrata olish kerak.

Umumxalq tili ma’lum bir xalqning so‘zlashuv tilidir. Uni xalq sekinlik bilan yaratib, boyitib boradi. Adabiy til esa umumxalq tilining yozuvchilar, shoirlar, ziyolilar tomonidan qayta ishlangan, me’yorga solingan, hamma uchun umumiy bo‘lgan, umumxalq yoki umummillat tilining yuqori, sayqallashtirilgan shaklidir. Davlat muassasalarida, madaniyat sohalarida, matbuotda, dars o‘tishda adabiy tildan foydalaniladi.

Umumxalq tilini xalq yaratadi. Adabiy tilni ziyolilar yaratadi. Lekin adabiy til xalq tili tarkibida bo‘ladi.

Umumxalq tilining adabiy til shakliga ko‘tarilishi uchun quyidagi shartlar mavjud:

1. Adabiy til yozuv bilan ta’minlangan bo‘lishi kerak;
2. Mutaxassislar tomonidan qayta ishlangan bo‘lishi kerak;
3. Ma’lum qoida-qonunlarga bo‘ysunishi kerak.

Dunyodagi ko‘pgina tillarning hozir ham adabiy til shakli yo‘q.

Adabiy tilning **og‘zaki** va **yozma shakllari** mavjud. Og‘zaki shakl so‘z, tovush, gap, ohang, pauza (to‘xtam) bilan ish ko‘radi. Yozma shakli esa harf, yozuv, tinish belgilari bilan ish ko‘radi. Adabiy tilning og‘zaki va yozma shakllari o‘z me’yorlariga ega. Adabiy tilning og‘zaki shakli insonlar orasida bevosita, yozma adabiy til esa bilvosita aloqa vositasidir. Chunki yozuvda qog‘oz, ruchka, yorug‘lik bo‘lishi kerak. Og‘zaki gaplashishda hech narsa shart emas.

Adabiy til lahjalar, shevalar negizida umumlashtirish, qat'iy me’yorlarni ishlab chiqish yo‘li bilan hosil qilinadi va ulardan oziqlangan holda muttasil rivojlanib boradi. Shuning uchun adabiy til xalq shevalaridan uzilgan emas. Adabiy tilning shevalardan so‘zlar olib boyib borishi **ichki manba,** boshqa tillardan so‘z olib rivojlanishi **tashqi manba** hisoblanadi.

Faqat muayyan hududga xos ayrim belgilarini o‘zida namoyon qilgan til shakli **shevalar** hisoblanadi.

Bir-biriga yaqin bo‘lgan shevalar yig‘indisi esa **lahja** deb yuritiladi. **Dialekt** esa gohida sheva atamasi ma’nosida, gohida lahja atamasi ma’nosida keladi: *toshkent dialekti*(shevasi), *qipchoq dialekti* (lahjasi) kabi.

Adabiy til shevalardan fonetik, leksik va grammatik jihatdan ozmi ko‘pmi farq qiladi.

Fonetika deganda tovush tomonidan: *pabrika – fabrika, man – men, jila – yig‘la* kabi; leksik esa so‘z tomonidan: *kalapo‘sh – do‘ppi, go‘sala – buzoq* kabi; grammatik deganda so‘z shakli yoki qo‘shimchalardagi *borayapti – borvotti – borutdi* kabi farqlar tushunilishi kerak.

Shevalarning faqat og‘zaki shakli mavjud. Shevalarning o‘ziga xos xususiyatlari adabiy tilning ta’siri bilan asta-sekin yo‘qolib boradi.

O‘zbek tili tarkibida uchta lahja bor:

1.Qarluq lahjasi (janubiy-sharqiy guruh).

2.Qipchoq lahjasi (janubiy-g‘arbiy guruh).

3.O‘g‘iz lahjasi (shimoliy-g‘arbiy guruh).

Qarluq lahjasi asosan shahar shevalarini o‘z ichiga oladi (Toshkent, Andijon, Farg‘ona, Samarqand, Buxoro). Bu shevalarning muhim fonetik va grammatik belgilari quyidagilar:

1) so‘z oxiridagi **k** tovushi **y** tarzida aytiladi: *ela**k** – ela**y**, tera**k** – tera**y*** kabi;

2) **o** lashish yuz beradi: ***a**ka – **o**ka, Akr**a**m – Akr**o**m* kabi;

3) qaratqich va tushum kelishigi **-ni** tarzida: *ukam**ni** daftari* kabi.

Qipchoq lahjasi shevalari O‘zbekistonning hamma viloyatlarida mavjud, ular asosan qishloqlarda tarqalgan.belgilari quyidagilar:

1**. y** o‘rnida **j** ishlatiladi**:** *yo‘l – **j**o‘l, yo‘q – **j**o‘q* kabi;

**2.g‘** o‘rnida **v** ishlatiladi: *to**g‘** – to**v**, so**g‘** – so**v*** kabi;

**3.k, q** tushuriladi: *eshi(**k**), sari(**q**)* va boshqalar.

O‘g‘iz lahjasi janubiy Xorazmdagi bir qancha shevalarni o‘z ichiga oladi.

Belgilari: unlilar qisqa va cho‘ziq aytiladi: ***a**t (hayvon), **a:**t (ism)* kabi;

**t** tovushi **d, k** tovushi esa **g** tarzida aytiladi: ***t**og‘ – **d**og‘, **k**eldi – **g**aldi* kabi.

Hozirgi o‘zbek adabiy tili uchun qarluq lahjasiga kiradigan Farg‘ona-Toshkent shevalari, ya’ni Toshkent shevasi fonetik tomondan; Farg‘ona shevasi morfologik tomondan asos qilib olingan. Lekin bu qipchoq va o‘g‘uz lahjasi xususiyatlari adabiy tilda yo‘q degani emas.

**Tayanch so‘zlar:** adabiy til, xalq tili, sh`eva, qatlam, me`yor, lahja, dialekt, qarluq, qipchoq, og‘uz.

**Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1.”Til - eng muhim aloqa vositasi” - deganda nimani tushunasiz?

2.Milliy va adabiy til tushunchalarini izohlang.

3.Sheva, dialekt, lahja tushunchalari bir-biridan qanday farq qiladi?

4.O‘zbek tili tarkibida qanday lahjalar bor?

5.Hozirgi o‘zbek adabiy tilimizga tayanch sheva va lahjalar qaysilar?

**“Tushunchalar tahlili asosida matn tuzish”** - izlanish turidagi mustaqil ishlar sirasiga kirib bu ish turli mantiqiy amallarni talab etadi: tahlil qilish va umumlashtirish dalil va hodisalarni qiyoslash, ulardagi mushtaraklik va farqli tomonlarni aniqlash, asosiy va ikkinchi darajali belgilarni ajratish, sabab - oqibat aloqalarini ochib berish kabi.Talabalar yangi materiallarga ega bo‘ladilar noma’lum bilimlarni egallash va yuzaga kelgan o‘quv muammosini hal qilish yo‘llarini izlab topishni talab qiladigan vaziyat yuzaga keladi. Ushbu metod individual yoki kichik guruhlarda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Matn tuzish auditoriyada yoki uyda bajarish uchun qo‘llanilishi mumkin. Auditoriyada matn tuzish uchun guruh o‘zi tuzgan matnni o‘qib beradi.Tuzilgan matn yuzasidan savol-javoblar o‘tkaziladi. Tushunchalar tahlili asosida matn tuzish o‘zbek tili darslarining amaliy va seminar mashg‘ulotlarida yaxshi samara beradi. Masalan, bugungi mavzuning amaliy ahamiyatini tushuntirishda quyidagi tartibda qo‘llash mumkin:

Har bir qator talabalari alohida-alohida guruh hisoblanadi va shunday talab qo‘yiladi:

”O‘zbek adabiy tili” mavzusida matn tuzing.

Matnni oldin tuzib bo‘lgan guruh uni o‘qib beradi va matn asosida boshqa guruhlarga savol beradilar hamda ularning javoblarini tahlil qiladilar. Qolgan guruhlar tuzgan matnlar ham shu tartibda ish ko‘radilar.

Savol – javoblarda faol qatnashgan talabalar baholanadi.

## Topshiriqlar

**1-topshiriq:** She`rni ifodali o‘qing va sh`evaga oid so‘zlarni toping.

**Salomlashish odobi**

Salomlashish odobin,
Esingda tut har doim.
Ertalabki salomni,
Bajo qilgin muloyim.
Ertalabki salomdan,
Yangi kun boshlanajak.
Qabul qilgan kalomdan,
G‘uborlar tashlanajak.

**2-topshiriq**: Qarindosh-urug‘chilikka doir so‘zlar lug‘atini daftaringizga yozing va yod oling.

**3-topshiriq:** Gaplarni o‘qing. Ularda ilgari surilgan g‘oya haqida fikr yuriting. Matallarni belgilang.

Aql aqldan quvvat oladi. Ahmoqning aqli to‘pig‘ida. Davlat bitar, bilim tugamas. Go‘zallik ilmu ma’rifatda. Tirmashgan tog‘dan oshar. Yurti boyning o‘zi boy. Eldan ayrilguncha jondan ayril. Ari zahrini chekmagan bol qadrini bilmas. Daryo suvini bahor toshirar, odam qadrini mehnat oshirar. Yigit husni mehnatda. Kiyimning yangisi yaxshi, do‘stning eskisi. Dono bilan nodon bitta buloqdan suv ichmas. Teran daryo tinch oqar. Ilm – tubsiz quduq. Yolg‘onning umri qisqa. Do‘stlik – barcha boylikdan Afzal. Sabr tog‘ni yiqitar. Marddan ot qolur, nomarddan – dod. Hunar oshatar, mehnat yashnatar. Ko‘klam mehnat bilan ko‘rkam. Kumushdek ter to‘ksang, gavhardek dur olasan.

## 4-mavzu: Institutim bilan faxrlanaman

## Leksikologiya.

## So‘zlarning ma’nolari va ularning ifodalanishi

**Reja:**

1.Leksikologiyaning o‘rganish ob’yekti.
2.Lug‘aviy ma’no va grammatik ma’no.
3.Bir ma’noli va ko‘p ma’noli so‘zlar.
4.Ma’no ko‘chish usullari.

So‘z va uning lug‘aviy ma’nosi, tilning lug‘at tarkibini o‘rganuvchi bo‘limdir. Tilning lug‘at tarkibi deganda ma’lum tilga xos bolgan so‘zlar, iboralar va atamalar tushuniladi. So‘z borliqdagi narsa-buyumlarni, mavhum tushunchalarni, harakat-holatni,belgi-xususiyatlarni nomlovchi til birligidir. Masalan: *kitob* (predmet nomi) *vijdon (*mavhum tushuncha nomi), *go‘zal* (belgi nomi), *kelmoq* (harakat-holat nomi), *besh* (miqdor nomi) kabi. So‘z tilshunoslikning leksikologiya morfologiya bo‘limlarida o‘rganiladi.

So‘zlarda 2 xil ma’no boladi: lug‘aviy ma’no va grammatik ma’no. So‘z lug‘aviy ma’no anglatishiga ko‘ra leksikologiyada, grammatik ma’nosi esa morfologiyada o‘rganiladi.

Lug‘aviy ma’no- atash ma’nosi deb ham yuritiladi - faqat mustaqil so‘zlarga xos bo‘lib, o‘sha so‘z anglatgan tushuncha bilan bog‘liq bo‘ladi. So‘zlarning borliqdagi ma’lum narsa, belgi-xususiyat, harakat-holatlarni bildirishi ularning lug‘aviy (atash) ma’nolari deyiladi: *ko‘z* - ko‘rish a’zosi, *uxlamoq* - uyqu holati, *shirin* - yoqimli ta’m, maza.

Mustaqil so‘z turkumlaridan olmosh atash ma’nosiga ega emas. Olmoshlar fe’lda nboshqa mustaqil so‘zlar o‘rnida almashib qo‘llanadi, ularga ishora qiladi. Masalan: *Karim keldi. U (kim) kechgacha biznikida bo‘ldi. Bu (qaysi) masalaqiziq ekan.*

So‘zlarning lug‘aviy ma’nolari "O‘zbek tilining izohli lug‘ati"da beriladi.

Grammatik ma’no - bir turkumga mansub so‘zlar uchun umumiy ma’nodir: *kitob, gulxona, kishi* - predmet, ot so‘z turkumiga xos, birlikda, bosh kelishikda; *ammo, lekin, biroq*- bog‘lovchi. Tildagi barcha so‘zlar grammatik ma’no anglatuvchi, lekin lug‘aviy ma’no anglatavermaydi. Masalan, *va, ammo, faqat* kabi so‘zlar faqat grammatik ma’noga ega. Bir.xil grammatik ma’noli so‘zlar deganda bir turkumga kiruvchi so‘zlar tushuniladi: *men, sen* — olmosh; *stol, stul, oy* — ot; o‘*n, olti, besh* - son.

Mustaqil so‘zlar lug‘aviy ma’no anglatishiga ko‘ra **bir ma’noli** va **ko‘p ma’noli** bo‘ladi.

***Bir ma’noli so‘zlar-*** monosemantizmlar faqat bitta lug‘aviy ma’no anglatadi: *bug‘doy, bodring, tom chi, chumchuq, ravish, pushti. jigarrang, kelmoq.*

***Ko‘p ma’noli so‘zlar-*** polisemantizmlar bosh ma’no va ko‘chma ma’noga ega bo‘ladi. Bosh ma’no nutqdan tashqari, so‘zning yakka o‘zi anglatgan ma’nosidir*: kulgi*-kulmoq hodisasi, *sovuq* — havo darajasi, *ko‘z*-ko‘rish a’zosi. ko‘chma (yasama) ma’no esa so‘zning nutq tarkibida boshqa so‘zlar yordamida anglatadigan ma’nosidir: *uzukning ko‘zi, sovuq xabar, shirin gap, baxti kuldi.*

Ko‘chma ma’no 4 xil usul bilan hosil bo‘ladi: metafora, metonimiya, sinekdoxa,
vazifadoshlik.

1.***Metafora*** **-**usulida predmet. belgi, harakatlar o‘rtasidagi shakliy yoki nisbiy o‘xshashlik asosida nom ko‘chishi yuz beradi, ya’ni biror jihatdan o‘xshash predmet, hodisalarningnomi boshqasiga ko‘chadi. Masalan: *cho‘qqi*— bosh ma’nosi: tik narsalarning yuqori nuqtasi — *tog‘ cho‘qqisi;cho‘qqi* — ko‘chma ma’nosi: yuqori pog‘ona, daraja.

2. ***Metonimiya*** **–** narsa, belgi va harakatlar o‘rtasidagi aloqadorlik asosida ma’no ko‘chishidir. Masalan: ***Zal*** *oyoqqa turdi (odamlar). Fuzuliyni o‘qidim (asarini)*

3. ***Sinekdoxa*** – shaxs yoki predmetning qismini aytish bilan o‘zini tushunish yoki o‘zini aytish bilan qismini tushunish asosida ma’no ko‘chishidir: *Besh* ***qo‘l*** *(barmoq) barobar emas.* ***Tirnoq*** *(farzand)qa zor*.

**Tayanch so‘zlar:**ma’no ko‘chishi, metafora, metonimiya, sinekdoxa.

F S M U

**F-** Fikringizni bayon eting
**S-**Fikringiz bayoniga sabab ko‘rsating
**M-**Ko‘rsatilgan sababingizni isbotlab misol keltiring
**U-**Fikringizni uinumlashtiring

Uzluksiz ta’limda so‘z tarkibi bilan bogliq mavzulami o‘qitishda asosiy e’tibor so‘zni ma’noli qismlarga ajratish, qo‘shimchalarning vazifasi, tuzilishi, shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra turlari, o‘zakka qo‘shimcha qo‘shilishi natijasida yuz bergan turli tovush o‘zgarishlarini aniqlash yuzasidan beriladigan topshiriqlarni yechishga qaratiladi. Mavzuga doir muqobil mashqlar tizimini yaratishda ushbu jihatlar e’tiborga olindi. Ona tili darslarida so‘z tarkibi (morfemika) ga doir mavzularni o‘qitishda “0‘zbek tilining so‘z tarkibi o‘quv lug‘ati” dan mashg‘lotlarga doir mashq va topshiriqlar tizimini ishlab chiqishga harakat qilamiz.

**1-topshiriq:** O‘zbek xalq maqollarini ko‘chirib oling, o‘z ona tilingizdagi muqobilini toping.
Aqldan ortiq boylik yo‘q.
Aytilgan so‘z - otilgan o‘q.
Botirning mushti ham yarog‘.
Bilsang gapir, bilmasang eshit.
O‘z yurting - o‘lan to‘shaging.
Ona yurting omon bo‘lsa, rangi ro‘ying somon bo‘lmas.
Vatanni sevmoq iymondandir.
O‘zga yurtda shox bo‘lguncha, o‘z yurtingda gado bo‘l.

**2-topshiriq:**1. O‘qing. So‘z ma’nolariga va ma’no ko‘chishiga e`tabor bering.
Bog‘imiz bog‘day bo‘ldi
Tol ekdik, terak ekdik, Ko‘klam: ekmaslik yomon
Hammasi kerak ekdik. Shaftoli, shotut, jiyda
Olcha, gilos, olxo‘ri, O‘z joyin topdi juda.
Olmazor-bog‘ning to‘ri Bog‘imiz bog‘day bo‘ldi
Nok nashvati-bir tomon Ko‘nglimiz tog‘day bo‘ldi.

**3-topshiriq:**1 Xandalarni o‘qing. So‘z ma’nolarini tushintiring.
-O‘g‘lingiz yaxshi o‘qiydimi?-deb so‘radi bir ayol qo‘shnisidan.
-Ha,- javob berdi qo‘shnisi. - U hamma fanlarni yanada chuqur o‘rganish uchun bir sinfda 2 yildan o‘qityapti.
***
O‘qituvchi:- Erkin, o‘quvchilarning maktabda ko‘pincha aytadigan so‘zlari qaysi?
Erkin:- Men bilmayman.
O‘qituvchi:- Barakalla, juda to‘g‘ri topding.

**5-mavzu: O‘zbekiston me`morchiligi .**
**Tilning leksik qatlamlari.**

Reja:

1.Tarixiy me`morchilik an`analari.
2.Umumturkiy so‘zlarning o‘ziga xos xususiyatlari.
3.O‘z qatlam so‘zlar.
4.O‘zlashgan qatlam.

Dunyodagi rivojlangan tillarning hech birida soflik xususiyati yo‘q.

O‘zbek tili leksikasi tarkibida umumturkiy so‘zlar bilan bir qatorda fors-tojik tilidan, arab tilidan, rus tilidan va boshqa tillardan o‘zlashgan so‘zlar mavjud. Bu esa xalqning tarixi bilan bog‘liq bo‘lib, turli istilolar, urushlar natijasida, qo‘shni xalqlar bilan iqtisodiy-ijtimoiy aloqalar natijasida, fan-tehnika yutuqlari natijasida tilda o‘zlashma so‘zlar paydo bo‘ladi.

**Umumturkiy so‘zlar** turkiy xalqlar uchun umumiy bo‘lgan so‘zlardir. Bunday so‘zlar turkiy xalqlarning xarakteriga mos holda bir bog‘inli va ochiq bo‘g‘indan iborat bo‘lgan ko‘p bo‘g‘inli so‘zlarni o‘z ichiga oladi. Olmoshlar *men, sen, u, barcha, siz kabi; sonlar: bir, ikki, uch, besh, o‘n, yuz kabi sifatlar: yaxshi yomon, oq, qora, qizil, sariq, ko‘k* kabi: *bir va ikki* bo‘g‘inli fe’llar: *kul, kel, bor, uxla, yot, tur* kabi: turli tushunchalarni bildiruvchi otlar: *tog‘, tosh, bola, ish, kishi, ko‘klam, kun* kabi: inson a’zolari nomlari: *bosh, ko‘z, bel,* til kabilar umumturkiy so‘zlar hisoblanadi. *Tush, ish, bor, kel, uch qush, bugun, bog‘ich, qalin, burun, ochko‘z, bo‘yinbog‘, bog‘lash, iturug‘, ayg‘oqchi bola, dala, ertaga, to‘ng‘ich, kunbotar, miskar, tuz, baldoq, olto‘v, tong‘iz* so‘zlari ham umumturkiy so‘zlardir.

**Fors-tojik tilidan o‘zlashgan so‘zlar.** Asosan, kasb-hunarga doir so‘zlardir. Shuningdek, so‘z ohirida qator undoshli so‘zlarning mavjudligi ham so‘zning fors-tojik tilidan o‘zlashganligini bildiradi. Masalan, *anhor, barg, bog‘, poytaxt, korxona, qog‘oz, baxt, xo‘roz, farzand, ro‘mol, bahor, dehqon, parda, chiroq, zinapoya, ro‘za,*
, din*dazmol, ruxsat, donishmand, dono, kamtar, navro‘z, dushanba, yakshanba* kabi.

O‘zbek tilida Tojik tilida
*so‘ri - chorpoya*
*o‘t - olov*
*to‘n - cho‘pon*
*cho‘ntak - kissa*
*sop - dasta*
*novvos - buqa*
*muqova - jilt*
*quyosh - oftob*
*ko‘k - osmon*

Tojik tilidan so‘z o‘tishi natijasida qo‘shma va juft so‘zlar ham paydo bo‘lgan: *bosh(pana), qon(xo‘r), qo‘sh(nay), shirin(so‘z), yalang(bosh), qahir-g‘azab, to‘y-tomosha, sog‘-salomat, achchiq-chuchuk.*

**Arab tilidan o‘zlashgan so‘zlar,** asosan, fan, maorif, davlatchilik, huquq, adabiyotshunoslikka doir. Shuningdek, so‘z tarkibida unlilarning qo‘shaloq va qator kelishi, tutuq belgisi mavjud so‘zlar arab tilidan o‘zlashgan. Masalan, *kitob, maktab, ma’no, asbob, davlat, majlis, harakat, lug‘at, hikmat, dars, mashg‘ulot, tanaffus, sinf, ilm, fan, muallim, mudarris, madrasa huquq, ayol, rais, she’r, shuur, shoir, adabiyot, adob, muomala, qoida, rioya, mutoala, mudofaa, matbaa, saodat, shior, munajjim, vatan, odam, inson, mehnat* kabi.

**Rus tili va rus tili orqali boshqa tillardan o‘zlashgan so‘zlar.** Asosan, tilimizda XIX asrdan Chor Rossiyasi istilosidan keyin paydo bo‘ldi. *Stol, stul, ruchka, pero, pechka, parta,* asli ruscha so‘zlardir. Rus tilidan olingan so‘zlar orasida kelib chiqishi boshqa tillarga xos so‘zlar ham bor: *buxgalter, soldat, ofitser (nemischa), vergul, palto, triko (fransuscha), klub, tramvay, futbol, boks (ingilizcha), tomat, silos, limon, marmelad (ispancha)* va boshqalar. Hozirgi o‘zbek tilida ishlatilayotgan *manti, lag‘mon, shiypon* so‘zlari xitoycha so‘zlar hisoblanadi. O‘zbek tilidan ham boshqa xalqlarning tillariga so‘zlar o‘tib ularning lug‘atini boyitgan: *kishmish, o‘rik, anjir, sandiq, uzum, xirmon, ketmon, g‘ozapoya* kabi so‘zlar rus tilida ham ishlatiladi.

*Qoratosh* so‘z birikmasidan ruscha *karandash* so‘zi hosil bo‘lgan: tovushiga **q** tovushi **k** ga, **t** esa **d** tovushiga almashgan; *kara* va *dash* bog‘unlari orasida **n** tovushi ortirilib karandash so‘zi kelib chiqqan. Demak, tillarning lug‘ati so‘zlarning bir tildan ikkinchi tilga o‘tishi hisobiga ham boyib boradi.

**Vatan** 1. Kishi tug‘ilib o‘sgan va uning grajdani hisoblangan mamlakat, ona yurt: ona-Vatan, ulug‘ Vatan.

2. Kishining tug‘ilib o‘sgan o‘lkasi, shahri yoki qishlog‘I yurt, diyor: bulbul, chamanni sevar odam Vatanni.

3. Turar joy boshpana maskan uy: o‘ziga vatan qurmoq <<Mustaqillik izohli ilmiy-ommabop lug‘ati>> dan olingan parcha davlat tuzilishi va uning shakllari. Davlat o‘z tuzilishi jihatidan uch turga: federative, konfederativ va unitar tarzda bo‘lishi mumkin. Bunday holat davlatning tarkibiy qismlari o‘rtasidagi markaziy hokimiyat bilan o‘zaro munosabatlari, shuningdek har bir hududiy qismning huquqiy mavqeyi turlicha mohiyat kasb etishidan kelib chiqadi.

Unitar (yaxlit) davlatlar federatsiyadan farqli o‘laroq viloyat, o‘lka, tuman, guberna, grafliklar singari ma’muriy-hududiy qismlardan tashkil topgan tuzumdir.

Federativ (murakkab) davlatlar esa davlatchilikning avtonom (muxtor) shtatlar, hududiy yer birliklari kabi qismlardan tuzilgan bo‘ladi. (Masalan AQSH da shtatlar GFR da hududiy yer birliklari federatsiyaning tarkibiy qismlaridir).

Konfederatsiya davlat tuzilishining shunday bir shakliki, unga ko‘ra konfederatsiyani tashkil etuvchi davlatlar o‘z mustaqilligini to‘la saqlab qolgan holda muayyan bir maqsad (harbiy xo‘jalik muhim ichki va tashqi siyosat masalalarida) o‘z kuchlarini uyg‘unlashtirib ish ko‘radilar.

**Tayanch so‘zlar:** me’morchilik, ganch, naqsh, o‘ymakorlik, loyiha, leksika, qatlam, o‘z qatlam, o‘zlashgan qatlam, lug‘at boyligi.

**Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1.Me`morchilik deganda nimani tushunasiz?
2.Mashhur o‘zbek me`morlaridan kimlarni bilasiz?
3.Umumturkiy so‘zlar qanday o‘ziga xos xususiyatlarga ega?
3.O‘z qatlam so‘zlar deganda nimani tushunasiz?
4.O‘zbek tilimizda o‘zlashgan qatlamga xos qanday qaysi tillarga xos so‘zlar mavjud?

## Topshiriqlar

**1-topshiriq:** Matnni o‘qing, o‘z va o‘zlashgan qatlamga xos so‘zlarni aniqlashga harakat qiling.

AVVAL O‘YLA, KEYIN SO‘YLA

Jamiyat a’zolari o‘zaro munosabatlarda so‘zlashish odobiga qat’iy rioya qilishlari zarurligi ta’kidlanadi. Kishi aytadigan har bir so‘zi (gapi)ni avval o‘ylab olishi, so‘gra so‘zlashi lozim. O‘ylamay aytilgan so‘z kishining ko‘pchilik oldida uyalib qolishiga, hatto fojeiy ahvolga tushishiga sabab bo‘lishi mumkin. “So‘zni ko‘ngilda pishqarmaguncha tilga kelturma va har nekim ko‘ngilda bor tilga so‘rma” (Navoiy).

Variantlar: “O‘ylamaguncha so‘ylama”, “Ko‘p o‘yla, oz so‘yla”, “O‘n qatim o‘yla, birv qatim so‘yla”, “Dilda pishir, tilde gapir”, “O‘ynab gapirsang ham o‘ylab gapir”, “Tez so‘zlagan tez pushaymon bo‘lar” va hokazo.

**2-topshiriq:** Amir Temur tomonidan aytilgan o‘gitlarni daftaringizga yozib oling va ular haqida bahs tashkil qiling.

Ulamolar suhbatida bo‘l, pok, sof niyatli kishilarga talpin. Kechira olishlik - mardlik, kechira bilmaslik - nomardlik. Ahli ehson bilan jahon gulshani obod bo‘lar. Bir kalima shirin so‘z qilichni qinga kiritadi. Kitob barcha bunyodkorlik, yaratuvchilik va aql-idrokning, ilmu donishning asosidir, hayotni o‘rgatuvchi murabbiydir. Ilm va dinning mashhur kishilari o‘z maslahatlari bilan podshohlarga yordam berib kelganlar. Dushmanning kulgani - siringni bilgani. Bir kunlik adolat yuz kunlik toat-ibodatdan afzal. Kuch - adolatdadir.

**3-topshiriq:** Hadislarni o‘qing. Ularning hayotimizga naqadar to‘g‘ri keli- shi haqida fikr yuriting. 0‘zingiz ham hadislarga namunalar ayting va daftaringizga yozing.

Kasbning eng yaxshisi - kishining o‘z qo‘li bilan bajarilgan ishi va halol savodi. Sadaqaning afzali - musulmon kishining ilm o‘rganib, so‘ng boshqa musulmon birodarlariga ham o‘rgatishi. Halol kasbdan charchab uxlagan odam gunohlari kechirilgan holda tunaydi. Ilmni yozib qo‘yish bilan bog‘lab olinglar. Ilm ibodatdan afzal. Jannat onalar oyog‘i ostidadir. Kimki shoshmay, sabr-qanoat bilan ish qilsa, qilgan ishi to‘g‘ri chiqadi. Saxiy kishining taomi shifodir. Odamlar bilan murosa-yu madoraga kirishish ham sadaqa hisoblanadi.

## 6- Mavzu: Inson va uning jamiyat hayotida tutgan o‘rni. So‘zlarning shakl va ma’no mazmuniga ko‘ra turlari.

Reja:

1.Inson ya tabiat mushtarakligi.
2.Omonim (shakldosh) so‘zlar.
3.Sinonim (ma’nodosh) so‘zlar.
4.Antonim (zid ma’noli) so‘zlar.
5.Paronim so‘zlar.




Tabiat - bizni o‘rab turgan butun borliq (olam), kishilarning moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini qondirish manbaidir. Inson - murakkab ijtimoiy va mehnat faoliyatini yurgazuvchi tirik organizm - individdir. U jamiyatning moddiy va ma’naviy-madaniy rivojlanishining asosi hisoblanadi.






Tildagi ayrim so‘zlar shakliy jihatdan, ayrimlari ma’no jihatidan,bir xillari esa talaffuzi jihatidan o‘xshash bo‘ladi. Ayrim so‘zlarningma’nolari esa bir-biriga qarama-qarshi bo‘ladi. Ana shu xususiyatlargako‘ra so‘zlar quyidagi guruhlarga bo‘linadi:

**1. Omonimlar** - talaffuzi va yozilishi bir xil, ammo ma’nosi har xil bo‘lgan so‘zlardir: *yuz* (ot) - *yuz* (son), *tut* (daraxt) - *tut* (harakat).

Omonimlar bir xil so‘z turkumiga ham, har xil so‘z turkumlariga ham oid bo‘lishi mumkin: *ot* - ism, (ot turkumi) - *ot* (harakat) fe’l so‘z turkumiga oid. Bu yerda ular har xil so‘z turkumlariga oiddir: *ot* - ism, *ot* – hayvon. Bunda ikkalasi ham bir so‘z turkumiga oiddir. Bir turkum doirasidagi omonimlar qo‘shimchalar qabul qilganda ham omonimligini saqlab qolaveradi.

Ko‘p ma’noli so‘z ma’nolari o‘rtasidagi bog‘lanish yo‘qolishi natijasida omonimlar paydo bo‘lishi mumkin: *dam* - nafas (o‘z ma.), *dam* - bosqon (ko‘chma ma’.), *dam* - hordiq (ko‘ch ma’.);*ko‘k*– rang (o‘z ma’.) *ko‘k*- osmon (ko‘ch. ma’.)




**2. Sinonimlar** - shakli har xil bo‘lsa ham, ma’nolari bir-biriga yaqin bo‘lgan so‘zlardir. Sinonim so‘zlar bir xil predmetlarni (ovqat, osh, taom), predmetning bir xil belgisini (*ishchan*, *harakatchan*, *tirishqoq*), bir xildagi harakatni (*asramoq*, *saqlamoq*) bildiradi.




Bunday so‘zlar ikki yoki undan ortiq so‘zdan iborat bo‘lgan sinonimik qatorni tashkil etadi. Bu qatordagi ma’nosi betaraf bo‘lgan, ko‘p qo‘llanadigan so‘z asosiy so‘z ***dominant,*** ya’ni ***bosh so‘z*** deb ataladi: *chiroyli, go‘zal, ko‘hlik.*




Ko‘p ma’noli so‘zlar ko‘chma ma’nosida boshqa so‘zlar bilan sinonim bo‘lishi mumkin*: o‘qishni bitirmoq - o‘qishni tugatmoq; ishnibitirmoq - ishni bajarmoq; sotib bitirmoq - sotib yo‘qotmoq.*

***Sinonim*** so‘zi grekcha ***sinonimos -bir nomli*** so‘zidan olingan. Sinonim so‘zlar nutqning ta’sirli bo‘lishiga yordam beradi. Sinonim so‘zlar bir xil so‘z turkumiga oid bo‘ladi; *hayoli, andishali, iboli,* (sifat); *yuz, bet, aft, bashara, turq, chehra, oraz, jamol* (ot*); gapirdi, so‘zladi* (fe’l).

**3. Antonimlar** - qarama - qarshi ma’noli so‘zlardir. ***Antonim*** so‘zi grekcha ***anti (zid, qarama - qarshi)*** va ***onuma (nom)*** so‘zlaridan tuzilgan.




Antonimik juftlikdagi so‘zlar faqat bir xil so‘z turkumlariga oid bo‘ladi: *yaxshilik -yomonlik* (ot), *uzun - qisqa* (sifat), *ko‘p- oz* (ravish), *keldi -ketdi* (fe’l).

Antonimik juft hosil bo‘lishi uchun ikkita mustaqil tushuncha ma’no jihatdan o‘zaro qarama-qarshi bo‘lishi kerak. Fe’llardagi bo‘Iishli-bo‘lishsizlik xususiyati antonimlikni vujudga keltirmaydi.

Ko‘p ma’noli so‘zlar har bir ma’nosi bilan ayrim-ayrim so‘zlarga antonim bo‘lishi mumkin: *qattiq yer - yumshoq yer; qattiq (xasis) odam - saxiy odam.* Antonimik juftlar ko‘chma ma’no ifodalashi mumkin: *tunu kun* (ravishga ko‘chgan), *achchiq-chuckuk* (otga ko'chgan).

Bir sinonimik qatordagi antonim so‘z sinonimik qatordagi barcha so‘zlarga antonim bo‘ladi: *chiroyli - go‘zal - xushro‘y - ко’hlik = xunuk - badbashara - badburush - ta’viya.*

Antonimlikda uchta belgi bor: 1) shakliy jihatdan har xillik; 2) ma’no jihatdan har xillik; 3) ma’nodagi o‘zaro zidlik.

Qo‘shimchalar ham o‘zaro omonim, sinonim va antonim holatda bo‘lishi mumkin. Omonim qo‘shimchalar: *tepki* (ot) - *kechki* (sifat). Sinonim qo‘shimchalar: *g‘ayratli - sergayrat*. Antonim qo‘shimchalar: *aqlli – aqlsiz, bemani - bama’ni*. Antonimlar badiiy adabiyotda tazod (badiiy san’at usuli) yaratish uchun xizmat qiladi.

**4. Paronimlar** - aytilishi bir-biriga yaqin, ammo yozilishi har xil so‘zlardir. Paronimlar ko‘pincha bir tovush bilan bir-biridan farq qiladi*: asr - asir, shox - shoh, amr - amir.*

Paronim so‘zi para (juft) va onuma (nom) so‘zlaridan tuzilgan.

Paronimlar ba’zan og‘zaki nutqda, badiiy asarlarda uchraydi. Ular bir so‘z turkumiga ham, turli so‘z turkumlariga ham oid bo‘lishi mumkin: *zirak* (ot) *ziyrak* (sifat); *asr* (ot) - *asir* (ot).

Paronimiya adabiy me’yor bo‘yicha talaffuz etmaslikdan yuzaga keladi.




**Tayanch so‘zlar:** inson, jamiyat, mushtarak, hayot, so‘z, shakl, ma’no, antonim, sinonim, omonim, paronim, zid, ma’nodosh, shakldosh.

**Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1.Inson kim?

2.”Jamiyat” tushunchasini qanday izohlaysiz?

3.So‘zlar shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra qanday turlarga bo‘linadi?

4.Omonim so‘zlar deb nimaga aytiladi?

5.Sinonim so‘zlar deb nimaga aytiladi?

6.Antonim so‘zlar deb nimaga aytiladi?

7.Paronim so‘zlar deb nimaga aytiladi?

## Topshiriqlar

**1** – **topshiriq:** Quyidagi so‘zlarning omonimlarini keltiring:

Uch, tut, olma, dam, ot, til, tul, qo‘y, boy, mol, yer, qir, un, es, to‘y, o‘t, yon.

**2** – **topshiriq:** Quyidagi so‘zlarning sinonimlarini keltiring va dominantani aniqlang:

Ulkam, tor, yaxshi, mazali, hayoli, aft, urf, fa’zo, tirishqoq, ovqat.

**3** – **topshiriq:** Quyidagi so‘zlarning antonimlarini keltiring , leksik va affiksal turlarini ajrating:

Qisqa, keldi, yumshoq, xunuk, achchiq, past, aqlli, serg‘ayrat, kech, yosh, semiz, badavlat, sabrli, och.

**4** – **topshiriq:** Quyidagi so‘zlarning paronimlarini toping:

Zirak, tilak, asr, shox, loy, baxt, tez, so‘z, adabiy, to‘ng‘iz, och.

## 7-mavzu: Oila-jamiyat tayanchi.

## So‘z va uning qo‘llanilishi

REJA:

1.Oila va jamiyat tushunchalari
2. So‘zlarning tuzilish jihatdan turlari.
3.Umumxalq ishlatiladigan so‘zlar.
4.So‘z tarkibi.

**Oila** deb qon-qarindoshlik, qarindoshchilik (nikoh orqali) yoki birga istiqomat qilish orqali bog‘langan odamlardan iborat ijtimoiy guruhdir. Ko‘p jamiyatlarda oila bolalar sotsializatsiyasi uchun asosiy institut vazifasini o‘taydi. Antropologlar oilalarni matrilokal (ona va uning bolalari), er-xotin (bolalari bo‘lsa, nuklear oila deyiladi) va qon-qarindosh (nuklear oila va qaynata-qaynana birga yashovchi) tiplarga ajratishadi.

**Oila** — nikoh yoki tug‘ishganlikka asoslangan kichik guruh. Uning a’zolari ro‘zg‘orining birligi, o‘zaro yordami va ma’naviy mas’uliyati bilan bir-biriga bog`langan. Uning eng muhim ijtimoiy vazifalari — inson zotini davom ettirishdan, bolalarni tarbiyalashdan, Oila a’zolarining turmush sharoitini va bo‘sh vaqtini samarali uyushtirishdan iboratdir. Oilaviy munosabatlar nisbatan mustaqil hodisa sanalsada, jamiyatdagi mavjud ijtimoiy, iqtisodiy, mafkuraviy munosabatlar bilan belgilanadi va ular ta’sirida o‘zgarib boradi. Shunga muvofiq, har bir jamiyat o‘zgarib mosoilatipini, oilaviy munosabatlarni o‘rnatadi.

Oila xalqning, jamiyatning hayoti, turmushiga oid urf-odatlarni o‘zida sinovdan o‘tkazadi.

O‘zbekiston hukumati oila masalalariga davlat siyosati darajasida bajarilishi lozim bo‘lgan ustuvor vazifa sifatida qaraydi. O‘zR Konstitutsiyasining 63-moddasiga ko‘ra, oila jamiyatning asosiy bo‘g‘ini hisoblanadi, u jamiyat hamda davlat tomonidan muhofazada bo‘lish huquqiga ega.

O‘zbek tili so‘z boyligi hayot, fan, texnika, san’atinig taraqqiyoti bilan bog‘liq holda yildan-yilga boyib bormoqda. Boyish, asosan, ikki manbaga asoslanadi:
**1.O‘zbek tilining ichki imkoniyatlari (ichki manba)-** bunda ko‘pincha so‘z yasash orqali yangi so‘zlar hosil qilinadi: *sinfdosh, limonzor, namunali, ijarachi, vazirlik, tinchliksevar, guldasta, MDX, O‘zMU* kabi. Shevalardan so‘z olish ham ichki manba hisoblanadi: *aya, bolish, hamsoya*.
**2. Boshqa tillardan so‘z olish (tashqi manba)-** O‘zbek xalqi qadim zamonlardan buyon boshqa xalqlar bilan aloqada bo‘lib kelgan. Bu tilimizda aks etgan. Hozir o‘zbek tilida *manti, lag‘mon, shiypon kabi uyg‘urcha, kitob, maktab, ma’no, harakat* kabi arabcha, *barg,anor, korxona* kabi fors – tojikcha so‘zlarni ishlatamiz.

O‘zbek tili lug‘ati rus tili va u orqali boshqa tillardan o‘tgan so‘zlar hisobiga ham boyimoqda: *stol, stul, ruchka, pero*.

Rus tilidan olingan so‘zlar orasida asli kelib chiqishi boshqa tillarga xos so‘zlar ham bor: *buxgalter, soldat* (nemischa), *palto, triko* (fransuzcha), *klub, futbol* (inglizcha), *tomat, limon* (ispancha).

Boshqa tillardan o‘tgan so‘zlar **olinma so‘zlar** deyiladi. O‘zbek tilidan ham boshqa tillarga so‘zlar o‘tgan: *o‘rik, anjir, somsa, o‘tliq* ( ruscha: *урюк, инжир, сомса, utyug*).

So‘zlarning qanday qilib chiqqanligiga bag‘ishlangan lug‘atlar **etimologik lug‘atlar** deb ataladi: *karandash – qora tosh* kabi

Tillimizdagi ko‘p so‘zlar hammamiz uchun tushunarli bo‘lib, biz ularni nutqimizda tez – tez ishlatib turamiz : *ko‘z, qo‘l, yaxshi, men, bir, va, lekin.*

Hammaning nutqida tez – tez qo‘llanadigan so‘zlar **umumxalq ishlatadigan so‘zlar** hisoblanadi. Ularni yana **faol so‘zlar** deyishadi. Bular tilning asosiy so‘z boyligidir.

So‘zlar ishlatilish doirasiga ko‘ra so‘zlashuv uslubiga xos so‘zlar, kitobiy so‘zlar, uslubiy betaraf so‘zlar kabi turlarga bo‘linadi: *metro, ko‘k, tuzuk* (so‘zlashuv uslubi), *metropoliten, moviy, durust (kitobiy).*

So‘zlashuv usulubida ham, kitobiy uslubda ham ishlatiladigan so‘zlar uslubiy betaraf so‘zlar hisoblanadi: *suv, bola, tog‘, xat.*

Tilimizdagi ayrim so‘zlar barcha insonlar tomonidan kundalik turmushda ishlatilmasligi mumkin. Hammaning nutqida tez–tez qo‘llanavermaydigan so‘zlar **umumxalq ishlatmaydigan so‘zlar** hisoblanadi. Bularni yana **nofaol so‘zlar** ham deyishadi.

Bu so‘zlarni quyidagi guruhlarga bo‘lish mumkin:

**1.Atamalar –** ilm – fan, texnika, san’atga xos so‘zlardir. Bular odatda bir ma’noni bildiradi: *urg‘u, kesim, undalma* kabi. Atamalar ilmiy nutqda qo‘llanadi.

**2.Shevaga xos so‘zlar –** ma’lum hududdagina ishlatilib, faqat shu yerda yashovchi kishilarga tushunarli bo‘lgan so‘zlardir: *buvi* (adabiycha) – *momo* (xorazmcha), *shu yerda* (adabiy) – *shatta* (farg‘onacha).

Yozuvchilar badiiy asarlarida qahramonlarning qayerlik ekanini, tildagi xususiyatlarni ko‘rsatish uchun ularning nutqida ba’zan shevaga xos so‘z va qo‘shimchalarni ham ishlatadilar.

**3.Kasb-hunarga oid so‘zlar** – ma’lum kasb-hunar egalari ishlatadigan so‘zlardir. Tikuvchilik: *andoza, angishvona, qatim* va b. Yozuvchilar badiiy asarlarida qahramonlarning mehnat faoliyatini ko‘rsatish uchun ularning kasb-hunarlariga oid so‘zlardan ham foydalanadilar.

**4.Eskirib qolgan so‘zlar** – kundalik hayotda ishlatilmaydigan bo‘lib qolgan so‘zlardir. Jamiyat to‘xtovsiz rivojlanib boradi. Yillar o‘tishi bilan mehnat qurollari,

kiyim – kechak, uy jihozlarining yangi nusxalari paydo bo‘ladi, eskilarining ba’zilari ishlatilmaydigan bo‘lib qoladi, natijada ularni ifodalovchi so‘zlar ham bora-bora juda kam qo‘llaniladi. Eskirgan so‘zlar ikkita guruhga ajratiladi:

**1) Tarixiy so‘zlar** – iste’moldan butunlay chiqib ketgan so‘zlardir: *mingboshi, xalfa, mo‘ndi,..*

**2) Arxaik so‘zlar** hozirda mavjud bo‘lgan narsa-hodisalarning eskirib qolgan atamalaridir.Bunday so‘zlar iste’molan chiqish arafasida turgan, hozirgi tildasinonimi bo‘lganso‘zlardir:*rayon*(tuman), *ekspress*(tezyurar),*oblast* (viloyat)…

**3) Yangi paydo bo‘lgan so‘zlar** – tilda hayot, fan, texnika, san’atning rivojlanishi bilan yangi paydo bo‘lgan tushunchalarning nomlarini ifodalovchi so‘zlardir*: xokkeychi, limonzor, fermer, teleminora…*

**4) Jargon so‘zlar** – qiziqishlari, mashg‘ulotlari umumiy bo‘lgan odamlar tomonidan ishlatiladigan so‘zlardir: *soqqa, loy, mullajiring* (pul), *bedana (*to‘pponcha) kabi.

**Tayanch so‘zlar:** oila, jamiyat, nikoh, burch, vazifa, turmush, qon-qarindosh, manba, ichki, tashqi, faol, nofaol, atama, sheva, tarixiy, arxaik, jargon.

**Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1.Oila nima?

2.Jamiyat nima?

3.Til qanday manbalar asosida boyiydi (rivojlanadi)?

4.So‘zlarni mazmuniga ko‘ra qanday guruhlarga ajratish mumkin?

5. O‘qish faoliyatingizda ishlatadigan so‘zlar qanday guruhga kiradi?

## Topshiriqlar

**1-topshiriq:** Matnni o‘qing. Qo‘llangan nofaol so‘zlarni aniqlang va guruhlarga ajrating.

1.Ilmsiz inson - mevasiz daraxt. 2. Nodonga ilm o‘rgatmoq umrni zoye o‘tkazmoqdir. 3. Ilm bir xazina bo‘lsa, bu xazinaning kaliti savoddir. 4. Ilm kelinchakka o‘xshaydi, u hikmat va pinhonlikni yoqtiradi. 5. Ilm - inson ziynati. 6. Qog‘ozga tushirilmagan ilm unutilib ketadi. 7. Kimki ilm bilan aqlini oshirishga urinsa, molu davlat o‘zi kelaveradi. 8. Ilm bo‘lmasa, odamning hayvondan farqi bo‘lmas edi. 9. Molni ishlatganing sari ozayadi, ilm esa ko‘payadi. 10. Har kimki erur ulamo mohir, Bo‘lg‘ay anga so‘zning husni zohir (Shavqiy Kattaqo‘rg‘oniy).

**2-topshiriq:** Quyidagi hikmatlarni o‘qing va ularga izoh bering. Qo‘llangan so‘zlarni faol va nofaol ekanligini aniqlang.

Tilimizning tovlanib turishlda shoir uchun ne-ne bitmas-tuganmas xazinalar bor (M.Shayxzoda).Til uslub uchun shaxmat taxtasidagi shohdir (K.Fedin).Kitobxonga bir fikrni anglatish uchun yoki bir narsani tasavvur qildirish

uchun kishining boshini qotirmaydigan ochiq, ravon va sodda til kerak (A.Qahhor). 0‘zbek tili xazinasidagi so‘zlar shu qadar ko‘p va jilokorki, bu tilda hech qiynalmasdan go‘zal asarlar: she’rlar, qissa va hikoyalar bitish mumkin (N.Tixonov).

**3-topshiriq:** Amir Temur tomonidan aytilgan o‘gitlarni o‘qing va undagi eskirib qolgan so‘zlarni aniqlang.

Ulamolar suhbatida bo‘l, pok, sof niyatli kishilarga talpin. Kechira olishlik - mardlik, kechira bilmaslik - nomardlik. Ahli ehson bilan jahon gulshani obod bo‘lar. Bir kalima shirin so‘z qilichni qinga kiritadi. Kitob barcha bunyodkorlik, yaratuvchilik va aql-idrokning, ilmu donishning asosidir, hayotni o‘rgatuvchi murabbiydir. Ilm va dinning mashhur kishilari o‘z masla- hatlari bilan podshohlarga yordam berib kelganlar. Dushmanning kulgani - siringni bilgani. Bir kunlik adolat yuz kunlik toat-ibodatdan afzal. Kuch - adolatdadir.

## 8-mavzu: Oilam va men.

## Leksikografiya. Lug‘at va uning turlari

REJA:

1.Oila tushunchasi va uning jamiyatdagi o‘rni, vazifasi.
2.Leksikografiyaning o‘rganish ob’yekti.
3.Lug‘atlar va ularning turlari.

**Oila** — mo‘jazgina bir jamiyat, deydi dono xalqimiz, butun insoniyat jamiyatining daxlsizligi ham uning jipsligiga bog‘liq. Oilaning insoniyat jamiyati bilan uzviy bog‘liqligi uning o‘rtasidagi eng qutlug‘ vazifa — hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini ta’minlashida yaqqol ko‘rinadi. Oila xalqning, jamiyatning hayoti, turmushiga oid urf-odatlarni o‘zida sinovdan o‘tkazadi. Yaxshilarini o‘z bag‘rida asrab - avaylab kelajak avlodlarga yetkazadi.

Islom manbalarida bola dunyoga kelmay turiboq uning kelajagi to‘g‘risida qayg‘urish kerakligi haqida ko‘rsatmalar bor. Oilaning zimmasidagi muqaddas burchlarning biri — ulkan tarbiya o‘chog‘i ekani shunda namoyon bo‘ladi. Oila o‘z farzandlarini tarbiyalab, ularga umuminsoniy qadriyatlarni singdirish bilan ularga boshlang‘ich ijtimoiy yo‘nalish beradi.

O‘z farzandlarini katta oqimga — jamiyatga qo‘shish bilan esa oila jamiyat yo‘nalishi, iqtisodiyoti, madaniyati va ma’rifatini ham belgilashga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. «Millatlar sharafini yuqori martabaga ko‘taradigan narsa, — deb ta’kidlaydi sharq donishmandlaridan biri, — millionlar ila sanaladigan askarlaru, dunyoda eng buyuk va zo‘r bo‘lgan kemalar emas, balki eng oz e’tibor beradiganimiz yoki bo‘lmasa hech bir zamon e’tibor bermasdan keladiganimiz oiladir. Oila intizomsiz bo‘lsa, uning yomon oqibati butun millatga ta’sir etadi va

shu sababdan fazilat yeriga razolat, taraqqiyot oʻrniga tubanlik negiz quradi...» Shuning uchun ham Sharqda oila qadim-qadimdan muqaddas qoʻrgʻon hisoblanib kelingan.

Xususan, oʻzbek oilalarining ser ildizlik, serbutoqlik xususiyatlari avval qanday boʻlsa, hozir ham boshqa millat kishilarida xuddi shunday ham hayrat, ham hurmat uygʻotgan xususiyatlardir. Oʻzbek oilalarining tuzilishiga nazar solsak, uning katta Vatan ichidagi moʻjaz Vatan ekanligiga ishonch hosil qilamiz.

**“Oila” kalit soʻziga tuzilgan klaster** (*taxminiy variant)*




**Leksika** soʻzi yunoncha “**leksis”** soʻzidan olingan boʻlib “**soʻz**“ degan ma’noni bildiradi.

**Leksikografiya** soʻzi esa **leksis - soʻz**, **grafos – yozmoq** degan ma’noni bildiradi.

Tildagi jamiki soʻzlar tarixi, izohi, imlosi kabi muhim masalalar bilan lugʻatshunoslik shugʻullanadi. Mukammal tuzilgan lugʻat va soʻzliklar u yoki bu tilning boyligini oʻzida toʻplaydi. Lugʻatlar dastlab ikki guruhga boʻlinadi:

**1. Qomusiy lugʻatlar**

**2. Lingvistik (tilshunoslik) lugʻatlar**

Qomusiy lugʻatlar ilmiy, siyosiy, adabiy hamda ishlab chiqarishga xos tushunchalar, borliqdagi predmetlar, hodisalar haqida ma’lumot beriladi. *“Oʻzbek*

*milliy ensiklopediyasi", "Salomatlik ensiklopediyasi","U kim, bu nima?"* kabi lug'atlar shular jumlasidandir.

**Lingvistik lug'atlar** bir tilli va ko'p tilli bo'ladi. *Bularga imlo, chappa (ters) lug'at, orfoepik lug'at, morfem lug'at,o'zlashma so'zlar lug'ati, frazeologik lug'at, terminologik lug'at, izohli lug'atlar, tarjima* lug'atlari kiradi. 1981- yilda yaratilgan "O'zbek tilining izohli lug'ati" ikki jilddan iboratdir. Bu lug'atda so'zlarning o'z va ko'chma ma'nolari haqida to'la ma'lumot beriladi.

Tildagi barcha so'zlar, ularning tarixi, izohi, imlosi kabi masalalar **lug'atshunoslik (leksikografiya)**da o'rganiladi. Lug'atlar ilmiy maqsadlarda tuziladi. Lug'atlarning, dastavval, *ensiklopedik* va *lingvistik* turlari farqlanadi.

**Ensiklopedik (qomusiy) lug'atlar** ijtimoiy turmushning barcha sohasiga oid so'zlarni qamrab oladi. Ensiklopedik lug'atlarda so'zlar, birikmalar, ma'lum bir voqea - hodisalar izohlanadi. Lingvistik lug'atlarda esa faqat so'zlar beriladi.

Lug'atlar qo'llanish doirasiga ko'ra ikki xil bo'ladi: **umumiy lug'atlar** va **maxsus lug'atlar.**

**Umumiy lug'atlar** barchaga mo'ljallangan bo'lib, ulardan turli soha vakillari foydalanishi mumkin. Masalan: *"Imlo lug'ati", "Izohli lug'at", "Ruscha-o'zbekcha lug' at".*

**Maxsus lug'atlar** esa ma'lum bir soha vakillari uchun mo'ljallangan bo'ladi: *"Sinonimlar lug'ati", "Matematik terminlar lug'ati".*

So'zligining bir til yoki bir necha tildan iborat bo'lishiga ko'ra *tarjima lug'atlari* va *bir tilli* lug 'atlar farqlanadi.

**I.Tarjima lug'atlarida**bir tilning lug'aviy birligiga boshqa tildagi mos birlik beriladi. Masalan, *"O'zbekcha – ruscha lug'at".*

**II. Bir tilli lug'atlar** (o'z til lug'atlari)ning so'zligi bir tilda bo'ladi. Bir tilli lug'atlarning quyidagi turlari bor.

**1. Izohli lug'atda** lug'aviy birliklarning (so'z yoki iboralarning) ma'nosi izohlanadi. Lug'aviy birlik ko'p ma'noli bo'lsa, uning barcha ma'nolari beriladi va izohlanadi. "O'zbek tilining izohli lug'ati" 1981 yilda 2 jild holida nashr etilgan bo'lib, oltmish besh mingga yaqin so'z izohlangan.

**2. Imlo lug'ati** so'zlarning imlo qoidalariga binoan qanday yozilishini qayd etadi. Imlo lug'ati (orfografik lug'at) so'zlarning to'g'ri yozilishini ko'rsatadi. Katta hajmli imlo lug'ati 1976 yilda nashr etilgan, unda 65 ming so'zning to'g'ri yozilishi qayd qilingan. O'quvchilar uchun chiqarilgan maxsus imlo lug'atida 17 ming so'zning to'g'ri yozilishi berilgan.

**3.Orfoepik lug'atda** so'zlarning adabiy talaffuzi qayd etiladi.

**4.Morfem lug'atda** so'zlarning mortem tuzilishi, ma'noli qismlari beriladi. Ular lingvistik maqsadlarda tuziladi.

**5. Chastotali lug‘at** so‘zlarning qo‘llanish miqdori va foizi haqida ma’lumot beradi.
**6.Ters (chappa, teskari) lug‘atda** so‘zlar qaysi harf bilan tugashiga qarab joylashtiriladi.
**7. O‘zlashma so‘zlar iug‘atida** boshqa tillardan o‘zlashgan so‘zlar izohlanadi.
**8. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘atida** frazeologik birliklar (iboralar) izohlanadi. Sh. Rahmatullayevning "O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati" 1978 yilda tuzilgan.
**9**. **Sinonimlar lug‘atida** sinonimlar izohlanadi
**10. Omonimlar lug‘atida** omonimlar izohlanadi.
**11. Antonimlar lug‘atdia** antonimlar qarama-qarshi ma’noli so‘zlar beriladi.
**12. Dialektal lug‘atda** o‘zbek tilining dialekt va shevalariga xos bo‘lgan so‘zlar qayd etiladi.
**13.Terminologik lug‘atda** terminlar izohlanadi.
**14.Etimologik lug‘atda** so‘zlarning kelib chiqishi, shakllanish tarixi yoritiladi. «O‘zbek tilining etimologik lug‘ati» 2000 yilda prof. Sh.Rahmatullayev tomonidan yaratildi.
**Tayanch so‘zlar:** oila, jamiyat, nikoh, burch, vazifa, turmush, leksikografiya, leksika, grafika, qomusiy, lingvistik, filologik, umumiy, ters, etimologik, imlo, izohli, orfoepik, dialektal, omonim, sinonim, antonim, terminologik, o‘zlashma, frazeologik, morfem, tarjima.
**Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**
1.”Oila” tushunchasini qanday izohlaysiz?
2.O‘zingizning oilangizni qanday tasavvur qilasiz va oilangiz oldida qanday mas`uliyat his qilasiz?
3.Leksikografiya nimani o‘rganadi?
4.Lug‘at nima va u nima uchun kerak?
5.Lug‘atlarning qanday turlari bor?

## Topshiriqlar

**1-topshiriq:** Lug‘atdan [*fe’l + yasovchi qo‘shimcha*] qolipli hosilalari bo‘lgan so‘zlardan 10-15tasini topib, daftaringizga ko‘chiring va namunadagidek izohlang. Fe’llarning qaysi so‘z turkumlarini yasash uchun asos bo‘lishini aniqlang va fikrlaringizni namunadagidek bayon eting.
Namuna: *qir-g‘ich* - fe`ldan ot yasalgan; *yugurgan-cha* - fe’ldan ravish yasalgan; *maqtan-choq* - fe’ldan sifat yasalgan.
**2-topshiriq**: Lug‘atdan yasalish asosi tuzilishiga ko‘ra juft so‘z bo‘ lgan yasalmalarni topib daftaringizga ko‘chiring. Imlosiga e’tibor qiling.
Namuna: *sihat-salomat-lik* (juft sifatdan ot yasalgan), *baxt-saodatli* (juft otdan sifat yasalgan).

**3-topshiriq:** Lug‘atdan yasalish asosi tuzilishiga ko‘ra takroriy so‘z bo‘lgan yasalmalarni topib daftarmgizga ko‘chiring. Yozilishiga diqqat qiling.
Namuna: *ko‘z-ko‘z-la-moq* (takroriy otdan fe’l yasalgan). *sharshara* (takroriy taqlid so‘zdan ot yasalgan).

## 9-MAVZU: O‘zbekiston sporti.

## Terminologiya. Ixtisoslikka oid atamalar ustida ishlash.

REJA:

1.Respublika miqyosida o‘tkaziladigan sport o‘yinlari ravnaqi.
2.O‘zbekiston sporti jahon arenasida.
3.Terminologiya atamasi va uning terminlalrni o‘rganuvchi soha ekanligi.
4.Terminologiyaning rivojlanishi

Bugun Olimpiya o‘yinlari, jahon va qit’a chempionatlarida shohsupaga ko‘tarilib, Vatanimiz bayrog‘ini sarbaland qilayotgan sportchilarimiz bilan har qancha faxrlansak arziydi. Sport maktablarida tarbiyalanayotgan yoshlar orasida iqtidorlilarini saralash uchun ko‘plab sport turlari bo‘yicha chempionatlar muntazam o‘tkazilmoqda. Ayniqsa, davlatimiz rahbari tashabbusi bilan ta’lim tizimida – “Umid nihollari”, “Barkamol avlod” va “Universiada” musobaqalari joriy etilgani yosh avlodni sog‘lom etib tarbiyalash, sportchilarimizni jahon va qit’a chempionatlari, Olimpiya hamda Osiyo o‘yinlariga bosqichma-bosqich tayyorlashda yuksak samaralarini bermoqda.

Yurtboshimiz tomonidan qaratilayotgan imkoniyatlardan samarali foydalangan holda, jonajon O‘zbekistonimizning bayrog‘ini jahon arenalarida baland ko‘tarish, yurtimizni sport orqali jahonga nufuzini oshirish har bir sportchining burchi hisoblanadi.

**Terminologiya** (***termin* - *atama*** va ***logos* - *fan, tushuncha***) — leksikaning bir sohasi; muayyan fan, texnika, ishlab chiqarish tarmog‘ining, san’at, ijtimoiy faoliyat sohasining tegishli tushunchalar tizimi bilan bog‘liq terminlari majmui hamda tilshunoslikning terminlarni o‘rganuvchi sohasidir.

Terminologiyator ma’noda ma’lum bir sohaga oid maxsus leksika hisoblanadi. O‘z navbatida u umumxalq tilining boyishi uchun xizmat qiladi. Terminologik leksika umumxalq tili leksikasining ajralmas qismi sifatida u bilan birga rivojlanadi, jamiyat va til taraqqiyotidagi barcha jarayonlarni boshdan kechiradi. Ma’lum bir soha yoki fan yuqori darajada taraqqiy etgandagina o‘sha tilda maxsus terminologiya vujudga keladi.

Terminologiyaning rivojlanishi, boyish yo‘llari har xil: boshqa tillardan so‘z olish, yangi so‘z yasash, ayrim grammatik kategoriyalarning leksikalashuvi,

so‘z birikmasining semantik bir butun holga kelib qolishi va boshqa. Bugungi kunda o‘zbek terminologiyasining boyishi, asosan, boshqa tillardan so‘z olish va ichki so‘z yasash hisobiga ro‘y bermoqda.

U yoki bu soha terminologik tizimining barqarorligini belgilovchi asosiy omil uning tartibga solinganligi va muntazamligidir.

Terminologiyaning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud. Umumadabiy tilda sinonimiya, omonimiya va ko‘p ma’nolilik tilning boyligi bo‘lsa, terminologiyada bular sal`biy hodisa hisoblanadi. Masalan birgina tushunchani ifodalash uchun o‘zbek tilida *yarimo‘tkazgich—chalao‘tkazgich — nimo‘tkazgich* terminlari qo‘llanmoqda. Bu o‘z navbatida, o‘qish-o‘qitish va axborot almashish jarayonini qiyinlashtiradi. Shu sababli ham terminologiyasi ma’lum darajada barqarorlashgan barcha tillarda terminlar doimiy tartibga solib turiladi. Tartibga solish ma’lum terminologik me’yorlar asosida amalga oshiriladi. Terminologiyaning rivojida fan sohalariga oid maxsus lug‘atlarni nashr qilib turish ham muhim ahamiyatga ega.

**Tayanch so‘zlar:** O‘zbekiston, sport, musobaqa, o‘yin, ravnaq, terminologiya, termin, atama, maxsus, so‘z, ixtisoslik, mutaxassislik, fan, ilmiy.

**Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1.O‘zbekistonda qaysi sport turlari keng tarqalgan?
2.Milliy sport turlariga qaysilar kiradi?
3.O‘zbekistonda qanday sport musobaqalari o‘tkazilib turiladi?
4.Terminologiya nimani o‘rganadi?
5.Ixtisosligingizga oid qanday terminlarni bilasiz?

## Topshiriqlar

**1-topshiriq:** So‘zlarning qaysi sohaga tegishli ekanligini ajratib ko‘rsating: Landshaft, dizayn, forsaj, kompozitsiya, san`at, atama, urg‘u, affiks, davlat, jamiyat, demokratiya, paleolit, feodalizm.

**2-topshiriq:** Matnni o‘qing va arxitektura sohasiga oid so‘zlarni lugat tartibida izohlang:

### Arxitektura

Arxitektura bu qurilish san`atidir. Binolar, komplekslar, ansambllar, har xil qurilishlar jamiyat, davlat yoki alohida shaxs uchunmi – bularning bari arxtekturadir. Binolarda hayot uchun zarur bo‘lgan territoriya eganllanadi.

Arxitektura – bu san`atning bir turi bo‘lib, u uch xususiyatdan iborat: funksional, konstruktiv va estetiklikdir.

Arxitektura haykallari va yodgorliklar – bu ko‘rgazma san`at asaridir. Bu relef, haykallar, naqsh, freskalar bularning bari katta boylikdir. Ijodning eng yuqori shakli – bu arxitekturada ansambllar yaratishdir.

Arxitektura – bu faqat yakka bir uy emas, balki bu shaharlardir, uning ko‘chalari, maydonlari, bog‘lari, alleyalari, ko‘priklari, favvoralar va haykallardir.

**3-topshiriq:** Ixtisoslikka oid atamalar lug‘atini tuzing.
Namuna: *orfoepiya* - grekcha *orfo* - *to‘g‘ri, epos* - *nutq* ma’nolarini bildiradi; *Leksikografiya* - grekcha *lexikos – so‘z, tushuncha; grafos- yozmoq* degan ma’nolarni bildiradi.

## 10-MAVZU: Mening sevimli sport turim.
## Frazeologiya. Ibora va tasviriy ifoda

REJA:

1.O‘zbek sporti turlari va ularning rivojlanishi.

2.Frazeologiyava uning o‘rganish ob’yekti.

3.Iboralar va uning turlari.

**Sport** ( fr. *desporter* - **"o‘ynamoq", "maza qilmoq"**) qatnashuvchilarning jismoniyyoki aqliy qobiliyatlarini solishtirishga va yoki zavqlanishga mo‘ljallangan, tayinli qoidalarga ega faoliyat turidir.




**Sport** — jismoniy madaniyatning tarkibiy qismi, jismoniy tarbiya vositasi va usuli, jismoniy mashqlarniit turli majmualari bo‘yicha musobaqalar tashkil etish, tayyorlash va o‘tkazish tizimi. Sportning maqsadi kishilarning sog‘lig‘ini mustahkamlash va umumiy jismoniy rivojlantirish bilan birga sport musobaqalarida yuqori natija va g‘alabalarga erishishdir.



O‘quv fani sifatidagi sport— barcha turdagi ta’lim muassasalari va qurolli kuchlarda harbiyjismoniy tayyorgarlik dasturlariga kiradi. Yuqori natijalar sportni eng yaxshi sport ko‘rsatkichlari (rekordlar)ga erishish uchun sharoit yaratadi, insonning jismoniy tayyorgarligini namoyish etadi, jismoniy tayyorgarliklarning samarali vosita va usullarini ommaviy amaliyotga tatbiq etishga yordam beradi.




**Frazeologiya** (yun. **phrasis** — **ifoda, ibora** va **logos – ta’limot, fan**) tilshunoslikning tilning frazeologik tarkibini uning hozirgi holatida va tarixiy taraqqiyotida tekshiruvchi bo‘limi; muayyan tildagi frazeologizmlar majmui.




**Iboralar** – ma’nosi bir so‘zga teng keladigan gap yoki so‘z birikmalari. Iboralar har doim ko‘chma ma’noda ishlatiladi.

Ma’no yaxlitligiga ega bo‘lgan va nutqiy jarayonga qadar ikki va undan ortiq so‘zlarning barqaror munosabatidan tashkil topgan, nutqqa tayyor holda olib kiriluvchi ko‘chma ma’nodagi barqaror birikmalarga **frazeologizmlar** deyiladi.

Masalan: *bir yoqadan bosh chiqarib – ahil bo‘lib; ko‘ngli joyiga tushdi – tinchidi; tepa sochi tikka bo‘ldi – jahli chiqdi, achchiqlandi; xamirdan qil sug‘urganday – oson; tekkanga tegib, tegmaganga kesak otadi – xira, tegajoq; qo‘y og‘zidan cho‘p olmagan – yuvosh; aravani quruq olib qochadi – maqtanchoq, yolg‘onchi; yrga ursa, ko‘kka sakraydi – juda sho‘x; qulog‘i ding bo‘lmoq – hushyor bo‘lmoq; qovog‘i osilmoq – xafa bo‘lmoq; og‘zining tanobi qochmoq – quvonmoq; dali – g‘uli – ko‘ngli toza; do‘ppisi yarimta – beg‘am* kabi.




Frazeologizmlar gap tarkibida uning bir bo‘lagi vazifasida keladi. Iborani tashkil etgan so‘zlar uning faqat ichki uzvlari sanaladi. Gapning boshqa bo‘laklari bilan yaxlit, bir butun holda munosabatga kirishadi. Masalan: *Rais daladagi hosilni ko‘rib boshi osmonga yetdi.* Bu gapda *boshi osmonga yetdi* iborasi butun holda kesim vazifasida keladi.

Iboralar, asosan, so‘zlashuv va badiiy uslubda keng ishlatiladi, rasmiy va ilmiy uslublarda qo‘llanilmaydi.




Iboralar ma’nodoshlik, antonimlik va shakldoshlik xususiyatiga ega. Bir – biriga ma’nosi yaqin iboralar **ma’nodosh iboralar (frazeologik sinonimlar )** deyiladi. Masalan: *dunyoga kelmoq – tavvalud topmoq; boshi ko‘kka yetmoq – og‘zining tanobi qochmoq* kabi. Agar so‘z va ibora ma’nodosh bo‘lsa, leksik – frazeologik sinonimlar deb ataladi. Masalan: *yog‘ tushsa yalagudek – toza; ilonning yog‘ini yalagan – ayyor* kabi.

Qarama – qarshi ma’noli iboralar **zid ma’noli iboralar (frazeologik antonimlar)** deyiladi. Masalan: *dunyoga kelmoq – dunyodan ketmoq; yerga ursang ko‘kka sapchiydigan – qo‘y og‘zidan cho‘p olmagan* kabi. Agar so‘z va ibora zid ma’noli bo‘lsa, ular leksik – frazeologik antonimlar deb ataladi. Masalan*: qimmat – suvtekin; baxil – qo‘li ochiq* kabi.

Shakli bir xil, ma’nosi har xil iboralar **shakldosh iboralar (frazeologik omonimlar )** deyiladi. Masalan: *boshga ko‘tarmoq – e’zozlamoq; boshga ko‘tarmoq – shovqin solmoq* kabi. *Dam bermoq, ko‘z yummoq, qo‘l ko‘tarmoq* kabi iboralar ham shakildoshlik xususiyatiga ega.

Frazeologizmlar tuzilishiga ko‘ra uchta turga bo‘linadi:

**1.Frazeologik so‘z (so‘z ibora);**
**2.Frazeologik chatishma;**
**3.Frazeologik qo‘shilma**.




**1.Frazeologik so‘z (so‘z ibora) –** odatda bir so‘zdan iborat bo‘lib, bunda odamlarga qush, hayvon, o‘simlik va hakozorlarga qiyosan nisbat beriladi, ya’ni odamlar ularga qiyoslanadi, masalan: *tulki (odam), xameleon (odam), kungaboqar (odam), ilon (odam).*




**2.Frazeologik chatishma**– so‘z birikmasi tartibida ifodalanadi. Qo‘llanayotgan so‘zning bittasi o‘z ma’nosida, ikkinchisi esa ko‘chma ma’noda ishlatiladi. Masalan: *oq bilak, ichi qora, niyati buzuq, ko‘ngli toza.*




**3.Frazeologik qo‘shilma –** bunda ibora butun bir gap holida qo‘llaniladi, lekin uning leksik o‘z ma’nosidagi bir so‘zga teng keladi. Masalan: *boshi osmonga yetdi – xursand; ko‘zi to‘rt bo‘ldi- uzoq kutdi; oyog‘ini qo‘liga olib yugurdi – tez yugurdi; o‘kchasidan o‘t chaqnaydi – dadil odam.*




**Tayanch so‘zlar:** sport, olimpiada, universiada, spartakiada, frazeologiya, ibora, chatishma, qo‘shilma.

**Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1.Qanday sport o‘yinlarini bilasiz?

2.O‘zingiz yoqtirgan sport turi haqida gapiring.

3.Frazeologiya nimani o‘rgatadi?

4.Iboralar qanday xususiyatlarga ega?

5.Frazeologik birliklar tuzilishiga ko‘ra qanday turlarga bo‘linadi?

## Topshiriqlar

**1-topshiriq:** O‘z ma’nosida berilgan ushbu so‘zlar manosiga mos iboralarni keltiring :
E’zozlamoq, lapashang, cho‘chidi, yuvosh, uddaburon, janjalkash, ayyor odam. .

**2-topshiriq:** Berilgan iboralarni turlarga ajrating:
Oyog‘i olti, qo‘li yetti bo‘ldi, achchiq gapirdi, burni osmonda, oyog‘i yerdan uzildi, qo‘li kalta, ko‘ngli bo‘sh, kalamush xarakter, yuzi qora, og‘zing qani desa qulog‘ini ko‘rsatadi, shap-shap odam, og‘ri ko‘ngil, tili shirin.

**3-topshiriq:** Quyida berilgan gaplardagi frazeologik birikmalarni topib, ma’nosini sharhlang.
1.Arava bo‘lsa almisoqdan qolgan, yana sinibdi. 2. Aravani quruq olib qochish evi bilan-da, avval burningni artsang-chi.. (S.Abdulla) 3 . Ishqilib Baraka topsin, shu doktorlar boshing yostiqqa tekkanda joningga ora kirishadi. 4. Yo‘qlab kelibsan, boshim osmonga yetdi. 5. Qizlar har zamonda ishdan bosh ko‘tarib bir-biriga gap otishadi (S.Ahmad). 6. Qorasochning dili siyoh bo‘lib, birdan xo‘rligi keladi (S.Azimov). 7. …Amalda ishni izdan chiqarib yuboribsiz. 8. Kavushini to‘g‘rilab qo‘yish kerak: qurilishni ham, kollrktivni ham sariq chaqaga sotadi (Asqad Muxtor). 9. Hoji xola ko‘zi ilinib, endi xurrak ota boshlagan edi. 10. …Uning ko‘zlari qinidan chiqa yozdi (Oybek).

**4-topshiriq:** Frazeologik iboralarning sinonimlarini toping, ular ishtirokida gap tuzing.
1.Boshi ko‘kka yetmoq – behad sevinmoq. 2. Yer tagida ilon qimirlasa bilmoq – nihoyatda ziyrak, sezgir. 3. Ichini mushuk tirnamoq – yashirin holda ruhan bezovtalanmoq, tashvishlanmoq. 4. Ko‘zini bo‘yamoq – aldamoq, laqillatmoq. 5. Ko‘zi to‘rt bo‘lmoq – intizor bo‘lmoq. 6. Tepa sochi tikka bo‘lmoq – bir lahzaning o‘zida nihoyatda g‘azablanmoq. 7. Tomdan tarasha tushganday – qo‘qqisdan, kutilmagan holda va qo‘pol tarzda. 8. Xamirdan qil sug‘urganday – osonlik bilan, hech qanday qiyinchiliksiz bajarmoq. 10. Ikki oyog‘ini tirab turmoq – o‘z fikrining amalga oshishini qaysarlik bilan talab qilmoq.

**5 -topshiriq:** Matnni o‘qing. <Tulki qiziga to‘y berdi> iborasini izohlang. Yana shu kabi qanday iboralarni bilasiz ? Ularni ham izohlashga harakat qiling.
Qor laylaklab – laylaklab yog‘di. Qor yerga tushib - tushmay yog‘di. Laylakqor taqqa tindi. Yerga qor tugul nam-da bo‘lmadi. Qor havosi-da bo‘lmadi. O‘ynab qo‘yay, bundayin havoni oti nima bo‘ldi? Qor yog‘madi deyin dedim-havoda

laylaklab qor uynadi. Laylaklab qor yog‘di deyin dedim-yerda qordan nishon bo‘lmadi. Dehqon bunday havoni: - Tulki qiziga to‘y berdi, - deydi.

Kechasi yig‘ilishda raisimiz kundalik yagonani so‘radi. Yo‘l-yo‘riqlar berdi. Shunda raisimiz oldida turgan telefon jiringladi. Raisimiz telefonda salom-alik qilgan bo‘ldi.

Gap-so‘zidan bildim – raisimizni ideologiya bilan gapirishdi. Ob-havoni gapirishdi. Chaynab-chaynab gapirishdi. Raisimiz sharoqlatib telefon dastasini tashladi. Derazaga qarab lab burdi. – Tavba,- dedi,- ajab vakilamiz bor-da! <Kolxozlaringda qor yoqqan emish, g‘o‘za nima bo‘ldi?> - deydi. –Qor yoqqan, tulki qiziga to‘y berdi desam, <Tulkiyam to‘y qiladimi?>- deydi… *(Tog‘ay Murod. <Otamdan qolgan dalalar>).*

## 11-MAVZU: O‘tmishi buyuk xalq.

### Fonetika. Nutq shakllari va ularning rivojlanishi

### Reja:

1.O‘zbek xalqi
2.Buyuk siymolar.
3.Fonetka va uning o‘rganish ob’yekti.
4.Nutq shakillari va ularning rivojlanishi.

**O‘zbeklar** — xalq, O‘zbekiston Respublikasi aholisining asosiy qismini tashkil etadi. O‘zbeklar nafaqat O‘zbekiston, balki O‘rta Osiyodagi eng ko‘p sonli xalqdir. O‘zbekistonda (23 mln.), Tojikistonda (1,2mln.dan ziyod), Qirg‘izistonda(800 ming kishi), Qozog‘istonda (511 ming kishi), Turkmanistonda (500 mingdan ziyod) kishi yashaydi. Bundan tashqari, Afg‘onistonda (2,5 mln.dan 4 mln.gacha), Rossiyada (300 ming kishi), Saudiya Arabistonida (550—600 ming kishi), Xitoyda (13,7 ming kishi, 1998-yil) Turkiya, Olmoniya, AQShda ham o‘zbeklar yashaydi. O‘zbeklarning umumiy soni 30 milliondan ortiq (2012). O‘zbeklar o‘zbek tilida so‘zlashadilar. Dinlari — sunniy musulmonlar.







Tarixiy manbalarda keltirilgan 92 o‘zbek urug‘lari nafaqat O‘zbekiston hududida, balki butun O‘rta Osiyo hududlarida tarqalgan. Bu 92 o‘zbek urug‘lariga mo‘g‘ullar istilosidan oldingi va istilo davrida hamda shayboniylar davrida kelgan etnik guruhlar ham kiradi. Shuningdek, O‘rta Osiyoda qadimdan yashab kelayotgan chigil, yag‘mo, usun, tuxsi, xakas va boshqalar turkiy etnik guruhlar ham 92 o‘zbek elati tarkibiga kirgan.






O‘rta Osiyo xalqlarining 19-asr 2-yarmi — 20-asr boshlaridagi tarixiy taqdiri va taraqqiyot bosqichlari chor Rossiyasining mustamlakachiligi davri bilan bog‘liq. Keyinchalik mintaqada Sovet hokimiyatining o‘rnatilishi bilan O‘rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanish o‘tkazilib, 5 ta milliy respublikalar tashkil etildi. Shu bilan shakllangan elatlar taraqqiy etayotgan tarixiy makon sun’iy ravishda bo‘lib yuborildi.

**Fonetika** (**yun. phonetikos — tovush, tovush chiqarishga oid; tovushli, ovozli)** — 1) tilshunoslikning nutq tovushlarining hosil bo‘lish usullarini va akustik xususiyatlarini; bo‘g‘in, nutqning pauza bilan ajraluvchi qismlarini o‘rganuvchi bo‘limi. Shu bilan birga, ayrim tilshunoslar fonetika doirasiga tovush birliklarining yozuvdagi ifodalari (grafika) va ma’noli birliklarning yozilish qoidalari (imlo)ni ham qo‘shib, uning o‘rganish ob’yektini yanada kengaytiradilar o‘rganiladi.




Odam nutq yordamida o‘zining fikrlari, his-tuyg‘ulari, istaklarini bayon etadi va boshqalarning fikrlari, his-tuyg‘ulari, istaklarini anglab oladi. Inson nutqi rang-barang. Do‘stlarning suhbati ham, so‘zlayotgan kishining chaqirishi ham, san’atkorning sahnadagi monologi ham, o‘quvchining sinfdagi javobi ham

nutqning bir ko‘rinishidir. Sharoitga qarab nutq turli xilda namoyon bo‘ladi. U ba’zan istak-tilak, ba’zan chaqiriq- murojaat, ba’zan esa inson quvonchi yoki ruhiy iztirobi shaklida ifodalanadi.







**Og‘zaki nutq** odatdagi tovushli so‘zlashuv nutqi bo‘lib, bu nutq ko‘proq ohang va turli imo-ishoralar bilan aloqadordir. Unda murakkab grammatik qurilmalardan deyarli foydalanilmaydi. O‘quvchi og‘zaki nutqda ko‘proq soda gaplarni qo‘llaydi: u o‘z suhbatdoshiga nimanidir ko‘rsatishi, mantiqiy urg‘udan foydalanib, ma’lum bir so‘zni alohida ta’kidlashi, nimanidir mimika, ko‘z, qo‘l, bosh harakati bilan anglatishi mumkin. Og‘zaki nutqda fikrni ixcham ifodalash maqsadida to‘liqsiz gaplar keng qo‘llaniladi.

Nutqning bu turi bir yoki necha kishi tomonidan amalgam oshiriladi va monologik, dialogik shaklda namoyon bo‘ladi.







**Yozma nutq** esa harf va so‘zlarning ma’lum qonuniyat asosida o‘zaro birikuvi, tinish belgilari, har xil ajratishlar: abzatslar, paragraflar va gaplarni Grammatik jihardan aniq va tushunarli bayon etish orqali ro‘yobga chqadi.




Yozma nutq ham og‘zaki nutq singari monologik va dialogik shakllarda bo‘lishi mumkin. Yozma nutqni rivojlantirish og‘zaki nutqqa qaraganda ancha murakkab jarayon sanaladi. Chunki u o‘quvchidan grammatik va mazmun jihatidan to‘g‘ri jumla qurishni, har bir so‘zni o‘z o‘rnida to‘g‘ri qo‘llashni, fikrni ixcham, izchil, ifodali, uslub jihatidan soda va ravon ifodalashni, bayon qilingan fikrlar asosida xulosalar chiqarishni talab etadi. Bu nutqning murakkab tabiati yana shundaki, u imlo, tinish belgilari va uslub bilan bog‘li. So‘zni to‘g‘ri yozish, tinish belgilarini o‘rinli qo‘llash, fikrni uslub talabiga muvofiq bayon qilish o‘quvchidan katta mas’uliyatni talab etadi. Shu sababli nutqning bu turi ancha sekin va murakkab kechadi.




Yozma nutqning o‘ziga xos xususiyatlaridan yana biri uni tekshirish, tuzatish, takomillashtirish mumkinligidir. Bu jihatdan u og‘zaki nutqqa qaraganda ancha qulay imkoniyatlarga ega. O‘quvchi yozma nutqdagi xato va kamchiliklar ustida ishlaydi, ularni bartaraf etadi, keyingi ishlarida bu xato va kamchiliklarga yo‘l qo‘ymaslikka intiladi.

**Tayanch so‘zlar:** turkiylar, O‘rta Osiyo xalqlari, o‘zbek, buyuk, siymo, milliy, nutq, og‘zaki, yozma, shakinlanish, talaffuz, tovush.

**Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. O‘zbeklarning xalq sifatida shakillanishi haqida nimalarni bilasiz?
2. O‘zbeklar asosan dunyoning qaysi mamlakatlarida yashaydilar?
3. Fonetika nimani o‘rganadi?
4. Nutq nima?
5. Nutqning qanday shakllari bor?
6. Og‘zaki nutq qanday shakllangan?
7. Yozma nutqning rivojlanishi haqida nimalarni bilasiz?

**Topshiriqlar**

**1-topshiriq:** Tez aytishlarning o‘qilishiga ahamiyat bering va yozma va og‘zaki nutqda farqlanuvchi tovushlarni aniqlang:

1.Qamar qalamni Qahramonga qoldirdi.
2.Qarg‘a qaqimchi ekan, chumchuq chaqimchi ekan.
3.Baliq, baliq baqaloq,
Akulaga chaqaloq
Qani endi zo‘r bo‘lsang,
Akvariumdan chiqib boq.

**Topishmoqlar:**

Qavat-qavat qati bor, Qush emas, qanoti bor,
Hammaga bo‘ladi yor. Juda zo‘r g‘ayrati bor.
Har qandayin savolga Lochin unga yetolmaydi,
Javob berishga tayyor. Tolmas zo‘r qanoti bor.

**2-topshiriq:** Tez aytishlarni o‘qing va bir nech tovushning ifodalovchi belgilarni ko‘rsating.

1.Jamila jiydani joyiga joyladi.
2. Jo‘ja go‘jani cho‘qidi.
3. Anjir tagida zanjir, zanjir yonida anjir.

**3-topshiriq:** Ifodali o‘qib, mazmunini rus tilida so‘zlang.

Hayotni o‘tkazsa o‘rganib saboq,
Ustoz ham, shogird ham bo‘lmas no‘noq.
To‘q’ish-yigirish ham bilim birladir,
Dunyoni topish ham bilim birladir.

## 12-MAVZU: Dunyoviy fanlar va ularning rivojlanishida allomalarimizning roli.

## Nutq tovushlari. Unli va undosh tovushlar tasnifi

REJA:

1.Dunyoviy fanlar va allomalar.
2.Nutq o‘rganlari va nutq apparati .
3.Nutq tovushlarining turlari.
4.Unli va undosh tovushlar tasnifi.




**Xorazmiy** - Abu Ja’far (Abu Abdulloh) Muhammad ibn Muso al Xorazmiy (783, Xiva — 850, Bag‘dod) — matematik, astronom, geograf, fan tarixidagi ilk qomusiy olimlardan.




Dastlabki ma’lumotni Xiva shahrida olgan va yetuk olim bo‘lib shakllangan. Bunda arab istilosidan so‘ng muayyan darajada saqlanib qolgan qadimgi Xorazm fani an’analari asosiy rol o‘ynagan. Xalifa Horun ar Rashidning

o‘g‘li va uning Xurosondagi voliysi al Ma’mun huzuriga — Marvga taklif etilgan. 819 yilda Bag‘dodni egallagan al Ma’mun Markaziy Osiyolik olimlardan Xorazmiy, Ahmad al Farg‘oniy, Habash al Hosib Marvaziy, Abul Abbos Javhariy va boshqalarni o‘zi bilan olib ketib, o‘ziga xos ilmiy jamoa tashkil etgan. Bu jamoa fan tarixidagi dastlabki rosmana akademiya deb qaraladigan ilmiy muassasa — "Bayt ul Hikmat" ("Donishmandlik uyi") ning asosini tashkil etgan. Bu akademiyada X. yetakchi olim va ilmiy rahbar bo‘lgan. U shu davrdan boshlab Bag‘dodda al Ma’mun (813 — 833), so‘ng al Mo‘tasim (833 842), al Vosiq (842 —847) xalifaligi davrlarida yashab ijod etgan.

**Beruniy** jahon astronomiya va geografiya fani olimi - Beruniyning boy ilmiy merosi hali to‘la o‘rganilmagan. Beruniy yirik olim Abu Nosir ibn Iroqdan Evklid geometriyasi, Ptolemeyning astronomik ta’limotlari bo‘yicha dars olgan. 995-yilgacha u astronomiya, geografiya, geodeziya amaliy masalalarini hal etish bilan birga Yer va Osmon globusini yasadi hamda astronomiyaga oid bir necha kitoblar yozdi. Olimning ana shunday asarlaridan biri „Geodeziya“ 1025-yilda yozib tugatilgan.

Beruniyning 152 asarima’lumbo‘lib, bizgachauningfaqat 30 tasiyetibkelgan. Jami asarlarining 70 tasi astronomiyaga, 20 tasi matematikaga, 12 tasi geografiya va geodeziyaga, 4 tasi mineralogiyaga, 1 tasi fizikaga, 1 tasi dorishunoslikka, 15 tasi tarix va etnografiyaga, 4 tasi falsafaga, 18 tasi adabiyotga bag‘ishlangan. U 50 yoshida qadimiy sanskrit tilini o‘rgandi, bundan tashqari, fors, arab, yahudiy, grek tillarini ham bilar edi.




Nutq tovushlari nutq o‘rganlari orqali hosil bo‘ladi. Nutq jarayonida ishtirok qiladigan o‘rganlarga **nutq o‘rganlari** deiladi. Ular o‘nta: o‘pka, kekirdak, bo‘q’iz bo‘shhlig‘i, katta va kichik til, paylar, tanglay, tishlar, lablar, og‘iz bo‘shlig‘i, burun bo‘shlig‘i.




Nutq o‘rganlarini jami **nutq apparatini** tashkil qiladi.

Nutq o‘ganlari orqali talaffuz qilinadigan tovushlariga **nutq tovushlari** deiladi. Ular talaffuziga ko‘ra ikki turga bo‘linadi: unli tovushlar va undosh tovushlar.




**1.Unli tovushlar** - og‘iz va bo‘g‘iz bo‘shlig‘ida hech qanday to‘siqqa uchramay hosil bo‘ladigan, tarkibi ovozdan iborat (shovqin deyarli ishtirok etmaydigan) tovushlar. Har bir til o‘ziga xos unlilar tizimiga ega. Tildagi unlilar tizimi **vokalizm** (**lot.vocal — unli** ) deyiladi.







Unli tovushlar bir necha jihatdan tasnif etiladi:

1.Tilning gorizantal harakatiga ko‘ra

2.Tilning vertikal harakatiga ko‘ra

3.Lablarning ishtirokiga ko‘ra



**Undosh tovushlar** - og‘iz va bo‘g‘iz bo‘shlig‘ida turli to‘siqlarga uchrab paydo bo‘ladigan, tarkibi faqat shovqindan yoki ovoz va shovqindan iborat tovushlar. Ularning talaffuzida havo oqimi sirg‘alib yoki portlab chiqadi. Bu havo oqimi un paychalarini titratib yoki titratmay o‘tadi. Natijada turli jihatdan bir-biridan farqli undosh tovushlar hosil bo‘ladi. Dunyodagi har bir til o‘ziga xos undoshlar tizimiga ega. Tildagi undoshlar tizimi **konsonantizm** (**lot. consonans — undosh** ) deyiladi.




Undosh tovushlar bir necha jihatdan tasnif qilinadi:
1.Hosil bo‘lish o‘rniga (nutq a’zolarining ishtirokiga ko‘ra;
2.Hosil bo‘lish usuliga ko‘ra;
3.Ovoz va shovqinning ishtirokiga ko‘ra;



| Ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra | | Hosil bo'lish usuliga ko'ra | | Hosil bo'lish o'rniga ko'ra | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | Lab undoshlari | | Til undoshlari | | | Bo'g'iz u. |
| | | | | Lab-lab | Lab tish | Til oldi | Til o'rta | Til orqa Chuqur t.o. | |
| Shov-qinlilar | Ja-rangli | Port-lov-chilar | Softportluvchilar | b | | l | | g | |
| | Ja-rangiz<br>Ja-rangli | | Qori-shiq portlovchila | p | | t | | k | k |
| | Jarangsiz<br>Ja-rangli<br>Jarangsiz | Sir-g'aluvchilar | | | v<br>f | j<br>ch<br>j,z<br>s,sh | y | r<br>x | x |
| Ovoz-dor(sonorlar) | | Port-lovchi sirg'aluvchilar | Burun tovushlari | m | | n | | ng | |
| | | | Yon tovush | | | l | | | |
| | | | Titroq tovush | | | r | | | |

**Tayanch so'zlar:** fan, dunyoviy, ravnaq, nutq, o'rgan, apparat, unli, undosh, gorizantal, vertikal, ovoz, shovqin.

**Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1.Dunyoviy fanlarning ravnaqiga hissa qo'shgan qaysi yurtdoshlarimizni bilasiz?

2.Nutq tovushlari deb nimaga aytiladi?

3.Nutq organlari deb nimaga aytiladi?

4.Unli tovushlar deb nimaga aytiladi?

5. Undosh tovushlar deb nimaga aytiladi?

**Topshiriqlar:**

**1-topshiriq**: Matnni o'qing va so'zlardagi unli va undosh tovushlarni aniqlang.

USHU

Ushu, uni chet elda kunfu deb ataladi. Ikki ming yillik tarixga ega bo'lgan gimnastika hisoblanadi. Ushu mashqlaridagi himoya va hujum usullari: yo'lbars, ayiq, maymun, kiyik, turna, it, kalamush, ilon vaboshqa hayvonlarrning himoyalanish va hujum qilish usullari mukammal o'rganilgan holda tadbiq etilib yuzaga kelgan.

Ushuning asosiy maqsadi juda ham oddiy. U sog'lom va yaxshi inson bo'lishni,kuchsizlarga yordam berishni, yomon ish qilmaslikni, olijanoblik va insoniylikni targ'ib qiladi va tarbiyalaydi.

**2-topshiriq:** O'zbek va rus tilidagi so'zlarni oqing va taqqoslang.

Согласный звук «Q'» - более глубокий, чем русский «г». «Q'» скользит между основанием языка и нёба:

g'uncha- бутон g'or-пещера
g'alla-зерно g'am-горе

g‘azal-газель g‘oya-идея

Согласный звук «H»- мягко скользящий.

hayot-жизнь haqiqat-правда

havo- воздух haykal-монумент

hosil-урожай baho-оценка

В узбекском языке есть один носовой звук, который в орфографии передается сечением звук букв-«нг».

ong-разум ming-тысяча

bong-колокол teng-равный

tong-рассвет keng-широкий

Согласный звук «J» орфоэпия этого звука мягче чем в русском языке:

jahon-мир Jahongir-имя собств.

jon-душа jonajon-родной

Произношение звука «J» в заимствованных словах не изменяется:

abajur-абажур jurnal-журнал

jargon-жаргон injener-инженер

## 13-MAVZU: Milliy hunarmandchilik rivoji.
## Bo‘g‘in va uning turlari

REJA:

1. Hunarmandchilik turlari va ularning ravnaqi.
2. Bo‘g‘in va uning turlari
3. Bo‘g‘inga ajratish va bo‘g‘n ko‘chirish tartibi.

**Hunarmandchilik**, hunarmandlik — milliy-an’anaviy mayda tovar ishlab chiqarish, oddiy mehnat qurollari yordamida yakka tartibda va qo‘l mehnatiga asoslangan sanoat turi; shunday mahsulotlar tayyorlanadigan kasblarning umumiy nomi. Yirik sanoat ishlab chiqarishi vujudga kelishiga qadar keng tarqalgan, ayrim sohalari keyin ham saklangan. Kam rivojlangan mamlakatlarning xalq xo‘jaligida hozir ham muhim o‘rin egallaydi.

Mamlakatimizda milliy hunarmandchilikni rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash borasidagi ishlar o‘zining amaliy samaralarini bermoqda. Davlatimiz rahbarining shu yil 30 martda qabul qilingan “Xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san’atini rivojlantirishni yanada qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi farmoni bu borada yangi imkoniyatlar ochdi

**Bo‘g‘in -** bir havo zarbi bilan aytiluvchi tovush yoki tovushlar yig‘indisidir. Bo‘g‘in ko‘chirish va bo‘g‘inga ajratish hodisalarini farqlash lozim. Bo‘g‘inga ajratish fonetik hodisa bo‘lib, unda so‘z talaffuzidagi havo zarblari asosida ajratiladi. Bo‘g‘inning asosini

unli tovush tashkil qiladi. O‘zbek tilida bo‘g‘inning quyidagi shakllari mavjud:

-bir unlidan iborat bo‘g‘in: *o-ta, a-na;*
-bir unli va bir undoshdan iborat bo‘g‘in*: bo-la, ti-la;*
-ikki undosh va bir unlidan iborat bo‘g‘in: *tas-diq, mak-tab;*
-uch undosh va bir unlidan iborat bo‘g‘in: *port-lash, g ‘isht-ni;*
-to‘rt undosh va bir unlidan iborat bo‘g‘in*: trans-port, sport-chi.*

So‘zning qanday tovush bilan tugashiga ko‘ra bo‘g‘inlarning **ochiq bo‘g‘in** va **yopiq bo‘g‘in** turlari farqlanadi.

**Ochiq bo‘g‘in** - bir unlidan iborat yoki unli bilan tugagan bo‘g‘indir: *a-ra-va, mu-o-ma-la, ma-na, Bu-xo-ro.*

**Yopiq bo‘g‘in-** undosh bilan tugagan bo‘g‘indir*: ach-chiq, issiq, mak-tab.*

"Bo‘g‘in ko‘shirish qoidalari" imlo qoidasi bo‘lib, tilshunoslikning orfografiya bo‘limida o‘rganiladi. Test sinovlarida bo‘g‘in ko‘chirish va bo‘g‘inga ajratish hodisalarini farqlash lozimligini nazarda tutgan holda biz bu ikki hodisani qiyosan berishni maqsadga muvofiq deb hisobladik. Quyidagi holatlarda so‘z satrdan satrga ko‘chiriladi:

- so‘z bo‘g‘inlar asosida ko‘chiriladi: *tez-da, sah-ro;*

yolg‘iz harfdan iborat bo‘g‘in keyingi bo‘g‘in tarkibida ko‘chiriladi*:*
*ota, mat-baa, ona, aka-uka*

***ng*** harf birikmasi bir tovushni ifodalaganda bo‘lmasdan ko‘chiriladi*: ko‘-**ng**il, i**ng**-ra, si-**ng**il.* Lekin ***-n*** va ***-g*** alohida tovushlami ifodalaganda hamda ruscha baynalmilal so‘zlarda bo‘lib ko‘chiriladi: *kon-gress, so‘n-gan, ton-gach, in-gliz, tan-gens.*

***-Sh, -ch*** harf birikmasi bo‘lmasdan ko‘chiriladi*: me-shchan, pome-shchik.*

-qisqartma so‘zlarda bo‘g‘in ko‘chirilmaydi: *TAQI, SamPI, SamDU.*

**Tayanch so‘zlar:** O‘zbek, xalq, hudud, e’lat, etnik, bo‘g‘in, ochiq bo‘g‘in, yopiq bo‘g‘in, bo‘ginga ajratish, bo‘g‘in ko‘chirish.

**Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1.Hunarmandchilik nima?
2.Hunarmandchilikning qanday turlari bor?
3. Milliy hunarmandchilikning tashqi hunarmandchilik bilan o‘xshash va tafovutli jihatlari.
4.Bo‘g‘in nima?
5.Bo‘g‘inning qanday turlari bor?
6. Bo‘g‘inga ajratish bilan bo‘g‘in ko‘chirish o‘rtasidagi farqlarni ayting.

## Topshiriqlar

**1-topshiriq:** Quyidagi so‘zlar tarkibidagi unlilarning har ikki o‘zbek va rus tilidagi talaffuziga alohida e’tibor berib o‘qing.

On-o‘n, mol-mo‘l, tort-to‘rt, som-so‘m, sok-so‘k.

**2-topshiriq:**1-ustundagi nuqtalar oʻrniga a, 2-ustundagi nuqtalar oʻrniga o harflari qoʻyib, soʻzlarni qiyoslab oʻqing, a, o tovushlarining talaffuziga eʼtibor bering.

| **1-ustun** | **2-ustun** |
|---|---|
| b...s | b...s |
| q...ra | q....ra |
| ch...l | ch...l |
| n...m | n...m |
| s...f | s...f |

**3-topshiriq:**Nuqtalar oʻrniga kerakli boʻgʻinlarni qoʻying, soʻngra yozing.
**Namuna:** olmazor.
Ol...zor, me...zor, pax...kor, yax...lak, Chi...zor.

**4-topshiriq:** Nuqtalar oʻrniga zarur harflarni qoʻyib, soʻz birikmalarini koʻchirib yozing.
Shara...li burch, rangli meta..., mamlakat boʻyla... sa..ar, ulkan za...ar, aniq re...a, samimiy tasha...ur, beqaror sh...mol, z...vqli ...ayot, be...oyda ur...nish, shonli sa...ifa, istiro...at bogʻi, qimmatb...ho mukofot, aloqa texnik...mi.

## 14-MAVZU: Buyuk ipak yoʻli boʻylab sayohat. Urgʻu. Uning turlari va nutqda qoʻllanilishi.

REJA:

1.Buyuk ipak yoʻlihaqida tushuncha.
2. Urgʻu tushunchasi va turlari.
3.Leksik urgʻu.
4.Logik urgʻu.

Qadimda sharq bilan gʻarbni bogʻlab turgan savdo yoʻli dengiz, okean yoʻllari ochilmasdan oldin bu yoʻlar muhim ahamiyat kasb etgan. Buyuk Ipak yoʻli — insoniyat rivojlanishi tarixining, uning birlashuvga hamda madaniy qadriyatlari bilan almashishga, hayotiy zarur mahsulotlarni sotish uchun bozorlarga erishishga intilishining oʻziga xos boʻgan hodisasidir. Sharqda aytiladigan naqlga qaraganda: „Oʻtirgan — boʻyra, yurgan — daryo“. Harakatlanish — bu hayotdir, sayohat qilish, jahongashtalik doimo taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchi boʻlgan edi.

Insoniyat tarixida eng ulkan boʻlgan ushbu qitʼalararo savdo yoʻli Yevropa va Osiyoni bir-biriga bogʻlab, oʻtmishda antik Rim davlatidan to Yaponiyaning qadimgi poytaxti Nara shahrigacha choʻzilgan edi. Albatta, Sharq va Gʻarb oʻrtasidagi savdo oʻtmish qaʼriga choʻkkan qadim-qadim zamonlardan beri olib borilar edi, lekin bu kelgusida bunyod etilgan Buyuk yoʻlning alohidagi qismlari

edi. Savdo aloqalari hosil bo‘lishiga Markaziy Osiyo tog‘larida yarim qimmatbaho toshlar — Sharqda nihoyatda qadrlangan lazurit, nefrit, aqiq, feruzalar qazib chiqariladigan konlarni topib, qazib olish ko‘p jihatdan ko‘maklashgan. Masalan, Markaziy Osiyodan Eronga, Mesopotamiyaga va hatto Misrga lazurit toshi yetkazib beriladigan „lazurit yo‘li“ mavjud edi. U bilan bir paytda „nefrit yo‘li“ ham tarkib topgan, bu yo‘l Xotan va Yorkent tumanlarini Shimoliy Xitoy mintaqalari bilan bog‘lar edi. Bundan tashqari, Old Osiyo mamlakatlariga So‘g‘diyona va Baqtriya davlatlaridan aqiq toshlari olib ketilar edi, Xorazmdan esa feruza keltirilgan. Bu yo‘nalishlarning barchasi oxir-oqibat Buyuk Ipak yo‘liga kirib mujassamlashgan.

Markaziy Osiyodan G‘arbga va Janubga o‘tkazilgan karvon yo‘llarini hamda Xitoydan Sharqiy Turkistonga olib boradigan yo‘llarni o‘zaro bog‘lab bergan buyuk yo‘lning haqiqiy boshlanishini tarixchilar eramizdan avvalgi ikkinchi asrning o‘rtalarida, deb hisoblaydilar, o‘sha davrda xitoyliklar uchun ilk bora G‘arb o‘lkalari — Markaziy Osiyo davlatlari kashf etilgan edi.




So‘z tarkibidagi biror bo‘g‘inning yoki gapdagi so‘zlardan birining boshqalariga nisbatan kuchliroq, cho‘ziqroq aytilishiga **urg‘u** deyiladi: Bola" , bolala"r.

Urg‘u ikki xil bo‘ladi: **gap urg‘usi** va **so‘z urg‘usi.**

**Gap urg‘usi** - ma’no urg‘usi yoki **mantiqiy urg‘u** ham deyiladi.

Gapda so‘zlovchining e’tibori qaratilgan bo‘lak kesim oldida joylashadi va mantiqiy urg‘u oladi:

***Men*** *kecha Samarqanddan Toshkentga samolyotda keldim.* ***Men*** - ega- mantiqiy urg‘u olgan.

*Men* ***kecha*** *Samarqanddan Toshkentga samolyotda keldim.* ***Kecha*** - payt holi mantiqiy urg‘u olgan.

*Men kecha* ***Samarqanddan Toshkentga*** *samolyotda keldim* — ***Samarqanddan Toshkentga*** - to‘ldiruvchi mantiqiy urg‘u olgan.

So‘z urg‘usi - so‘zdagi bo‘g‘inlardan biriga tushadi. o‘zbek tilida asosan so‘z urg‘usi oxirgi bo‘g‘inda bo‘ladi: *qalam* — *qalamdon* — *qalamdonda*.

So‘z urg‘usining ikki xil vazifasi bor:

l.So‘zdagi b o ‘g ‘inlardan biriga tushadi, urg‘uli bo‘g‘in boshqalariga nisbatan kuchliroq, cho‘ziqroq talaffuz qilinadi.
2.Shakldosh so‘zlarda m a’no farqlash vazifasini bajaradi, bunda shakldosh (omonim) so‘zlarda urg‘u yordamida m a’no farqlanadi: *Ho‘zir keldi* (payt ma’nosida *qachon keldi?) Hozir bo‘ldi* (*tayyor, shay* ma’nosida*), bog‘lar* (ot) *bo‘glar* (fe’l*), kunda kelmoq* (ravish), *kunda toblanmoq* (ot).

**Tayanch so‘zlar:** Buyuk ipak yo‘li, qadimiy, Sharq, G‘arb, karvon, savdo, urg‘u, gap urg‘usi, so‘z urg‘usi, so‘z, bo‘lak, mantiqiy, leksik, logok, ma’no.

**Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**
1.Buyuk ipak yo‘linima?
2.Buyuk ipak yo‘li yurtimizdagi qaysi qadimiy shaharlarni tutashtirgan?
3.Urg‘u deb nimaga aytiladi?
4.Urg‘uning qanday turlari bor?
5.Leksik (so‘z) urg‘usi qanday ifodalanadi?
6.Logik (gap) urg‘usi qanday ifodalanadi?

## Topshiriqlar

**1-topshiriq:** So‘zlarni o‘zbek tiliga tarjima qiling va ular ishtirokida to‘rtta gap tuzing, gapdagi lo‘gik va leksik urg‘ularni aniqlang.
Играть, проходить, четыре, десять, лес, растение, правый, спросить, товарищ.

**2-topshiriq:**Quyidagi so‘zlarni o‘qing, talaffuz hamda yozilishiga e’tibor bering va so‘z urg‘usini qo‘ying.
Mudir, muhim, mumkin, ko‘mir, temir, pushti, umid, muxbir, kulgi, tulki, to‘siq, to‘lqin, og‘il.

**3-topshiriq:** Quyidagi so‘z birikmalarini o‘qing. o, a, i tovushlarining talaffuziga e’tibor bering va urg‘ularni belgilang.
Qon tomiri, qora qosh, oppoq qor, qaror qilmoq, baland qayrag‘och, chiroyli qaldirg‘och, qarag‘ay daraxti.

**4-topshiriq:** Quyidagi so‘zlarga urg‘uni to‘g‘ri qo‘yib o‘qing.
Qon, qop, qor, qoch, qaysi, qal’a, qamchi, qani, qaror, qayrag‘och, qaldirg‘och, qarag‘ay.

## 15-MAVZU: ”Men sevgan kasb” mavzusida insho

REJA:

1.Insho turlari haqida tushuncha berish.

2.Insho yozish tartibini tushuntirish

Har bir kasbning o‘ziga yarasha sir – asrori bo‘ladi. Dunyoda kasblar ko‘p va xilma-xil. Qadim-qadimdan odamlar ovchilik, chorvachilik, dehqonchilik, kosibchilik kabi ishlar bilan shug‘ullanib kelishgan. Jamiyat rivojlangan sari ortib borayotgan ehtiyoj va talabni qondirish uchun kasblar ham ko‘payib bormoqda. Bugungi kunda jamiyatimizni to‘quvchi, matbaachi, dizaynchi, tikuvchi, g‘isht teruvchi, harf teruvshi, o‘qituvchi, tarbiyachi, uchuvchi, xonanda, rassom, temirchi, yozuvchi, menedjer va hokazo kasblarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi.

### Qurilish

Qurilish biror inshoot tayyorlash jarayoni, shuningdek shunday jarayon ketayotgan joydir. Qurilish murakkab jarayon bo‘lib, unda bir necha vazifalar amalga oshiriladi.

Qurilish— moddiy ishlab chiqarishning yirik sohalaridan biri; turli maqsadlardagi bino va inshootlarni qurish va rekonstruksiya qilish; ishni yuritish uchun foydalaniladigan hudud bilan birga qurilayotgan bino (inshoat); keng ma’noda yaratuvchilik jarayoni. Tugallangan va foydalanishga topshirish uchun tayyorlangan ishlab chiqarish korxonalari, turar joylar, jamoat binolari, inshootlari va boshqa obyektlar qurilish mahsulotlari hisoblanadi.

Qurilishda ishlab chiqarish tartibi nisbatan uzun bo‘lib (bir necha oydan bir necha yilgacha), ishlab chiqarish jarayoni turli ob-havo sharoitida ochiq usulda olib boriladi. Pudrat va xo‘jalik usulidagi qurilishni va montaj ishlarini, shuningdek, bino, inshoatlarni kapital ta’mirlash ishlarini qurilish tashkilotlari va maxsus tashkilotlar; loyihalash, loyiha - konstruktorlik va qidiruv tashkilotlari; foydalanishga topshirish va razvedkaparmalash tashkilotlari amalga oshiradi. Tiklanadigan ob’yekt xususiyatlariga ko‘ra sanoat, transport, qishloq, suv xo‘jaligi, uy-joy, kommunal, ijtimoiy-madaniy va boshqa qurilishlarga bo‘linadi.

## 16-MAVZU: O‘zbekistonning qadimiy shaharlari.

## O‘zbek yozuvi tarixidan.

REJA:

1.Qadimiy shaharlar haqida ma’lumot.
2.Qadimiy shaharlarimiz - milliy ma’daniyatimiz timsoli.
3.Yozuv turlari haqida qisqacha ta’rif.
4. Alifbolardagi o‘zaro farqlar.
5.Lotin imlosiga ko‘chishning nazariy va amaliy ahamiyati

**Samarqand** — jahonning eng qadimiy shaharlaridan biridir. O‘tmishning shoirlari va tarixchilari uni chinakam «Sharqning jannatmakon bog‘i», «Yer yuzi», «Sharq olamining bebaho durdonasi», «Jahon mamlakatlarning bezagi» kabi go‘zal o‘xshatishlarni bejiz bag‘ishlamagan edilar.

**Buxoro**ga borib, shu qadimiy shaharni ko‘rgan kishilarning barchasi minoralarning tepalaridagi g‘alati ko‘rinishdagi «qalpoqlarga» e’tibor bergan bo‘lsalar kerak. Bular laylak uyalaridir. Umidning timsoli bo‘lgan bu oppoq qushlar shaharning ramzi, uning barqarorligi va sadoqatining ham ramzi bo‘la oladi.

**Xiva** — muzey-shahar, lekin Rim shahri kabi aholi yashaydigan shahardir. Sharqning ko‘pgina shaharlari kabi Xiva Amudaryoning quyi oqimida joylashgan Xeyvak nomli suv havzasi yonida barpo etilgan bo‘lib, Xorazm vohasining sug‘oriladigan yerlarida rivojlanib kelgan.

**Shahrisabz** — Amir Temur shahri, bu yerda hamma narsa u yoki bu tarzda uning nomi bilan bog‘liq. Bu yerda uning otasi Muhammad Tarag‘ay va ma’naviy ustozi Shamsiddin Kulol ko‘milganlar, bu yerda uning katta o‘g‘illari Jahongir Mirzo va Umarshayx Mirzolar go‘ri joylashgan.

**Yozuv** dastlab Misopotamiyada paydo bo‘lgan va bu yozuv tarixga **mixxat** nomi bilan kiritilgan.

1.Eramizdan oldingi IV-V asrlarda O‘rta Osiyoning Eronga yaqin hududlarida rasmiy yozuv sifatida mixxat yozuvi ishlatilgan.
2.Hozirgi eramizdan boshlab, taxminan VI asrgacha so‘g‘d yozuvi ishlatilgan.
3.V-VIII asrlar davomida turkiy xalqlar O‘rhun-Enasoy yozuvidan foydalanishgan.
4.VI-VII asrlardan to XV asrlargacha turkiy va mo‘g‘illar uyg‘ur yozuvidan foydalanishgan.
5.VIII-XII asrlarda arab yozuvi tarqala boshlagan. Xalqimiz taxminan besh asrdan ko‘proq vaqt davomida arab alifbosidan foydalangan.
6.XII asrdan XX asrning 20-yiligacha arab-fors alifbosi qollanilgan (Bu yozuv o’zbek tili tarixida “Eski o’zbek yozuvi” nomi bilan ataladi).

7.1920-1931 yillarda isloh qilingan eski o’zbek yozuvi tatbiq etilgan.
8. 1931-1941 - yiliarda lotin alifbosi asosidagi yangi yozuvi amalda qo’llanilgan.
9.1941- yildan boshlab esa rus(kirill) grafikasi asosida yangi o‘zbek alifbosiga o‘tilgan edi.
10. 1993-yil 2-3 sentabrda bo‘lib o‘tgan Oliy Kengashning 13-sessiyasida o‘zbek yozuvini lotin alifbosiga o‘tkazish to‘g‘risida qonun qabul qilindi.

Tarixda o‘zbek tilini yozish uchun ko‘p alifbolardan qo‘llanilgan. 1931-yilgacha savodli kishilar o‘zbek tilini arab yozuvida yozishgan. 1931-yildan 1941-yilgacha o‘zbek tili lotin yozuvida yozilgan. 1941-yil Iosif Stalinning buyrug‘i bilan majburan kirill yozuviga o‘tilgan. 1992-yilgacha o‘zbek tili shu yozuvda yozilgan. 1993-yil O‘zbekiston rasman lotin yozuvini yana qaytadan kirgizdi. Hozirda O‘zbekistonda ta’lim joylarida lotin yozuvidan qo‘llaniladi. Shunday bo‘lsa ham yoshi kattalar va O‘zbekiston tashqarisida yashaydigan o‘zbeklar hali ham kirill yozuvini qo‘llanishadi.

| **Alifbodagi o‘zaro farqlar** | | | | |
|---|---|---|---|---|
| **Arabcha** | **Lotincha** | **Kirillcha** | **Lotincha** | **Xalqaro fonetik alifbo** |
| **1920-1931** | **1931—-1941** | **1941—1992** | **1993-…** | |
| **ا, ه** | **Ə ə** | **А а** | **A a** | **[a], [æ]** |
| **ب** | **B b** | **Б б** | **B b** | **[b]** |
| **د** | **D d** | **Д д** | **D d** | **[d]** |
| **ه** | **E e** | **Э э** | **E e** | **[ɛ]** |
| **ف** | **F f** | **Ф ф** | **F f** | **[f]** |
| **گ** | **G g** | **Г г** | **G g** | **[g‘]** |
| **ح, ه** | **H h** | **Ҳ ҳ** | **H h** | **[h]** |
| **ی** | **I i** | **И и** | **I i** | **[ɪ]** |
| **ج, ژ** | **Ç ç, Ƶ ƶ** | **Ж ж** | **J j** | **[ʤ]** |
| **ك** | **K k** | **К к** | **K k** | **[k']** |
| **ل** | **L l** | **Л л** | **L l** | **[l]** |
| **م** | **M m** | **М м** | **M m** | **[m]** |
| **ن** | **N n** | **Н н** | **N n** | **[n]** |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| ا | **A a** | **O o** | **O o** | **[ɔ]** |
| پ | **P p** | **П п** | **P p** | **[p]** |
| ق | **Q q** | **Қ қ** | **Q q** | **[q]** |
| ر | **R r** | **Р р** | **R r** | **[r]** |
| ث, س, ص | **S s** | **С с** | **S s** | **[s]** |
| ت, ط | **T t** | **Т т** | **T t** | **[t]** |
| و | **U u** | **У у** | **U u** | **[u]** |
| و | **V v** | **В в** | **V v** | **[v], [w]** |
| خ | **X x** | **Х х** | **X x** | **[x]** |
| ی | **J j** | **Й й** | **Y y** | **[j]** |
| ذ, ز, ض, ظ | **З з** | **Z z** | **Z z** | **[z]** |
| و | **O o** | **Ў ў** | **O‘ o‘** | **[o]** |
| غ | **Ƣ ƣ** | **Ғ ғ** | **G‘ g‘** | **[ɣ]** |
| ش | **Ş ş** | **Ш ш** | **Sh sh** | **[ʃ]** |
| چ | **C c** | **Ч ч** | **Ch ch** | **[ʧ]** |
| ء, ع | **'** | **Ъ** | **’** | **[ʔ]** |

O‘zbekistonda 1931-yilgacha arab yozuvidan foydalanilgan. 1920-yillarning o‘rtalaridan O‘zbekistonda arab yozuviga keng hujum boshlandi. Arab yozuvi qoloqligimizning, savodsizligimizning, dindorligimizning sababchisi deb e’lon qilindi. 1931-1941 o‘quv yilidan O‘zbekiston lotin yozuvi (yanalif)da ish olib borilgan va biz o‘zbek xalqining asrlar davomida yaratilib kelingan hamda chop etilgan ilmiy, badiiy va falsafiy adabiyotdan uzilib qoldik.

**A a B b C c Ç ç D d E e Ə ə F f**
**G g Ƣ ƣ H h I I J j K k L l M m**
**N n Ŋ ŋ O o Ɵ ɵ P p Q q R r S s**
**Ş ş T t U u V v X x Y y Z z Ƶ ƶ**

1941-yilda O‘zbekistonda kirill yozuviga o‘tildi. Buning natijasida 1931-1941-yillar oralig‘ida chop etilgan ilmiy, badiiy, pedagogik, o‘quv adabiyotlardan uzilib qoldik.

**А а Б б В в Г г Д д Е е Ё ё Ж ж**
**З з И и Й й К к Л л М м Н н О о**
**П п Р р С с Т т У у Ф ф Х х Ц ц**
**Ч ч Ш ш Ъ ъ Ь ь Э э Ю ю Я я Ў ў**
**Ққ Ғғ Ҳҳ**

1941-yildan 1992-yilgacha o’rta hisob bilan o‘zbek tilida 50 ming nomda 50 million nusxada kitoblar chop etilganini(bunga shu yillari nashr etilgan jurnal, gazetalar kirmaydi) hisobga olsak, biz yana lotin yozuviga o‘tishda qanchadan-qancha adabiyotdan yiroqlashishimiz mumkinligi ayon bo‘ladi.

**Lotin yozuviga ko‘chish**

Dunyoning eng rivojlangan mamlakatlari (ularni sanab o’tirishning hojati yo‘q) lotin yozuvidan foydalanadilar.

**A a B b D d E e F f G g H h I i**
**J j K k L l M m N n O o P p Q q**
**R r S s T t U u V v X x Y y Z z**
**O‘ o‘ G‘ g‘ Sh sh Ch ch ng**

Demak, O‘zbekistonni dunyoning rivojlangan mamlakatlari qatoriga qo‘shilishi uchun lotin yozuviga o‘tish maqsadga muvofiqdir. O‘zbekistonda bu jarayon bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda .

**Tayanch so‘zlar:** qadimiy, milliy, an’anaviy, shahar, alifbo, alfavit, yozuv, bosma, yozma, tasnif, oromiy, kirill, lotin.

**Tayanch so‘zlar:** qadimiy, milliy, an’anaviy, shahar, alifbo, alfavit, yozuv, bosma, yozma, tasnif, oromiy, kirill, lotin.

**Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. Qadimiy shaharlarga xos qanday xususiyatlar mavjud?
2. Yurtimizdagi va dunyodagi qanday qadimiy shaharlarni bilasiz?
3. O‘rta Osiyo xalqlari eramizgacha bo‘lgan davrda qanday yozuv turlaridan foydalanishgan?
4. O’rxun- Yenisey yozuvlari haqida nimalarni bilasiz?
5. Arab yozuvining O‘rta Osiyoda qo‘llanilishi.
6. Kirill yozuviga o‘tilishining tarixiy sabablari.
7. Lotin imlosiga o‘tishning nazariy va amaliy ahamiyati.

**Topshiriqlar**

**1-topshiriq:**Quyidagi so‘z birikmalarini o‘qing. o, a, i tovushlarining talaffuziga e’tibor bering.

Qon tomiri, qora qosh, oppoq qor, qaror qilmoq, baland qayrag‘och, chiroyli qaldirg‘och, qarag‘ay daraxti.

**2-topshiriq:**Quyidagi so‘zlarni o‘zbek tiliga tarjima qiling va ular ishtirokida gap tuzing.
Погода, охота, голос, звук, еда, столовая, пицца.

**3-topshiriq:**Nuqtalar o‘rniga x, h undoshlaridan mosini qo‘yib, maqollarni ko‘chiring.
1. ...alq ishi-...aq ish. 2. Odamning ...usni me...natda. 3. Ish ishta...a ochar. 4. ...alol ish-lazzatli yemish. 5. ...azina g‘oyibdan emas, me...natdan. 6. Suvsiz ...ayot, me...natsiz ro...at bo‘lmas. 7. Me...nat ba...t keltirar.

## 17-MAVZU: O‘zbekistonning zamonaviy shaharlari. Alifbo. Tovush va harf.

REJA:
1. Shaharlarimiz - ma’daniyatimiz timsoli .
2. Alifbo va uning paydo bo‘lishi.
3. Tovush va nutq tovushlari.
4. Harf va alfavit.

**Toshkent**ning buyuk o‘tmishi haqida guvohlik beruvchi ulkan me’moriy obidalar, shahar ko‘rkiga ko‘rk qo‘shayotgan, mustaqillik yillarida barpo etilgan muhtasham zamonaviy binolar, muxtasar aytganda, poytaxtimizning boy tarixi va hozirgi taraqqiyoti “O‘zbekiston madaniyati va san’ati forumi” jamg‘armasi tomonidan chop etilgan to‘plamda aks etgan. “Toshkent – bir shahar tarixi” deb nomlangan ushbu nashr Toshkentning 2200 yilligiga bag‘ishlangan. To‘plam shahar yubileyini xalqaro miqyosda nishonlashda faol ishtirok etayotgan nufuzli tashkilot – YUNESKO bilan hamkorlikda chop etilgan.

Toshkent shahridagi zamonaviy binolarning arxitekturaviy-badiiy obrazibugungi kunda yurtimizda yangi qurilayotgan ayrim binolarda milliylik ruhi sezilarli darajada namoyon etilgan. Binolarda ishlatilayotgan milliy ornamentlar va ularning zamonaviy ko‘rinishdagi talqini diqqatimizni o‘ziga jalb etadi. Shuni ta’kidlash lozimki, binoda xoh u tarzda bo‘lsin, xoh interyerda, an’anaviy dekorativ grafika elementlarining zamonaviy qiyofadagi ko‘rinishi binolarimizning ko‘rkiga ko‘rk qo‘shib turibdi. Bunday binolarimiz qatoriga yangi qurilgan Xalqaro forumlar saroyi, Yoshlar ijod markazi, Liboslar galereyasi va yana ko‘plab mustaqillik yillarida bunyod etilgan binolarimizni kiritishimiz mumkin.

**Alifbo** (arab alifbosining boshlang‘ich ikki harfi — **alif** va **be** nomidan olingan) — biror tilning yozuviga qabul qilingan va ma’lum an’anaviy tartib

berilgan yozuv belgilari (mas, arab alifbosi, lotin alifbosi) yoki bo‘g‘in belgilar (mas, hind alifbosi — devanagari) majmui.

Alfavit- ma’lum bir tartibda joylashtirilgan harflar yig‘indisi.

Tabiatdagi barcha tovushlarni o‘rganish bilan “Fizika” fanining “Akustika” bo‘limi shug‘ullanadi. Akustika tovush ikki xil usul bilan hosil qilinadi, deb o‘rgatadi:

1. Havoning tebranishi
2. Havo bosimining siqilishi natijasida

Demak, tovush kislorod, ya’ni havo bor joyda eshitiladi, vakuum (havo yo‘q joy) holatida tovush hosil bo‘lmaydi.

Nutq tovushlari o‘pkadan chiqayotdan havo oqimining bo‘g‘iz va og‘iz bo‘shlig‘ida to‘siqqa uchrashi yoki un paylarining tebranishi natijasida hosil bo‘ladi Nutqimizda ko‘plab tovushlarni tallafuz qilamiz, ammo yozuvda bir necha tovushnigina ma’lum belgilar bilan ifodalaymiz.

Nutq tovushlarining yozuvdagi shakli harf deb ataladi. Nutq tovushlarini tallafuz qilamiz va eshitamiz. Harflarni esa ko‘ramiz, yozamiz va o‘qiymiz.

O‘zbek tilida 6 ta unli, 23 ta undosh harf bor.

**Tayanch so‘zlar:** zamonaviy, ma’daniyat, mustaqillik, timsol, qadriyat, alifbo, tovush, nutq tovushi, harf, alfavit, eshitmoq ko‘rmoq, yozmoq, o‘qimoq.

**Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1.Mamlakatimizdagi qanday zamonaviy shaharlarni bilasiz?
2.Alifbo nima va u dastlab qanday paydo bo‘lgan?
3.Tovush nima?
4.Nutq tovushlari tabiatdagi boshqa tovushlardan qanday farqlanadi?
5. Harf nima? Alfavit-chi?
6. Tovush bilan harf munoobatini qanday izohlaysiz?

## Topshiriqlar

**1-topshiriq:** Quyidagi so‘zlarni o‘zbek tiliga tarjima qiling hamda tovush va harflar mutanosibligini kuzating.

Погода, охота, голос, звук, еда, столовая, пицца.

**2-topshiriq:** Nuqtalar o‘rniga <u>x</u>, <u>h</u> undoshlaridan mosini qo‘yib, maqollarni ko‘chiring.

1. ...alq ishi-...aq ish. 2. Odamning ...usni me...natda. 3. Ish ishta...a ochar. 4. ...alol ish-lazzatli yemish. 5. ...azina g‘oyibdan emas, me...natdan. 6. Suvsiz ...ayot, me...natsiz ro...at bo‘lmas. 7. Me...nat ba...t keltirar.

**3-topshiriq:** Quyidagi so‘zlarni rus tiliga tarjima qiling.
Ot, tom, moy, son, don, bosh, osh, joy, kon, lola, mol, mohir, nok, non.

## 18- MAVZU: Konstitutsiya-qomusimiz

## Orfoepiya va orfografiya.Talaffuz va imlo qoidalari.

REJA:

1. Konstitutsiya so‘zini sharhlash.
2. O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi haqida ma’lumot.
3. Orfoepiya va uning o‘rganish ob’yekti
4. O‘zbek tili orfoepiyasi va qoidalari
5.Orfografiyaning o‘rganish ob’yekti.
6. Orfoepiya va orfografiyaning o‘xshash va farqli jihatlari.




**Konstitutsiya** (lot. **constitutio — tuzilish, tuzuk**) — davlatning asosiy qonuni. U davlat tuzilishini, hokimiyat va boshqaruv organlari tizimini, ularning vakolati hamda shakllantirilish tartibi, saylov tizimi, fuqarolarning huquq va erkinliklari, shuningdek, sud tizimini belgilab beradi. Konstitutsiya barcha joriy qonunlarning asosi hisoblanadi.



Konstitutsiya davlatchilik belgisidir. Birbiridan farqlanuvchi yuridik va haqiqiy (faktik) konstitutsiya tushunchalari bor. Yuridik konstitutsiya ijtimoiy munosabatlar doirasini tartibga soluvchi ma’lum huquqiy normalar tizimi. Haqiqiy konstitutsiya esa — shunday munosabatlarning o‘zi, ya’ni real mavjud munosabatlardir.




Konstitutsiya" atamasi Qadimiy Rimdayoq bor edi (imperator konstitutsiyasi deb atalgan qonun).

Xalqaro konstitutsiyaviy tajribalarni o‘rganish, xalqaro hujjat qoidalarini inobatga olish, milliy davlatchilik an’analardan kelib chiqish natijasida yaratilgan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan) jahon andozalariga mos bo‘lib, xalqaro talablarga javob beradi.






**Orfoepiya** (**orto yun. epos — nutq, talaffuz**) —1) tilshunoslikning adabiy talaffuz me’yorlarini o‘rganuvchi bo‘limi; 2) muayyan milliy tilning talaffuz me’yorlariga mos holda bir xil talaffuzni ta’minlovchi qoidalar tizimi va ularga rioya qilish.




Og‘zaki nutq talaffuzining bir xilligi, imlo (orfografiya) kabi lisoniy muomalani yengillashtiradi. Orfografiya ko‘lamining bir xil belgilanmasligining sababi shunda-ki, ba’zi olimlar talaffuz me’yorlari tushunchasiga fakat tovushlarni talaffuz qilishni, boshqalari esa urg‘uni ham, ba’zan variantdor grammatik shakllar hosil bo‘lishini ham kiritadi.




So‘zlovchi o‘z nutqiga beparvo qarashi orqasida, o‘z shevasi ta’sirida ayrim fonemalar turli o‘zgarishlarga duch keladi, so‘zning ba’zi birliklari

qisqaradi. Masalan, *olib keldi — obkeldi; olib bordi — obbordi*. Bu qisqartgan talaffuzdir.




O‘zbek adabiy tilining asosiy orfoepik qoidalari unli va undosh fonemalarning talaffuzi, morfologik birliklarning aytilishi, so‘z birikmalarining talaffuz qilinishi kabilarni o‘z ichiga oladi. Shunga ko‘ra umumiy orfoepik me’yorlar belgilanadi. Orfoepik me’yorlar, odatda transkripsion belgilar vositasi bilan ifodalanadi.




Orfoepiya orfografiya bilan zich bog‘langan. Biroq so‘zning yoki so‘z shakllarining jonli talaffuzi hamma vaqt ham ularning yozuvdagi ifodasiga teng bo‘lavermaydi. Jumladan, yozuvda bor ba’zi tovushlar talaffuzda sezilmaydi: *biroq*, *bilan*, *tuhmachchi*, *adabiyochchi* kabi; yozuvda berilgan tovushlar talaffuzda tushib qoladi: *badbax*, *ayolman*, *abstrak*, *Samarqan* kabi; yozuvda ifodalangan tovush talaffuzda boshqasi bilan almashtiriladi*: obod-obot*, *kitob-kitop*, *peshvoz-peshvos* kabi.

**Orfografiya (yun. orthos — to‘g‘ri va grafiya)** — to‘g‘ri yozish haqidagi qoidalar tizimi; 2) tilshunoslikning shunday kridalar tizimini ishlab chiqadigan bo‘limi.Orfografiya grekcha *to‘g‘ri yozmoq* demakdir.




So‘z o‘zak-negizlari va qo‘shimchalarini yagona tarzda yozish haqidagi qoidalar yig‘indisi **orfografiya** deyiladi.




Orfografiya adabiy tilning yozma shakliga xosdir. Orfografiya o‘z navbatida orfoepiya va alifbo (grafika) bilan uzviy bog‘liqdir. Lekin o‘zbek orfografiyasida hali anchagina kamchiliklar va ba’zi chalkashliklar uchraydi. Bunga sabab: 1) o‘zbek alifbosidagi kamchiliklar: 2) orfoepiyaning ishlanmaganligi; 3) qo‘shma so‘zlar imlosining bo‘sh ishlaganligidir.




**O‘zbek orfografiyasining tamoyillari**

**Tamoyil (prinsip) – lotincha boshlanish** demakdir. Imloviy tamoyillar yozuvning poydevoridir. Orfografiyaning uchta asosiy tamoyili bor: 1) *fonetik tamoyil*; 2) *morfologik tamoyil*; 3) *tarixiy-an'anaviy tamoyil*. Bulardan tashqari, 4) *differensial tamoyil* va 5) *grafik* yoki *etimologik tamoyillar* ham mavjud.




Lekin keyingi ikkalasi asosiy rol o‘ynamaydi. O‘zbek orfografiyasidagi mazkur tamoyillar o‘zaro bog‘liq holda ish ko‘radi. Yozuvda xilma-xillikka yo‘l qo‘ymaslik uchun bularga qat'iy rioya qilinadi.




**Tayanch so‘zlar**: konstitutsiya, qomus, qonun, modda, fuqaro, davlat, jamiyat, orfoepiya, orfografiya, grafika, imlo, tamoil, fonetik, differensial, etimologik, morfologik.

**Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. Konstitutsiya nima?
2. Qomus nima?
3.O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi qachon qabul qilingan?
4. O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi nechta moddadan iborat?
5.Orfoepiya nimani o‘rgatadi?
6.Qanday talaffuz qoidalarini bilasiz?
7. O‘zbek tilining talaffuz qoidalari.
8.Orfografiya nimani o‘rgatadi?
9.O‘zbek orfografiyasi qanday tamoyillarga asoslanadi?
10. Orfoepiya va orfografiyaning o‘xshash va farqli jihatlari qanday aks etadi?

## Topshiriqlar

**1- topshiriq:** Matnni o‘qing. Sozlarning og‘zaki va yozma tartibiga e’tibor bering.

### Haykaltaroshlik

**Haykaltaroshlik** - tasviriy sanat turi; borliqni hajmli shakllarda, makonda uch o‘lchamda tasvirlashga asoslanadi. Tasvir ob’yekti, asosan, inson; shuningdek, hayvonlar (anima-listika), tabiat (manzara) va narsalar (natyurmort). H.ning 2 asosiy ko‘rinishi — aylanib kuzatish imkonini beruvchi dumaloq haykal hamda faqat bir tomondan ko‘rishga mo‘ljallangan bo‘rtma (qabariq) tasvir relyef turi farqlanadi. Relyef, o‘z navbatida, yuzaga nisbatan bir oz bo‘rttirib ishlanadigan barelyef hamda tasvir yuzaga nisbatan ancha bo‘rttirib ishlanadigan gorelyefta bo‘linadi; shuningdek nursoya o‘yini hisobiga tasvir ko‘zga tashlanadigan tekis yuzaga ishlanadigan yana o‘yma ko‘rinish mavjud.

Haykaltaroshlik. bajaradigan vazifasi va mazmuniga koʻra bir necha turlarga boʻlinadi: monumental haykaltaroshlik, bezak haykaltaroshligi, dastgoh. mayda haykaltaroshlik turlari oʻzaro yaqin aloqada rivojlanadi hamda oʻziga xos xususiyatlarga ega. Me’morlik san’ati bilan bogʻliq boʻlgan monumental haykaltaroshlikka muhim tarixiy voqealar, atoqli shaxslar xotirasini abadiylashtirish maqsadida oʻrnatilgan monument, yodgorliklar, haykaltaroshlik ansambllari kiradi, ular oʻzida katta mazmunni ifodalaydi hamda mustaqil ahamiyatga ega; biroq haykaltaroshlikning bu turi bevosita muhit, me’moriy insho-otlar hamda tabiat bilan uygʻun boʻlishi lozim, bu unga yanada ulugʻvorlik va ta’sirchanlik baxsh etadi. Monumental haykaltaroshlikka xos boʻlgan xislatlardan biri qahramonlarni koʻtarinki ruhda tasvirlashdir. Monumental haykaltaroshlik asarlari uzoqdan koʻrishga moʻjallanganligi sababli, katta-katta yaxlit shakllardan keng foydalaniladi; odam yuzidagi mayda unsurlar, kiyimdagi buklanishlar, mayda qismlar koʻrsatilmasligi mumkin.

**2-topshiriq: Rus tiliga tarjima qiling va oʻzbek tili va rus tilidagi talaffuz meyorlarini taqqoslang.**

Aka, alanga, aloqa, ogʻa, sentabr, noyabr ona, omon, quyosh, fido, baho, xola, lotin; mukofot ish, iz, qil, xirmon, ilhom, ikki, ixtisos, shoyi, tulki, volida, piramida, bilan, biroq, uy, kun, buzoq, buloq, Buxoro; butun, uchuq, usul, yulduz, mafkura, koʻzgu, uyqu oʻt, oʻq, oʻzbek, oʻsimlik, doʻppi, boʻtakoʻz, semizoʻt, gulkoʻrpa, ekin, esla, evara, ekran, eksport; kel, zehn, kecha, behi, telefon, teatr.

**3-topshiriq:** Matnni oʻqing mutaxassisligingizga oid soʻzlarni ajratib yozing va oʻqilishiga etibor bering.

## Muhandislik

**Muhandislik** inshoot, mashina, qurilma, tizim va materiallar qurish uchun ilmiy, iqtisodiy va ijtimoiy bilimlarni amaliyotga tadbiq etish hunaridir. Muhandislik bilan shugʻullanuvchi shaxs muhandis, deb ataladi.

Qurilish xalq xoʻjaligining barcha tarmoqlariga xizmat koʻrsatib, asosiy fondlarni qayta takror ishlab chiqarish uchun sharoitlarni ta’minlaydi, xalq xoʻjaligining maqbul tarkibini barpo etish, ishlab chiqaruvchi kuchlarni maqsadga muvofiq joylashtirish, respublikaning yangi tabiiy boyliklarini oʻzlashtirish, boʻsh mehnat resurslarini ijtimoiy ishlab chiqarish ga jalb etishga yordam beradi. Respublikada qurilish ishlari pudrat, sub-pudrat va qisman xoʻjalik usullarida olib boriladi.

Qurilish industriyasi negizini davlat, aksiyadorlik, shirkat, xususiy, qoʻshma va boshqa pudrat qurilishmontaj tashkilotlari, shuningdek, oʻz moddiy-

texnika va ishlab chiqarish bazasiga, malakali ishchi va mutaxassis kadrlarga ega bo‘lgan korxonalar, transport va boshqa yordamchi xo‘jaliklar tashkil etadi.

O‘zbekistonda qurilishmontaj kompaniyalari, korporatsiyalari, qurilish aksiyadorlik jamiyatlari va birlashmalari, quyi pudrat tashkilotlari, kichik korxonalar, qo‘shma korxonalar, loyiha va ilmiy hamda qurilish sohasiga moslashtirilgan ilmiy tadqiqot institutlari faoliyat ko‘rsatadi. Qurilishmontaj ishlarining deyarli barchasini ixtisoslashtirilgan qurilish tashkilotlari amalga oshiradi.

## 19- MAVZU: Ulug‘ ajdodlarimiz.
## Morfemika. So‘z aysalishi va tuzilishi.

REJA:

1.Xalqimizning mangu barhayot siymolari.
2. Tub va yasama so‘z haqida tushuncha.
3. O‘zbek tilida so‘z yasalishi - so‘z yasash usullari.
4. So‘zlarning tuzilishi jihatdan turlari.






Turon xalqining ahmoniylar bosqiniga qarshi kurashishga rahbarlik qilgan jasur sarkarda.
To`maris massagetlar podshosining xotini bo`lib, u erining vafotidan so`ng davlatni boshqargan.

## Al-Xorazmiy
## (780 - 850)

**Abu Abdulla Muhammad ibn Muso 780 yilda Xivada tug'ilgan. Xorazmiy dunyoga mashhur matematik va astronom sifatida tanilgan. Uning nomini tarixda qoldirgan buyuk asar «Al jabr val-muqobala» risolasidir.**

WWW.ARXIV.UZ



### Abu Ali Ibn Sino

(990-1037)

Markaziy Osiyo xalqlari madaniyatini O'rta asr sharoitida dunyo madaniyatining oldingi qatoriga olib chiqqan buyuk mutafakkirlardan biri-Abu Ali Ibn Sino bo'lib Ovropada Avitsenna nomi bilan mashhurdir.






So‘zning tub (lug‘aviy) ma’nosini bildirib, ma’noli bo‘laklarga bo‘linmaydigan qism **o‘zak** deyiladi: ***gul****zor*, ***bog‘****bon*, ***chiz****g‘ich*, ***paxta****kor*.




Bir o‘zakdan hosil bo‘lgan so‘zlar **bir xil o‘zakli** (**o‘zakdosh**) so‘zlar deyiladi: ***bil****im*, ***bil****imdon*, ***bil****ag‘on*, ***bil****uvchi*. Bunday so‘zlar o‘zaro sinonim ham bo‘lishi mumkin: *ser****hosil*** – ***hosil****dor*, *beg****‘ubor*** – ***g‘ubor****siz*, ***til****chi* – ***til****shunos*.

O‘zakka qo‘shilib, turli ma’nolarni ifodalaydigan qism **qo‘shimcha** deyiladi: *ish****chi***, *baho****la***, *olma****zor***, *ish****la***, *yoz****gi***.O‘zak va qo‘shimchalar **so‘zning ma’noli qismlari** (**morfemalar**)dir.

O‘zak so‘zdagi ma’noli qismlarning yetakchisi bo‘lib, u boshqa ma’noli qismlarga bo‘linmaydi. O‘zak so‘z tarkibida doim qatnashadi, qo‘shimchalar esa qatnashmasligi ham mumkin. Qo‘shimchalar ayrim qo‘llanmaydi, doim o‘zakka qo‘shilib keladi.




Qo‘shimchalar vazifasi va so‘zga qo‘shilib anglatadigan ma’nosiga ko‘ra uch turli bo‘ladi (Ayrim darsliklarda qo‘shimchalar ikki turga bo‘linadi: so‘z yasovchi va shakl yasovchi qo‘shimchalar):




**1.So‘z yasovchi qo‘shimchalar** o‘zakka qo‘shilib, yangi ma’noli so‘zlar hosil qiladigan qo‘shimchalardir: *o‘t – o‘t**loq**, arra – arra**la**, kuch – kuch**li**, hosil – **ser**hosil*. So‘z yasovchi qo‘shimchalar:*unum**li** (-li, -la, -chi, ser-, dosh, -kor) va*

*unum**siz*** (*-vul, -ag'on, -chil, -in, -a)* bo'lishi mumkin.




**2.So'z o'zgartiruvchi qo'shimchalar** gapda so'zlarni bir – biriga bog'laydigan qo'shimchalardir. Bular 3 turli bo'ladi: 1) kelishik qo'shimchalari: *kitob**ni***, *uy**ga***, *daftar**ning***. 2) egalik qo'shimchalari: *maktab**imiz***, *uka**m***, *bog'**i**.* 3) shaxs – son qo'shimchalari: *yedi**k***, *bordi**m***, *keldi**ng***, *yura**san***.

So'z o'zgartiruvchi qo'shimchalar so'zning o'zgarib turadigan qismidir.

**3.Shakl yasovchi qo'shimchalar** o'zakka qo'shilib, ma'noni biroz o'zgartiradigan, qo'shimcha ma'no orttiradigan, lekin yangi so'z yasamaydigan qo'shimchalardir. Bular so'zlarni bir–biriga bog'lash vazifasini bajarmaydi, balki kichraytirish, erkalash, chegaralash, kamlik, oshirish, kuchaytirish, gumon, taxmin kabi ma'nolarni ifodalaydi: *uy**cha***, *kitob**lar***, *katta**roq***, *oz**gina***, *yur**ib***, *ona**jon***, *bur**a***, *oqar**inqira**di*, *chay**qa***, *tep**kila***.




Qo'shimchalar tuzilishiga ko'ra 2 xil bo'ladi:

**1.Sodda qo'shimchalar** boshqa qo'shimchalarga ajralmaydi: *aql**li***.

**2.Murakkab qo‘shimchalar** kamida ikkita qo‘shimchaning qo‘shilishidan hosil bo‘ladi: *dehqon**chilik** odam**garchilik**, yordam**lash***.

O‘zakka so‘z yasovchi qo‘shimcha qo‘shilishidan hosil bo‘lgan qism **negiz** deyiladi*: **paxtakor**larga, **gulzor**da, **bilim**lilar*.

Shuni aytish kerakki, so‘zning **morfemik tarkibi** deganda uning o‘zak va qo‘shimchalardan iboratligi nazarda tutilsa, **morfologik tarkibi** deganda so‘zning negizi va shakl yasovchi, so‘z o‘zgartiruvchi qo‘shimchalar nazarda tutiladi.

Turli usullar yordamida so‘z hosil qilinishi **so‘z yasalish** deb ataladi. So‘zlar asosan 5 xil usul bilan yasaladi: 1. So‘z yasovchi qo‘shimchalar bilan yasaladi. 2. So‘zlarni qo‘shish bilan yasaladi. 3. So‘zlarni qisqartirib yasaladi.

4. Bir turkumdan boshqa turkumga so‘z o‘tishi yordamida yasaladi. 5. So‘zlarni takrorlash yordamida.

**1.So‘z yasovchi qo‘shimchalar** bilan ot, sifat, fe’l, ravish turkumiga oid so‘zlar yasaladi: *ish**chi**, aql**li,** ish**la**, yashir**in.*** Olmosh, son va yordamchi so‘zlar yasalmaydi.

**2.So‘zlarni qo‘shib, juftlab so‘z yasashda** qo‘shma va juft so‘zlar yasaladi: *qora+mol-qoramol, ko‘z+oynak-ko‘zoynak, idish – tovoq, apil – tapil, unda-bunda.*

Birdan ortiq so‘zning birikishidan yasalgan so‘zlar **qo‘shma so‘z** deyiladi: *choyquti, gultojixo‘roz, sotib oldi, himoya qildi, biroz, rahmdil*. Ikkita so‘zning juftlanishidan yasalgan so‘zlar **juft so‘zlar** deyiladi: *birin – ketin, qovun – tarvuz, omon – eson.*

**3.So‘zlar qisqartirib qo‘shish yo‘li** bilan ham yasaladi. Bular **qisqartma so‘z** deyiladi. Qisqartirib so‘z yasash faqat otlarda uchraydi: *elektron hisoblash mashinasi- EHM, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi – MDH.*

**4.So‘zlarning bir turkumdan boshqa turkumga ko‘chish yordamida so‘z yasalishi**: sifat va fe’l otga, son ravishga o‘tadi: *o‘g‘il bola* (o‘g‘il – sifat) *O‘g‘li keldi* (otga o‘tgan). *U soat **birga** (*son*) keldi. Akasi bilan **birga** (*ravish*) keldi.* O‘quv, yozuv, qurilish (fe’l otga o‘tgan). Boshqa turkumga ko‘chgan so‘zning ma’nosi va gapdagi vazifasi ham o‘zgaradi.

**5.So‘zlarni takrorlash yordamida so‘z yasalishi -** bunda so‘zlar takrorlanib yangi so‘zlar yasaladi: *paq-paq* (o‘yin), *tur – tur* (turish), *bip-bip* (avtobus), *pat – pat* (motosikl), *xola- xola* (o‘yin), *manman, yo‘l – yo‘l* (rang), *es – es* (zo‘rg‘a).

O‘zbek tilida so‘zlar tuzilish jihatidan quyidagi turlarga bo‘linadi:

**1.Sodda so‘zlar.** Sodda so‘zlar 2 xil bo‘ladi: tub so‘z, yasama so‘z. Tarkibida so‘z yasovchi qo‘shimcha bo‘lmagan sodda so‘zlar **tub so‘z** deyiladi: *kitoblar, ko‘proq, pishdi, yaxshiroq.* So‘z yasovchi qo‘shimcha qo‘shilishi bilan yasalgan sodda

so‘zlar **yasama so‘z** deyiladi: *uzum**zor**, ish**chi**, oq**la***. Yasama so‘z o‘zak va yasovchidan iborat bo‘ladi: *bil+**im**, ish+**chi***.

**2.Qo‘shma so‘zlar**: *xontaxta, tomorqa, asalari, kamgap, sotib olmoq.*

**3.Qisqartma so‘zlar :** *BMT, O‘zMU, Sanqurbank, pedkengash.*

**4.Juft so‘zlar:** *sabzi – piyoz, katta – kichik, o‘ynab – kulib, keldi – ketdi.*

**5.Takroriy so‘zlar:** *yashik – yashik, qator – qator, o‘ynab – o‘ynab.*

Ma’no jihatidan bir–biriga mos kelib, jamlik, umumiylik ma’nosini bildirgan so‘z **juft so‘z** deyiladi. Juft so‘zning har ikki qismi ham yakka holda mustaqil ma’no bildirishi mumkin yoki ikkinchi qismi yakka qo‘llanmaydigan so‘z bo‘lishi mumkin yoxud har ikkala qismi ham ma’no ifodalamasligi mumkin: *qozon – tovoq, arpa – bug‘doy, kiyim – kechak, yosh – yalang, apil – tapil.*

Juft so‘zlar qismlari ma’no jihatdan bir necha xil bo‘ladi:

***1.Bir turdagi yaqin predmetlarning nomlari***: *qosh – qovoq, oltin – kumush, qovun – tarvuz.*

***2.Sinonim so‘zlar***: *kuch – quvvat, asta – sekin, keksa – qari.*

***3.Butun va bo‘lak nomlari***: *oy – kun, vaqt – soat, tog‘ – tosh.*

***4.Antonim so‘zlar***: *kecha – kunduz, yaxshi – yomon, katta – kichik.*

Bir so‘zning qo‘shaloq kelishidan hosil bo‘lgan so‘zlar **takroriy so‘z** deyiladi: *baland – baland, qa-tor – qator, non – pon, choy – poy*. Takroriy so‘zlar ko‘plik, davomiylik, takror kabi ma’nolarni bildiradi: ***etak – etak** - gul, **ayta – ayta** charchadim*. Takroriy so‘zlarda ayni bir so‘zning takror holda qo‘llanishi natijasida grammatik ma’no ifodalanadi.

Ma’noni kuchaytirish uchun ketma–ket keltiriladigan so‘zlar takroriy so‘zlar hisoblanmaydi: ***Kiyimini** qara, **kiyimini**!*

## Topshiriqlar

**1-topshiriq:** Quydagi so‘zlarni tarjima qiling va gap tuzing:

Asr – asir , oriq – ariq, zirak – ziyrak, moy – may, orden – order beton – bidon.

**2- topshiriq:** O‘qing, so‘zlarning tuzilishiga ko‘ra turlarini aniqlang.

### Xushmuomalalik

Xushmuomalalik yarim baxtdir, ya’ni u baxt eshigini ochishi mumkin, xolos. Biroq, bu bilan baxtni uzoq ushlab bo‘lmaydi. O‘zingiz o‘ylang, inson xushmuomala bo‘lsa-yu, lekin mehribonlikni va g‘amxo‘rlikni bilmasa, birovning mushkulini oson qilmay faqat o‘zining shaxsiy manfaati uchun ish yuritsa, hurmatga sazovor bo‘lmaydi, yakkalanib qoladi.

Xushmuomalalik zaminida mehnatsevarlik bilan bir qatorda mehribonlik va g‘amxo‘rlik qaynab tursa, odam umrbod baxtli hayot gashtini suradi.

**3-topshiriq:**Maqollarni yod oling. Ruscha muqobilini toping:

1. Qo‘rqqanga qo‘sh ko‘rinar.

2. Egilganga egil, kerilganga keril.
3. Maqtanganning uyiga bor, kekkayganning to‘yiga.
4. Bir tovuqqa ham don kerak, ham suv kerak.

**4-topshiriq:**O‘zbek tiliga tarjima qiling va so‘zlarning tuzilishiga ko‘ra turlariga e`tibor bering.
1.Любите книгу – источник знаний. 2. В школьном саду кипит работа. 3.За завтраком мы обсудили вчерашнюю поездку. 4. Все мы должны беречь родную природу.

## 20-MAVZU: AlisherNavoiy – so`z mulkining sultoni.
## Grammatika. So`z turkumlari.

REJA:

1. A. Navoiy hayoti va ijodi haqida qisqacha ma’lumot.
2. Grammatika va uning o‘rganish ob’yekti.
3. Morfologiya va uning o‘rganish ob’yekti.
4. O‘zbek tilida so‘z turkumlari va unung turlari.




Yoshimg‘abag‘irqonichuerdimonand,
Ko‘zasradiyoshdekbo‘lubandinxursand.
Turmadi ko‘zumda etkach ul sarvi baland,
Bo‘lmas kishi farzandi kishiga farzand.
Chun xanjari hajring manga qat` etti hayot,
Bori g‘amu darding o‘qini tinmayin ot –

Kim, oncha qovursun par o‘lub butsa qanot,
Toyir bo‘lubon etkamen oxir sanga bot.







**Grammatika** atamasi grekcha *grammatike* so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, **“o‘qish va yozish haqidagi bilim”**degan ma’noni bildiradi.

Grammatika til haqidagi fanning bir qismi bo‘lib, u o‘z navbatida ikki qismga bo‘linadi: 1) **morfologiya** 2) **sintaksis**.




**Morfologiya** atamasi grekcha **morfe- shakl,logos- so‘z, fan** ma’nolarini bildiradi. Morfologiyada so‘z turkumlari o‘rganaladi.

**Sintaksis**da so‘z birikmalari, gap va uning turlari o‘rganaladi.

Tildagi so‘zlarning umumiy va grammatik ma’no va vazifalariga ko‘ra ma’lum guruhlarga bulinishi **so‘z turkumlari** deiladi. So‘z turkumlari quyidagi guruhlarga bo‘linadi:




**1.Mustaqil so‘z turkumlari-** lug‘aviy ma’noga ega bo‘lib, morfologik jihatdan o‘zgaradigan, gap ichida malum sintaktik vazifa bajaradigan so‘zlar dir. Bu guruhga ot, sifat, son, olmosh, fe`l, ravish kiradi.

**2.Yordamchi so‘zlar turkumi**ga mansub so‘zlar yakka holda man`no anglatmaydi, gap bo‘lagi bo‘la olmaydi, Grammatik ma’nolarni ifodalashga xizmat qiladigan so‘lardir. Ular mustaqil so‘zlar va ayirim gaplar o‘rasidagi muno‘sabatni anglatishga xizmat qiladi, so‘zga va gapning mazmuniga turli qo‘shimcha ma’nolar qo‘shadi. Yordamchi so‘zlarga ko‘makchi, bog‘lovchi, yuklama kiradi.

**3.Alohida olingan guruh so‘zlar –** lugaviy ma’no bildirmaydigan, lekin ba’zan gap bo‘lagi vazifasini bajaradigan so‘zlardir. Bularga modal so‘zlar, undov so‘zlar, taqlil so‘zlar kiradi.

Demak, o‘zbek tilida 12 ta so‘z turkumi mavjud.




**Tayanch so‘zlar**: Alisher Navoiy, asoschi, turkiy, grammatika, morfologiya, sintaksis, so‘z turkumlari, mustaqil, yordamchi, alohida.

**Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. Alisher Navoiy kim?
2. Uning qanday asarlari bor?
3. Grammatika nimani o‘rgatadi?
4. Morfologiya nimani o‘rgatadi?
5. Sintaksis nimani o‘rgatadi?
6.So‘z turkumlari deganda nima tushunasiz?
7. O‘zbek tilida nechta so‘z turkumi bor?

## Topshiriqlar

**1-topshiriq:** O‘qing. Rus tiliga tarjima qiling.

### Hadislardan namunalar

1.Ilmning ofati unutishdir. Uni noahil kishiga gapirish esa uni zoye qilishdir.

2.O‘zing yaxshi ko‘rgan narsangni o‘zgalarga ham yaxshi bil.

3.Agar biror yomonlik qilsang, ketidanoq yaxshilik qil.

4.Kimki g‘azabi kelsa, jim bo‘lsin.

5.Kechirimli bo‘linglar, shunda sizlarga ham kechirimli bo‘lishadi.

6.Olim boʻl (ilm beruvchi boʻl) yoki ilm oʻrganuvchi boʻl, yoki tinglovchi boʻl, yoki ilmga va ilm ahliga muhabbatli boʻl. Beshinchisi bilimsiz boʻlma, halok boʻlasan.
7.Uzr aytishga majbur qiluvchi ishlarni kamaytiringlar.
8.Odamlar orasini buzadigan chaqimchilikdan saqlaninglar.

**2-topshiriq:** Tez aytishlarni oʻqing va rus tilidagi muqobilini toping.
Botir botmas botqoqqa,
Bobur qoʻymas botmoqqa.
Sapura supadagi koʻrpacha yoniga supracha yozdi.

**3-topshiriq:** Suhbat
- Darsdan keyin nima qilmoqchisan?
- Darsdan keyin bozorga boraman.
- Biror nima xarid qilmoqchimisan?
- Ha, ertaga biznikiga mehmonlar kelishadi. Shunga xoʻl mevalar sotib olishim kerak.
- Qaysi bozorga borasan?
- Oloy bozoriga boraman. U yerda mevalar koʻp. Tanlash imkoniyati bor. Sen-chi, sen nima qilasan?
- Men darsdan keyin buvimnikiga boraman Bugun amakimning tugʻilgan kuni.

**4-topshiriq:** Berilgan maqollarni rus tilidagi muqobilini toping. Ularni yod oling.
1. Boshga balo tildan.
2. Yaxshi gapga ilon inidan chiqar, yomon gapga pichoq qinidan.
3. Bekorchidan el bezor.
4. Yigit soʻzidan, arslon izidan qaytmaydi.

## 21-MAVZU: Z.M. Bobur –shoh va shoir.
## Ot va uning grammatik xususiyatlari.

REJA:

1. Z.M. Bobur hayoti va ijodi haqida qisqacha ma’lumot.
2. Ot mustaqil soʻz turkumi.
3. Otning ma’no jihatdan turlari.
4. Otlarning tuzilish jihatdan turlari.
5. Ot mustaqil soʻz turkumining grammatik xususiyatlari.
6. Otlarnung yasalishi.



Jono, bitigingki, bo‘ldi marqum manga,
Mehnat bila g‘amni qildi ma’dum manga.
Ko‘rgach ani garchi shod behad bo‘ldum,
Mazmuni, vale, bo‘lmadi ma’lum manga.

Har kimki vafo qilsa, vafo topqusidur!
Har kimki jafo qilsa, jafo topqusidur!
Yaxshi kishi ko‘rmagay yomonliq hargiz,
Har kimki yomon bo‘lsa, jazo topqusidur! *(Z.M.Bobur)*




Shaxs, narsa m a’nolarini, shuningdek joy nom larini bildirib, *kim? nima? qayer?* so‘roqlariga javob bo‘ladigan so‘zlar **ot** deyiladi.

*Kim?* so‘rog‘i shaxsni bildiruvchi so‘zlarga *nima?* so‘rog‘i narsa - buyumni bildiruvchi so‘zlarga *qayer?* so‘rog‘i joy nomini bildiruvchi so‘zlarga beriladi. Shunga ko‘ra otlar shaxs otlari, narsa - buyum otlari, o‘rin -joy otlariga bo‘linadi. Masalan: *olma, bulut, do‘ppi; qiz, chol, Qo‘zivoy; qishloq, guzar, Toshkent.*

Otlar tuzilishiga ko‘ra **sodda, qo‘shma, jut** va **takroriy otlar**ga bo‘linadi.




**Sodda otlar** faqat bir asosdan tarkib topgan otlardir: *ishlarimiz, ko‘chadagi, o‘roq.*

Sodda otlar **tub** va **yasama** bo‘ladi.

Tarkibida so‘z yasovchi qo‘shim chasi bo‘lmagan o tlar **sodda tubotlar**dir: *tilimiz, bolalar, kitob*.Morfologik usul bilan (so‘z yasovchi qo‘shimchalar yordamida) yasalgan otlar **sodda yasama otlar**dir: *ekin, supurgi, aravakash.*

**Qo‘shma otlar** ikki yoki undan ortiq asosdan tarkib topgan otlardir: *kungaboqar, beshbarmoq, qo‘Iqop, boychechak*. Qo‘shma otlar qo‘shib yoki ajratib yoziladi:

• ikki va undan ortiq asosdan tarkib topgan turdosh otlar doim ajratib yoziladi: *laylakqor, olibsotar, tillaqosh, atirgul;*

• ikkinchi qismi turdosh otdan bo‘lgan atoqli otlar qo‘shib yoziladi: *Oltiariq, Yangibozor, Surxondaryo*;

• ikkinchi qismi atoqli otdan bo‘lg an qo‘shma otlar ajratib yoziladi: *O‘rta Osiyo, G‘arbiy Yevropa, O‘rta Chirchiq.*

**Juft otlar** ikkita otning juftlashuvidan hosil bo‘ladi va chiziqcha bilan yoziladi: *kitob-daftar, ota-ona, temir-tersak, ot-ulov,orzuarmon, gap-so ‘z*

**Takroriy otlar** otni aynan yoki tovush o‘zgarishi bilan takrorlash orqali hosil qilinadi. Takroriy otlar chiziqcha bilan ajratib yoziladi: *savat-savat, dasta-dasta, qovun-povun, uy-puy.*

**Tayanch so‘zlar:** “Boburnoma”, tarixiy, memuar, ot, mustaqil, xususiyat, turdosh, atoqli, yakka, juft, aniq, mavhum, turlanish, egalik, kelishik, birlik, ko‘plik.

**Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1.Z. M. Bobur kim?

2. “Boburnoma” qanday asar?

3. Ot deb nimaga aytiladi?

4. Ot ma’no jihotdan qanday turlarga bo‘linadi?
5. Otga xos grammatik xususiyatlar deganda nimani tushunasiz?
6. Otlarning yasalishi deganda nimani tushunasiz?

## Topshiriqlar

**1-topshiriq:**O‘qing, otlarni aniqlang. Ularning qaysilari biror shaxs yoki narsalarga atab qo‘yilgan otlar.

Gulbadanbegim Zahiriddin Muhammad Boburning qizi bo‘lib, u 1523-yili Qobulda tug‘ilgan. Onasi Dildorbegim temuriy Sulton Mahmud Mirzoning qizi bo‘lgan. Otasining farmoniga ko‘ra u katta onasi, ya’ni Humoyun Mirzoning onasi Mohimbegim qo‘lida tarbiyalangan.

Gulbadanbegim zamonasining oqila, donishmand ayollaridan edi. Akbarshohning taklifi bilan “Humoyunnoma” - ajoyib va muhim tarixiy asarni yozgan. “Humoyunnoma” Bobur va Humoyun podshohlarning hayoti va sarguzashtlarining qisqacha tarixi bo‘lib, “Boburnoma”ning mantiqiy davomidir. “Akbarnoma”ning muallifi Abul Hazlning yozishicha, Gulbadanbegim 1603-yilda 80 yoshida vafot etgan.

**2- topshiriq:** O‘zingiz eshitgan yoki o‘qigan kitoblaringizdan hayvonlarga atab qo‘yilgan nomlardan bir nechtasini yozing. Ular ishtirokida og‘zaki gaplar tuzing.

**3- topshiriq:** Viloyatingizdagi shahar, tuman, ko‘l, daryo, anhor va boshqa joy nomlarini bir necha guruhga ajratib, har biriga uchtadan misol yozing.

**4- topshiriq:** O‘qing. Atoqli otlar qaysi gap bo‘lagi bo‘lib kelayotganini aniqlang.

Akam Dilshodning Sen-chi , Mavjuda,
Odati qiziq. Qara ukangga.
Ish taqsimlab u Hamrobek, suv och
Ko‘rgazar yo‘riq. Darhol ekinga.
Hoy, Umarjon, sen Akam Dilshodbek
Molga sol xashak. Taqsimlaydi ish.
Uyni supurib, O‘zi to‘p tepib,
Suv keltir, Qo‘shoq. Qilmas hech yumush.

*(Po‘lat Mo‘min)*

**22-MAVZU: Mumtoz adabiyot salohiyati.**
**Otlarda egalik va kelishik kategoriyasining ifodalanishi**

REJA:

1.Mumtoz adabiyot salohiyati haqida tushuncha.
2. Otlarda egalik kategoriyasining ifodalanishi.
3. Otlarda kelishik kategoriyasining ifodalanishi.







**Sayfi Saroyi** - o‘zbek mumtoz adabiyotining iste’dodli vakillaridan biri. Xorazm yaqinidagi Qamishli qishlog‘ida tug‘ilgan. Oltin O‘rda davlatining poytaxti Saroy shahrida yashagan, hayotining so‘nggi yillarini Misrda o‘tkazgan va uyerda vafot etgan.

**Lutfiy**- 15 asr o‘zbek she’riyati takomilida o‘ziga xos o‘ringa ega, katta iste’dod sohibi, „Malikul-kalom“ (Navoiy), tuyuq janrining ustasi.




**Xorazmiy**- Iste'dodli shoir, temuriylar davri adabiyotining yirik namoyandasi. Xorazmiy — shoirning adabiy taxallusi, ismi va hayoti voqealari ma'lum emas. Birgina asari „Muhabbatnoma" (1353) Sirdaryo bo'ylarida yozilgan va Oltin O'rda hukmdorlaridan Muhammad Xo'jabek (Oltin O'rda xoni Jonibekning o'g'li)ga bag'ishlangan.




Egalik qo'shimchalari predmetning uch shaxsdan (so'zlovchi, tinglovchi, o'zga) biriga qarashli ekanini bildiradi.

EGALIK QO'SHIMCHALARI QO'SHILI ORQALI TOVUSH ORTTIRILISHI

| So'z | Egalik qo'shimchalari | Orttirilgan tovush | Hosil bolishi |
|---|---|---|---|
| Obro' | -im, -ing, -imiz, -ingiz | -y | obro'yim |
| parvo | -im, -ing, -imiz, -ingiz | -y | parvoyi |
| aso | -im, -ing, -imiz, -ingiz | -y | asoyim |

Egalik qo‘shimchalari oxiri unli bilan tugagan otlarga birlikda ***–m, -ng, -si, -ngiz*** **s**haklida; oxiri undosh bilan tugagan otlarga esa birlikda ***–im, -ing, -i;*** ko‘plikda ***–imiz, -ingiz, -i*** shaklida qo‘shiladi:

| **Shaxs** | **Birlik** | **Ko‘plik** |
|---|---|---|
| 1-shaxs | Dala**m**, kitob**im** | Dala**miz**, kitob**imiz** |
| 2-shaxs | Dala**ng**, kitob**ing** | Dala**ngiz**, kitob**ingiz** |
| 3-shaxs | Dala**si**, kitob**i** | Dala**lari**, kitob**lari** |

**K** va **q** undoshi bilan tugagan otlarga egalik qo‘shimchasi qo‘shilganda, o‘zak – negiz oxiridagi jarangsiz **g‘** undoshiga aylanadi va *kopto**g**i*, *tupro**g‘**I* kabi yoziladi.

*Og‘**iz**, bur**un** , zah**a**r* kabi otlarga egalik qo‘shimchasi qo‘shilganda, ikkinchi bo‘g‘indagi qisqaroq aytiladigan **u, i, a** unlilari tushib qoladi: *og‘zi, burni, zahri*. *Obro‘, parvo* so‘zlariga egalik qo‘shimchasi qo‘shilganda esa **y** tovushi orttiriladi: *parvoyi, obro‘yim*.

**Otlarning turlanishi**

Otlarning kelishik qo‘shimchalari bilan qo‘lllanishi **turlanish** deyiladi.

Otlarda oltita kelishik mavjud:

| № | Kelishik nomi | Qo‘shimchasi | Savollar |
|---|---|---|---|
| **1.** | Bosh kelishik | **--** | Kim? |
| **2.** | Qaratqich kelishik | **-ning, -n** | Kim**ning?**, Nima**ning?** |
| **3.** | Tushum kelishik | **-ni, -n** | Kim**ni?** Nima**ni**? |
| **4.** | Jo‘nalish kelishik | **-ga, -ka, -qa, -na, -a** | Kim**ga**? Nima**ga**? |
| **5.** | O‘rin – payt kelishik | **-da** | Kim**da**? Nima**da**? |
| **6.** | Chiqish kelishik | **-dan** | Kim**dan**? Nima**dan**? |

Qaratqich kelishigidagi ot doim ot bilan bog‘lanadi: *maktab**ning** hovlisi, kitob**ning** varag‘i.*Tushum kelishigidagi ot doim fe’l bilan bog‘lanadi: *maktab**ni** **s**evish, kitob**ni** o‘qish.*

Jo‘nalish, o‘rin – paytvachiqishkelishiklaridagiotlarfe’lbilan, ba’zanesaboshqaso‘zlarbilanhambog‘lanadi*: maktab**ga**bormoq, maktab**da**bo‘lmoq, maktab**dan**kelmoq, kitob**dan**minnatdor, ukam**dan**katta.*

Jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi **k** tovushi bilan bitgan so‘zlarga –**ka** tarzida, **g‘, q** tovushi bilan bit-gan so‘zlarga **– qa** tarzida qo‘shilib, mumtoz adabiyotda **–ga, -na, -a** tarzida uchraydi: *ko‘ylak+ga=ko‘y-lakka, bog‘+ga=boq**qa**, uyi**ga,** yorim**a**, qo‘li**na**.*

Qaratqich, tushum va jo‘nalish kelishigidagi otlar **belgili** (qo‘shimchali) va **belgisiz** (qo‘shimchasiz) qo‘llanishi mumkin: *maktab(**ning**)bog‘i, xat(**ni**) yozdi, Andijon(*ga*) ketdi.*

Qaratqich, tushum kelishigi qo‘shimchalari**–n** shaklida qisqarishi mumkin: *Oti**n**( ing ) boshi**n**( i ) burdi.*

**Tayanch so‘zlar**: adabiyot, mumtoz, namoyanda, ot,egalik, birlik, ko‘plik, shaxs, kelishik, qaratqich, tushum, jonalish, o‘rin-payt, chiqish, belgili, belgisiz.

**Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. Mumtoz adabiyot nima?
2. Mumtoz adabiyot namoyondalaridan kimlarni bilasiz?
3. Otlarda egalik kategoriyasining ifodalanish haqida so‘zlang.
4. Otlarda kelishik kategoriyasi qanday ifodalanadi?

## Topshiriqlar.

**1-topshiriq:** Egalik shakllaridagi otlarni ko‘chirib yozing, shaxs va sonini aniqlang. Masalan: davri – III shaxs, birlik.

to‘lqin волна
halovat спокойный, спокойно
ufq горизонт
vafodor преданный, верный
tik стройный, ровный, прямой
imon здесь порядочный
bo‘y cho‘zgan растущий

**2-topshiriq:** Berilgan so‘zlarga I va III shaxs egalik qo‘shimchalaridan birini qo‘shib, namunadagidek yozing. Hosil bo‘lgan so‘z shaklini tushuntirib bering; orzu – orzuyim.
Ko‘ylak, tilak, og‘iz, bo‘g‘iz, sarpo, qalb, tog‘, buloq, yurak, quloq, oila, uy.

**4-topshiriq:** Nuqtalar o‘rniga mos otlarni qo‘yib, so‘z birikmalarini ko‘chiring.
... onasi, ... bordi, ... chiqdi, ... ko‘chasi, ... jo‘nadi, ... intizomni, ... kichik, ... o‘qidi, ... javobi.

## 23-MAVZU: Xalq og‘zaki ijodi durdonalari.
## Otlarning ma’no turlari.

REJA:

1.Xalq og‘zaki ijodi haqida ma’lumot.

2. Xalq og‘zaki ijodiga tegishli yirik va kichik asarlar.

3.Otlarda ma’no turlarining ifodalanishi.

4.Otlarda birlik kategoriyasi.

5.Otlarda ko‘plik kategoriyasi.

**Xalq og‘zaki ijodi** yozma adabiyotdan ancha ilgari paydo bo‘lgan va yozma adabiyotning bunyodga kelishi uchun zamin hozirlagan. Xalq yaratgan asarlar o‘zining g‘oyaviyligi, chuqur xalqchilligi, til boyligi va badiiyligi bilan ahralib turadi.

U xalqning yengilmas irodasini, kelajakka bo‘lgan ishonchini, haqiqat, adolat,tinchlik va baxt haqidagi tasavvurlarini yaqqol aks ettiradi.Xalq shoirlari yoki jamoat tomonidan yaratilib, og‘izdan-og‘izga , avloddan-avlodga o‘tib kelgan badiiy asarlar **xalq og‘zaki ijodi** deyiladi.

Xalq og‘zaki ijodi fol’klor deb ham yuritiladi.Xalq og‘zaki ijodiga quyidagi janrlar kiradi: qo‘shiq, maqol, matal, topishmoq, afsona, rivoyat, asotir, ertak, latifa,

lof, lapar, termalar, doston, askiya, tez aytish, masal, alla, yor-yorlar, kelin salomlar kabi.

Otlar ma’no jihatidan dastlab **atoqli** va **turdosh otlar**ga bo‘linadi.

**I.Atoqli otlar** – biror shaxs, narsa yoki joy kabilarga maxsus atab qo‘yilgan nomlardir. Atoqli otlar mazmuniga ko‘ra bir necha toifaga bo‘linadi:

***1.Kishilarning ismlari (antroponimlar***) – biror shaxsga atab qo‘yilgan ism, familiyasi, otasining ismi, taxallusi kabilardir: *Usmon, Rustam, Dilbar, Nigora, Abdullayev, Sobirova, Davron o‘g‘li, Zokir qizi* singari.

***2. Qushlar va hayvon (zoonimlar)ning laqablari*** - *Kesha, Olapar, Mosh, Tom, Jerri, Misha.*

***3.Joy nomlari ( toponimlar)*** – ma’lum bir hududga, xususan, mamlakat, shahar, viloyat, tuman, qishloq, mahalla, ko‘chalarga maxsus atab qo‘yilgan nomlar bolib , bular bir so‘zdan yoki so‘z birikmasidan, ya’ni ikki va undan ortiq so‘zdan iborat bo‘lishi mumkin: *O‘zbekiston, Toshkent, Xorazm, Chilonzor, Qo‘ng‘irot* (qishloq), *Bodomzor* (mahalla), *Mirishkor* (ko‘cha) yoki *Amerika Qo‘shma Shtatlari, Buyuk ipak yo‘li.*

***4. Suv havzalari va inshoot (gidronimlar)ning nomlari*** **–** okeanlar, dengizlar, daryolar, ko‘llar, kanallar, anhorlar, hovuzlar, soylar, ariqlar, buloqlar, shuningdek, turli suv inshootlari,suv omborlari, quduqlarga atab qo‘yilgan nomlardir - *Tinch* (okean), *Kaspiy* (dengiz), *Amudaryo, Baykal* (ko‘l),..

***5.Planetalar(osmon jismlari)ning nomlari*** – Yupiter, Mars, Venera

***6.Tashkilot, korxona, muassasalarning nomlari*** – *Birlashgan Millatlar Tashkiloti, “Tulpor”(yo‘lovchi tashish korxonasi), Toshkent arxitektura qurilish instituti.*

***7.Tarixiy sana va bayramlarning nomlari*** – *1-yanvar – Yangi yil bayrami, Navro‘z bayrami, Xotira va Qadrlash kuni, Mustaqillik bayrami, Qurbon hayiti.*

***8.Ommaviy axborot vositalari (televideniye, radio, gazeta, jurnal)larning nomlari*** – *O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi, “Vodiy sadosi “* radiosi, *“Toshkent oqshomi”* gazetasi kabi. Shuningdek, televideniye kanallari, ko‘rsatuvlar, nomlari, radioeshittirishlar, maqolalar, rubrikalarning nomlari ham atoqlli ot sanaladi.

**II.Turdosh otlar** – bir turdagi narsa va predmetlarning umumlashtiruvchi nomi bo‘lib, ular hamisha kichik harf bilan yoziladi; *odam, mushuk, daftar, shahar, daryo, tog‘* kabi.

**Turdosh otlar** o‘z navbatida **aniq va mavhum** hamda **yakkava jamlovchi** turlarga bo‘linadi:

***1.Aniq (konkret) otlar*** – ko‘z bilan ko‘rish, sezgi a’zolarimiz orqali sezish mumkin bo‘lgan, ya’ni inson tasavvur doirasi idrok qila oladigan narsalarning nomlari – *inson, daraxt, qalam, quyosh, daryo, havo, osmon.*

***2.Mavhum (abstract) otlar -*** ko‘z bilan ko‘rish, sezgi a’zolarimiz orqali sezish mumkin bo‘lmagan, ya’ni inson tasavvur doirasi idrok qila olmaydigan narsa va tushunchalarning nomlari – *vijdon, qalb, baxt, quvonch, aql, mehr, do‘stlik, fikr,..*
***1.Yakka otlar*** – birlik ma’nosida yakka predmetlarni ifodalaydi; *odam, ko‘cha, daraxt, uy, tog‘, kitob,..*
***2.Jamlovghi otlar*** – birlik shaklda ifodalanib, ko‘plik ma’nosini ifodalovch so‘zlardir*; xalq, karvon, guruh, aholi, armiya,..*
Otlar **birlik va ko‘plik son**da keladi. **Birlik sondagi otlar** bir predmetni bildiradi. **Ko‘plik sondagi otlar** birdan ortiq predmetni bildiradi. Otlar ko‘plikda *–lar* qo‘shimchasi orqali ifodalansa, **morfologik usul** hisoblanadi: *bola**lar**, uy**lar***.
Ko‘plik ma’nosi qo‘shimchasiz holda maxsus so‘zlar yordamida ifodalansa, **leksik usul** hisoblanadi: *bir qancha odam, ming – ming daraxt, beshta daftar*. Ba’zan bu usullar aralash ifodalanishi mumkin **(leksik – morfologik usul*)***: *ko‘p ota – ona**lar** kelishdi*.
O‘zbek tilida ko‘plik ma’nosini **fonetik usulda** ifodalanishi ham ko‘p uchraydi; *oda-a-am, gu-u-ul, gila-a-am,..*
Harakat – holat, belgi nomini bildirgan otlar, donalab sanalmaydigan narsa va jism nomlari, juft predmetlarni bildiruvchi otlar va atoqli otlar faqat birlikda qo‘llanadi: *do‘stlik, un, ko‘z, Muattar va h.*

Faqat birlikda qo‘llanadigan otlarga ko‘plik qo‘shimchasi qo‘shilganda ko‘plikni emas, balki o‘sha predmetlarning turli xilini, jamlikni, hurmat, kinoya, kuchaytirish kabi ma’nolarni bildiradi: *Dadam**lar** ishlaydilar. Ma’muraxon**lar** kelishdi. Bosh**lar**im og‘rib ketdi.*
***-lar*** ko‘rsatkichi otlardan tashqari olmosh, son, sifat, fe’l, ravish turkumidagi so‘zlarga ham qo‘shilishi mumkin: *bular, kimlar, bizlar, tushuntirishlar, kattalarni, beshlar, ilgarilar, kelganlar* kabi. Bu ko‘rsatkich fe’lga qo‘shilganda tuslovchi tarkibida keladi: *boradi**lar*** ( 3 – shaxs tuslovchi tarkibida) .

## Kichraytirish, hurmatlash va erkalash otlari

Nutqimizda kichraytirish, hurmatlash va erkalash otlari ham qo‘llanadi. Bunday otlar kichraytirish, ba’zan esa ham kichraytirish, ham erkalash ma’nolarini anglatadigan quyidagi qo‘shimchalar bilan yasaladi:

| | |
|---|---|
| ***-cha:*** | *Kitob**cha**, uy**cha**, ro‘mol**cha**.* |
| ***-choq, -chak, -chiq:*** | *Qo‘zi**choq**, kelin**chak**, kop**chiq*** |
| ***-(a)loq:*** | *Qizaloq, bo‘taloq.* |
| ***-jon:*** | *Uka**jon**, Rahim**jon**.* |
| ***-xon:*** | *Odil**xon**, Salima**xon**.* |
| ***-oy:*** | *Qunduz**oy**, Tursun**oy**.* |

*-jon, -oy, -xon* qo'shimchalari hamma vaqt erkalash ma'nosida emas, o'z mustaqil ma'nosida, ya'ni ot sifatida ham qo'llanadi: *Mol achchig'i, **jon** achchig'i. Ko'kda to'lin **oy** suzmoqda. Anvar **xon** huzuriga chiqib ketdi.*

**Tayanch so'zlar:** xalq og'zaki ijodi, fol`klor, tildan-tilga, avloddan- avlodga, sayqallangan, o'zbek adabiyoti, namoyonda,ma'no, atoqli, turdosh, aniq, mavhum, yakka, jamlovchi, birlik, ko'plik, kategoriya.

**Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1.Xalq og'zaki ijodi deganda nimani tushunasiz?

2. Xalq og'zaki ijodiga tegishli qanday yirik va kichik asarlarni bilasiz?

3.Otlar ma'no jihatidan qanday turlarga bo'linadi?

4.Atoqli otlar qanday mavzuiy guruhlarga bo'linadi?

5.Otlarda birlik kategoriyasining ifodalanishi nimani tushinasiz?

6.Otlardako'plik kategoriyasining ifodalanishi nimani tushinasiz?

## Topshiriqlar

**1-topshiriq:** Quyidagi otlarga II shaxs egalik qo'shimchasini qo'shib, namunadagidek yozing va yuz bergan o'zgarishni izohlang.

**Namuna:** Bag'ir – bag'ring.

O'rin, qorin, burun, singil, ko'ngil, mag'iz.

**2- topshiriq:** Berilgan otlarni ko'plik shaklga aylantiring.

Sher, tadbirkor, mashina, mezbon, shoir,shahar, qurilish, fan, g'oya, talaba.

**3- topshiriq** Gaplarni ko'chiring, ko'plik sonda qo'llangan otlarning gapdagi vazifasini aniqlang.

1.Do'stlar, bu mening eng yaqin oshnam, tanishing. 2. Bu o'tlar oftobda rosa qurigan, yaqinida gugurt chaqmang, o't ketib qolmasin. 3.Sergap, ezma bo'lmang, birovni gapini behuda bo'lmang. 4. Ko'p o'lkalarda bo'ldim, lekin yurtimiz hammasidan a'lo. 5. Qo'lingdagilarni qo'y, o'g'lim, tez borib qo'ylarni qaytarib kel.

**24-MAVZU: Hozirgi o‘zbek adabiyoti namoyondalari**
**(E. Vohidov, A. Oripov, Zulfiya).**
**Sifat va uning grammatik xususiyatlari.**

REJA:

1.Hozirgi o‘zbek adabiyoti haqida tushuncha.
2.Sifat mustaqil so‘z turkumi.
3.Sifatning grammatik xususiyatlari.
4.Sifatlarning tuzilishiga ko‘ra turlari.

Otga bog‘lanib uning belgisini bildiradigan va **qanday? qanaqa?** so‘roqlariga javob boladigan so‘zlarga **sifat** deyiladi. Masalan*: go‘zal, baland, xushbo‘y, kemtik.*

Sifat gapda asosan sifatlovchi-aniqlovchi, kesim vazifasida keladi: *Yonbag‘irlar **ko‘m - ko‘k.** Baqqol amaki **pakana**, vuzi **katta,** iyagi **kalta** odam. U juda **sergap**.*

Sifatlar tuzilishiga ko‘ra **sodda, qo‘shma, juft, takroriy sifatlar**ga bo‘linadi.

**1.Sodda sifatlar** bitta asosli bo‘lib, tarkibiga ko‘ra tub va yasama bo‘ladi. Yasovchi qismlarga bo‘linmaydigan sifatlar tub sifatlar sanaladi. (Shakl yasalish qismi bundan mustasno). Masalan: *qari, qoramtir, eskiroq, sariq.*

Asos va yasovchi qismga boiinadigan sifatlar esa **yasama sifatlar** deyiladi. Sodda yasama sifatlar asosga yasovchi qo‘shimcha qo‘shish orqali hosil bo‘ladi: *guldor, sezgir, turkiy, kechki.*

**2. Qo‘shma sifatlar** ikki va undan ortiq asoslaming birlashuvidan tarkib topgan sifatlardir. Qo‘shma sifatlar asosan qo‘shib yoziladi. Qo‘shma sifatlar tarkibi quyidagi so‘z turkumlaridan bo‘ladi: *jigarrang, bodomqovoq, toshyurak* ot + otdan*; sofdil, shirinso‘z* - sifat + otdan; *osmono‘par, mehnatsevar* - o t + fe’ldan.

**3.Juft sifatlar** o‘zaro yaqin ma’noli yoki zid ma’noli ikki asosning juftlashishidan hosil bo‘ladi. Masalan: *katta-kichik, oq —qora, yaxshi-yomon* - zid ma’noli qismlardan; *uzuq-yuluq, esli-hushli* yaqin ma’noli qism lardan tarkib topgan. Juft sifat qismlari chiziqcha bilan yoziladi. Qismlar orasida -u, -yu; yuklama bog‘lovchilari bo‘lsa, ular o‘rtasida chiziqcha qo‘yiladi va ajratib yoziladi: *yakka **-yu** yagona.*

**4.Takroriy sifatlar** bir asosning takrorlanishidan hosil bo‘ladi va ular belgini ta ’kidlab, kuchaytirib ifodalashga xizmat qiladi: *yangi-yangi, mayda-mayda, barra-barra.*

**Asliy va nisbiy sifatlar**

Belgini to‘g‘ridan-to‘g‘ri ifodalaydigan va uni darajalab ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘lgan sifatlar **asliy sifatlar** deyiladi: *go‘zal, suvli, achchiq, aqlli, yuzaki. Go‘zal, go‘zalroq, juda go‘zal* kabi.

Asliy sifatlar tuzilishiga ko‘ra:

• ***sodda tub sifatlar****: yaxshi, qiziq, egri, novcha, ozoda****;***

**•** ***sodda yasama sifatlar****: tiniq, chiroyli, yulg'ich, bama 'ni, yasama.*

**•** ***qo'shma sifatlar bo'la oladi:*** *shirinso'z, xushbo'y, kaltafahm,ochko'z*

**Nisbiy sifatlar** belgini to'g'ridan - to'g'ri emas, balki boshqa bir tushunchaga nisbatlagan holda ifodalaydigan va daraja ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lmagan sifatlardir: *yozgi, yig'ma, derazali, devoriy.*

Nisbiy sifatlar tuzilishiga ko'ra quyidagicha bo'ladi:

• ***sodda yasama***: *do'ppili, serg'alva, tonggi, chillaki, ro 'molli;*

• ***juft sifat:****egri-bugri, sarg'ish -qo'ng'ir, mayda-chuyda, baland-past, qora-qura.*

**Ozaytirma va kuchaytirma sifatlar**

Ozaytirma sifatlar o'zakdan anglashilgan rangning, belgining ozligini, kamligini bildiradi va quyidagicha yasladi:

1.*–ish, -imtir(-mtir).* Bulardan *–ish, -imtir* undosh tovush bilan bitgan oq, ko'k kabi so'zlarga, *-mtir* esa faqat qora sifatiga qo'shiladi*: oq****ish****, ko'k****ish****, qora****mtir****.*

2.Rangni bildiruvchi sifatdan oldin ***och, nim*** so'zlarini keltirish bilan. ***Nim***bilan hosil qilingan sifatlar qo'shib yoziladi: ***och*** *sariq,* ***nim****pushti.*

3***.–kina (-gina, -qina)****.* Bu qo'shimchalar o'zakdan anglashilgan belgining kuchsizligini, ozligini bildiradi. ***Q, g*** bilan bitgan so'zlarga ***–kina; q, g'*** bilan bitgan so'zlarga *–****qina***, boshqa hollarda ***–gina*** qo'shimchasi qo'shiladi: *kichkina****gina****, yumshoq****qina****, tuzuk****kina****.*

Kuchaytirma sifatlar o'zakdan anglashilgan rangning, belgining ko'pligini, ortiqligini bildiradi va quyidagicha hosil qilinadi:

1.Sifatlarning bosh qismi ***p****va* ***m*** *t*ovushlaridan biri bilan takrorlanadi: *qizil – qip-qizil, ko'k- ko'm –ko'k.* bunday sifatlar chiziqcha bilan yoziladi. (*oppoq* sifati qo'shib yoziladi).

2. Sifatlarning birinchi bo'g'ini keying bog'inining birinchi undosh tovushi bilan birga takrorlanadi. Bu sifatlar ham chiziqcha bilan yoziladi: *butun –but- butun, dumaloq – dum – dumaloq.*

3.Sifatdan oldin ***to'q, jiqqa, tim, g'irt****,* ***juda, o'ta, shunaqa*** kabi so'zlarni keltirish bilan. Bunday sifatlar ajratib yoziladi:***jiqqa*** *ho'l,* ***tim*** *qora.*

Ko'pgina darsliklarda ozaytirma sifatlar qiyosiy darajadagi sifatlar, kuchaytirma sifatlar esa orttirma darajadagi sifatlar guruhiga kiritiladi.

**Tayanch so'zlar**: adabiyot, realistic, she`riyat, nazm, bosh mavzu, sifat, daraja, oddiy, orttirma, qiyosiy, ozaytirma, kuchaytirma.

**Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1.Hozirgi o'zbek adabiyoti namoyondalaridan kimlarni bilasiz?

2.E. Vohidov, A. Oripov, Zulfiyalarhozirgi o'zbek adabiyotida qanday o'rin egallaydi?

3.Sifat mustaqil so‘z turkumi haqida nimalarni bilasiz?
4. Sifatning qanday grammatik xususiyatlari mavjud?
5.Sifatlar tuzilishiga ko‘ra qanday turlarga bo‘linadi?
6. Sifatlarda ozaytirma daraja diganda nimani tushinasiz?
7. Sifatlarda kuchaytirma daraja deganda nimani tushunasiz?

**Topshiriqlar**

**1-topshiriq:** Berilgan sifatlarni qiyosiy va orttirma daraja shaklida yozib chiqing. Ulardan so‘z birikmalari hosil qiling.

Chiroyli, kuchli, ulug‘, buyuk, eski, pishiq, rahmdil, katta.

**Namuna:** chiroyli-chiroyliroq-eng chiroyli. Chiroyli qiz, chiroyli ko‘ylak.

**3-topshiriq:** Do‘stingizning xususiyatlarini taqqoslang va jadvalni to‘ldiring.

| Ijobiy xislatlar | Salbiy xislatlar |
|---|---|
| | |

## 25-MAVZU: Men sevgan asar.

## Sifat va uning darajalari

REJA:

1.”O‘tkan kunlar”- men sevgan asar.
2. Sifat darajalari haqida ma’lumot.
3. Orttirma daraja.
4.Qiyosiy daraja.
5.Ozaytirma daraja.

Har bir kishi yoshligidan adabiyotga yondoshar ekan, qaysidir asarga ma’lum ma’noda mehr qo‘yadi va o‘ziga kerakli ma’lumotni oladi. Shu xususiyat sabab men ham Abdulla Qodiriy asarlarini bolaligimdanoq sevib o‘qiganman. O‘zbek romanchiligining asoschisining ayniqsa, “O‘tkan kunlar” va “Mehrobdan chayon“ romanlari menda alohida taassurot qoldirgan

Predmetlardagi bir xil belgining ortiq – kamligi jihatidan farqlanishi **sifat darajasi** deyiladi. sifatlarning 3xil darajasi bor: orttirma daraja, qiyosiy daraja, ozaytirma daraja.

**1.Orttirma daraja** predmetdagi bir belgining boshqa predmetdagi bir belgiga nisbatan eng ko‘p ekanligini ifodalaydi.Orttirma daraja quyidagi usullar yordamida hosil qilinadi:

***1) morfologik usul:*** a) so‘zning birnchi bo‘g‘ini ajratilib, unga keying bo‘g‘indagi birinchi undosh qo‘shiladi-da, yopiq bo‘g‘in hosil qilinadi va undan keyin to‘liq shakli takrorlanadi: *dum – dumaloq, pak – pakana;* b) so‘zning oldingi ikki tovushi ajratilib unga ***p, m*** tovushlaridan biri qo‘shiladi va undan keyin so‘zning o‘zi takrorlanadi: *yap – yangi, ko‘m – ko‘k;* d) so‘zning birinchi bo‘g‘inidan keyin ***–ppa*** shakli qo‘shiladi: *soppa – sog‘, to‘ppa – to‘g‘ri.*

***2) leksik usul:*** a) maxsus kuchaytiruvchi so‘zlar orqali ifodalanadi*: eng kichik, hammadan chiroyli, zap g‘alati, beqiyos chiroyli, naqadar ulug‘vor, xo‘p bemaza, cheksiz quvonchli.;* b) so‘zlarni takrorlash vositasida: *zo‘r – zo‘r (polvonlar),uzundan – uzun (kechalar), ne – ne (olimlar);* d) turli so‘z birikmalari, iboralar yordamida: *haddan ziyod chiroyli, misli ko‘rilmagan (qahramonlik), qu-ling o‘rgilsin (jonon);*

***3) leksik – semantik usul***. Bunda belgi bildiruvchi so‘zlar oldidan yoki ular o‘rniga boshqa turkumdagi so‘zlar qo‘llanadi: *zahar (garmdori), olov (bola)*;

***4) fonetik usul:*** a) unlilar cho‘zib aytiladi: *tooza, chuquur;* b) undoshlar ikkilanadi: *tekkis, yummshoq*.

**2.Qiyosiy daraja** predmetdagi bir belgining boshqa predmetdagi huddi shunday belgidan ortiq ekanligini ifodalaydi. Qiyosiy daraja oddiy darajadagi sifatga ***–roq*** qo‘shimchasini qo‘shish yoki sifatdan oldin *bir – biridan, undan ham, yanada* so‘zlarini keltirish bilan yasaladi: *Olma daraxti shaftoli daraxtidan baland****roq****. **Bir – biridan** go‘zal, **bundan ham** battar, **yanada** kuchli .*

**3.Ozaytirma darajada** belgi darajasining normal darajaga yetmaganligi, normaldan pastligi ifodalanadi. 1) qo‘shimchalar yordamida: *oqish, qizg‘ish, qoramtir*.

***–roq*** qo‘shimchasi ham ozaytirma darajani ifodalashda qatnashadi (bunda bir narsadagi belgi boshqa narsadagi shunday belgiga qiyos-lanmaydi*): eski**roq*** (kiyim); 2) sifatdan oldin *yarim, nim, och, hiyol, chizi, sal, aytarli, uncha, u qadar* kabi so‘zlarni keltirish bilan: ***yarim** ochiq (eshik), **uncha** katta emas.*

**Tayanch so‘zlar**: adabiyot, asar, roman, adib, sifat, grammatik, xususiyat, daraja, orttirma, qiyosiy, ozaytirma, belgi, ortiq, kam.

**Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. Kimning qaysi asari sizga juda yoqadi?
2. Sifat mustaqil so‘z turkumi haqida nimalarni bilasiz?
3. Sifatning qanday grammatik xususiyatlari mavjud?
4. Sifat va uning darajalari deganda nimani tushunasiz?
5. Sifatlarda qanday darajalar bor?

## Topshiriqlar

**1-topshiriq:** Sifatlarni aniqlang va tagiga chizing.

1.Unumli mehnat keltirar davlat. 2. Rejali ish buzilmas. 3. Odobli bola elga manzur. 4. To‘g‘ri odam egri so‘zdan or qilar. 5.Tikansiz gul, mashaqqatsiz hunar bo‘lmas. 6. Intizomli lashkar yengilmas. 7. Ozod Vatanimiz-tinchlik tayanchi. 8. Yoshligimiz shunchalar erkin, quvnoq va beg‘ubor.

**2-topshiriq:** Savollarga javob bering. Javobingizda qavs ichida berilgan sifatlardan foydalaning.

1.Bizning armiyamiz qanday armiya? (buyuk, kuchli, qudratli, qahramon) 2.Bizning hayotimiz qanday? (quvnoq, go‘zal, ajoyib) 3. Qanday shamol esyapti? (mayin, yoqimli, yengil) 4. Qanday gullar ochildi? (chiroyli xushbo‘y) 5. Nozima qanday o‘quvchi? (quvnoq, chaqqon, tirishqoq, qobiliyatli).

**3- topshiriq:** Berilgan matndan sifatlarni aniqlab, darajasini ayting.

## Tog‘da tong

Tog‘da tong otishini kuzatish juda ajoyib bo‘ladi. Dastlab tog‘ning eng baland cho‘qqilari pushti rangda tovlanadi. Bu cho‘qqilar quyoshni birinchi bo‘lib kutib oladilar. Keyin quyosh balandroq ko‘tariladi, oqish osmon och ko‘kimtir tusga kiradi. Cho‘qqilardagi qorlar jimir-jimir qilib yaltiray boshlaydi.

Oddiy daraja:
Qiyosiy daraja:
Orttirma daraja:

## 26-MAVZU: O‘zbek san’ati kamoli.
## Son va uning grammatik xususiyatlari.

REJA:

1.San`atni sevish – ma’naviyat belgisi.
2.Son mustaqil so‘z turkumi.
3.Sonning grammatik xususiyatlari.
4.Soning ma’no turlari.

San’atning turlari ko‘p; qo‘shiqchilik, raqs, qiziqchilik, rassomlik, aktyorlik, illyuzionist, haykaltaroshlik,..

**Aktyorlik san’ati** - aktyor ijrochiligi, teatr, kino, televideniye va radiola badiiy obraz yaratish san’ati. Aktyor ma’lum rolda o‘ynar ekan, o‘z qahramoni qiyofasiga kirib, uning fe’l-atvorini, ichki dunyosi va intilishlarini ifodalaydi.

Teatr aktyorlari kino, teleradio sohalariga dadil kirib borib, mazkur san’atlar ijrochiligining shakllanishiga hissa qo‘shdilar. Ushbu san’atlarni mukam-mal egallagan R. Pirmuhamedov, R. Hamroyev, N. Rahimov, Sh. Burhonov, Ya.Sarimsoqova, O. Jalilov, H. Umarov, Yo. Axmedov, P. Saidqosimov, O‘. Alixo‘jayev, D. Qambarova, I. Ergashev, Yo. Sa’diyev, T. Shokirova kabi aktyorlar avlodi yetishdi. 60—90-yillarda O‘zbek A.sda ijodiy yo‘nalishlar ko‘paydi, teatrda, teleradioda, sirkda ijod qiluvchi ijrochilarning bir-birlariga ta’sirlari kuchaydi. O. Norboyeva, E. Komilov, G.Jamilova, H. Nurmatov, R. Ahmedova, M. Abduqunduzov, T. Mo‘minov, M. Rajabov kabi aktyorlar mavjud an’analarni o‘zlashtirish yo‘lidan bordilar.

Narsaning, miqdori, sanog‘i yoki tartibini bildirib, **qancha? nechta? nechanchi?** so‘roqlaridan biriga javob bo‘ladigan so‘zlar **son** deyiladi. Sonlar sifat singari belgi tasavvuri bilan aloqador bo‘lib, narsaning miqdori, sanog‘i va tartibiga ko‘ra belgisini ifodalaydi: ***beshta*** *kitob*, ***uchala*** *talaba*, ***birinchi*** *kurs* kabi.
Son narsaning aniq yoki noaniq miqdorini ifodalash xususiyatiga egaligiga ko‘ra tildagi ko‘p, oz, bir oz singari umumiy miqdor bildiruvchi so‘zlardan farqlanib turadi. Sonlar quyidagi grammatik belgilarga ega:

1.Sonlar ot bilan birikkanda so‘z o‘zgartuvchi affikslar olmaydi, aksincha ularning o‘zi otning aniqlovchisi vazifasini bajaradi***: O‘n sakkiz*** *yashar yigit*, ***birinchi*** *o‘rinda bormoq.*

2.Ba’zan son va sifat birgalikda otning aniqlovchisi vazifasini bajarishi mumkin. Bunday holda son aniqlovchi vazifasida kelgan sifatdan avval joylashadi***: Beshta*** *baland bino*, ***uchta*** *qora qo‘y*.

3.Son gapda asosan aniqlovchi va kesim vazifasini bajaradi: *Mehnat kishini* ***uchta*** *balodan saqlaydi: yurak siqishdan, axloqiy buzilishdan, muhtojlikdan. Bu xotinning joni* ***bitta*** *emas,* ***mingta***(A.Qahhor).

Sonlarning morfologik xususiyatlari:

1.Sonlar juft, dona, metr, siqim kabi hisob so‘zlari bilan qo‘llana oladi;

2.So‘z o‘zgartiruvchi qo‘shimchalar sonning hamma turlariga ham qo‘shiavermaydi;

3.Boshqa so‘z turkumlarida son yasalmaydi.

Sonning sintaktik xususiyatlari:

1.Doim otlar bilan birga qo‘llanadi;

2.Sonlar hech qachon belgi ifodalovchi so‘zlarni o‘ziga tobe qilib kelmaydi;

3.Sonlar ot oldida aniqlovchi bo‘lib kelganda, u bilan birikib yaxlit bir bo‘lak vazifasini bajaradi: ***Uch*** *dugona kelishyapti*;

4.Son va sifat aniqlovchi bo‘lib kelganda, oldin son, keyin sifat keladi*:* ***ikkita*** *chiroyli ko‘ylak;*

5.Sonlar gapda ko‘pincha aniqlovchi va kesim vazifasida keladi: *Maqsadimiz* ***bitta***. ***Beshta*** *qalam oldi.*




Sonlar ma’no va grammatik jihatdan olti xil bo‘ladi:

**1.Miqdor son** bir turdagi narsa – buyumlarning umumiy sonini, miqdorini bildiradi*:* ***bir*** *qop paxta,* ***o‘ttiz uch*** *bahodir*.

Miqdor sonlar *juft, kilogramm, gramm, tonna, metr, kilometr, daqiqa, soniya, soat, yil, gektar, tiyin, so‘m* kabi **hisob so‘zlari (numerativlar)** bilan ham qo‘llanadi: *besh* ***so‘m****, o‘n* ***gramm****, yuz* ***yil.***

**Hisob so‘zlari (numerativlar)** quyidagi guruhlarga bo‘linadi: predmetlarni yakkalab hisoblash uchun ishlatiladigan (*dona, nusxa, tup, bosh, nafar).*

Butunning qismini hisoblash uchun (*parcha, varaq, burda, og‘iz, luqma, siqim, tilim, chimdim, qultum, yutum, xo‘plam, tomchi, chaqmoq, nimta, to‘g‘ram, poy, toqa, bo‘lak, shingil),* to‘dalab ko‘rsatuvchi (*gala, to‘p, guruh, to‘da, dasta, bog‘, quchoq, shoda, hovuch),* juftlab ifodalovchi *(juft, para),* og‘irlikni o‘lchaydigan *(gramm, kilogram, sentner, tonna, misqol, pud, botmon, qadoq, paysa),* uzunlik o‘lchovini bildiradigan (*millimetr, santimetr, metr, kilometr, chaqirim, tosh (eskirgan), gaz, qarich, quloch, qadam),* yosh o‘lchovini bildiradigan *(yashar, yoshlik, oylik, kunlik),* vaqt o‘lchovini bildiradigan (*on, soniya, daqiqa, sekund, minut, soat, kun, oy, hafta, yil, asr),* qiymat o‘lchovini ifodalaydigan (*so‘m, tiyin, tanga, miri, paqir).* Bulardan tashqari, quyidagi hisob so‘zlari son va fe’l orasida kelib, harakat miqdorini bildiradi: *marta, navbatda, karra, bor, hissa, qatla, sidra, daf’a.*

**Eslatma:** Nutqimizda **bir** miqdor soni noaniqlik, kuchaytirish, ajratish, chegaralash ma’nolarini ham ifodalaydi: *eshikni **bir** kishi taqqillatyapti. **Bir** yugurdim, **bir** yugurdim. **Bir** menga, bir unga qaraydi. Hamma keldi, **bir** Ahmad kelmadi.*

**1.Dona son** narsa – buyumning donalab sanaladigan miqdorini bildiradi. Dona son miqdor songa ***–ta***qo‘shimchasini qo‘shish *yoki dona, nafar* so‘zlarini keltirish yordamida hosil qilinadi: *beshta qush, uch dona non, o‘n nafar odam.*

**2.Tartib son** narsa – buyumning sanoqdagi tartibini bildiradi. Tartib son unli bilan tugagan miqdor songa –nchi, undosh bilan bitgan miqdor songa ***–inchi*** qo‘shimchasini qo‘shish bilan hosil qilinadi: *bir**inchi**, ikki**nchi.***

Tartib sonlar arabcha raqam bilan ifodalansa, bu qo‘shimchalar yozilmaydi, raqamdan keyin chiziqcha qo‘yiladi; rim raqamlari bilan ifodalansa, chiziqcha ham qo‘yilmaydi: *2 – brigada, VI sinf.*

Kirilcha yozuvda yil va oyni ko‘rsatuvchi arab raqamlaridan keyin chiziqcha qo‘yilmaydi: *1998 йил, 15 февраль.*

**3.Chama son** narsa –buyumlarning taxminiy sonini bildiradi va quyidagicha hosil bo‘ladi:

1) Miqdor songa ***–tacha*** qo‘shimchasini qo‘shish bilan: *o‘n**tacha** mashina;*

2) Miqdor songa ***–lar, -larcha*** qo‘shimchasini qo‘shish bilan: *soat o‘n bir**lar** edi. Yuz**larcha** bola yig‘ildi.*

3) Miqdor songa ***–lab*** qo‘shimchasini qo‘shish bilan: *ming**lab** odam;*

4) Ikki miqdor sonni juft keltirish bilan: *besh –olti, uch –to‘rt.*

**4.Jamlovchi son** narsa –buyumning umumiy sonini bildiradi va quyidagicha yasaladi:

1)Miqdor songa ***–ov*** qo‘shimchasini qo‘shish bilan: *uch**ovi**, to‘rt**ovi;***

2)Miqdor songa ***–ala*** qo‘shimchasini qo‘shish bilan: *ikk**ala,** uch**ala;***

3)Miqdor songa ***–ovlon*** qo‘shimchasini qo‘shish bilan: *besh**ovlon**, olt**ovlon;***

*Ikki, olti, yetti* miqdor sonlaridan jamlovchi son hosil qilinganda, o‘zakdagi **i** tovushi tushib qoladi: *ikk**ovi**, olt**ovi**.*

*Uch, to‘rt* sonlariga ***–ala*** qo‘shilganda, *uchchala, to‘rttala* tarzida aytilsa ham *uch**ala**, to‘rt**ala*** deb yoziladi.

Jamlovchi sonlar ko‘pincha birdan yettigacha bo‘lgan sonlardan yasaladi.

**5.Taqsim son** narsa –buyumlarning taqsimlanish miqdorini anglatadi va miqdor songa ***–tadan*** qo‘shimchasini qo‘shish bilan hosil qilinadi: *ikki**tadan**, o‘n**tadan**, yuz**tadan***. Ba’zan miqdor son takrorlanib, taqsim son yasalishi mumkin: ***ikki –ikki*** *bo‘lib yurdik.*

Gapda son bog‘langan ot tushib qolishi mumkin. Bunday holda son **otlashadi.** Otlashgan son xuddi otlarga o‘xshab egalik, ko‘plik va kelishik qo‘shimchalarini oladi. *Besh**ga**, uch**ni**, ikki**miz**.*

**Tayanch so‘zlar**: san`at, qobiliyat, mashhurlik, son, grammatik, xususiyat, sanoq, metr, hisob, chama, juft, dona, jamlovchi, taqsim, kasr, tartib, taqsim, otlashish.

**Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1.San’at nima?
2.San’atning qanday turlari bor?
3.Sizga qaysi san`atkor juda yoqadi?
4. Son mustaqil so‘z turkumi haqida nimalarni bilasiz?
5.Sonning qanday grammatik xususiyatlari mavjud?
6.Sonning qanday ma’no turlari bor?

## Topshiriqlar

**1- topshiriq:**Gaplarni ko‘chiring. Sonlarni gapdagi vazifasini aniqlab, tagiga chizing.

1.Bir otasi, bir onasi, necha yuz ming bolasi. (Topishmoq) 2.Mening kitoblarim hammasi bo‘lib yettita. 3.Opam bizga uzgan olmalaridan to‘rttadan berdi. 4.Bir daraxtda o‘n ikki shox, har shoxda o‘ttiz yaproq, yaprog‘ining bir yog‘i qora, bir yog‘i oq. (Topishmoq)

**2- topshiriq:**Tartib sonlarni toping, ularni raqamlar bilan yozing.

1.Birinchi iyun – Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni. 2. Alisher Navoiy bir ming to‘rt yuz qirq birinchi yil to‘qqizinchi fevralda Hirot shahrida tug‘ildi. 3. Chol bilan kampir uch nafar qizlari bilan yashar ekanlar. (Ertakdan)

**3-topshiriq:** Sonlarga qavs ichidagi qo‘shimchalarni qo‘shib ko‘chiring. Tartib sonlarni raqamlar bilan yozing.

Zulfiqorovning xotini bir (ta) qiyiqchada uch-to‘rt (ta) anor olib keldi. (Abdulla Qahhor) 2. Pahlavonning ikki (nchi) madori qolmadi. (Navoiy) 3.Hilola qirq (inchi) uy, yigirma (nchi) xonadonda yashaydi. 4. Ota-onasining ikki (ala)si, yoxud

bir (ta) si keksayib qolganda ularni rozi qilmagan kishi ikki dunyoda xor bo‘ladi. (Hadis)

**4-topshiriq:** Topishmoqning javobini toping. Avval miqdor sonlarni, so‘ng tartib sonlarni ko‘chiring.

To‘planib o‘n o‘g‘il-qiz,
-Mezbon-mehmon o‘ynaymiz
Deyishar: - Sobir, sana,
Adashib ketma yana.
Toq sonlar bo‘lar mezbon,
Juft sonlar aziz mehmon
Nodir bo‘ldi birinchi.
Ikki – singlim “Durdona”,
Uchinchisan, Guldona.
To‘rtsan, Dilshod, Lola – besh,
Dildor – olti, yetti – Esh.
Sakkizinchi sen, Gulqiz,
Ahmadullo-chi – to‘qqiz.
Iya, o‘n yo‘q-ku, qarang!
Topmas Sobir, bosh – garang.
Sobir sanar: - Ko‘ring-chi,
O‘rtoqlari kulishar:
-Boshqa sana, - deyishar.
-Yordam bering siz endi,
Chiqmagan o‘n kim edi!*(Sobir)*

## 27-MAVZU:O‘zbek ma’naviyati yulduzlari.
## Olmosh va uning grammatik xususiyatlari.

REJA:



1.O‘zbek ma’naviyati yulduzlari haqida ma’lumot.
2.Olmosh mustaqil so‘z turkumi.
3.So‘roq va belgilash olmoshlari.
4.Bo‘lishisizlik va gumon olmoshlari.
5.Kishilik va o‘zlik olmoshlari.

Amir Temur siyosat maydoniga kirib kelgan paytda, Movarounnahr mo‘g‘ullar istibdodi ostida bo‘lib, Chingizxon va Botuxon bosib o‘tgan shahar va qishloqlar vayronaga aylangan, suv inshootlari buzib

tashlangan yoki ishga yaroqsiz holga keltirilgan, Chingizxon Movarounnahrni o‘zining ikkinchi o‘g‘li Chig‘atoyxonga suyurg‘ol sifatida in'om qilgan edi.

Amir Temurning hayoti va faoliyatida ikki davr yaqqol ko‘zga tashlanadi. Birinchi davri (1360-1385) Movarounnahrni mo‘g‘ul xonligidan ozod qilib, yagona markazlashgan davlat tuzish, o‘zaro urushlarga barham berish. Ikkinchi davri (1386-1405) esa ikki yillik, uch yillik, besh yillik, deb ataluvchi boshqa mamlakatlarga yurishlari bilan xarakterlanadi.




Ot, sifat, son, ravish o‘rnida qo‘llanadigan so‘z turkumi **olmosh** deyiladi. Olmoshlar turlanadi, gapda ko‘pincha ega, to‘ldiruvchi va aniqlovchi bo‘lib keladi: ***Hamma*** *keldi.* ***Bizni*** *tabriklang.* ***Shu*** *kitobni bering.*




Olmoshlar quyidagi grammatik xususiyatlarga ega: 1) so‘z yasalish xususiyati yo‘q (lekin olmoshlar asosida fe’l, ravish, sifat yasalishi mumkin: *sensirama*, *o‘zicha*, *menbop*, *hozirgi*; 2) juftlanib, bosh so‘z turkumi vazifasida keladi: *o‘sha –o‘sha, shu –shu;* 3) olmoshlar otlarga xos so‘z o‘zgartiruvchi qo‘shimchalarni olishi mumkin: *unga*, *shunisi*;




**Olmoshlarning tuzilishiga ko‘ra turlari**

| | | |
|---|---|---|
| 1 | Sodda olmoshlar | ***Men, sen, kim, shu, qachon*** |
| 2 | Qo‘shma olmoshlar | ***Ana shu, har kim, hech nima*** |
| 3 | Juft olmoshlar | ***U –bu, unga –bunga, siz –biz*** |
| 4 | Takroriy olmoshlar | ***Shu –shu, o‘sha –o‘sha, kim –kim*** |

**Boshqa turkumlarga oid so‘zlarning olmoshlarga ko‘chishi**

Quyidagi turkum so‘zlarga tegishli ayrim so‘zlar olmoshga ko‘chadi: 1) ot: *odam, kishi, inson, nafas, ish*; 2) sifat: *ba’zi, boshqa, ayrim, tubandagi, quyidagi*; 3) son: *bir*. Umuman olganda, *bir, har, hech* so‘zlari bilan keladigan ko‘pgina so‘zlar olmoshga ko‘chishi mumkin: *hech narsa, bir narsa, har yerda*.

Shuningdek, olmoshlar fe’ldan boshqa so‘zlar o‘rnida almashib qo‘llanadi.

• ot o‘rnida — *Men,biz, sen, siz, ular, kim, nima, har kim, hech kim, hech nima.*
• sifat o‘rnida — *bu, shu, u, o ‘sha, mana, mana shu, mana bu, qanday, qaysi, hech qanday, hech qaysi*
• son o‘rnida - *necha, nechanchi, har qancha, hech qancha, allaqancha*
• ravish o‘mida: *qalay, nega, qayer, qani, hech qayer, hech qachon*

Olmoshlar aniq atash ma’nosini bildirmaydi, ularga ishora qiladi va o‘ziga xos so‘z va shakl yasalish xususiyatga ega emas.




**Olmoshlarning ma'no turlari**




**1.Kishilik olmoshlari** shaxsni bildiradigan quyidagi olmoshlardir*: men, sen, u, biz, siz, ular*. Kishilik olmoshlari otlar kabi turlanadi. Qaratqich, tushum kelishigi hamda ***–niki*** qo'shimchasi qo'shilganda, *men, sen* olmoshlaridagi bir ***n*** tushib qoladi: *me..ning, se..niki, se..ni*. ***U*** kishilik olmoshiga jo'nalish, o'rin –payt, chiqish kelishigi qo'shimchalari qo'shilganda, bir ***n*** orttiriladi: *u**n**ga, u**n**da, u**n**dan*. Bu olmoshlarga egalik qo'shimchalari deyarli qo'shilmaydi.

**2.O'zlik olmoshi** narsa –buyumni aniqlab yoki ta'kidlab ko'rsatish uchun ishlatiladigan ***o'z*** so'zidir. Bu olmosh narsa –buyumning shaxsga xosligini, tegishliligini yoki shaxsning tanholigini bildiradi: ***o'z*** *uyi*, ***o'z*** *ukasi.*

O'zlik olmoshi egalik qo'shimchasini olib, uchala shaxs kishilik olmoshi o'rnida ham ishlatiladi: *o'zim –men, o'zing –sen, o'zi –u.*

O'zlik olmoshi turlanganda kelishik qo'shimchalaridan oldin egalik qo'shimchalari bo'lishi shart:***o'ziga, o'zingdan .***

**3.Ko'rsatish olmoshlari** narsa –buyumni, kimsani ko'rsatish uchun ishlatiladigan olmoshlardir: *u, bu, shu, o'sha, ana, mana, ana shu, mana bu.*

Kishilik olmoshi ***u*** bilan ko‘rsatish olmoshi ***u*** ni gapdagi ma’nosiga qarab farqlash mumkin. Bunda ***u*** kishilik olmoshi kim? so‘rog‘iga, ko‘rsatish olmoshi ***u*** esa qaysi? so‘rog‘iga javob bo‘ladi. *U, bu, shu, o‘sha* olmoshlari jo‘nalish, o‘rin – payt, chiqish kelishiklarida turlanganda yoki ularga *–day, -cha* qo‘shimchalari qo‘shilganda, qo‘shimcha oldidan bir ***n*** tovushi orttiriladi: *u**nga***, *bu**nga**, shu**nday**, o‘sha**nday**, u**ncha***.

**4. So‘roq olmoshlari** biror narsa – buyum, belgi yoki son haqidagi so‘roqni bildirgan olmoshlardir. Kim? Nima? so‘roq olmoshlari shaxs va narsaga nisbatan ishlatiladi hamda birlik va ko‘plikda qo‘llanadi, egalik va kelishik qo‘shimchalarini oladi: *Kim so‘zladi? Nimalarni ko‘rding? Nimang bor?*

Qanday? qanaqa? qaysi? olmoshlari belgini aniqlash uchun ishlatiladi: *Qanaqa odam? Qaysi kitob?*

Qayerda? qani? qayoqqa? qachon? nega ? olmoshlari o‘rin, payt, mavjudlik, sabab, maqsad kabilarni aniqlash uchun ishlatiladi: *Qachon keldi? Qayerda yuribdi? Ukang qani? Qayoqqa ketdi? Nega keldi?*

**5.Belgilash olmoshlari** predmet va shaxslarning yig‘indisini bildiradi yoki ularni ayirib ko‘rsatadi, shuning uchun ularni ikkiga bo‘lish mumkin:

1) **jamlash olmoshlariga** *hamma, barcha, bari, jami, butun, yalpi* so‘zlari kiradi.

2) **belgilash olmoshlariga** *har, har kim, har nima, har bir, har qaysi* kabi so‘zlar kiradi.

*Hamma, barcha, bari* olmoshlari ko‘plikni anglatadi. Belgilash olmoshlari egalik, kelishik, ko‘plik qo‘shimchalari bilan qo‘llanadi: *Hammalari jim. Har kimga aytaverma.*

**6. Bo‘lishsizlik olmoshlari** inkor ma’nosini bildirgan olmoshlardir. Bular ***hech*** so‘zining o‘zi va shu so‘zning ba’zi so‘roq olmoshlari bilan birikishidan hosil qilinadi. ***Hech*** so‘zi ayrim yoziladi. Bu olmoshlar egalik va kelishik qo‘shimchalari bilan qo‘llanadi: ***Hech kimni** ko‘rmadim*, ***hech nimam** yo‘q*. ***Hech*** so‘zi yakka holda qo‘llanganda, ko‘pincha fe’llar oldida kelib, ravish vazifasini bajaradi: *U **hech** qiynalmadi.*

**7.Gumon olmoshlari** noaniqlik, gumon ma’nosini bildirgan olmoshlardir. Ular ***alla-*** yordamida yoki ***–dir*** qo‘shimchasi bilan hosil qilinadi: ***alla**kim ,kim**dir***. Bu olmoshlar birlik va ko‘plikda keladi, kelishiklarda turlanadi: ***alla**kim**dir**, kim**nidir*** kabi.

**Tayanch so‘zlar**: turkiy, o‘zbek, ma’naviyat, kasb, olmosh, grammatik, xususiyat, ma’no, kishilik, so‘roq, o‘zlik, belgilash, gumon, bo‘lishsizlik, gumon.

**Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. Qaysi o‘zbek ma’naviyati yulduzlarini bilasiz.?
2. Olmosh mustaqil so‘z turkumi haqida nimalarni bilasiz?
3. Olmoshning qanday grammatik xususiyatlari mavjud?

4. Olmoshningqanday ma’no turlari bor?

### Topshiriqlar

**1-topshiriq:** Gaplarni avval ot, keyin sifat, so‘ng son o‘rnida qo‘llangan olmoshlarni aniqlang.

1.U o‘ymakor eshikni qiya ochib ichkari kirdi. (X.Sultonov) 2. O‘rtog‘ing yugurishda birinchi ekan, sen-chi, nechanchi o‘rindasan? 3. Cholning chapdast, chaqqon o‘g‘li bor ekan, mening ham shunday farzandim bo‘lsa edi. (Ertakdan) 4. Men ham shunday o‘ydaman, fikr-u yodim undadir, gar o‘zim har joydaman. (Y.Sulaymon) 5. Bu ish uchun senga qancha vaqt kerak?

**2- topshiriq:** Nuqtalar o‘rniga oldingi gap mazmunidan kelib chiqib, mos keladigan olmoshlarni qo‘ying. Bu olmoshlar qaysi so‘z turkumi o‘rnida qo‘llanganini aniqlang.

**Namuna:** Uning beshta kitobi bor. Yana... bo‘lsa o‘nta bo‘ladi.

Uning beshta kitobi bor. Yana shuncha bo‘lsa o‘nta bo‘ladi.1.Men, Bahodir, Elbek, Hilola boqqa bordik. ... u yerdan kech qaytdik. 2. Uning ko‘ylagi yashil ekan. ... rang menga ham yoqdi. 3. Ziyoda bilan Durdona yaqin dugona. ... – beshinchi sinf o‘quvchilari.

**3- topshiriq:** Berilgan so‘roq olmoshlarini boshqa so‘zlarga almashtiring va ular ishtirokida gaplar tuzing. So‘z turkumini aniqlang.

**Namuna:** Kim? – Tikuvchi. Opam atel’yeda tikuvchi bo‘lib ishlaydi.

Kim?, qanday?, nechanchi?, nima?, nechta?, qancha?, qaysi?

**4-topshiriq:** Gaplarni ko‘chiring. Olmoshlarni topib, ularning yozilishini tushuntiring.

1.Meniki va seniki shu aziz tuproq, ko‘z qorachig‘iday asraylik o‘rtoq! 2. Mening ikki onam bor, ikkisi ham mehribon. (Uyg‘un) 3. Shundaylar bo‘lmasa agar dunyoda, bunchalar muhtaram bo‘lmasdi ayol. (A.Oripov) 4. Otang seni ko‘rmadi, chog‘i. 5. Sen qancha kitob olgan bo‘lsang, men ham o‘shancha miqdorda olib keldim.

## 28-MAVZU: O‘zbek udumlari.

## Fe`l va uning grammatik xususiyatlari

REJA:

1.Udum tushunchasi.

2.O‘zbek udumlarining o‘ziga xos jihatlari.

3.Fe`l mustaqil so‘z turkumi.

4.Bo‘lish-bo‘lishsiz fe`llar.

5.O‘timli-o‘timsizfe`llar.

Ajdodlarimizdan bizga qadimiy urf-odatlar, tantanalar xalqona meros bo‘lib avloddan-avlodga o‘tib kelgan. Bu bilan biz xaqli ravishda faxrlansak arziydi. Buning uchun o‘sha qadimiy madaniyatni, urf-odatni bilishimiz, saqlashimiz va keyingi avlodlarga ham yetkazish muqaddas insoniy burchimizdir.




O‘zbeklarning an'ana va marosimlari ularning barcha turdagi yo‘sinlari muqaddas sanalgan. Shu bois asrlar osha ajdodlardan asosan o‘zgarmasdan o‘tib kelgan. Shu jihatdan ham alohida ta’kidlamoq joizki, urf-odat, an'ana, marosim va udumlar uzoq vaqt davom etgan tarixiy taraqqiyotning mahsulidir.

Har bir xalqning salomlashish bilan bog‘liq bo‘lgan o‘z urf-odatlari bor. Dasturxon odobi, taom yemak qoidalari xalqimizda azaldan mavjud. Dasturxon odobi qadimiy bo‘lib dasturxonga avval keksalar qo‘l uzatadilar.

O‘zbek xalqining mehmondorchilik odati juda qadim zamonlardan boshlanadi. Bu odat odamiylik, saxovat, madaniy va ma’naviy aloqalar mezoni sifatida qadrlangan. Xalqimiz «Mehmon otangdek ulug‘» degan maqolga doimo amal qilgan.

Ish-harakat va holatni atab kelgan so‘z turkumi **fe’l** deyiladi. Fe’llar *nima qilmoq?, nima bo‘lmoq?* so‘roqlariga javob bo‘ladi: o‘*qimoq, ishlamoq, kasal bo‘lmoq, xafa bo‘Imoq, yugurmoq, sakramoq, qochmoq, bekinmoq.*




Fe’llardan anglashilgan harakat va holat mavhum shaxs yoki narsa tomonidan bajariladi. Shu shuxs yoki narsa ish harakatning bajaruvchisi sanaladi. Masalan*: Barglar to‘kildi. Bola yugurdi. Qo‘zichoq ma’radi.*

Fe’llar nimani atab kelishiga ko‘ra ikki xil bo‘ladi: **harakat fe’llari; holat fe’llari.**

**Harakat fe’llari** predmet - shaxslarning jismoniy faoliyati natijasida ro‘y bergan harakatni bildiruvchi fe’llardir*: yugurmoq, tarqalmoq, egilmoq, supurmoq, almashmoq.*

Shaxslarning ichki kechinmalari va narsalarning bir holatdan ikkinchi holatga o ‘tish jarayonini ifodalovchi fe’llar **holat fe’llari** sanaladi: *jimirlamoq, unmoq, fikrlamoq, qotmoq, sarg‘aymoq, ikkilanmoq, xursand bo‘lmoq, eskirmoq*.

Fe’llar tuzilishiga ko‘ra to‘rtta turga bo‘linadi:

**1.Sodda fe’llar -** bir o‘zakdan iborat bo‘ladi: *kel, yur, ishla.*

**2.Qo‘shma fe’llar -** ikki felning qo‘shaloq kelishidan hosil bo‘ladi: *sotib oldi, olib keldi.*

**3.Juft fe’llar - ikki felning** qo‘shaloq kelib, yozuvda chiziqcha orqali yozilishidir: *kirmadi - qo‘ydi, aytdi - qo‘ydi, gapirdi - qo‘ydi.*

**4.Takroriy fe’llar** bir fe’lning takrorlanib, yozuvda chiziqcha orqali yozilishidir:: *o‘qidi - o‘qidi, yozdi - yozdi, ko‘ra - ko‘ra, yig‘lay -yig‘lay.*




**Fe'llarning yasalishi**

Fe'llar ikki usul bilan yasaladi: 1. Fe'l yasovchi qo'shimchalar bilan (Affiksatsiya usuli): *ishda, ko'kar*. 2. So'zlarni bog'lab qo'shish bilan(Kompozitsiya usuli): *e'lon qildi, borib keldi, sotib oldi, himoya qildi, javob berdi*.

***1.Yasovchi qo'shimchalar bilan fe'l yasash:***

Bu usul bilan fe'l bo'lmagan so'zlardangina fe'l yasaladi.

***-la*** qo'shimchasi fe'ldan bo'shqa deyarli barcha so'z turkumlaridan fe'l yasaydi: *ish**la**, oq**la**, sekin**la**moq, shivir**la**, chuh**la**moq, sen**la**moq*.

***-dan, -lash*** qo'shimchalari ot, sifat va ravishlardan fe'l yasaydi; *faxr**lan**di, ikki**lan**di, ko'mak**lash**di, suhbat**lash**di.*

***-illa*** qo'shimchasi taqlidiy so'zlardan fe'l yasaydi: *chirq**illa**, chir**illa**, taq**illa**.*

***-ira*** qo'shimchasi taqlidiy so'zlardan fe'l yasaydi*: yarq**ira**di, yalt**ira**di.*

***-a*** qo'shimchasi ot, sifat va taqlidiy so'zlardan fe'l yasaydi: *tun**a**, bo'sh**a**, guldur**a**, o'yin - o'yn**a**.*

***-(a)* y** qo'shimchasi sifat va ravishlardan fe'l yasaydi: *ko'r**ay**, ko'ch**ay**, ko'p**ay.***

***-(a)r*** qo'shimchasi ayrim sifatlardan fe'l yasaydi: *qisq**ar**, ko'k**ar**.*

***-sira, -sa*** qo'shimchalari ot va *sen, siz* olmoshlaridan fe'l yasaydi: *suv**sira**, siz**sira**, suv**sa**.*

***-(i)k, -(i)q*** qo'shimchasi sanoqli so'zlardangina fe'l yasaydi: *bir**ik**moq, yo'l**iq**moq.*

***-i*** qo'shimchasi sanoqli so'zlardan fe'l yasaydi: *boy**i**, tinch**i**, chang**i**di.*

***-(i)-ot*** qo'shimchasi sanoqli so'zlardan fe'l yasaydi: *yo'q**ot**, to'l**at**, berk**it**.*

***-ir*** qo'shimchasi ot va taqlidiy so'zlardan fe'l yasaydi: *gap**ir**, tup**ir**.*

| Qo'shimcha | Misollar | Qo'shimcha | Misollar |
|---|---|---|---|
| -la | Ishla, oqla, sekinlamoq, shivirlamoq senlamoq | -lan<br>-lash | Faxrlanmoq, ikkilanmoq ko'maklashmoq suhbatlashmoq |
| -illa | chirqilla | -ira | yarqiramoq |
| -a | Tuna, bo'sha, o'yin+a-o'yna | -sira<br>-sa | Sensira<br>suvsa |
| -(a)r | Qisqar, ko'kar | -(a)y | Qoray, kuchay |
| -(i)k<br>-(i)q | Birikmoq<br>Yo'liqmoq | -(I,o)t | Yo'qot, to'lat, berkit |
| -I | Boyi, tinchi | -ir | Gapir, tupir |

**FE'L YASOVCHI QO'SHIMCHALAR**

***2. So'zlarni bog'lab qo'shish yordamida fe'l yasash***

Bu usul bilan qo'shimcha fe'llar yasaladi. Bu quyidagicha amalga oshiriladi:

1.Fe'l bo'lmagan so'z bilan fe'lning birikishidan: *dam olmoq, himoya qilmoq, paydo bo'lmoq*. Ayrimlari sodda fe'lga sinonim bo'ladi: *tasdiq qildi – tasdiqladi, yordam berdi – yordamlashdi.*

2. Ikki fe'lning birikishidan: *sotib olmoq, chiqarib olmoq, olib kelmoq, yutib olmoq, sotib olib bermoq.*

Qo'shimcha fe'llar ajratilib yoziladi: *hal qilmoq, kasal bo'lmoq.*

Nutqimizdagi *o'qib chiqdi, ko'rib bo'ldi, boshlab yubordi* kabilar qo'shma fe'l emas, chunki yangi lug'aviy ma'no ifodalamaydi, bular ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmalaridir.

Fe'llar bo'lishli va bo'lishsiz shakllarga ega, zamon va shaxs-son ifodalay oladi, o'zining vazifadosh (xoslangan) shakllariga ega, mayl ko'rsata oladi, o'timli - o'timsizlik xususiyatiga ega. Fe'llar gapda ko'pincha kesim vazifasini bajaradi: *kuz* ***keldi.***

Fe'llar quyidagi lug'aviy shakllarga ega:

-bo'lishli-bo'lishsizlik shakli;

-nisbat shakli;

-vazifa shakli;

Fe'llarning sintaktik munosabat shakllari:

- zamon shakli;
- mayl shakli;
- shaxs-son shakli.




**Bo‘lishli va bo‘lishsiz fe’llar**

**Bo‘lishli fe’llar -** bajarilgan, bajarilyotgan, bajariladigan harakatni bildiradi: *yozdi, yozyapti, yozmoqchi .*

**Bo‘lishsiz fe’llar -** fe’l negiziga ***–ma*** qo‘shimchasini qo‘shish, fe’llardan keyin ***emas, yo‘q*** so‘zlarini keltirish, fe’llardan oldin ***na*** inkor yuklamasini keltirish yoki ohang yordamida hosil qilinadi. *Yoz**ma**di, yozgan **emas**,yozgani **yo‘q**. **Na** yozdi, **na** o‘qidi. Boradi, boradi-ya (bormaydi).*

**O‘timli va o‘timsiz fe’llar**

**O‘timli fe’llar** tushum kelishigidagi so‘zlarga bog‘lana oladigan fe’llardir:*o‘qidi (kitob**ni**), yozadi (xat**ni**).*

**O‘timsiz fe’llar** esa tushum kelishigidagi so‘zlarga bog‘lana olmaydigan fe’llardir: *yugurdi, bordi, turdi, o‘tirdi, keldi.*

**Tayanch so‘zlar**: udum, urf-odat, sharqona, fe’l, ish – harakat, holat, jismoniy, fikrlamoq, bajaruvchi, shaxs, narsa, qo‘shma, juft, takroriy, yasalish, bo‘lishli, bo‘lishsiz, o‘timli, o‘timsiz.

**Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1.Udum nima?

2.Qanday o‘zbekona urf-odatlarni bilasiz?

3. Fe`l mustaqil so‘z turkumi haqida nimalarni bilasiz?

4. Bo‘lish-bo‘lishsiz fe`llar deganda nimani tushinasiz?

5.O‘timli-o‘timsiz fe`llar deganda nimani tushinasiz?

**Topshiriqlar**

**1-topshiriq:**Lug‘atdan foydalanib fe’llarni tarjima qiling. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

So‘ramoq, kelmoq, olib kelmoq, kutmoq, topmoq.

**2- topshiriq:** O‘zbek tiliga tarjima qiling.

1.Выполнить задание. 2. Выучить правило. 3. Запомнить новые слова. 4. Перевести статью. 5.Знать употребление слов. 6. Ответить на вопросы.

**3- topshiriq:**Nuqtalar o‘rniga mos fe’llarni qo‘yib gaplarni ko‘chiring.

1.O‘qimoq - ... 2. Bilim ... – har bir insonning burchi. 3. Vatanni ... – iymondandir. 4. Malakali mutaxassis bo‘lib ... – orzumiz. 5. Vatanga ... har bir fuqaroning burchi.

**Fe’llar:** munosib bo‘lish, olish, yuksalmoq, sevmoq, yetishish.

## 29-MAVZU: Xalqona muomala madaniyati

## Fe`l nisbatlari va tuslanishi

REJA:

1.Muomala madaniyatining xalqimizga xos ifodasi.
2. Nisbat tushinchasi.
3.Fe’l nisbatlarining ifodalanishi.
4.Fe’llarning tuslanishi.

Har bir taraqqiy etgan madaniyatli xalqning o‘z tili, urf-odati, adabiyoti, moddiy va ma’naviy boyliklari bo‘ladi. O‘zbek xalqi ham dunyodagi eng qadimiy madaniyatga ega bo‘lgan xalqlardan biri sifatida o‘zining ma’naviy va moddiy xazinasiga ega.

Xalqimizning insoniy tuyg‘ular bilan bog‘liq yaxshilikka undovchi udumlarimizdan biri kattaga hurmat, kichikka shavqatdir. Bu aqida hech qachon chetda qolmagan.

O‘zbek xalqining uzoq asrlar qa’ridan bizgacha yetib kelgan urf odatlari, mehr-oqibati, insoniy fazilatlari bugungi kunda ham juda zaruriy ma’naviy dastuhlamal bo‘lib xizmat qilmoqda va barkamol avlod tarbiyasida o‘zining yangi qirralari bilan namoyon bo‘lmoqda.

Fe’lda ish-harakat bilan uning bajaruvchisi orasidagi munosabatning ifodalanishi **fe’l nisbati** deyiladi (ayrim darsliklarda daraja deyiladi).

Fe’l nisbatlari besh xil:

**1.Aniqlik nisbat**dagi fe’llar harakatning ma’lum shaxs yoki predmet tomonidan bajarilishini bildiradi va ularda maxsus nisbat qo‘shimchalari bo‘lmaydi: *o‘qidi, kelyapti, bormoqchi.*

**2.O‘zlik nisbat**idagi fe’llar ish-harakatning boshqa buyumga o‘tmay, bajaruvchining o‘zida qolganini anglatadi. Bunday fe’llar unli bilan tugagan negizga ***-i, -l,*** undosh bilan tugagan negizga ***-in, -il*** qo‘shimchalarini qo‘shish bilan hosil qilinadi (bir-ikkita fe’lda ***-(i)sh*** qo‘shimchasi bilan yasalish bor: *kerishdi,*

*joyla**sh**di): tara**n**di, sev**in**di, sudra**l**di. Quvonmoq, seskanmoq, faxrlanmoq, zavqlanmoq, otlanmoq afsuslanmoq* fe'llari tarkibida ***-n*** ko'rsatkichi mavjudligiga qaramasdan, bu fe'llar aniqlik nisbatida hisoblanadi, chunki ular tarkibidagi ***-n*** qo'shimchasi ajratilmaydi. *Yayra, qichqir, uxla, bor* kabi fe'llardan o'zlik nisbat yasalmaydi.

**3.Majhul nisbat**dagi fe'llar ish-harakatning aniq bajaruvchisini ko'rsatmaydi. Bu fe'llar ham ***-n, -in, -l, -il*** qo'shimchalari yordamida hosil qilinadi: *to'k**il**di, to'pla**n**di, och**il**di, ol**in**di.* O'zlik va majhul nisbatdagi fe'llar bir xil qo'shimcha yordamida hosil bo'lganda, ularning qaysi nisbatdaligi gap mazmunidan yoki fe'ldan oldin o'zi so'zini keltirib ko'rish bilan aniqlanadi: *Mukofotlar ber**il**di. Alisher o'qishga ber**il**di* (1-fe'l majhul, 2-fe'l o'zlik nisbatdadir).

**4.Birgalik nisbat**dagi fe'llar ish-harakatning bir necha shaxs yoki narsa-buyum tomonidan birgalikda bajarilganligini bildiradi va unli bilan tugagan negizga ***-sh***, undosh bilan tugagan negizga ***-ish*** qo'shimchasini qo'shish bilan yasaladi. Bunday fe'llar ish-harakatning bir necha shaxs tomonidan bajarilganligini yoki birgalik-ko'plik ma'nolarini ifodalaydi: *Karim va Ahmad maqola yoz**ish**di. Bolalar paxta ter**ish**di. To'qna**sh**di, boq**ish**di, qara**sh**di, ayt**ish**di, tort**ish**di* fe'llari hozirgi o'zbek tilida ajralmas holatga kelib qolganligi uchun aniqlik nisbatdadir.

**5.Orttirma nisbat**dagi fe'llar ish-harakatning boshqa biror shaxs yoki narsa-buyum vositasida bajarilganligini bildiradi va *-t, -tir, -dir, -ir, -ar, -iz, -giz, -kiz, -g'iz, -gaz, -qiz, -sat* qo'shimchalari yordamida hosil qilinadi: *o'q**ish**, kel**tir**, yoz**dir**, bit**ir**, uch**ir**, pish**ir**, qoch**ir**, ko'r**gaz**, tom**iz**, yur**giz**, ket**kiz**, tut**qaz**, o'**tkaz**, ko'r**sat**.* Ayrim fe'llar orttirma nisbat shaklida yangi ma'no ifodalaydigan bo'lib qoladi va shuning uchun ularni aniq nisbatda qo'llab bo'lmaydi: *erkalamoq erkalatmoq* (ikkala shaklda ham orttirma nisbat ma'nosini ifodalayapti). Bir fe'lda ikki-uch xil orttirma nisbat qo'shimchasi qo'shilishi mumkin: *Ye**giz** - ye**gizdir**, yoz**dir** - yoz**dirtir**.*

Fe'lning orttirma nisbati o'zlik va birgalik nisbatdagi fe'llardan ham hosil qilinishi mumkin: *yuv**intir**, yig'**ishtir**.* Orttirma nisbatdagi fe'llardan birgalik va majhul nisbatdagi fe'llar hosil qilinishi mumkin: isitildi, yozdirishdi. Birdan ortiq nisbat qo'shimchalarini olgan fe'llarning qaysi nisbatdaligi oxirgi nisbat qo'shimchasiga qarab belgilanadi: *yuvin**tir**di* orttirma nisbat, *yuvintir**il**di* majhul nisbat, *yuvintir**ish**di* birgalik nisbati.

## Fe'llarning tuslanishi

Fe'llar birlik va ko'plikda bo'ladi. Birlik harakatining bir kishi tomonidan, ko'plik esa birdan ortiq kishi tomonidan bajarilganini bildiradi.

Fe’llarda uch shaxs bor: **1-shaxs** harakatining **so‘zlovchi** tomonidan, **2-shaxs** harakatning **tinglovchi** tomonidan, **3-shaxs** harakatning **o‘zga(boshqalar)** tomonidan bajarilganini bildiradi.



| Shaxs | Birlik | Ko’plik |
|---|---|---|
| 1-shaxs | Yozdim, yozaman, yozay(in) | Yozdik, yozamiz, yozaylik |
| 2-shaxs | Yozding, yozasan, yoz(gin) | Yozdingiz, yozasiz, yozing(iz) |
| 3-shaxs | Yozdi, yozadi, yozsin | Yozdilar, yozadilar, yozsinlar |

**Fe’lning shaxs-son shakllari**

Fe’lning shaxs – son qo‘shimchalarini olib o‘zgarishi **tuslanish** deyiladi.
Fe’llardagi shaxs-son qo‘shimchalari ***tuslovchi qo‘shimchalar*** ham deyiladi.

| **shaxs** | **Birlik** | **ko‘plik** |
|---|---|---|
| **1-shaxs** | *yozdi**m**,*<br>*yoza**man**,*<br>*yoz**ay(in)*** | *yozdi**k**,*<br>*yoza**miz**,*<br>*yoz**aylik*** |
| **2-shaxs** | *yozdi**ng**,*<br>*yoza**san**,*<br>*yoz(**gin**)* | *yozdi**ngiz**,*<br>*yoz**asiz**,*<br>*yoz**ing(iz)*** |
| **3-shaxs** | *yozdi,*<br>*yozadi,*<br>*yoz**sin*** | *yozdi(lar),*<br>*yozadi(lar),*<br>*yoz**sin(lar)*** |

**Tayanch so‘zlar**: xalqona, muomala, o‘zbekona, qadriyat, ish – harakat, nisbat, aniqlik, o‘zlik, majhullik, birgalik, orttirma, tuslanish, birlik, ko‘plik, shaxs.

**Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1.Muomala madaniyatining xalqimizga xos ifodasi nimalarda namoyon bo‘ladi?

2.Fe’l nisbatlari deganda nimani tushuasiz?

3.Aniqlik va o‘zlik nisbati haqida gapiring.

4.Majhullik va birgalik nisbati haqida gapiring.

5.Ortirma nisbati haqida gapiring.

## Topshiriqlar

**1-topshiriq:** Quyidagi qo‘shma fe’llar ishtirokida gaplar tuzing.

Bajara olasan, ishlab yuribman, so‘zlab berdik,borib kelamiz, ishlab turibsiz.

**2- topshiriq:**O‘zbek tiliga tarjima qiling.

Хаким изложил свою точку зрения. 2. Ты можеш перевести это на узбекский язык? 3. На нашем факультете организована работа кружка молодых поэтов и писателей. 4. На дом было задано выучить стихотворение Айбека «Na’matak».

**3-topshiriq:**Quyidagi gaplarni rus tiliga tarjima qiling.

1.Maqolning mazmunini so‘zlab bering. 2. Do‘stingdan iltimos qilib tur. 3. Hozircha mana shu kitobdan foydalanib turamiz. 4. Nikolay o‘zbekcha kitoblarni o‘qib turadi. 5. Men hozir dam olib yuribman. 6. Ertaga qishloqqa borib kelaman.

## 30-MAVZU: Morfologiya yuzasidan takrorlash.

REJA:

1.”Aqliy hujum “ metodi orqali “Morfologiya” yuzasidano‘tilganlarni takrorlash.

2.Grammatik topshiriqlarni bajarish.

**Savollar:**

1. Grammatika nimani o‘rgatadi?
2. Morfologiya nimani o‘rgatadi?
3. Sintaksis nimani o‘rgatadi?
4.So‘z turkumlari deganda nima tushunasiz?
5. O‘zbek tilida nechta so‘z turkumi bor?
6. Ot deb nimaga aytiladi?
7. Ot ma’no jihatdan qanday turlarga bo‘linadi?
8. Otga xos grammatik xususiyatlar deganda nimani tushunasiz?
9. Otlarning yasalishi deganda nimani tushunasiz?
10.Otlar ma’no jihatidan qanday turlarga bo‘linadi?
11.Atoqli otlar qanday mavzuiy guruhlarga bo‘linadi?
12.Otlarda birlik kategoriyasining ifodalanishi nimani tushinasiz?
13.Otlardako‘plik kategoriyasining ifodalanishi nimani tushinasiz?
14.Sifat mustaqil so‘z turkumi haqida nimalarni bilasiz?
15. Sifatning qanday grammatik xususiyatlari mavjud?
16.Sifatlar tuzilishiga ko‘ra qanday turlarga bo‘linadi?
17. Sifatlarda ozaytirma daraja diganda nimani tushinasiz?
18. Sifatlarda kuchaytirma daraja deganda nimani tushunasiz?

19. Sifat mustaqil so‘z turkumi haqida nimalarni bilasiz?
20. Sifatning qanday grammatik xususiyatlari mavjud?
21. Sifat va uning darajalari deganda nimani tushunasiz?
22. Sifatlarda qanday darajalar bor?
23. Son mustaqil so‘z turkumi haqida nimalarni bilasiz?
24.Sonning qanday grammatik xususiyatlari mavjud?
25.Sonning qanday ma’no turlari bor?

## Topshiriqlar

**1-topshiriq**: Matnni o‘qing va ot so‘z turkumiga tegishli so‘zlarni aniqlang, xususiyatlarini ko‘rsating.

INSON ODOBI BILAN

Bolajonlik - xalqimizga xos azaliy odat. Oilada farzand tug‘ilishi ota-onalarga ham, qarindosh-urug4 va yaqin kishilarga ham zo‘r quvonch baxsh etadi. Yangi «mehmon» sharafiga boshlangan xursandchilik ancha kungacha davom etadi. Kelgan kishi Jar uy egalarini yangi «mehmon» bilan qutlab, «Katta bo‘lsin», «Baxtini ko‘ring», «Aqlli-hushlikkina bo‘lsin» degan yaxshi istaklar bildiradilar.

Ota-ona farzandlariga yaxshi niyat bilan ism qo‘yadi, shu kundan uning kelajagi, baxtini o‘ylaydi. Farzandini axloq-odobga o‘rgatish, o‘qitish, kattaroq bo‘lganda biror kasb-hunar egasi bo‘lishiga g‘amxo‘rlik qilish ota-onaning burchidir.

Bolani kasb-hunarga, o‘rgatishda qadimdan «Ota kasb - ona rasm» naqliga qattiq rioya qilingan. Shunga ko‘ra o‘qil bola yosh chog‘idanoq ota yonida dastyorlikka o‘rgatilib, ota hunarini egallagan, qiz bola esa ona rasmini tutgan. *(O.To‘rayeva).*

Lug‘at
azaliy - вечный
odat - обычай
quvonch - радость
istak - желание
g‘amxo‘rlik - забота
naql - мудроесть, изречение
rasm- обычай, обряд

**2-topshiriq**: Matnnio‘qing, sifatso‘zturkumigategishliso‘zlarnianiqlang, xususiyatlariniko‘rsating.

KIM BIRINCHI BO‘LIB SALOM BERISHI KERAK?

Yoshi katta odam bilan yoshi kichik odam uchrashsa, albatta, kichik odam birinchi bo‘lib salom beradi. Lekin qol uzatish hamisha kattadan. Odamiar to‘plangan xonaga kirsangiz bunda, shubhasiz, siz salom berishingiz shart. Bir kishi olddiga ikkinchi kishi kelsa, albatta kelgan kishi salom beradi.

Bu yaxshi odat qadimdan insoniylik ziynati hisoblanadi. Bir mi sol keltiraylik, taxminan 2000 yil ilgari Hindistonda "Mangu qonunlar ' kitobi yozilgan. Yoshi kattaiarga birinchi bo‘lib salom beruvchilar to‘rt narsaga erishadi: uzoq umr ko;radi, obro‘ii, bilimli va kuchli bo‘ladi deyilgan.

Aslida esa kamtar, odobli kishi qachon men salom berishim kerag-u, qaysi paytlarda boshqaiar menga salom berishi lozim, deb o‘ylamaydi. Bunday kishilar birinchi bo‘lib salom beraveradilar.

Lug‘at

qo‘l uzatish - протягиватьруку

obro‘li – авторитетный

kamtar – скромный

**3-topshiriq**: Matnni o‘qing , ot, sifat, son mustaqil so‘z turkumlariga tegishli so‘zlarni aniqlang va xususiyatlarini tushuntiring.

MINORALAR

Oqsaroy - Amir Temur tomonidan (1380-1404) Shahrisabzda qurdirilgan. Bizgacha butun saqlanmagan, uning avvalgi holati to‘g‘risida faqat yozma manbalarni o‘qib fikr yuritish mumkin. 20 yil davomida qurilgan bu bino devonxonasi peshtog‘ida arslon va quyosh tasviri hamda Temur davlatining 3 halqa shaklidagi nishoni bo‘lgan. Saroy devorlaridagi ranglarning oy yorug‘ida jilovlanib, oqarib ko‘rinishidan bino Oqsaroy deb nomlangan.

Tom tepasida ishlangan hovuzga Taxtaqoracha dovonidan qo‘rg‘oshin quvurlar orqali suv keltirilib, undan sharshara hosil qilingan.

Kaltaminor - Xivadagi Muhammad Aminxon madrasasining old tomonida joylashgan. O‘rta Osiyoda eng katta va baland qilib qurish mo‘ljallangan (taxminan 70-80 m). 1852-yilda qurilishi boshlangan majmua 1855-yilda xonning vafoti tufayli chala qolgan. Shuning uchun uning nomi Kaltaminor deb ataladi. Hozir Kaltaminorning balandligi - 26 metr, asosining diametri - 14,2 m. Bezagida oq, yashil, feruza rangli koshinlar ko‘p ishlatilganidan Ko‘kminor deb ham ataladi. Kaltaminor toMiq ta’mirlanib, naqsh va yozuvlari qayta tiklangan.

Lug‘at

tasvir- рисунок

majmua - комплекс

hovuz-бассейн

**4-topshiriq**. Matnni o‘qing tub ot va sifat hamda yasalgan ot va sifatlarni aniqlang, ularni ustun tartibida ajratib yozing.

ILM FAZILATLARI HAQIDA

Bilginki, hayotiy maishatingni yaxshilaydigan va ishlaringni haqiqiy to‘g‘ri yo‘lga soladigan eng ulug‘ vosita bu ilmdir. Ilm buyuk qadrga va oliy fazilatga ega. Sen ilm tufayli oliy sharafga, ulug‘Iikka va orzu - istaklarga yetishasan. Ilm kasb va

fazilatlarning eng afzali, ilm o‘rganuvchi esa shu toifaning ulug‘rog‘idir. Ilm orqali yaxshi-yomonni taniysan, halol-haromning farqiga borasan, do‘stlik va qarindosh-urug‘ning fazilatlarini anglaysan, qonun-qoidalarni tushunusan, haq - huquqlaringni bilasan.

Ilm shunday boylikki, u sening aqlingni mustahkamlaydi, xulqingni poklaydi, tabiatni tozalaydi, izzatingni oshiradi. Ilm sening hayotingga tahsinga sazovor bo‘ladigan yangiliklar olib kiradi, yozishga, ijod qilishga, tasnif etishga sharoit yaratadi, bu bilan esa seni kamolga etkazib, umrini boqiy qiladi. Ilm o‘rganib, ilmga amal qilmagan kishi yer haydab, uni ekmagan kishiga o‘xshaydi.

Ilmsiz inson - mevasiz daraxt.

Ilm bir Xazina bo‘lsa, bu Xazina kaliti - savol!

Ilm -inson ziynati. («*Otalar so‘zi*»).

Lug‘at

maishat - жизнь, наслаждение

fazilat — достоинство

afzal - лучший, предпочтительный

izzat - почесть, почтение

tasnif - классификация

boqiy - вечный, бессмертный

xazina - сокровищница, клад

**5-topshiriq:** Matnnio‘qingvarustiligatarjimaqiling.

IBN SINO JISMONIY VA AQLIY TARBIYA HAQIDA

Ibn Sino «Tib ilmiari qonuni» asarida bola katta bo‘lib, yetilgan chog‘ida jismoniy tarbiyaga ahamiyat berish zarurligini aytadi. Uning c'qtirishicha, odamning yig‘itlik, yetuklik yoshida hamda uig‘aygan yoshida sog‘lik-salomatligini saqlash uchun zarur bo‘lgan jismoniy mashg‘ulot bilan shug‘ullanishi kerak. Ulug‘ mutaffakir jismoniy tarbiva deb inson saiomatligi uchun zarur bo‘lgan badanni turli xil mashg‘ulot harakatlariga o‘rgatishni nazarda tutadi. Uning fikricha, jismoniy mashg‘ulotlar bilan o‘z vaqtida va mustaqil shug‘ullanib boruvchi odam hech qanday davolanishiga muhtoj bo‘lmaydi.

Ibn Sinoning aql va aqliy tarbiyaning tabiiy va psixilogik asoslarni aniqlashga harakat qiladi. Uning fikricha, hayot, hayotiy quvvat uch shaklda: o‘simlik, hayvonot va inson shaklida namoyon bo‘ladi.

Ibn Sino bolaning ilm-fan yoki hunar egallashga intilishida o‘qituvchining unga bilim, hunar o‘rgatishi zarurligini uqtiradi.

Ilm-fanga intilish insonning eng oliy ma’naviy harakatlaridandir. Chunki, ilm odamni ma’naviy yuksaklikka ko‘taradi, jamiyat ravnaqining asosiy omili bo‘lib xizmat qiladi.

Lug‘at

uqtirish- разъяснять

yetuklik- зрелость, совершенство
omil- факт

## 31-MAVZU: Milliy va zamonaviy bayramlarimiz

### Fe`l zamonlari.

REJA:

1.Milliy va zamonaviy bayramlar haqida ma'lumot.
2.Fe'llarda zamon kategoriyasining ifodalanishi.
3.O'tgan zamon fe'llari.
4.Hozirgi zamon fe'llari.
5.Kelasi zamon fe'llari.



Xalqimiz hayotidagi muhim sanalar, bayramlar orasida Navro'z o'zida qadimiy an'ana va urf-odatlarimiz, mehr-oqibat va saxovat kabi yuksak insoniy fazilatlarni namoyon etishi bilan ajralib turadi.

Bunday tadbirlar yoshlarning xalqimiz tarixi va madaniyati, boqiy an'ana va qadriyatlari haqidagi bilim va tasavvurini boyitishga xizmat qiladi.

Fe'l ifodalagan ish - harakatning paytga munosabati **fe'l zamonlari** deyiladi. Fe'llarda uchta zamon mavjud:

**1.O'tgan zamon fe'llari** nutq paytidan oldin bajarilgan yoki bajarilmagan ish-harakatini bildiradi: *yozdi, keldi, bordi.*

O'tgan zamon fe'llari o'z navbatida besh turga bo'linadi:

***1) Yaqin o'tgan zamon fe'llar****i* ***–di*** qo'shimchasi yordamida hosil qilinadi: *kel**di**, bor**dim**.*

**2)** ***Uzoq o'tgan zamon fe'llari –gan*** qo'shimchasi va ***edi, ekan*** fe'llarining tuslash yordamida hosil qilinadi: *kel**gan edim**.*

**3)** ***O'tgan zamon hikoya fe'llari –(i)b*** qo'shimchasini olgan fe'llarni tuslash yordamida hosil qilinadi: *kel**ibman**.*

**4)** ***O'tgan zamon maqsad fe'llari –moqchi*** qo'shimchasi va ***edi (ekan, emish)*** fe'llarini tuslash yordamida yasaladi: *kel**moqchi** edi**k**, kel**moqchi** ekan**lar**, kel**moqchi** emish**siz**.*

**5)** ***O'tgan zamon davom fe'llari –(a)p*** qo'shimchasi va ***edi (ekan, emish)*** fe'lini tuslash yordamida yasaladi: *kel**ar** edi**ng**, kel**ar** ekan**san***: *kel**ar** emish**lar.***

**2. Hozirgi zamon fe'llari** nutq paytining o'zida bajarilayotgan yoki bajarilmayotgan ish-harakatini bildiradi va ikki turga ajratiladi:

**1)*Hozirgi zamon davom fe’llari –yap, -moqda, -yotir*** qo‘shimchalari yordamida hosil qilinadi: *kel**yapti**, bor**moqda**.* Bu zamon turi *yot, tur, yur,o‘tir* ko‘makchi fe’llari yordamida ham yasaladi: *yozib **yotib**di, yozib **tur**ibdi, o‘qib **yur**ibdi, gaplashib **o‘tir**ibdi.*

**2) *Hozirgi - kelasi zamon fe’llari –a*** yoki ***–y*** qo‘shimchalari yordamida hosil qilinadi: *bor**a**man, kel**a**san, o‘qi**y**man.*

**3. Kelasi zamon fe’llari** nutq paytidan keyin bajariladigan yoki bajarilmaydigan ish - harakatini bildiradi va ikki turga ajratiladi:

***1) Kelasi zamon maqsad fe’llari –moqchi*** qo‘shimchasi yordamida yasaladi: *bor**moqchi**man, kel**moqchi**san.*

***2) Kelasi zamon gumon fe’llari –(a)p*** qo‘shimchasi yordamida yasaladi: *bor**ar**man, kel**ar**san, oq**ir**man.*

## Zamon shakllarining bir-biriga ko‘chishi

1) o‘tgan zamon ***–di*** bilan yasalgan shakli kelasi va hozirgi zamon ma’nolarida qo‘llanadi: *Hozir qayoqqa ham bor**di**k.*

2) ***–gan*** bilan yasalgan shakl hozirgi zamon ma’nosida qo‘llanadi: *Birov kitob o‘qi**gan**, kimlar shaxmat atrofida.*

3) hozirgi zamon fe’lining kelasi zamon ma’nosida qo‘llanishi *ket, bor, yubor, boshla* kabi fe’llar doirasida uchraydi: *Bularni boshqa polkka **yuboryapmiz**.*

4) hozirgi zamonning o‘tgan zamon ma’nosida qo‘llanishi ko‘p uchraydigan holatdir: *Bir kun qarasam, darchani buzaman deb bolta ko‘tarib kela**yotib**ti.*

## Topshiriqlar

**1-topshiriq:** Fe’llarni tegishli shaklda qo‘llab gaplarni ko‘chiring.

1.Abror bolaligida juda to‘polonchi (bo‘lmoq). 2. Toshkent shahridagi ko‘plab uylar zilziladan keyin (qurilmoq). 3. Tog‘amni ko‘rgani kasalxonaga (bormoq). 4. Men Navoiy nomli 1-maktabni (bitirmoq). 5. Sayohatga (otlanmoq) do‘stlarimizni vokzalgacha (kuzatib bormoq). 6. Shahrimiz keyingi yillarda ancha (ko‘rkamlashmoq).

**2-topshiriq:** O‘tgan zamon fe’llarini hozirgi va kelasi zamon fe’llariga aylantiring.

1.Men bu yili Toshkent Axborot texnologiyalari universitetiga o‘qishga kirdim. 2. Dadam kecha bir qancha kitoblar olib keldilar. 3. Hozir Toshkentda ko‘plab yangi binolar qurildi. 4. Katta opam tibbiyot institutini tamomladi. 5. Bolaligimda balandlikdan qo‘rqar edim. 6. Uning o‘zi ham ilgari sport bilan shug‘ullanardi.

**3-topshiriq:**Gaplarni o‘zbek tiliga tarjima qiling va fe’l zamonlarini aniqlang.

В этом году в наш университет поступило около 10.000 заявлений. 2. Мы все были рады твоему поступлению в институт. 3.В этом году я был в командировке в городе Карши. 4. Я никогда не был в этих местах. 5. К нам в

университет приехали знаменитые преподаватели. 6. Сегодня мы были в музее истории Тимуридов.

**4-topshiriq:**Berilgan fe’llarni o‘tgan zamon davom fe’li shaklida qo‘llab, gaplar tuzing.

**Na’muna:** tanishmoq – tanir edim, qo‘rqmoq – qo‘rqar edim.

Qatnashmoq, bajarmoq, o‘zlashtirmoq, ulgurmoq, o‘rganmoq.

**Tayanch so‘zlar:** milliy, zamonaviy, bayram, qadriyat, xalqimiz, fe’l, zamon, o‘tgan, hozirgi, uzoq yaqin, davom, hozirgi kelasi, maqsad, gumon.

**Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1.Milliy bayramlarimiz deganda nimani tushunasiz?

2.Qaysi bayramlarimiz zamonaviy hisoblanadi?

3.Fe’l zamonlari deb nimaga aytiladi?

4.O‘tgan zamon fe’li ifodalanishi haqida gapiring.

5.Hozirgi zamon fe’li ifodalanishi haqida gapiring.

6.Kelasi zamon fe’li ifodalanishi haqida gapiring.

## Topshiriqlar

**1-topshiriq:** Fe’llarni tegishli shaklda qo‘llab gaplarni ko‘chiring.

1. Abror bolaligida juda to‘polonchi (bo‘lmoq). 2. Toshkent shahridagi ko‘plab uylar zilziladan keyin (qurilmoq). 3. Tog‘amni ko‘rgani kasalxonaga (bormoq). 4. Men Navoiy nomli 1-maktabni (bitirmoq). 5. Sayohatga (otlanmoq) do‘stlarimizni vokzalgacha (kuzatib bormoq). 6. Shahrimiz keyingi yillarda ancha (ko‘rkamlashmoq).

**2-topshiriq:** Matnni rus tiliga tarjima qiling. O‘zbek va rus tilidagi fe’llarning qo‘llanilish tartibini qiyoslang.

1.Men bu yili Toshkent Axborot texnologiyalari universitetiga o‘qishga kirdim. 2. Dadam kecha bir qancha kitoblar olib keldilar. 3. Hozir Toshkentda ko‘plab yangi binolar qurildi. 4. Katta opam tibbiyot institutini tamomladi. 5. Bolaligimda balandlikdan qo‘rqar edim. 6. Uning o‘zi ham ilgari sport bilan shug‘ullanardi.

**3-topshiriq:** Gaplarni o‘zbek tiliga tarjima qiling. Fe’l zamonlarining o‘zbek va rus tilida qo‘llanilish tartibini izohlang.

1.В этом году в наш университет поступило около 10.000 заявлений. 2. Мы все были рады твоему поступлению в институт. 3.В этом году я был в командировке в городе Карши. 4. Я никогда не был в этих местах. 5. К нам в университет приехали знаменитые преподаватели. 6. Сегодня мы были в музее истории Тимуридов.

## 32-MAVZU: Milliy qadriyatlar e'zozi.

## Fe'l mayllari.

1.Milliy qadriyatlar haqida ma'lumot
2.Fe`l mayllari haqida ma`lumot



Vatanimiz tarixining hech bir davrida bu xalq o'zligini yo'qotmagan, istibdod va mustabidlik, qashshoqlik va qahatchilik zamonlarida ham bolasini odob-axloqqa, mehr-muhabbatga, yaxshilikka o'rgatgan. Sabr-qanoatdan ulg'ayib metin bo'lgan bu xalq. O'ziga yomonlik qilganga ham yaxshilikni ravo ko'rgan bu xalq. Shuning uchun ajdodlar qanoati, mehr-muruvvati asrlar osha bizni ildizlari teran qadriyatlarimizga qaytardi.

Xalqimizda azaldan har bir xonadonda, mahalla-ko'yda yoshi ulug' insonlar e'zozlanib kelingan. Shuning uchun bizga ajdodlarimizdan yetib kelgan, dunyo xalqlarini tafakkur ziyosi bilan bahramand qilgan buyuk va benazir ilmiy-ma'naviy meros bilan birga har tomonlama mukammal va mazmunli bo'lgan qadriyat va urf-odatlarimiz xonadonlarimizni fayzu -barakali qilmoqda.

So'zlovchining ish – harakatga moyilligi **fe'l mayli** deyiladi.
Fe'llarda beshta mayl bor:

**1. Xabar** (ijro, aniqlik) **maylidagi** fe'llar ish-harakatining uch zamondan birida bajarilish – bajarilmasligini bildiradi: *yozdi, kelyapti, bormoqchi.* Bunday fe'llar darak gapning kesimi bo'lib keladi.

**2. Buyruq – istak maylidagi** fe'llar ish – harakat haqida buyruq, istak, maslahat, iltimos kabi ma'nolarni bildiradi: Bunday fe'llar***–(a)y, -gin, -sin, -aylik, -ing(iz), -sinlar*** qo'shimchalari yordamida yasaladi: *yoz**ay,** o'q**iy**, yoz**gin**, yoz**sin,**o'qi**ylik**, bor**ing(iz)**.*

**3. Shart maylidagi** fe'llar biror ish-harakatining bajarilishi uchun undan oldin bajarilishi shart bo'lganish - harakatni, birorish – harakatning bajarilish – bajarilmasligi haqida istak, maslahat, faraz kabi ma'nolarni anglatadi va ***–sa*** qo'shimchasi yordamida hosil qilinadi: *bor*sa, *kel**sa**m, yur**sa**k.*

Bu maylidagi fe'llar sof shart ma'nosini*(Kel**sa**, bor**amiz**)*,orzu –istak *(Qani endi, o'qishga kir**sa**m)*, iltimos, maslahat *(O'sha kishini chaqirib ber**sangiz**)*, faraz *(Yomgir yog'**sa** kerak)*, payt *(Tashqariga chiq**sa**m, ukam turibti)*, buyruq – istak mayliga xos (*Gapir**sangiz**-chi!)* ma'nolarini ifodalaydi. Bu fe'llar ***ekan*** fe'li bilan qo'llansa, shart ma'nosiga istak ham qo'shiladi: *o'qi**sa ekan**…*

**4. Maqsad maylidagi** fe’llarish – harakatni bajaruvchining maqsadi, mo‘ljali, niyatini bildiradi. Bu fe’llarning o‘tgan zamon shakli, hozirgi zamon shakli va kelasi zamon shakllari bor: *kel**moqchi**, bor**moqchi** bo‘**lyap**man, bor**moqchi** bo‘l**a**man.*

## To‘liqsiz fe’llar

O‘zining lug‘aviy ma’nosini yo‘qotib, yordamchi so‘zlarga yaqinlashib qolgan fe’llar **to‘liqsiz fe’llar** deyiladi. Bularga: *edi, ekan, emish, emas* so‘zlari kiradi. Bu fe’llar tuslovchi qo‘shimchalarni olishi, bo‘lishli -bo‘lishsizlikni ifodalashi, qisqargan shaklda kelishi, gapda esa bog‘lama vazifasini bajarishi mumkin: *edim, ekanman, emassan, emishmiz, edi, ekan, emish (bo‘lishli), emas (bo‘lishsiz): kelganedi – kelgandi, borganemas – borganmas* kabi.*Otasi ishchi ekan (bog‘lama).*

## Yetakchi va ko‘makchi fe’l

Nutqimizda ikkita fe’ldan iborat bo‘lgan birliklar ham bor. Ular tarkibidagi asosiy ma’noni ifodalaydigan fe’l **yetakchi fe’l** deyiladi: ***o‘qib** chiqdi, **ko‘ra** boshladi.* Yetakchi fe’lning ma’nosini izohlaydigan, to‘ldiradigan fe’l esa **ko‘makchi fe’l** deyiladi: *o‘qib **chiqdi,** ko‘ra **boshladi,** sotib **yubordi**, berib **tur**, yiqila**yozdi**.*

Yetakchi va ko‘makchi fe’lning qo‘shilishidan qo‘shma fe’l, ya’ni yangi so‘z hosil bo‘lmaydi, chunki ular birgalikda yangi bir lug‘aviy ma’noni ifodalamaydi, balki davomiylik, to‘satdan boshlanganlik, harakatning tuganlanganligi kabi ma’nolarni bildiradi: *o‘qib chiqdi, ko‘rib chiqdi.* Yetakchi va ko‘makchi fe’lning birikishidan **ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmasi** hosil bo‘ladi.

Ba’zan ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmasi tarkibidagi yetakchi fe’l uyushib kelishi ham mumkin: *Yil sayin sovxozning yeri **kengayib,** texnikasi **ko‘payib,** odamlari **o‘sib bormoqda**.* Ba’zan ko‘makchi fe’l ham birdan ortiq bo‘lishi mumkin: ***aytib** berib turaqol* (***aytib***-yetakchi fe’l).

Ko‘makchi fe’llar yetakchi fe’llarga ravishdosh yasovchi–***(i)b, -a, -y*** qo‘shimchalari yordamida bog‘lanadi. Ayrim ko‘makchi fe’llar yetakchi fe’lga qo‘shimchasiz ham birikadi: *yozdi - oldi, ketsin - qo‘ysin, ayt - qo‘y.*

Yetakchi fe’llarga so‘z yasovchi va shakl yasovchi qo‘shimchalar, ko‘makchi fe’llarga esa barcha turdagi qo‘shimchalar qo‘shila oladi: *yozib olaman.*

O‘zbek tilida faqat ko‘makchi fe’l bo‘lib keladigan fe’llar yo‘q.

Ayrim fe’llar o‘z asl ma’nolaridan tashqari, ko‘makchi fe’l tarzida keladi. Bularni quyidagi guruhlarga bo‘lish mumkin:

1) ravishdoshning ***–(i)b*** qo‘shimchali turiga birikadi: *yot, o‘tir, yur, kel, bo‘l, bit, chiq, et, o‘t, yubor, tashla, tush, o‘l, ko‘r, qara, boq.*

2) ravishdoshning ***–a, -y*** qo‘shimchali turlariga birikadi: *boshla, bil, yoz.*

3) ravishdoshning ham ***–(i)b,*** ham ***–a, -y*** qo‘shimchali turlariga birikadi: *tur, bor, ol, ber, qol, qo‘y, ket, sol, ol.* Bu ko‘makchi fe’llarni yana ma’no jihatidan harakat

jarayonining tasvirlovchi *(boshla, kel, yot, tur, yur, o‘tir, bor, ber, bo‘l, bit,bitir, chiq, et, o‘t, ol, qo‘y, yubor, sol, tush, tashla o‘l, qol),* modal ma’nolarni ifodalovchi, ya’ni so‘zlovchining harakatga bo‘lgan munosabatini ko‘rsatuvchi *(bil, bo‘l, ol, qol, qo‘y, ko‘r, bet, qara, boq, tur, yur, o‘tir, yoz),* yo‘nalish ma’nosini ifodalovchi *(ol, ber)* kabi guruhlarga bo‘lish mumkin.

## Topshiriqlar

**1-topshiriq:** Buyruq gaplarni ko‘chiring. Buyruq maylidagi fe’llarning shaxs - sonini ko‘rsating.

**Namuna:** Texnikadan unumli foydalanaylik(1 shaxs, ko‘plik ).

Qimmatli bolalar, o‘rtoqlarga do‘stona yashashni, ishda, o‘qishda bir - biringizga yordam berishni o‘rganingiz. Sizning orangizda, har turli millat bolalari orasida, katta bolalar va kichiklar orasida haqiqiy o‘rtoqlik bo‘lsin.

**2-topshiriq:** Maqollarni o‘qing. Fe’l mayllari orqali oddiy gaplarga aylantiring.

Gap bilan shoshma, ish bilan shosh. 2. Sanamay sakkiz dema. 3. Bir tup tok eksang, bir tup tol ek. 4. Bugungi ishni ertaga qo‘yma. 5. Avval o‘yla, keyin so‘yla. 6. Tiling bilan dilingni bir tut.

**3-topshiriq:** Gaplarni o‘qing. Mayl qo‘shimchalarini ajrating va uslubiy vazifalarini aniqlang.

O‘zbekiston, seni shuncha sevmasam, Qalbim seni deb, jo‘sh urmaganda, Nurli ko‘ringaymi bu jahon menga? 2. O‘g‘limizga bir yaxshi xat yozsak. 3. Tishlarimni ko‘rmak istasang, Havasingni marvaridga ayt, Gar o‘zimni ko‘rmak istasang, Yovni yengib, zafar bilan qayt. 4. Behabar bo‘lmang: ushog‘i yerga nogoh tushmasin, Donai bir non ushog‘in tanga darmon, deb biling. 5. Oltin yerda qolsa ham, bilim yerda qolmas. 6. Nainki inson bir oz egilib, ariqdan bir piyola suv olib icholmasa!

## 33-MAVZU: Zamon va yoshlar.

## Fe’lning xoslangan shakllari.

REJA:

1.Zamon va yoshlar haqida umumiy ma’lumot.
2.Fe’lning xoslangan shakllari haqida ma’lumot.
3.Ravishdoshning ifodalanishi.
4.Sifatdoshning ifodalanishi.
5.Harakat nomining ifodalanishi

Fe’lning ma’lum sintaktik vazifani bajarishga xoslangan shakllari **vazifadosh (xoslangan) shakllar** deb ataladi. Bularga ravishdosh, sifatdosh, harakat nomi kiradi.

**1.Ravishdosh** ish-harakatning belgisini, uning maqsadini, paytini, bildirgan fe’lshaklidir. Ravishdosh fe’lga bog‘lanib, qo‘shimcha hol bo‘lib keladi.

Ravishdoshlar bo‘lishdi - bo‘lishsizlikni, bildira oladi, *o‘qib* -bo‘lishli, aniq nisbatda, *o‘qitmay* - bo‘lishsiz, orttirma nisbatda.
Ravishdoshlar quyidagicha hosil bo‘ladi:
**1*) –b, -ib,*** qo‘shimchalari bilan: *bor**ib**, o‘q**ib***
**2) *–a, -y*** qo‘shimchalari bilan: *kul**a**-kul**a**, o‘qi**y**-o‘qi**y***
**3) *–gach, -kach, -qach,- guncha, -kuncha*** qo‘shimchalari bilan: *o‘t**gach**, tuq**qach**, chiq**qach**, kel**guncha**, oq**quncha**, tikk**uncha**.*
**4) *–gani, -qani, -kani*** qo‘shimchalari bilan: *o‘qi**gani** keldi. Ko‘chat ek**kani** bordik. Mol boq**qani** chiqdi.* Bu qo‘shimchaning ***–gali*** ko‘rinishi ham bor*: Idish so‘ra**gali** chiqdi.*
**5*) –gudek*** qo‘shimchasi bilan: *yiqil**gudek**.*

Ravishdoshlar ma’no jihatidan quyidagi turlarga bo‘linadi:

**1. Payt ravishdoshlari *–gach, -kach, -qach, -guncha, -kuncha*** qo‘shimchalari bilan yasaladi.
**2. Holat ravishdoshlari *–b, -ib, -a, -y*** qo‘shimchalari bilan yasaladi.
**3. Maqsad ravishdoshi *–gani, -qani, -kani, -gali*** qo‘shimchalari bilan yasaladi.
**2. Sifatdosh** narsa-buyumning belgisini bildiradigan fe’l shaklidir. Sifatdosh fe’l singari ish-harakatni anglatib, zamon, nisbat, bo‘lishli-bo‘lishsizlikni bildiradi: *qolgan* – bo‘lishli, o‘tgan zamon aniq nisbatda. Sifatdoshsifat kabi otga bog‘lanib, uning belgisini bildiradi, gapda aniqlovch bo‘lib keladi: *O‘quvchilar to‘qil**gan** paxtalarni terishdi.*

Sifatdoshlarning bo‘lishsiz shakllari quyidagicha yasaladi: *bor**gan** – bor**magan**, bor**ayotgan** – bor**mayotga**n, bor**ar** – bor**mas**, bor**adigan** – bor**maydigan**.*

Sifatdoshlar zamon bo‘yicha quyidagicha yasaladi:

**1. O‘tgan zamon sifatdoshi *–gan, -kan, -qan*** qo‘shimchalari bilan yasaladi: *ot**gan**, tik**kan**, chiq**qan**.*
**2. Hozirgi zamon sifatdoshi *–(a)yotgan*** qo‘shimchasi bilan yasaladi: *kel**ayotgan**, o‘qi**yotgan.***
**3.Kelasi zamon sifatdoshi *–(a)p, -(a)digan, -(u)vchi*** qo‘shimchalari bilan: *oq**ar** suv, qayn**ar** buloq, bor**adigan** bola, o‘qi**ydigan** kitob, kel**uvchi** odamlar.* Kelasi zamon sifatdoshining bo‘lishsiz shakli ***-ma + s*** qo‘shimchasi bilan hosil qilinadi: *Ayt**ar** so‘zni ayt, ayt**mas** so‘zdan qayt.*

Sifatdoshlar ot o‘rnida qo‘llanib, ot vazifasini bajarishi mumkin, ya’ni otlashadi. Bunda ular otlar kabi turlanadi, egalik, kelishik, ko‘plik qo‘shimchalarini oladi va gapda ega, to‘ldiruvchi, qaratqich aniqlovchi bo‘lib keladi: *Qo‘rq**qanga** qo‘sha ko‘rinadi. Ayt**ganlaringizni** bajardik.*

**Harakat nomi** ish – harakatining nomini bildirib, zamon va shaxs sonni ko‘rsatmaydigan fe’l shaklidir. Harakat nomi quyidagicha yasaladi:

1. Fe’l o‘zak - negiziga *–sh, -ish* qo‘shimchalarini qo‘shish bilan: *o‘q**ish**, yoz**ish***.
2. Fe’l o‘zak - negiziga *–v, -uv* qo‘shimchalarini qo‘shish bilan: *o‘q**uv**, yoz**uv***.
3. Fe’l o‘zak - negiziga ***–moq, (-mak)*** qo‘shimchasini qo‘shish bilan: *yoz**moq***, de***mak.***
***–ish*** qo‘shimchasi bilan yasalgan harakatnomi otga yaqin turadi, shuning uchun bularni doim almashtirib qo‘llab bo‘lmaydi: *Quril**ish** boshlandi* gapida ***–moq*** qo‘shimchasini ishlatib bo‘lmaydi, *o‘q**ish*** so‘zida ***–moq*** qo‘shimchasini qo‘llasa bo‘ladi.
Harakat nomlarining bo‘lishsiz shakli quyidagicha yasaladi: *bor**moq** – bor**maslik**, o‘q**ish** – o‘qi**maslik**, kel**uv** – kel**maslik***.

**Tayanch so‘zlar**: zamon, yoshlar, taraqqiyot, kelajak, xoslangan, vazifadosh, ravishdosh, sifatdosh, harakat.

**Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**
1.Hozirgi zamon yoshlari oldingi yoshlardan qaysi xususiyatlari bilan farqlanadi?
2.Fe’lning xoslangan shakllari deganda nimani tushinasiz?
3.Ravishdosh qanday ifodalanadi?
4.Sifatdosh qanday ifodalanadi?
5.Harakat nomi qanday ifodalanadi?

## Topshiriqlar

**1-topshiriq:** Qavs ichidagi fe’llardan ravishdoshlar hosil qilib, gaplarni ko‘chiring.

Tong ham asta-sekin ota boshladi. Qo‘ylar o‘rinlaridan (tur), qo‘zilarni (ergashtir), jilg‘a tomon yura boshladilar. Oqish kulrang osmon (yorish), (oqar) moviy tusga kirmoqda edi: yulduzlar goh (miltillar ko‘rin), goh (uch) turardi.

**2-topshiriq:** Nuqtalar o‘rniga qavs ichida berilgan sifatdosh hosil qiluvchi qo‘shimchalardan mosini qo‘yib, gaplarni ko‘chiring.

1.Quyoshning damini g‘ir-g‘ir es (*-gan, -qan*) shamol bo‘g‘ar edi. 2. Kechasi bilan yoq (*-gan, -kan, -qan*) yomg‘ir tong otar paytiga borib tindi. 3. Uzoqni mo‘ljallab yo‘lga chiq (*-gan, -kan, -qan*) yo‘lchilar kechga yaqin Taft shahri yaqinida to‘xtashdi. 4. Ola ek (*-gan, -kan, -qan*) oz olar, raso ek (*-gan, -kan, -qan*) soz olar.

**3-topshiriq:** Harakat nomlarini topib, tagiga chizing, hosil bo‘lishini tushuntiring.
Sog‘lom bo‘lish uchun uyda ham, o‘qish joyida ham tozalikka rioya qilish, turli harakatli o‘yinlar o‘ynash va toza havoda yurish zarur.O‘qish va ishlash bilan birga vaqtida dam olish ham kerak. Gimnastika, yugurish, fudbol, suvda suzish kabi mashg‘ulotlar, uyda va o‘qishda, sabzavot, poliz, bog‘ va o‘quv tajriba uchastkasida ekin ekish, chopish, sug‘orish kabi jismoniy mehnat qilish muskullarning bir tekisda rivojlanishiga, uning chiniqishiga, epchil va chaqqon bo‘lishiga yordam beradi.

## 34-MAVZU: Barkamol avlod orzusi.

## Ravish va uning ma’no turlari.

REJA:

1. Barkamol avlod tushunchasi.
2.Ravish mustaqil so‘z turkumi.
3.Holat ravishi.
4.Payt ravishi.
5.O‘rin ravishi.
6.Daraja – miqdor ravishi.

Prezidentimiz rahnamoligida bolalar sportini rivojlantirishga qaratilayotgan doimiy e’tibor yuksak samaralar berayotir. Buni Surxondaryo viloyatida bu borada amalga oshirilayotgan izchil ishlar misolida ham ko‘rish mumkin.

O‘zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan 2003-2015-yillarda viloyatda 163 bolalar sporti inshooti, 17 bolalar musiqa va san’at maktabi barpo etildi va rekonstruksiya qilindi. Ushbu inshootlarning 39 tasi o‘tgan yili qurilib, zamonaviy usulda jihozlandi.

Ish-harakat va holatning belgisini bildirgan so‘zlar turkumi **ravish** deyiladi. Ravish *qanday?, qachon?, qayerda?, qayerdan?, qayerga?, qancha?, nega?, qay darajada?* kabi so‘roqlarga javob bo‘ladi. Ravish ko‘pincha fe’lga bog‘lanib, ish-harakatning qay holatda bajarilishini, paytini, o‘rnini, daraja-miqdorini, sababini, maqsadini bildiradi.

Ayrim ravishlar sifat kabi darajani ham bildiradi:

1) bosh daraja: *sekin yurdi:*
2) qiyosiy daraja: *Mashina tez**roq**yurdi. Sal oldin**roq** keldi.*
3) orttirma daraja: ***Juda ko‘p** paxta terdi.*
4) kuchaytirma daraja: ***juda-juda** charchadi, **kuppa-kunduzi**kelishdi.*

Ravishlarning tuzilish jihatdan turlari quyidagicha:

1.Sodda ravishlar: *ko‘p, tez, do‘stona.*
2.Qo‘shma ravishlar: *bir oz, har zamon, ozmuncha.*
3.Juft ravishlar: *unda-bunda, birin-ketin, omon-eson.*
4.Takroriy ravishlar: *asta-asta, tez-tez*

**I.**Ravishlar quyidagi ravish yasovchi qo‘shimchalar yordamida boshqa so‘z turkumlaridan, shuningdek, ravishlardan ham yasaladi:

***-cha**: qisqa**cha**, o‘zi**cha**, boshqa**cha**, eski**cha**.*
***-larcha**: qarindosh**larcha**, o‘rtoq**larcha**, aka**larcha**.*
***-chasiga**: yangi**chasiga**, toshkent**chasiga**, dehqon**chasiga**.*
***-siga**: tikka**siga**.*
***-ligicha:** xom**ligicha**, tirik**ligicha**, butun**ligicha**, ho‘l**ligicha***
***-dek/day**: o‘q**dek**, qush**day**.*

***-lab**: ertalab, ko'p**lab.***
***-ona**: do'st**ona**, fidokor**ona**, g'olib**ona***
***-an:** umum**an**, tahmin**an**, majbur**an**, asos**an,** rasm**an**.*
***-gacha**: kech**gacha**, tush**gacha**.*
***-simon**: erkalangan**simon**, uyalgan**simon**, hazillashgan**simon**.*
***-namo**: uyalgan**namo**, olifta**namo.***
***-lay(in):** butun**lay**, tirik**layin.***
***-incha:** ko'p**incha**, aks**incha**.*
***-siz, be-:** to'xtovchi**siz**, **be**ixtiyor.*
***-chang**: ko'ylak**chang**, qo'vush**chang.***
***-in**: old**in**.*

**II.So'zlarni qo'shib ravish yasash** - bunda qo'shma, juft va takroriy ravishlar yasaladi. Qo'shma ravishlar asosan ikki so'zdan yasaladi va ularning quyidagi turlari ajratib yoziladi:

1) tarkibida ***u, bu, shu*** olmoshlari bo'lgan payt va o'rni ravishlari: ***u** yoqqa**, bu** yoqqa**, u** yerga**, shu** yerda* va boshqalar.

2) tarkibida ***har, hech, hamma, bir*** so'zlari bo'lgan ravishlar: ***har** vaqt, **har** zamon, **har** qachon, **hech** vaqt**, hamma** vaqt, **bir** zum, **bir** necha.*

3) tarkibida ***alla-*** va ***bir-*** elementi bor bo'lgan ravishlar qo'shib yoziladi*: **alla**vaqt, **bir**yola, **bir**muncha, **bir**varakayiga, **bir**pas* ravishlari qo'shib yoziladi.

**III.Juft ravishlar**ning tub ravishlaridan hosil bo'lganlari kam: *asta-sekin,bugun-erta* va boshqalar.

O'rin - payt kelishigidagi ba'zi ot va olmoshlar ravishga ko'chib, juft ravish hosil qilinadi*: oyda - yilda, unda - bunda*.

Juft ravishlar asosan quyidagicha yasaladi:
Bir-biriga yaqin ma'noli so'zlardan: *eson - omon, ochiq - oydin.*
Antonim so'zlardan: *erta - kech, kecha - kunduz, ochiq - to'kin.*

**IV.Takroriy ravishlar** quyidagicha yasaladi:

1) ot bilan ot takrorlanadi: *qator-qator, yildan-yilga, qadam-baqadam*:

2) sifat bilan sifat: *chaqqon-chaqqon, uzundan-uzoq, bekordan-bekorga:*

3) fe'l shakllari: *uzil-kesil, bilinear-bilinmas, bora-bora, o'ra-so'ra, qayta-qayta, borib-borib, turib-turib, qo'yarga-qo'ymay.*

4) ravish bilan ravish*: nari-beri, oldin-ketin, birin-ketin, unda-bunda, hali-beri*:

5) olmosh, son, taqlid va aralash holda so'zlarning takrorlanishi: *o'z-o'zidan, yakka-yakka, taqa-taq.*

Juft ravishlar ham, takroriy ravishlar ham chiziqcha bilan yoziladi: *asta-asta, nari-beri* va boshqalar.

Bulardan tashqari, o'rin-payt va chiqish kelishigidagi so'zlarning ravishga aylanish holatlari ham ucharaydi*: yangidan, birdan, birga, boshda, kunda, charchamasdan, shoshmasdan* kabi.

Boshqa turkumlarning ko‘chishidan hosil bo‘lgan ravishlar.

1) Otlar ko‘chadi: *erta, indin, kecha, kech, kechqurun, bugun*:

2) sifatlar: *yaqqol, baralla, tugal, bafurja, muttasil, vaqtli, rosa, baravar, uzluksiz, beomon*:

3) ravishdoshlar: *o‘ta, qiya, qo‘sha, qayta:*

4) taqlidiy so‘zlar: *shartta, taqqa, tappa, chippa.*

Ravishlar ma’no jihatdan olti turga bo‘linadi:

**1.Holat ravishlari** ish-harakatning qanday holatda yoki qay tarzda bajarilganligini bildirib, qanday?, qay holda?, qay tarzda? so‘roqlariga javob bo‘ladi: *asta, sekin, tez, birdan, qo‘qisdan, to‘satdan, yonma-yon, qo‘lma-qo‘l, omon-eson, zo‘rg‘a, piyoda, do‘stona, qahramonona, qadrdonlarcha, naridan-beri* va boshqalar.

**2. Payt ravish** ish-harakatining bajarilish paytini bildirib, qachon?, qachongacha?, qachondan?, qachondan beri?. kabi so‘roqlarga javob bo‘ladi*: avval, oldin, ilgari, so‘ng, keyin, kechgacha, kechadan, hozir, doimo, tez orada, shu kuni, bu orada.*

**3. O‘rin ravishi** ish-harakatining bajarish o‘rnini bildirib, qayerda?, qayerdan?, qayerga? so‘roqlariga javob bo‘ladi*: oldinda, orqada, o‘ngda, chapda, quyidan, uzoqdan, ichkaridan, yuqoriga, berida, pastda, o‘rtada, tashqarida, olg‘a, u yoq-bu yoqqa* va boshqalar.

**4. Sabab ravishi** ish-harakatning bajarilish sababini bildirib, nega? so‘rog‘iga javob bo‘ladi*: noiloj, ilojsiz(likdan), chorasiz(likdan)*

**5. Maqsad ravishi** ish-harakatning bajarilish maqsadini bildiradi va nega?, nima maqsadda? So‘roqlariga javob bo‘ladi: *atay(in), ataylab, jo‘rtaga, qasddan, qasdma-qastiga.*

**6. Daraja-miqdor ravishi** ish-harakatning darajasini, miqdorini, belgining darajasini, narsa-buyumning noaniq miqdorini bildirib, qancha?, qay darajada? so‘roqlariga javob bo‘ladi: *juda, eng, g‘oyat(da), nihoyatda: ko‘p, mo‘l, bisyor, oz, kam, picha, ancha, bir talay, bir oz, ko‘plab*. Bular o‘z ichida quyidagi guruhlarga bo‘linadi:

1) ***kuchaytiruv ravishlari***: a) tasdiq – *eng, juda, nihoyat(da), g‘oyat(da), yana(da), tandi, tamomila, uncha, ozmuncha, ubdan, naq, o‘ta, qoq, zir:* b) inkor – *sira, asti, aslo, zinhor, hargiz, hadeganda*:

2) ***kuchsizlantiruv ravishlari***: *arang, zo‘rg‘a, zo‘r-bazo‘r, xiyol, sal, sal-pal.*

**Tayanch so‘zlar**: yoshlar, avlod, barkamol, kelajak, ravish, grammatik, xususiyat, holat, harakat, payt, belgi o‘rin, daraja, miqdor.

**Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1.Barkamol avlod tushunchasini qanday izohlaysiz??

2.Ravish mustaqil so‘z turkumi haqida gapiring.

3.Holat ravishi qanday ifodalanadi?

4.Payt ravishi qanday ifodalanadi?

5.O‘rin ravishi qanday ifodalanadi?
6.Daraja – miqdor ravishi qanday ifodalanadi?

**Topshiriqlar**

**1-topshiriq:** So‘zlar yordamida birinchi ustunda payt ravishlarini, ikkinchi ustunda o‘rin ravishlarini yozing.
Erta, oldinga, ertaga, ichkari, past, ichkarida, tashqari, hozir, hozirdan, hali, yuqoriga, avval, ilgari, o‘rtada, chapda, chapdan, ertalab.

**2-topshiriq:** Nuqtalar o‘rniga yordam uchun so‘zlardan mosini qo‘yib, gaplarni ko‘chiring.
1.... men o‘zbek tilini bilmas edim. 2. .... o‘zbek tilini o‘rgana boshladim. 3. .... sen yangi matnning mazmunini yaxshi tushundingmi? 4. .... qiyin matnlarning mazmunini aytib bera olmayman. 5. .... universitetimizda o‘zbek tili to‘garagi ochildi. 6. .... to‘garak mashg‘uloti yaxshilanmoqda.
***Yordam uchun so‘zlar***: *hozir, kundan-kunga, ilgari, bugun, hozircha, yaqinda, o‘tgan yili.*

**3-topshiriq:** Matndan ravishlarni ajratib olib, turini aniqlang.

**O‘zbek maqollari**

Maqol xalq og‘zaki ijodiga oid janrlardan biri sanaladi. Maqollar shaklan qisqa bo‘lgani bilan ularda juda keng ma’no mujassam bo‘lgan.Tilimizning bu bebaho boyligini o‘rganish bilan ajdodlarimiz qadimdan shug‘ullanib kelganlar.

Mashhur qomusshunos Mahmud Qoshg‘ariy XI-asrdayoq turkiy xalqlarning 400 ga yaqin hikmatli iborasining o‘zining uch jildlik lug‘atiga kiritgan. Ularning 250 dan ortiqrog‘i shakl va mazmuniga ko‘ra hozirgi o‘zbek tilidagidan farq qilmaydi.

Mashhur masalchi Gulhaniy (XIX asr) 200 ga yaqin hikmatli iborani to‘plab, ularni bir tizimga jamlab, “Zarbulmasal” asarini yaratgan.

Adabiyotshunos olimlarimiz “O‘zbek xalq maqollari” kitobida 1800 ta maqolni 31 mavzuga ajratib tavsiflagan.Olimlarning aniqlashicha, har bir kishi taxminan 800 ga yaqin maqol va matallar haqida tushunchaga ega bo‘lar ekan. Siz-chi? Siz qancha maqolni bilasiz?

## 35-MAVZU: XXI asr – texnika asri.

## Yordamchi so‘zlar turkumi

REJA:

1.XXI asrning oldingi asrlardan farqi.
2.Texnika asri tushunchasi.
3.Yordamchi so‘zlar turkumi haqida ma’lumot.
4.Ko‘makchi va uning grammatik xususiyatlari.
5.Bog‘lovchi va uning grammatik xususiyatlari.
6.Yuklama va uning grammatik xususiyatlari.

XXI asr – intellektual avlod asri. Mamlakatimiz iqtisodiy taraqqiyotining o‘sish sur’atlari dunyo hamjamiyati tomonidan yuksak e’tirof etilmoqda. Bu bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o‘tishning puxta o‘ylangan strategiyasi, ayni paytda ilm-fanni rivojlantirish, ta’lim sohasini isloh etish, ilmiy va innovatsion faoliyatni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar samarasidir.

Lug‘aviy ma’no anglatmasdan faqat grammatik ma’no ifodalab keluvchi so‘zlar turkumi **yordamchi so‘zlar** deyiladi.

Ot, olmosh, harakat nomi, sifatdoshlardan keyin kelib, ularni boshqa so‘zlarga tobelanish yo‘li bilan bog‘laydigan yordamchi so‘zlar **ko‘makchi** deyiladi. Ko‘makchi qaysi so‘zdan keyin kelsa, o‘sha so‘z bilan birgalikda bir so‘roqqa javob bo‘lib, bir hil gap bo‘lagi vazifasini bajaradi. Ko‘makchi kelib chiqishga ko‘ra ikki xil bo‘ladi:

***1. So‘z ko‘makchilar*** lug‘aviy ma’nolarini butunlay yo‘qotib, vazifa jihatidan kelishik qo‘shimchalariga yaqin turadigan so‘zlardir. Bu ko‘makchilarning bir xili tub (yasalmagan) bo‘ladi*: uchun, kabi, sari, singari, sayin, uzra, qadar, yangilik*. Boshqa xillari yasama bo‘ladi: ***Bilan****=bir+la+n.*

***2. Ko‘makchi vazifasida qo‘llanuvchi so‘zlar***gapda o‘rni bilan mustaqil so‘z, o‘rin bilan ko‘makchi bo‘lib keladi. Bularga *tomon, tashqari, bo‘yi, chamasi, holda kabi ot turkumidan, sababli, tufayli, orqali, qarshi, chog‘li, muvofiq, o‘zga, boshqa kabi sifat turkumidan, qarab, qaraganda, ko‘ra, degan, deydigan, o‘sha, bo‘ylab, yarasha, qaramasdan, qaramay, qarata* kabi fe’l turkumidan, *avval, so‘ng, keyin, bugun, ilgari, beri, buyon, asosan, binoan* kabi ravish turkumidan o‘tgan so‘zlar kiradi.

Bulardan tashqari, o‘z lug‘aviy ma’nolarini saqlagan holda ko‘makchi o‘rnida kelib, harakat bilan predmet o‘rtasidagi turli munosabatlarini ifodalaydigan so‘zlar ham bor. Bu so‘zlar o‘rin-payt, chiqish va egalik qo‘shimchalarini qabul qiladi. Bunday so‘zlar **ko‘makchi otlar** deb ataladi: *old, o‘rta, yon, orqa, ket, ich, ust, tepa, ost, tag, ora, bosh, o‘rin, qosh, yoqqa.*

***Ko‘makchilar va kelishiklar*** **-** ko‘makchilar vazifasi jihatidan kelishiklarga o‘xshaydi. Ayrim hollarda ko‘makchi o‘rnida kelishik qo‘shimchasi yoki kelishik qoshimchasi ko‘makchilar o‘rnida almashib kelishi mumkin. Ko‘makchilar tushum,

jo‘nalish, o‘rin payt, chiqish kelishiklari o‘rnida almashib kelishi mumkin. Biroq hamma vaqt ham ko‘makchi o‘rnida kelishik qo‘shimchasi ishlatilavermaydi: *Radio **orqali** eshitdik – radio**dan** eshitdik. Ukam**ga** oldim – ukam **uchun** oldim. Qalam **bilan** yozdi – qalam**da** yozdi. Borgan**ini** gapirib berdi. Borgani **haqida** gapirib berdi.*

**Bog‘lovchi -** gapining uyushiq bolaklarini va qo‘shma gapdagi soda gaplarini bir-biriga bog‘lash uchun xizmat qiladigan yordamchi so‘zlar **bog‘lovchi** deb ataladi. Bog’lovchilar mazmuniga ko’ra ikki turga bo’linadi:

**I.Teng bog‘lovchilar -** bu bog‘lovchilar gapning uyushiq bo‘laklarini va qo‘shma gap tarkibidagi sodda gaplarni teng huquqli qilib bog‘laydi va quyidagi turlarga bo‘linadi:

***1. Biriktiruvchi bog‘lovchilari***: *va, ham, hamda.*

***2. Zidlov bog‘lovchilari***: *ammo, lekin, biroq, balki, holbuki.*

***3.Ayiruv bog‘lovchilari***: *yo, yoki, yoxud, gox, ba’zan, yo…yo, yoki…yoki, goh…goh, ba’zan…ba’zan, bir…bir, dam…dam.*

**II.Ergashtiruvchi bog‘lovchilar -** bu bog‘lovchilar ko‘pincha ergashgan qoshma gap tarkibidagi sodda gaplarni bir-biriga ergashtirish yo‘li bilan bog‘laydi va quyidagi turlarga bo‘linadi:

***1. Aniqlov bog‘lovchisi****: ya’ni, -ki(-kim), -toki.*

***2. Sabab bog‘lovchilari***: *chunki, shuning ushun.*

***3. Shart bog‘lovchilari***: *agar(da), garchi, garchand, gar, mabodo, basharti.*

***4. O‘xshatish bog‘lovchisi***: *go‘yo(ki)*

Mustaqil so‘z va gaplarga qoshimcha ma’no beradigan yordamchilar **yuklama** deyiladi. Yuklamalar tuzilishiga ko‘ra ikki xil bo‘ladi:

***1.So‘z yuklamalar***: *faqat, ham, axir, hatto.*

***2.Qo‘shimcha ko‘rinishdagi yuklamalar***: *-ku, -mi, -a, -gina.*

Yuklamalar **ma’no jihatdan** quyidagi turlarga bo‘linadi:

**1.*So‘roq va taajjub yuklamalari***: ***-mi*** so‘roq va taajjubdan tashqari modal ma’noni ham bildiradi, bunda u noaniqlikni ifodalaydi*: Uyida**mi**, ko‘chada**mi**, uning uchun farqi yo‘qedi. –**chi*** so‘roqdan tashqari buyruq, do‘q, iltimos, qistash, ta’kid, uqtirish ma’nolarini ham bildiradi: *Qani, yur-**chi**! Kitobingni berib tur-**chi. –a. –ya*** yuklamalari ham so‘roq va taajjubdan tashqari his - hayajonni, tasdiq va ishonchni ham bildiradi: *Qanday chiroyli-**ya!** Go‘sht olibdi – jiqqa ho‘l-**a.***

***2. Kuchaytiruv va ta’kid yuklamari***: *Nahotki, axir, ham, hatto(ki), -oq(-yoq), -ki(-kim), -ku, -da, -y(-yu)* yuklamalari kuchaytirish va ta’kid ma’nolarini angatsa, *tim* (qora), *liq* (to‘la), *lim* (to‘la), *g‘irt* (yolg‘on), *kir*-(shir-kip-yalang‘och*), jiqqa* (ho‘l) yuklamalari nutqqa tasviriylik berib, so‘z ma’nosini kuchaytirish uchun xizmat qiladi. *Ham* yuklamasi ba’zan bog‘lovchi o‘rnida ham qo‘llanadi. *Zarur daftar **ham** kitoblarni hozirlab qo‘ying.*

***3. Ayiruv yuklamalari***: *faqat, -gina, (-kina, -qina): faqat, -gina* yuklamalari o‘rnida ***yolg‘iz*** so‘zi qo‘llana oladi.
***4. Inkor yuklamasi***: Bu yuklama takroriy qo‘llanadi: ***Na*** *o‘qiydi,* ***na*** *yozdi.*
***5. Aniqlov yuklamalari***: *- xuddi, naq.* ***Xuddi*** *shu yerda uchrashamiz.*
***6. Gumon yukalamasi****:– dir*: *Uyiga yetib borgan****dir.***
**Tayanch so‘zlar**: asr, texnika, kibernetika, taraqqiyot, so‘z, yordamchi, lug‘aviy, grammatik, ko‘makchi, bog‘lovchi, yuklama.

**Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**
1. XXI asr oldingi asrlardan nimasi bilan farqlanadi?
2.Texnika asri tushinchasini qanday izohlaysiz?
3.Yordamchi so‘zlar turkumi haqida ma’lumot bering.
4.Ko‘makchi qanday grammatik xususiyatlarga ega?
5.Bog‘lovchi qanday grammatik xususiyatlarga ega?
6.Yuklama qanday grammatik xususiyatlarga ega?

## Topshiriqlar

**1-topshiriq:** O‘qing, nuqtalar o‘rniga ko‘makchilardan mosini qo‘yib, ko‘chiring. Ko‘makchilarning ma’nosini izohlang.
Har bir bola menga o‘xshagan o‘yinqaroq, bolalar ... bu yerda ermak topiladi. (G‘afur G‘ulom) 2. Qaytishda bo‘lsa, o‘rtog‘larim ... chillak o‘ynaguncha guzardan muzqaymoq olib chap tarafdan keldim. (Hakim Nazir) 3. Bog‘da gul chaman-chaman, Men gullarni quchaman. Zavqla ochib qulochim, sho‘x qush... uchaman. (Po‘lat Mo‘min) 4. U so‘zining ustidan chiqdi, Tesha... gul ko‘chatining tagini yumshatib, kun ora suv quyib turdi. (Farhod Musajon).

**2-topshiriq:** Nuqtalar o‘rniga bog‘lovchilardan mosini qo‘yib, gaplarni ko‘chiring, ularga tavsif bering.
Tuyaqush ... Qoplon ikkalalari do‘st bo‘libdilar. Qoplon chin so‘zli, do‘stga sadoqatli, g‘amxo‘r ... mehribon bo‘lganligi uchun harsillab yetib kelibdi. (Ertakdan) 2. Pochcham ... ammam bu gul, bu hayvonotlarning har bittasini nuridiydalariday parvarish qiladilar. Tushlik nonushtasi uchun suzma bermoqchi edim, bechora qushlar juda ham yovg‘onsirab ketdi. (G‘afur G‘ulom) 3. Buvisi, onasi ketishsa-chi to‘ylarga, Uyni poylab o‘tirar chiqmay ko‘cha-ko‘ylarga (Ilyos Muslim).

**3-topshiriq:** Nuqtalar o‘rniga tegishli yuklamalarni qo‘yib, gaplarnko‘chiring.
Agar qarshi bo‘lmasalaring, menda bir taklif bor, - dedi Jovli. – Ertaga qishloqni bir boshidan titkilab chiqsak...? – Ol...! (N.Norqobulov) 2. Bunisini ko‘ring... ! – dedi jajji, chamandagul do‘ppini dadamga uzatib. (O‘.Hoshimov) 3. Ikkisi ham birdan: -

Besh...? – deb so‘radi. – Shunaqaga o‘xshaydi...? – dedim men. Oyim peshonamdan o‘pdi. (O.Yoqubov).

**4-topshiriq:** Matnni o‘qib, yuklamalarni va boshqa yordamchi so‘zlarni toping. Ularning gapga qanday ma’no berayotganligini aniqlang.
Bobom g‘alatilar-da. Ko‘p gapiradigan kishini hech yoqtirmaydilar. O‘zlariyam juda qarib qolganlar. Bug‘doyrang, cho‘tir yuzlarini ajin bosgan, soqollari oppoq, lekin sira tinchimaydilar, qachon qarama biron ish qilib turadilar.

## 36-MAVZU: O‘zbekiston ta’lim tizimi.

## Alohida olingan guruh so‘zlar turkumi

REJA:

1.O‘zbekiston ta’lim tizimi haqida ma’lumot.
2.Alohida olingan guruh so‘zlar turkumiga xos xususiyatlar.
3.Undov so‘zlar.
4.Taqlid so‘zlar.
5.Modal so‘zlar.

### O‘zbekiston Respublikasi ta’limi

Ta’limning o‘z ichiga maktabgacha ta’lim, umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limini qamrab oluvchi yangi uzluksiz va izchil tizimi barpo etiladi. Oliy kasb-hunar ta’limining bakalavrlar va magistrlar tayyorlashni nazarda tutuvchi ikki bosqichli tizimi joriy etiladi. Aspirantura va doktorantura faoliyati rivojlanib boradi. Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash bo‘yicha raqobatbardosh ta’lim muassasalari vujudga keltiriladi. Uzluksiz ta’lim tizimi uchun pedagog kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash ustuvorligi ta’minlanadi.

### Maktabgacha ta’lim

Maktabgacha ta’lim, 6 -7 yoshgacha oilada, bolalar bog‘chasida va boshqa ta’lim muassasalarida olib boriladi.

### Umumiyo‘rtata’lim

Boshlang‘ich ta’lim (1-4 sinflar), umumiy o‘rta ta’lim (1-9 sinflar).
Boshlang‘ich ta’lim O‘zbekistonda majburiy, bepul va barchaga taaluqli hisoblanadi. Umumiy o‘rta ta’lim kerakli bilim hajmi, mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, tashkiliy mahorat va amaliy tajriba poydevorini qo‘yib, boshlang‘ich professional yo‘nalishni va ta’limning keying pog‘onasini tanlashda ko‘maklashadi.

### O‘rta maxsus kasb-hunar ta’lim

O‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi kunduzgi ko‘rinishda ikki yo‘nalishda akademik litseylarda va kasb-hunar kollejlarda amalga oshiriladi.

### Oliy ta’lim

Universitetlar, akademiyalar, institutlar. (Bakalavriat, magistratura).

### Oliy o‘quv yurtidan keyin ta’lim

Katta ilmiy xodim-izlanuvchilar instituti. Mustaqil izlanuvchilik. Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’limni oliy o‘quv yurtlarida va ilmiy-tadqiqot muassasalarida olish mumkin. Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim dissertatsiya himoyasi bilan yakunlanadi. Yakuniy davlat attestatsiyasi natijalariga ko‘ra fan doktori ilmiy darajasi berilib, davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi diplom topshiriladi.

## Undov so‘zlar

His - hayajon, tuyg‘uni, haydash - chaqirishni bildiradigan so‘zlar turkumi **undov so‘zlar** deyiladi.

Undovlar ma’no jihatidan ikki turli bo‘ladi:

***1. His-hayajon undovlari***: *oh, eh, ux, o, e, uf, voy, ura, ofarin, salom, xayr, xush, rahmat, hormang, balli, bay-bay, voy-bo‘y, a, ax, ohho, obbo, ey, ehhe, i, ie, ux, uhhu, him, be, tuf, xo, hay, eh , ha, iye.*

His - hayajon undovlari odatda gap bo‘lagi vazifasida qo‘llanadi. Ular yozuvda gap bo‘laklaridan vergul bilan ajratiladi. Agar undov kuchli bo‘lsa, his-hayajon bilan aytilsa, undov, belgisi qo‘yiladi. ***Eh****! Havo naqadar sof va musaffo!*

***2. Haydash - chaqirish undovlari*** kishilarning diqqatini tortish yoki hayvonlarni biror ishni bajarishga undash uchun ishlatadi: *hey, allo, ey, ma, tss, jim, marsh: kisht, chux, beh-beh, drr, ishsh, pisht, tu-tu-tu, bax-bax, mosh-mosh, xov-xov, chuk, tek, chu.*

## Taqlid so‘zlar

Tovushga vaholatga taqlidni bildirgan so‘zlar **taqlid so‘zlar** deyiladi. Bunday so‘zlar ma’no jihatidan ikki turga bo‘linadi:

***1.Tovushga taqlid bildiradigan so‘zlar***: *gumbur-gumbur, dup-dup, duk-duk, shiq-shiq, tak-tuk, pix-pix, kult-kult, bidir-bidir, vov, uv, irr, muu, maa, baa, mee, ang-ang-, ing-ing, miyov, vaq-vaq, ku-ku, ka-ka, g‘aq-g‘aq, parr, viz-viz.*

***2.Holatga taqlid bildirgan so‘zlar***: *yalt-yult, apil-tapil, yarq-yurq, jimir-jimir, milt-milt, lip-lip, pildir-pildir, mult-mult, lop, dik-dik, lik-lik, xilp-xilp, duv-duv, pir-pir, lang, dang, hil-hil*.

Taqlid so‘zlar mustaqil so‘zlar kabi gap bo‘lagi bo‘la oladi. *Shamol* ***g‘Ir-g‘ir*** *(hol) esmoqda.*

## Modal so‘zlar

So‘zlovchining o‘z fikriga bo‘lgan munosabatini bildiradigan so‘zlar **modal so‘zlar** deyiladi: ***Ehtimol,*** *bugun yetib kelar*.

Modal so‘zlar ma’no jihatidan quyidagi turlarga bo‘linadi:

***Ishonch***: *albatta, shubhasiz, darhaqiqat, haqiqatan, so‘zsiz, tabiiy, tog‘ri, xoynaxoy, o‘z-o‘zidan, haqiqatda, rostdan*.

***Gumon***: *ehtimol, shekilli, chamasi, menimcha, chog‘i, aftidan, ajabmas, har holda, har qalay, balki*.

***Xulosa***: *xullas, demak, nihoyat, xullas kalom.*

***Afsuslanish***: *afsus, attang, esiz.*
***Zaruriyat****: kerak, zarur, lozim.*
Bulardan tashqari: *bor, yoq, binobarin, zero, birinchida*,.. kabi modal so‘zlar ham mavjud.
Modal so‘zlar gap tarkibida ko‘pincha kirish so‘z bo‘lib keladi.
**Tayanch so‘zlar:**ta’lim, tizim, maktabgacha, boshlang‘ich, o‘rta, oliy, tarbiyalanuvchi, o‘quvchi, talaba, aspirant, doktorant, alohida, undov, taqlid, modal, kirish so‘z.
**Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**
1.Alohida olingan guruh so‘zlar turkumiga xos xususiyatlar qanday ifodalanadi?
3.Undov so‘zlar deb nimaga aytiladi?
4.Taqlid so‘zlar deb nimaga aytiladi?
5.Modal so‘zlar deb nimaga aytiladi?

## Topshiriqlar

**1-topshiriq:** O‘zbek tiliga tarjima qiling.
1. Ах, как мне нравится эта лилия! 2. По вашему, я ошибаюсь? 3. Несомненно, это был лучший матч «Пахтакор»а в этом сезоне. 4. Издали послышался скрип арбы. 5. Ох, как же я мог забыть. 6. Неужели, этого не может быть.

**2-topshiriq:** Berilgan undov, modal, taqlidiy so‘zlar ishtirokida gap tuzing va rus tiliga tarjima qiling.
Voy, voy-bo‘, xayriyat, sheklli, taqir-tuqur, yalt-yalt.

**3- topshiriq:**Rus tiliga tarjima qiling.
Tarixchilarning bayon etishicha, sayyoramizdagi ilk hayvonot bog‘i eramizdan avvalgi I asrda Rim imperatori Avgust buyrug‘iga binoan tashkil etilgan. Unda yer yuzining turli burchaklaridan keltirilgan 3500 atrofida jonivor saqlangan.

## 37-MAVZU: Diktant

### Haykaltaroshlik

**Haykaltaroshlik -** tasviriy sanat turi; borliqni hajmli shakllarda, makonda uch oʻlchamda tasvirlashga asoslanadi. Tasvir ob’yekti, asosan, inson; shuningdek, hayvonlar (anima-listika), tabiat (manzara) va narsalar (natyurmort). Haykaltaroshlikning ikkita asosiy koʻrinishi — aylanib kuzatish imkonini beruvchi dumaloq haykal hamda faqat bir tomondan koʻrishga moʻljallangan boʻrtma (qabariq) tasvir relyef turi farqlanadi. Relyef, oʻz navbatida, yuzaga nisbatan bir oz boʻrttirib ishlanadigan barelyef hamda tasvir yuzaga nisbatan ancha boʻrttirib ishlanadigan gorelyefta boʻlinadi; shuningdek nursoya oʻyini hisobiga tasvir koʻzga tashlanadigan tekis yuzaga ishlanadigan yana oʻyma koʻrinish mavjud.

Haykaltaroshlik. bajaradigan vazifasi va mazmuniga koʻra bir necha turlarga boʻlinadi: monumental haykaltaroshlik, bezak haykaltaroshligi, dastgoh. mayda haykaltaroshlik turlari oʻzaro yaqin aloqada rivojlanadi hamda oʻziga xos xususiyatlarga ega.

Me’morlik san’ati bilan bogʻliq boʻlgan monumental haykaltaroshlikka muhim tarixiy voqealar, atoqli shaxslar xotirasini abadiylashtirish maqsadida oʻrnatilgan monument, yodgorliklar, haykaltaroshlik ansambllari kiradi, ular oʻzida katta mazmunni ifodalaydi hamda mustaqil ahamiyatga ega; biroq haykaltaroshlikning bu turi bevosita muhit, me’moriy insho-otlar hamda tabiat bilan uygʻun boʻlishi lozim, bu unga yanada ulugʻvorlik va ta’sirchanlik baxsh etadi.

Monumental haykaltaroshlikka xos boʻlgan xislatlardan biri qahramonlarni koʻtarinki ruhda tasvirlashdir. Monumental haykaltaroshlik asarlari uzoqdan koʻrishga moʻjallanganligi sababli, katta-katta yaxlit shakllardan keng foydalaniladi; odam yuzidagi mayda unsurlar, kiyimdagi buklanishlar, mayda qismlar koʻrsatilmasligi mumkin.

**38-MAVZU: Kitob – bilim manbai.**

**Gap va uning asosiy belgilari**

REJA:

1.Kitob - bizning do‘stimiz.
2.Gap haqida tushuncha.
3.Gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari.
4. Gapning voqelikka munosabatiga ko‘ra turlari.
5. Gapning tuzilishiga ko‘ra turlari.



2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yilida amalga oshirishga oid Davlat dasturida belgilangan vazifalar sirasiga kiradi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 12 yanvardagi “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida”gi farmoyishi bu borada muhim dasturilamal bo‘lmoqda.




**Gap va uning asosiy belgilari**

Muomala vositasining eng kichik birligi **gapdir**. Gap orqali tugallangan fikr ifodalanadi: *Paxta terimiqizg‘in davom etyapti. Oltin kuz qanday go‘zal!*

Gap hosil qilish uchun soʻz va soʻz birikmalarini grammatik jihatdan bogʻlash kerak: *Xatni qalam bilan yozdi* gapida *-ni* va *bilan* bogʻlovchi vositalar hisoblanadi. Bu gapning grammatik jihatdan shakllanganligidir.




Gap ohang jihatdan tugallangan boʻlishi kerak: ***Kuz***. *Hamma yoqda ish qaynayapti*. Bu gapdagi ***kuz*** soʻzi tugallangan ohang bilan aytilgani uchun gap hisoblanadi.

Shunday qilib, ***gapning*** quyidagi ***belgilari*** mavjud:

***1. Muomalaning eng kichik birligidir.***

***2. Nisbiy tugallangan fikrni ifodalaydi.***

***3. Grammatik jihatdan shakllangan boʻladi.***

***4. Tugallangan ohang bilan aytiladi.***






**1. Darak gap** orqali biror narsa haqida ma’lum qilinadi, xabar beriladi, uning oxiriga doimo nuqta qo‘yiladi*: Navoiy ruboilaridan yodladim*. Darak gaplar darak-xabar, orzu-umid, ishonch, ta’kid, g‘urur, maslahat, tashviq, sevinch, taajjub, gumon, achinish tashvish, g‘azab, norozilik, kinoya kabi mazmun turlarini ifodalaydi.

**2. So‘roq gap** orqali so‘zlovchi o‘zi bayon qilgan fikrga suhbatdoshini fikr bildirishga undaydi, tasdiqlash yoki inkor qilishga undaydi: *Ibrohimovamisiz? Ha. Charchamadingizmi? Yo‘q*. Yozuvda so‘roq gapning oxiriga so‘roq belgisi qo‘yiladi. Bu gaplar ko‘proq dialogik nutqda uchraydi.

**3. Buyruq gaplar**da suhbatdoshni nimadir qilishga undash maqsad qilib qo‘yiladi. Bunday gaplarda iltimos, buyruq, taklif, maslahat, hayratlanish, tashviq, gumon, tashvish, hayajon, g‘azab, yalinish tarzida bo‘lishi mumkin*: Avval o‘yla, keyin so‘yla* (maslahat). *Dadil harakat qil*! (buyruq) *Ashuladan yana bo‘lsin* (iltimos). *Qani hamma odamlar sizday bo‘lsa!* (orzu) *Nahotki, bu siz bo‘lsangiz*!(hayratlanish) *Sovqotib qolma, issiqroq yot* (g‘amxo‘rlik). *Kunning tig‘ida nima qilasan, bu erga kelib, salqinda o‘tirsang-chi!* (tashviq) *Qo‘rqqan bo‘lsa kerak*! (gumon) *Xatdan o‘chir o‘g‘limni hozir!* (g‘azab, do‘q) Yozuvda buyruq gaplarning oxiriga ko‘pincha nuqta, ohangiga qarab esa undov belgisi ham qo‘yilishi mumkin.

**4.His – hayajon (undov) gap.** Gaplar ohangiga, his-tuyg‘uni ifodalashiga ko‘ra 2 xildir:

***1. His-hayajonli gap.***

***2. His-hayajonsiz gap.***

***His-hayajon gaplar*** (ba’zan undov gaplar deb ham yuritiladi) *eh, oh, uh, o, uf, obbo kabi undovlar, qanday, qancha, naqadar, shunday* kabi so‘zlar yoki faqat his-hayajon ohangi bilan hosil bo‘ladi: *Eh, bahorning gashtiga nima etsin! Farg‘ona vodiysi naqadar go‘zal! Paxta terimi boshlandi!* His-hayajon ohangi bilan aytilgan darak, so‘roq, buyruq gaplar his-hayajon gapga aylanadi: *Dalada qancha odam bor? Dalada qancha odam bor!*

His-hayajon gap so‘roq gapdan hosil bo‘lgan bo‘lsa, tinish belgilari quyidagicha qo‘yiladi:

1) so‘roq mazmuni kuchli bo‘lsa, oldin so‘roq, keyin undov belgisi qo‘yiladi*: Nima bo‘ldi, gapirsangiz-chi?!*

2) his-hayajon kuchli bo‘lsa, oldin undov, keyin so‘roq belgisi qo‘yiladi*: Farzand qanday oqlar ona haqqini*!?

3) ayrim hollarda his-hayajonning o‘ta kuchliligini ifodalash uchun uchta katta undov belgisi ketma-ket qo‘yiladi*: O‘lim yovga*!!!

4) biror sabab bilan uzilib qolgan his-hayajon gapning oxiriga undov belgisi va undan keyin ketma-ket ikkita nuqta qo‘yiladi: *Men etim o‘sganman, oh, u yetimlik!.. (G‘.G‘.)*




**Tayanch so‘zlar:** kitob, do‘st, maslahatchi, aql chirog‘i, gap, asosiy belgi, ifoda sodda, qo‘shma, darak, so‘roq, undov, buyruq, sof, ritorik,voqelik.

**Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1.Kitobni nimaga bizning do‘stimiz deymiz?
2.Gap nima?
3.Gap ifoda maqsadiga ko‘ra qanday turlarga bo‘linadi?
4. Gapning voqelikka munosabatiga ko‘ra qanday turlarga bo‘linadi?
5. Gapning tuzilishiga ko‘ra qanday turlarga bo‘linadi?

## Topshiriqlar

**1-topshiriq:** Matnni o‘qing. Matndagi darak gaplarni undov, so‘roq va buyruq gaplarga aylantiring.

**Mehmondo‘stlik**

Sharqona odobga xos fazilatlardan biri mehmondo‘stlikdir. Mehmonni ochiq chehra bilan kutib olish, uning izzat va hurmatini joyiga qo‘yib muomalada bo‘lish xalqimizning azaliy udumlaridan biridir. O‘zbekona odoblardan biri shuki, mehmon kelgan uyda o‘shqirib gaplashish, bir-biri bilan adi-badi aytishish, kesatib gaplashish qat’iyan man etiladi. Aksincha, mehmon kelishiga uy-joyni ozoda qilib qo‘yish, orasta kiyinib yurish, mehmon oldiga chiroyli idish-tovoqlarda ovqat tortish mehmondo‘stlikning qonun - qoidalaridandir.

**2-topshiriq.** Abu Rayhon Beruniy hikmatlarini rus tiliga tarjima qiling.

**ABU RAYHON BERUNIY HIKMATLARIDAN**

Hakim va olimlar axloqidan o‘rnak olish yaxshi xulqqa hayot baxsh etadi, yomon xulqni o‘ldiradi. Odamlar o‘rgangan va bilgan narsasiga qarshilik ko‘rsatma. Tenglik hukm surgan joyda sotqin, aldamchi ehtiroslar, g‘am- g‘ussa bo‘lmaydi. Bilim qaytarish va takrorlash mevasidir. Bugunning chorasini ko‘rib ertaga ehtiyoji qolmagan kishi aqllidir. Sevimii narsalarga mashaqqat bilan, yaxshilikka esa o‘ziga sevimli bo‘lgan narsalarni sarf qilish bilan erishiladi. Hasad bilan g‘azab ikki qanot bolib harakatga kelsa, toza va chiroyli hayotlarni xira va qudratli qilib yuboradi.

Har bir yangi narsada lazzat bor. Inson hayotidagi zarurat, ehtiyojlar ularda ilmlarga bo‘lgan talablarni keltirib chiqaradi. Mardi maydon shunday odam bo‘ladiki, ertayu-kech dushmanga zararu do‘stga foyda keltiradi. Doimo bir xil narsaga qaray berish malollik va sabrsizlikka olib keladi.

**3-topshiriq:** E’tibor bering va gaplarni rus tiliga tarjima qiling.

Biz oilaviy pudratga o‘tish haqida maslahatlashib oldik. 2. Guruhimiz a’lo sifatli maxsulot yetkazib bermoqda. 3. Ertaga ko‘rgazma ochiladi. 4. Ertaga o‘n beshinchi auditoriyada o‘zbek tili to‘garagining navbatdagi mashg‘uloti bo‘ladi. 5. Biz institutimizga kelgan mehmonlarni yaxshi kutib oldik. 6. Uzoqdan onaning muloyim ovozi eshitildi.

**39-MAVZU: Inson hayotida tabiatning o‘rni.**

**So‘z birikmasi va ularning birikish usullari.**

REJA:

1.Inson va tabiat mushtarakligi xususida.
2.Gapning ifoda mahsadiga ko‘ra turlari.
3.Gapning tuzilishiga ko‘ra turlari.
4.Gapning voqelikka munosabatiga ko‘ra turlari.
5.So‘z - gaplar.








`

Mustaqil so‘zlar ma’no va grammatik jihatdan bir-biriga bog‘lanib, so‘z qo‘shilmasini hosil qiladi; *Dehqonlar va hasharchilar dalaga kelishdi* degan gapda quyidagi so‘z qo‘shimchalari mavjud :

1) *dehqonlar va hasharchilar; 2) dehqonlar kelishdi; 3) hasharchilar kelishdi; 4) dalaga kelishdi.*




So‘z qo‘shilmasidagi so‘zlar bir-biri bilan ikki xil bog‘lanadi:

***1) teng bog‘lanish***

***2) tobe bog‘lanish.***




*1)Teng bog‘lanishda* bir so‘z boshqasiga tobe bolmaydi , bir-biri bilan sanash ohangi yoki tenglik yordamida boglanadi: *dehqonlar va hasharchilar: dehqonlar, hasharchilar*. Bir - biriga teng bog‘langan, bir-biriga tobe bog‘langan so‘zlar so‘z birikmasini hosil qiladi. Ega va kesimning bir-biri bilan bog‘lanishi so‘z birikmasi hisoblanmaydi, balki gap hisoblanadi: *Dehqonlar kelishdi*.

Ikki yoki undan ortiq mustaqil so‘zning ma’no, grammatik va ohang jihatdan birining boshqasiga tobe bo‘lib bog‘lanishi **so‘z birikmasi** deyiladi.

So‘z birikmasida bosh va ergash so‘z bo‘ladi. So‘z birikmasidagi ma’nosi izohlanayotgan so‘z ***bosh ( hokim*** ) ***so‘z***, uning ma’nosini ravshanlashtirib kelayotgan, izohlayotgan, to‘ldirayotgan so‘z ***ergash (tobe*** ) ***so‘z*** hisoblanadi. So‘roq hamma vaqt bosh so‘zdan ergash so‘zga beriladi : *Rangli qalam* (qanday qalam?) Bosh so‘z ot, sifat, son, olmosh yoki harakat nomi bilan ifodalansa, otli birikma hisoblanadi: *baland bino, asalday shirin, intizomda birinchi, bolalarning hammasi, vazifasini bajarishdi.* Bosh so‘z fe’l va uning ravishdosh, sifatdosh va harakat nomi shakllari bilan ifodalansa, fe’lli birikma hisoblanadi: *kitobni o‘qish, ishni bajarib, tez kelgan*. So‘z birikmalari tuzilishiga ko‘ra ikki xil bo‘ladi:




1.***Sodda so'z birikmalari*** boshqa birikmalarga ajralmaydigan so'z birikmalaridir (bunda yordamchi so'zlar ham ishtirok etishi mumkin): *beshta daftar, bugun keldi, o'zining uyi, shaharda yashaydi, akasi haqida so'radi.* Ajralmas birikmalar, qo'shma so'zlar, iboralar qatnashgan birikmalar ham sodda so'z birikmasi hisoblanadi: *qilich bo'yin ot, borsa kelmas oroli*.

***2. Murakkab so'z birikmalari*** tarkibida uchta va undan ortiq mustaqil so'z qatnashib, shaklan kamida ikkita so'z birikmasidan iborat bo'ladi, mazmunan esa bu so'z birikmalarini ajratib bo'lmaydi: *g'ayratli yosh bolalar, yangi ommabop kitob, katta qora qo'y, asfalt yotqizilgan keng ko'chalar, katta mevali daraxt, bugun kelgan ishchilar*. Bunda sodda so'z birikmasi kengayadi.

**So'z birikmasining so'z, sintagma va gapdan farqi**.

So'z narsa, belgi, shaxs, ish-harakatni umuman ifodalash uchun xizmat qiladi: *Kitob* deganda umuman *kitoblarni*, *bordi* deganda umuman *borilganlikni* tushunamiz.

So'z birikmasi ham narsa, belgi, ish-harakatni ifodalaydi va bu jihatdan so'zga o'xshab ketadi, ammo so'z birikmasi narsa, belgi, ish-harakatni boshqa narsa, belgi, ish-harakatlardan ajratib, aniqroq qilib ifodalaydi: *o'quvchi* - *a'lochi o'quvchi*, *yozish* - *tez yozish*.

**Sintagma** fonetik hodisa bo'lib, unda ikki so'z o'zaro birikkanda mazmun yetakchi hisoblanmaydi, bitta mustaqil yoki bitta yordamchi so'z ham sintagmani tashkil etishi mumkin yoxud bir so'zning o'zi ham sintagmani tashkil etishi mumkin. **So'z birikmasi** esa eng kamida ikkita mustaqil so'zdan iborat bo'ladi:

**Gap** fikr, tasdiq yoki inkor hukmni bildirib, tugallangan ohang bilan aytiladi: *Ko'cha katta*. So'z birikmasi esa atash ohangi bilan aytiladi: *katta ko'cha*. Shu xususiyatlari bilan gapdan farq qiladi.

**Ergash so‘z bilan bosh so‘zning birikish usullari**

Ergash so‘z bosh so‘z bilan quyidagi usullar yordamida birikadi:




**1. Boshqaruv**. Bosh so‘zning talabi bilan ergash so‘zning ma’lum grammatik vositani olishi **boshqaruv** deyiladi. Boshqaruvda ergash so‘z bilan bosh so‘zning birikishi ikki xil bo‘ladi:

1) ular o‘zaro tushum, jo‘nalish, o‘rin-payt yoki chiqish kelishigi qo‘shimchasi yordamida birikadi (kelishikli boshqaruv): *Ilg‘orlarni tabriklash, uyga ketish, shaharda yashash , qishloqdan kelish*.

2) ular o‘zaro ko‘makchilar yordamida birikadi (ko‘makchili boshqaruv): *Sayr **haqida** suhbat, paxta **uchun** kurash, sayohat **to‘g‘risida** gapirish.*

Ayrim hollarda grammatik vosita (qo‘shimcha) bo‘lmasligi ham mumkin: *Olma terish, shahar borish*.

Boshqaruvda tobe so‘z ot yoki ot o‘rnida qo‘llanadigan so‘zlardan, shuningdek, harakat nomi va sifatdoshdan iborat bo‘ladi. Bosh so‘z vazifasida esa ko‘pincha fe’l qo‘llanadi. Ba’zan bu vazifada ot, sifat, ravish va boshqa so‘zlar ham qo‘llanilishi mumkin.Shuningdek, ko‘pincha ergash so‘z avval, bosh so‘z keyin keladi , she’riy asarlarda qofiya talabi bilan bosh so‘z oldin, ergash so‘z keyin kelishi mumkin:

**2. Moslashuv**- bosh so‘z bilan ergash so‘zning shaxs-sonda mosligidir. Bunda bosh va ergash so‘z qaratqich kelishigi hamda egalik qo‘shimchasi yordamida birikadi: qaratqich kelishigi qo‘shimchasi ergash so‘zga, egalik qo‘shimchasi bosh so‘zga (ba’zan har ikkalasiga ham) qo‘shiladi: *ukam**ning** kitobi*. Ega va kesim ham moslashuv usuli yordamida bog‘lanadi:

Moslashuvda odatda ergash so‘z avval, bosh so‘z keyin keladi. Ba’zan she’riy asarlarda bosh so‘z avval, ergash so‘z keyin keladi: Moslashuvda ba’zan qaratqich kelishigi yoki egalik qo‘shimchasi tushirilishi mumkin: *maktab hovlisi, bizning*

*maktab* kabi.Nutqimizda uchraydigan a’zoyi badan, oynai jahon kabi fors-tojik tilidan kirgan birikmalar bir so‘z sifatida qo‘llanaveradi.

3.**Bitishuv**. Ergash so‘zning bosh so‘z bilan grammatik vositasiz, faqat ma’no jihatdan yoki so‘z tartibi yordamida birikishi **bitishuv** deyiladi. Bitishuvda doimo ergash so‘z avval, bosh so‘z keyin keladi: **tiniq suv, katta ko‘cha.** Ularning o‘rni o‘zgartirilsa, gap hosil bo‘ladi: *Suv tiniq. Ko‘cha katta*.

Bitishuvda ergash so‘z vazifasida sifat, ravish hamda ular vazifasidagi boshqa so‘zlar keladi: *qizil gul, tez yurmoq, tilla bilaguzuk, bunday odam, o‘qigan odam, jo‘shib kuylamoq*. Bosh so‘z ot va fe’l so‘z turkumidan iborat bo‘ladi. *Birga o‘qish, birdan gapirish, qunt bilan tinglash, zavq bilan kuylash, yolg‘ondan gapirmoq* kabi birikmalar o‘rin-payt, jo‘nalish, chiqish kelishigi qo‘shimchalari, ko‘makchilar bilan bog‘langan bo‘lishiga qaramay, boshqaruv emas, balki bitishuv sanaladi.

*Devor soat, uy vazifa, ot to‘rva, non zavod* kabi xoslik, mansublik munosabatini bildiradigan birikmalar ham bitishuv munosabatiga misol bo‘ladi.

### Topshiriqlar

**1-topshiriq:**Quyidagi so‘zlardan matn tuzing:

Biz, yo‘l, ket, edik, atrof, ko‘m-ko‘k, o‘t, bilan, qoplangan; havo, edi,ochiq; birdan, shamol, kuchli, qo‘zg‘aldi; shamol, shoh, daraxt, qattiq,tebratdi; osmon, qora, bulut, paydo, bo‘l; shamol, to‘xta, asta-sekin, yomg‘ir, yog‘, boshla; yomg‘ir, tobora, kuchaydi.

**2-topshiriq.** Matnni o‘qing va boshqaruv, moslashuv va bitishuv munosabatlarini aniqlang hamda ustun tartibida alohida-alohida ko‘chiring.

### GO‘ZALLIK

Kishi o‘z onasini nima uchun yaxshi ko‘rishini bilmaydi. O‘z onasi bo‘lgani uchun yaxshi ko‘radi. Kishi o‘z onasida ro‘y berayotgan o‘zgarishlarni ham payqamaydi. E’tibor bermaydi bunga. O‘zingiz yashab turgan shahar ham shunaqa. Siz nima uchun yaxshi ko‘rishingizni bilmaysiz. Uning qiyofasida bo‘layotgan o‘zgarishlarga ko‘p ham diqqat qilavermaysiz. Negaki ular har kuni sizning ko‘z o‘ngingizda ro‘y beradi. Siz ularni ko‘raverib ko‘nikib ketasiz. Ammo diqqat bilan nazar tashlasangiz qanchadan-qancha o‘zgarishlar bo‘lganligiga hayron qolasiz.

Sherzod avtobus derazasidan qarab borarkan, hozir to‘satdan shuni his qildi...

**3-topshiriq:**Gaplarni ko‘chiring va so‘z birikmalariga ajrating.

1.Bilim olish va yuksalish sharafli burchimiz. 2. Ilmli va odobli bo‘lish bizning asosiy vazifamizdir. 3.Yuqori hosil olish uchun ko‘p mehnat qilish kerak. 4. Universitetimizda yangi o‘quv xonalarl ko‘p.

**40-MAVZU: Nutq odobi.**

**Gap bo‘laklari. Gapning bosh bo‘laklari.**

REJA:

1.Inson odobi haqida misollar.
2.Gap bo‘laklari haqida ma’lumot.
3.Gapning bosh bo‘laklari.
4.Ega haqida ma’lumot.
5.Kesim haqida ma’lumot.







Gap tarkibidagi o‘zaro tobe bog‘lanishda bo‘lgan so‘zlardan bittasi tobe bo‘lak, ikkinchisi hokim bo‘lak vazifasini bajaradi.Tobe bo‘lak hokim bo‘lakka bog‘lanib, hokim bo‘lak talab etgan sintaktik vazifada keladi.Ana shu vazifa gap bo‘lagi nomi bilan yuritiladi. Gap tarkibida tobe bog‘lanib ma’lum so‘roqqa javob bo‘luvchi so‘z yoki so‘z birikmasiga gap bo‘lagi deyiladi.gap bo‘lagi tobe

bog‘lanish doirasida, tobe qism vazifasida kelgan bo‘laklar hisoblanadi.Uning qaysi bo‘lak vazifasida kelayotganligi hokim bo‘lakka nisbatan aniqlanadi.gapdagi barcha bo‘laklar kesimga qarab aniqlanadi.Gap bo‘laklari gap tuzilishidagi vazifasiga ko‘ra ikki guruhga, ikki darajaga bo‘linadi:




1. **Bosh bo‘lak**: ***kesim, ega***

2. **Ikkinchi darajali bo‘laklar:*to‘ldiruvchi, aniqlovchi, hol.***

**Ega** — gapning bosh bo‘laklaridan biri; gapni tashkil etishda muhim rol o‘ynaydi. Ega fikrning kimga, nimaga qarashli ekanligini anglatadi, shu jihatdan kesim bilan o‘zaro yaqin bog‘langan.




Ega bosh kelishikda bo‘lib , odatda, quyidagicha ifodalanadi:

1.Ot bilan : *Shamol gullar hidini atrofga taratdi.*

2.Olmosh bilan :*Ular to‘garak mashg‘ulotlariga muntazam qatnashadilar*.

3.Harakat nomi bilan: *O‘qish tugadi.*

4.Otlashgan so‘zlar bilan :

a) sifat bilan: *Oqlar yurishni boshladi*.

b) son bilan : *Uchovimiz dala aylandik.*
d) sifatdosh bilan : *Qimirlagan qir oshar.*
e) ravish bilan: *Ko'plar qatnashdi.*
f) taqlid so'z bilan: *To'plarning gumbur-gumburi eshitilardi.*
g) modal so'zlar bilan: *Bor boricha , yo'q holicha.*
5. Ibora bilan : Hafsalasi pir bo'lgani sezilib turardi.

**Kesim** — gapning bosh bo'laklaridan. Ega bilan ifodalangan shaxs, predmet va xrdisaning umumiy belgisini bildiradi. Kesim gapni uyushtiruvchi markaz bo'lib, predikativlikning belgisini ko'rsatadi. Ikki tarkibli gapda egaga tobe bo'ladi; o'ziga bog'lanib kelgan so'zlarga nisbatan esa hokim hisoblanadi. Kesim barcha mustaqil so'z turkumlari bilan ifodalanadi.




Qaysi so'z turkumi bilan ifodalanishiga ko'ra, fe'l va ot K.larga bo'linadi. Kesim gap markazi bo'lib, u tsdiq-inkor, zamon, mayl, shaxs-son ma'nolarini ifodalab keladi, hukmni ifodalaydi va gapning boshqa bo'laklarini o'z atrofida birlashtiradi.Kesim *nima qildi? nima qilyapti? nima qiladi?* (ba'zan *nechanchi? qanday?)* so'roqlariga javob bo'ladi.

Kesim qaysi turkum so'zlari bilan ifodalanishiga ko'ra ikki xil: ***fe'l-kesim, ot-kesim.***

Kesim tuzilishiga ko'ra ikki xil bo'ladi: ***sodda kesim va murakkab kesim***.

Fe'lning turli shakllari orqali ifodalangan kesim **fe'l-kesim** deyiladi.

Ot-kesimlar quyidagicha ifodalanadi:
1. ***Ot bilan:*** Teshaboy ashaddiy dushman-u, siz xizmatini qilayotgan depo xo'jayini ***do'stmi***? Yaxshi ro'zg'or - ***jannat***, yomon ro'zg'or - ***do'zax***.
2. ***Sifat bilan:*** Usti ***yaltiroq***, ichi ***qaltiroq***.
3. ***Son bilan:*** Birniki - ***mingga***, mingniki - ***tumanga***. Bu ***birinchisi***. Ikki karra ikki - ***to'rt***.
4. ***Olmosh bilan:*** Maqsadim - ***shu.*** O'zim har joydaman, ko'nglim ***sandadur***.

Kesimlar tuzilishiga ko‘ra ikki xil bo‘ladi: sodda kesim vamurakkab kesim. Birgina so‘z bilan ifodalangan kesim **sodda kesim** deyiladi: Paxta va tilladan yurt ***bezanadi***. Alisher Navoiy- she’riyat ***quyoshi***.

Ikki va undan ortiq so‘z bilan ifodalangan kesim **murakkab kesim** deyiladi: Ayozli kunlar asta-sekin ***o‘tib borayotir.*** Uchrashuv ***juda qiziqarli bo‘ldi***.

**Tayanch so‘zlar**:inson, tabiat, shakllanish, uyg‘un, bosh bo‘lak, ega, kesim, hokim, tobe, ifodalanish, sodda, murakkab.

**Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1.Gap bo‘laklari deb nimaga aytiladi ?

2.Gap bo‘laklari qaysi bo‘lakka nisbatan aniqlanadi ?

3.Gap bo‘laklari nechaga bo‘linadi?

4.Ega deb nimaga aytiladi?

5.Kesim deb nimaga aytiladi?

6.Ega qaysi so‘zlar turkumi bilan ifodalanishi mumkin?

7.Kesim qaysi so‘zlar turkumi bilan ifodalanishi mumkin?

## Topshiriqlar

**1-topshiriq:** Matnni o‘qing va bo‘sh bo‘laklarni aniqlang.

Sovg‘a berish odobi

Har qanday sovg‘a ko‘ngildan chiqarib beriladi. Sovg‘a bergandan so‘ng undan qanday foydalanish haqida maslahat berilmaydi. Olib borilgan sovg‘a haqida maqtanib gapirilmaydi. Sovg‘a e’tibor va ochiq chehra bilan qabul qilib olinadi. Sovg‘a olib kelgan mehmon ham, olib kelmagan mehmon ham bir xilda xushmuomalalik bilan kutib olinadi. Sovg‘aning katta-kichikligiga qarab muomala qilish yaramaydi.

**2- topshiriq:** Rus tiliga tarjima qiling. Rus va o‘zbek tilida ega va kesimning ifodalanishini taqqoslang.

Bilasizmi?

Sovg‘aning suvenir, tuhfa va taqdim turlari mavjud.

Suvenir so‘zi aslida turkcha “sevinur”, so‘zidan olingan bo‘lib, kishini sevintirish uchun tortiq qilinadi. Suvenir sifatida avtoruchka, to‘g‘nog‘ich va boshqa bezaklar, qo‘g‘irchoq yoki o‘yinchoq beriladi.

Tuhfa to‘yga, yangi uyga, tavallud kuniga qarindoshlar, do‘stlar yoki hamkasblardan sovg‘a qilinadi. Tuhfa qilib soat, uy jihozlari, televizor, fotoapparat kabilar beriladi.Taqdim esa ziyofat, mehmondorchilik, tug‘ilgan kun munosabati bilan beriladi. Ayniqsa ayollarga guldasta yoki atir – upa ko‘proq taqdim etiladi.

**41-MAVZU: Inson odobi bilan go‘zal.**

**Gapning ikkinchi darajali bo‘laklari.**

REJA:

1.Inson va odob.
2.Gapning ikkinchi darajali bo‘laklarining o‘ziga xos xususiyatlari.
3.Aniqlovchi.
4.To‘ldiruvchi.
5.Hol.

Gapning ikkinchi darajali bo‘laklari bosh bo‘laklarga tobe bo‘lib, ularni to‘ldirib, aniqlab, izohlab keladi. Ikkinchi darajali bo‘laklar 3 xil: ***to‘ldiruvchi, aniqlovchi va hol.***

Gapdagi biror bo‘lakni to‘ldirib, unga boshqaruv yo‘li bilan tobe holatda bog‘langan bo‘lak **to‘ldiruvchi** deyiladi. To‘ldiruvchi asosan fel-kesimga bog‘lanadi: *Men bu **gapni** ukamdan eshitdim.* To‘ldiruvchi ikki xil bo‘ladi:

**I.Vositasiz to‘ldiruvchi** harakatni o‘ziga qabul qilgan, harakat bevosita o‘ziga o‘tgan predmetni bildiradi va kimni?nimani?qayerni? so‘roqlariga javob bo‘ladi. Bu to‘ldiruvchi ko‘pincha tushum kelishigi shaklidagi so‘z bilan ifodalanadi, bunda u harakatni butunlay o‘ziga qabul qilgan predmetni ifodalaydi:

1.Ot va olmosh bilan: *Yosh havaskorlar **ashulani** zavq bilan aytdilar.*

2. Otlashgan so‘zlar bilan: ***Bo‘linganni** bo‘ri yer.*

3.Ibora bilan*: O‘ziga birovning oz-moz **til tekkizganini** ko‘tarmasdi.*

**II.Vositali to‘ldiruvchi** kimga? nimaga? kimda? nimada? kimdan? nimadan? kim bilan? nima bilan? kim haqida? kabi so‘roqlarga javob bo‘ladi va quyidagicha ifodalanadi:

1) Ot yoki olmosh bilan: *Ravshan **sen** bilan boradi.*

2) Otlashgan so‘z bilan: ***Yaxshiga** yondash, **yomondan** qoch.*

3) Ibora bilan: ***Og‘zi bo‘shga** ishonib bo‘lmaydi.*

Gapdagi biror bo‘lakning belgisini yoki bir narsa buyumning boshqasiga qarashli ekanligini bildirgan bo‘lak **aniqlovchi** deyiladi. ***Qattiq** sovuq, **mayda** qor yog‘yapti. Qovunning **og‘iri** shirin bo‘ladi.* Aniqlovchi ikki xil bo‘ladi:

**I.Sifatlovchi - aniqlovchi** predmetning belgisini, miqdorini, tartibini bildiradi va qanday? qanaqa? qaysi? qancha? nechanchi? necha? qayerdagi? kabi so‘roqlarga javob bo‘ladi. Sifatlovchi-aniqlovchi tomonidan aniqlangan bo‘lak **sifatlanmish** deb yuritiladi. Sifatlovchi va sifatlanmish bitishuv yo‘li bilan bog‘lanadi: ***Notanish kishi** unga qaradi.*Sifatlovchi-aniqlovchi quyidagicha ifodalanadi:

1. Sifat, son, olmosh, sifatdosh, ravish, taqlid so‘z bilan: *Biz **serjun** va **sergo‘sht** qo‘ylarni ko‘paytiryapmiz.*

2. Ot bilan**:** ***Asfalt*** *yo'ldan mashinalar g'iz-g'iz o'tib turibdi*. Bunday aniqlovchilar ba'zan majoziy (ko'chma) ma'noni ifodalashi mumkin: ***Kumush*** *choyshab yopib dalalarga¦…*

3. Ibora bilan: *Unda* ***og'zining tanobi qochadigan*** *odat bor*.

4. So'z birikmasi bilan (sifatlovchi va sifatlanmish, qaratuvchi va qaralmish, to'ldiruvchi va to'ldirilimish, hol va hollanmish birikmalari sifatlovchi-aniqlovchi bo'lib keladi): ***U birinchi kungi*** *ishni yakunladi.* ***Ukamning uyidagi*** *mollarni ham olib ketishibdi.*

**II.Qaratqich aniqlovchi** biror narsa tegishli, qarashli bo'lgan shaxs yoki predmetni bildiradi va kimning?nimaning?qayerning? so'roqlariga javob bo'ladi. Qaratqich-aniqlovchi tomonidan aniqlangan bo'lak **qaralmish** deb yuritiladi. Qaratqich va qaralmish moslashuv orqali birikib, shaxs va sonda albatta moslashgan bo'ladi: ***Odamning*** *qo'li gul.*Qaratqich aniqlovchi, odatda quyidagicha ifodalanadi:

1.Qaratqich kelishigidagi ot, olmosh bilan*: Gulnor* ***yigitning*** *so'zlarini diqqat bilan tingladi.*

2.Qaratqich kelishigidagi otlashgan so'zlar bilan: ***O'nning*** *yarmi besh.*

3.Ibora bilan: ***Og'zi bo'shning*** *ichida gap yotmas*.

Ko'pincha fe'l-kesimga bog'lanib, uning belgisini bildirgan bo'lak **hol** deb ataladi: *Minbarga notiqlar* ***birin - ketin*** *chiqa boshladilar*.

Hol ba'zan fe'ldan boshqa turkumga ham bog'lanadi: ***Ko'chada*** *odam ko'p.*

Hol ma'nosiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

1.**O'rin holi** qayerga? qayerdan? qayoqqa? qayerdan? kabi so'roqlarga javob bo'ladi va ko'pincha o'rin ravishi, ot, olmoshlar bilan ifodalanadi: *Bolalar* ***ko'chaga*** *chiqib ketishdi. U* ***orqadan*** *qochdi*.

**2. Payt holi** qachon? qachongacha? qachondan beri? qay vaqt? kabi so'roqlarga javob bo'ladi va ko'pincha ot, payt ravishi, olmosh, payt ravishdoshi, sifatdosh, harakat nomi, son, sifat bilan ifodalanadi: *Imtihonlar* ***yozda*** *bo'ladi.* ***Bugun*** *maktabning yonidan o'tdim.* ***Shunda*** *men bir sapchib tushganman.* ***Qo'lim bo'shida*** *o'qiyman. Yig'ilish* ***uchda*** *bo'ladi.*

**3.Miqdor holi** qancha? qanchalab? nechalab? necha marta? kabi so'roqlarga javob bo'ladi va ko'pincha miqdor - daraja ravishlari, son, sifat va miqdor - daraja ma'nosini bildirgan so'z birikmalari bilan ifodalanadi: *Men* ***juda ko'p*** *qayg'urdim.* ***O'n marta*** *eshitgandan,* ***bir marta*** *ko'rgan afzal. Bular* ***qop-qop*** *terib qo'yishdi. Men* ***o'ylagan darajada*** *qilisharmikan?*

**Topshiriqlar**

**1-topshiriq:** Ikkinchi darajali bo‘laklarni aniqlang va ajratib ko‘rsating.

**Nodonlik — bedavo kasallikdir.**

Til – so‘zlovchi istagini eshituvchiga yetkazuvchi tarjimondir. Xayr–saxovat ham mardlik sanaladi. Ishi yurishmaganni tahqirlama.Yaxshi bilmagan narsasiga uringan kishi sharmanda bo‘ladi.

Xato sodir bo‘lmasligi uchun donishmandlar qayta - qayta kuzatishm va ziyon yetish imkoniyatidan saqlashni tavsiya qilganlar. Kishining ko‘ngli kelishgan va tartibli har bir narsaga qiziqadi, tartibsiz narsadan nafratlanadi. Ne’matning qadri u yo‘qolgandan keyingina bilinadi.

**2-topshiriq:** Matnni o‘qing va sintaktik tahlil qiling.

**Ilm fazilatlari haqida**

Bilginki, hayotiy maishatingni yaxshilaydigan va ishlaringni haqiqiy to‘g‘ri yo‘lga soladigan eng ulug‘ vosita bu ilmdir. Ilm buyuk qadrga va oliy fazilatga ega. Sen ilm tufayli oliy sharafga, ulug‘Iikka va orzu - istaklarga yetishasan. Ilm kasb va fazilatlarning eng afzali, ilm o‘rganuvchi esa shu toifaning ulug‘rog‘idir. Ilm orqali yaxshi-yomonni taniysan, halol-haromning farqiga borasan, do‘stlik va qarindosh- urug‘ning fazilatlarini anglaysan, qonun-qoidalarni tushunusan, haq-huquqlaringni bilasan.Ilm shunday boylikki, u sening aqlingni mustahkamlaydi, xulqingni poklaydi, tabiatni tozalaydi, izzatingni oshiradi. Ilm sening hayotingga tahsinga sazovor bo‘ladigan yangiliklar olib kiradi, yozishga, ijod qilishga, tasnif etishga sharoit yaratadi, bu bilan esa seni kamolga etkazib, umrini boqiy qiladi. Ilm o‘rganib, ilmga amal qilmagan kishi yer haydab, uni ekmagan kishiga o‘xshaydi.

Ilmsiz inson - mevasiz daraxt.
Ilm bir Xazina bo‘lsa, bu Xazina kaliti - savol!
Ilm -inson ziynati. («Otalar so‘zi»).

Lug‘at

maishat - жизнь, наслаждение
fazilat — достоинство
afzal - лучший, предпочтительный
izzat - почесть, почтение
tasnif - классификация
boqiy - вечный, бессмертный
xazina - сокровищница, клад
ziynat-украшение

**43-mavzu: Shaxsiy hujjatlar bilan ishlash.**

## Gapning tuzulishiga ko‘ra turlari

REJA:

1.Ish hujjatlari bilan ishlash.
2.Ma’lumotnoma.
3.Tushuntirish xati.
4.Tilxat.
5.Sodda gaplarning ifodalanishi.
6.Qo‘shma gaplarning ifodalanishi.



MA`LUMOTNOMA

*Men, (ma`lumotnoma beriluvchining lavozimi, ismi, otasining ismi, familiyasi), haqiqatdan ham, biror vazifada ishlashini yoki o`qishini tasdiqlovchi fikr.*

*So`ralgan joy nomi ko`rsatiladi.*

(Imzo) ismi, familiyasi

muhr sana



Arxitektura fakulteti
dekani Sh.Reyimboyevga
2 -18 guruh talabasi
B. Solixo`jayevdan

**Tushuntirish xati**

Shu yil 15-may kuni men kompozitsiya o‘quv xonasida kursdoshim Sh.Hamidov bilan mashg‘ulot o‘tkazayotgan edik. Men shoshilib rezinkani olmoqchi bo‘lib, stolga turtinib ketdim. Stol nosozligi tufayli uning ustidagi shisha idish sindi. Biz nojo‘ya harakat qilganimiz yo‘q, bu tasodifan shunday bo‘ldi.

(imzo) B.Solixo`jayev

2019-yil 18-may



TILXAT

Tilxat

*Men, (tilxat beruvchining lavozimi, ismi, otasining ismi, familiyasi), (biror narsa beruvchining lavozimi, ismi, otasining ismi va familiyasi) -dan (olgan narsasining nomi, miqdori, zarur bo'lganda bahosi, texnik holati) oldim.*

(Imzo) ismi, familiyasi

sana

**Gapning tuzilishiga ko‘ra turlari**

Gaplar tuzilish jihatdan ikki xil bo‘ladi .




Ular o‘zaro grammatik asoslar miqdoriga ko‘ra farqlanadi:

1. Sodda gaplarda bitta ega va kesim munosabati, ya’ni bitta grammatik asos mavjud bo‘ladi: ***Dars*** *erta* ***boshlandi***. *Bugun* ***yomg‘ir yog‘madi***. ***Bahor keldi***. Ba’zan soda gap egasiz, faqat bitta kesimdan iborat bo‘lib, boshqa bo‘laklar shu kesim atrofiga birlashadi: *Bugun Moskvadan ukam bilan* ***uchib keldim***.




Sodda gaplar grammatik asosiga ko‘ra ikki guruhga bo‘linadi (grammatik asos – bu ega va kesimdir):

1) bir bosh bo‘lakli gaplarning grammatik asosida bir bosh bo‘lak mavjud bo‘ladi: *Ota-onalarga* ***yordam berdik***.

2) ikki bosh bo‘lakli gaplarning grammatik asosida har ikkala bosh bo‘lak ham, ya’ni ega va kesim ham qatnashadi: ***Biz*** *maktabga bordik*.

1.Yig‘iq ikki bosh bo‘lakli gaplar tarkibida bosh bo‘laklargina mavjud bo‘ladi: *O‘quvchilar yig‘ildilar*. Ba’zan ega va kesim birikma bilan ifodalanib, kengayib keladi va ikkinchi darajali bo‘laklar borga o‘xshab ko‘rinadi, lekin bu gaplar ham yig‘iq gaplar hisoblanadi: *Yigit ham shunaqa bo‘ladimi? Ikki dugona termilib qolishdi*.

2.Yoyiq ikki bosh bo‘lakli gaplar tarkibida bosh bo‘laklardan tashqari, ikkinchi darajali bo‘laklar ham qatnashadi*: O‘quvchilar* ***maktab zaliga*** *yig‘ildilar*.



## Qo‘shma gap va uning turlari.

Ikki yoki undan ortiq sodda gapning mazmun, grammatik va ohang jihatidan birikuvidan tuzilgan gap **qo‘shma gap** deyiladi: *Eshik sekin ochildi-yu, Qalandarovning yuzi ko‘rindi.*

Sodda gap tarkibida bitta ega va kesim birligi ishtirok etsa, qo‘shma gap tarkibida ikki va undan ortiq ega va kesim birligi qatnashadi. Qo‘shma gap tarkibidagi sodda gaplar o‘zaro bog‘lovchilar, yuklamalar, ko‘makchilar va fe’l shakllari hamda ohang orqali bog‘lanadi.

Mazmun munosabati va bog‘lovchi vositalarining qo‘llanishiga ko‘ra qo‘shma gaplar 3 xil bo‘ladi***: bog‘langan qo‘shma gaplar, ergash gapli qo‘shma gaplar va bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar.***

## Ergash gapli qo‘shma gaplar

Birdan ortiq sodda gaplarning mazmun jihatdan tobe-hokim munosabati asosida, ya’ni birining boshqasiga ergashishidan tuzilgan qo‘shma gap **ergash gapli qo‘shma gap** deyiladi: *Ildiz oziq bersa, novdako‘karar.* Ergashgan qo‘shma gapda bosh gap va ergash gap bo‘ladi.

Ergash gapli qo‘shma gapning o‘zbek tilida 14 turi mavjud:



.

***1.Ega ergash gap*** bosh gapdagi olmosh bilan ifodalangan egani izohlagan ergash gapdi. Ega ergash gap -*ki* bog‘lovchisi va fe’lning shart mayli qo‘shimchasi -*sa* hamda so‘roq va ko‘rsatish olmoshlari *(kimki – u, kimki – o‘sha, kimki- o‘zi, nima – o‘sha, nimaiki – hammasi*) yordamida bog‘lanadi**:** ***Kimki*** *yomonlar suhbatidan qochsa, u yaxshilar suhbatiga erishadi*

***2. Kesim ergash gap*** bosh gapdagi olmosh bilan ifodalangan kesimni izohlagan ergash gap bo‘lib, u bosh gap bilan birgalikda kesim ergash gapli qo‘shma gapni hosil qiladi*: Uch og‘a-ini botirlarning eng yaxshi fazilati* ***shuki,*** *ular xalqdan ajralib qolishni istamaydilar.*

***3. To‘ldiruvchi ergash gap*** bosh gapdagi ko‘rsatish olmoshi bilan ifodalangan to‘ldiruvchini izohlagan ergash gapdir. To‘ldiruvchi ergash gap, odatda, bosh gapga -*ki* bog‘lovchisi, shart mayli qo‘shimchasi -*sa* yordamida bog‘lanadi. ***Shuni bilingki****, har bir yangilik bexosiyat bo‘lmaydi****.***

***4. Aniqlovchi ergash gap*** bosh gapda aniqlovchi bo‘lib kelgan olmosh va ayrim sifatlarni izohlab kelgan ergash gapdir. ***Shunday inson haqida xabar keltirdimki****, uning har bir so‘zi gavhardir.*

***5. Payt ergash gap*** bosh gapdagi ish-harakatning paytini bildirgan ergash gapdir. *–sa, -sa ham, -b(-ib), -gach, -guncha, -ganda, -r(-ar) ekan* bog‘lovchi vositalari, shuningdek, ko‘makchilar, *chunki, agar, go‘yo(ki), toki* bog‘lovchilari qatnashgan gaplar esa ha r doim ergash gap hisoblanai.

***6.Ravish ergash gap*** bosh gapdan anglashilgan ish-harakatning qay tarzda bajarilganligini bildirgan ergash gapdir. Ravish ergash gap bosh gap bilan birga ravish ergash gapli qo‘shma gapni tashkil etadi: Bog‘lovchi vositalar*: **-b (-ib), -may, -masdan, deb**. **Yulduzlar bitta-bitta so‘nib**, ufq oqara boshladi. **Naimiyning biror ishi o‘ngidan kelmasdan**, umri bekorga o‘tib ketdi.(As.M.) **Chambil obod bo‘ldi deb**, kelayotir Avazxonday zo‘ravon.(F.Y.)*

***7. O‘xshatish ergash gap*** bosh gapdan anglashilgan ish-harakatning qay tarzda bajarilishini o‘xshatish yo‘li bilan bildirgan gapdir. U bosh gap bilan birga ***o‘xshatish ergash gapli qo‘shma gap*** deb nomlanadi: *Chirildoqlarning mayin musiqasi hamma yoqni to‘ldirgan, **go‘yo kechaning o‘zi kuylaydi.*** O‘xshatish ergash gap bosh gapdan anglashilgan ish-harakatning qay tarzda bajarilishini o‘xshatish yo‘li bilan bildirgan gapdir. U bosh gap bilan birga o‘xshatish ergash gapli qo‘shma gap deb nomlanadi: Chirildoqlarning mayin musiqasi hamma yoqni to‘ldirgan, go‘yo kechaning o‘zi kuylaydi

***8.Maqsad ergash gap*** bosh gapdan anglashilgan ish- harakatning nima maqsadda yuzaga kelishini bildirgan ergash gapdir. U bosh gap bilan birga ***maqsad ergash gapli qo‘shma gap*** deb nomlanadi. Bog‘lovchi vositalar: *deb, -sin deb, -di deb, -ar deb, -sa deb, -mi ekan (deb, deya, uchun), toki: **Odamlar yaxshi yashasin deb,** tinchlikka imzo chekdik. **G‘o‘za miriqib ichsin uchun**, suv tekis oqizildi.*

***9. Sabab ergash gap*** bosh gapdan anglashilgan ish-harakatning sababini bildirgan ergash gapdir. U bosh gap bilan birga ***sabab ergash gapli qo‘shma gap*** deb nomlanadi. ***Qayrilishlar tobora ko‘payib****, mashinaning tezligi susaya boshladi. **Bu uylar ilgari bedaxona bo‘lganidan**, darchasi ham yo‘q edi:Shuning uchun. anidan gani uchun, -ganidan keyin, qagan bo‘lsa kerak, mi, chunki, negaki, gach...*

***10. Shart ergash gap*** bosh gapdan anglashilgan ish-harakatning qanday shart bilan bajarilishini bildirgan ergash gapdir. U bosh gap bilan birga shart ergash gapli qo‘shma gap deyiladi. Bog‘lovchi vositalar: *-sa, -sa edi, agar, mabodo, bordi-yu, -*

*ganda (edi), -r(-ar) ekan, -gan ekan, -mi, bo'lmasa, yo'qsa, -may, bo'lay desang, -sinki:* ***Agar suv bo'lsa****, cho'lu sahrolar bo'stonga aylanadi.*

***11.To'siqsiz ergash gap*** bosh gapning mazmuniga zid bo'lsa ham, unda ifodalangan voqea-hodisaning yuzaga kelishiga to'siq bo'la olmaydigan fikrni anglatgan ergash gapdir. U bosh gap bilan birga to'siqsiz ergash gapli qo'shma gap deyiladi. Bog'lovchi vositalar: *-sa ham(ki), qancha, qanchalik, naqadar, garchi, garchand, -ganda ham, -sa, -da, -ganda, -da, -gani bilan, -masin, qaramay, qaramasdan, -i(-ib), -gani holda, -di hamki, xoh..,xoh (-sa -masa):* ***Quyosh yashiringan bo'lsa ham****, kunduzning yorug'ligi hali so'nmagan edi. Ba'zan garchi so'zi qo'llanishi mumkin.*

***12. Natija ergash gap*** bosh gapdan anglashilgan ish-harakatning natijasini bildirgan ergash gapdir. U bosh gap bilan birga natija ergash gapli qo'shma gap deyiladi. Natija ergash gap bosh gapga *-ki* bog'lovchisi yordamida bog'lanadi. Bosh gap tarkibida shunday, *shu qadar, shunchalik, shu darajada, shuncha, chunon* kabi so'zlar, ergash gaplar tarkibida esa *natijada, oqibatda, hatto* kabi so'zlar qo'llanishi mumkin: ***Do'l bir zumda shunday yog'diki****, yer oppoq bo'lib ketdi.* ***Azimboy shunday zulm o'tkazdiki****, oqibatda xalqning sabr-kosasi to'ldi.*

***13.O'rin ergash gap*** bosh gapdan anglashilgan ish-harakatning bajarilish o'rnini bildirgan ergash gapdir. U bosh gap bilan birgalikda ***o'rin ergash gapli qo'shma gap*** deyiladi: ***Qaerda intizom kuchli bo'lsa****, shu erda tartib bo'ladi.* Bog'lovchi vositalar: *-sa (qaerdan, qayga, qaerga, qaerda, shu erda, o'sha erda, shunda, shu erga, shu erdan, u erda) –mang, masin, ekan****: Qaerda suv bo'lsa****, o'sha yerda hayot bo'ladi.*

***14.Miqdor-daraja ergash gap*** bosh gapdan anglashilgan ish-harakatning bajarilish miqdor - darajasini bildirgan ergash gapdir. Bu gaplar bosh gap bilan birga miqdor-daraja ergash gapli qo'shma gap deb yuritiladi: ***U qancha qizishsa****, men shuncha sovuqqon tus olardim. 1. ....qancha.....-sa, ....shuncha.... . 2. ...qanchalik... -sa, ..shunchalik.. 3. ...qancha.....-sa, ...shunchalik.... . 4. qanchalik..-gan sayin,..shunchalik…*



**1.Shaxsi ma’lum (aniq) gaplar** kesimiga qarab egani aniqlash mumkin bo‘lgan gaplardir: *Yutuqlar oldida esankiramaylik* (***Biz)***.

**2.Shaxsi noma’lum (noaniq) gaplar** kesimiga qarab ish-harakatning haqiqiy bajaruvchisini aniqlash mumkin bo‘lmagan gaplardir: *Yaxshini maqtaydilar, yomonni uyaltiradilar*. Kesim 3-shaxsdagi fe’l bilan ifodalanganda, shaxsi ma’lum va shaxsi noma’lum gaplar quyidagicha farqlanadi: shaxsi ma’lum gapda so‘zlovchi o‘ziga tanish shaxs haqida so‘z yuritadi, shaxsi noma’lum gapda esa o‘zi shaxsan tanimagan shaxs(lar) haqida so‘z yuritadi*: Bugun keldi* – shaxsi ma’lum gap. *Sevgini chidaganga chiqargan* – shaxsi noma’lum gap.

**3.Shaxsi umumlashgan gaplar** mazmunan ha ruchala shaxsga taalluqli bo‘lgan gaplardir: *Sanamay sakkiz dema*. Bunday gaplarning kesimi odatda, II shaxs birlikda buyruq maylidagi fe’l bilan ifodalansa ham, mazmunan barchaga qaratilgan bo‘ladi, shuning uchun ega ifodalanmaydi. Xalq maqollari shaxsi umumlashgan gaplar orqali ifodalanadi*: Bugungi ishni ertaga qo‘yma.*

**4. Shaxsi topilmas (shaxssiz) gaplar** egasini topib ham, gap tarkibiga kiritib ham bo‘lmaydigan gaplardir: *U yerda intizom haqida so‘zlashga to‘g‘ri keldi.* Shaxsi topilmas gaplarning kesimlari 3-shaxs majhul nisbatdagi fe’llar, *bo‘ladi, bo‘lmaydi* so‘zlari orqali**,** *-mas* qo‘shimchali so‘z orqali, harakat nomidan *keyin kerak, zarur, lozim, mumkin* so‘zlarini keltirish orqali ifodalanadi: *Raisning o‘zi haqida gapirilsin! Mehnatsiz rohatga erishib bo‘lmaydi. Oyni etak bilan yopib bo‘lmaydi. Ertalabki salqinda yetib borish kerak.*

**5.Atov (nominativ) gaplar**- bosh kelishikdagi ot orqali ifodalangan grammatik asos yordamida ifodalangan narsa-buyumning borligini, mavjudligini anglatadi va ko‘pincha badiiy va publitsistik asarlarda payt va o‘rinni ifodalash uchun ishlatiladi: *Kuz. Izg‘irin shabada esyapti*. Atov gaplar matnda yolg‘iz qo‘llanmaydi, ulardan keyin uning mazmunini ochuvchi boshqa bir gap kelishi zarur. Atov gaplarning oxiriga, odatda nuqta qo‘yiladi, agar kuchli ohang bilan aytilsa, undov belgisi qo‘yiladi: *Tog‘lar! Baland tog‘lar*



| | | |
|---|---|---|
| 1 | Shaxsi ma`lum gap | Qurilish san`atini tushunaman. |
| 2 | Shaxsi noma`lum gap | Haykaltaroshlikni bir necha turlarga bo`lish mumkin. |
| 3 | Shaxsi umumlashgan gap | Arxitektura – muqaddas san`atdir. |
| 4 | Shaxsi topilmas gap | Dekorativ haykallarni uy jihozlarini bezashda ishlatgan ma`qul. |
| 5 | Atov (nominativ) gaplar | Arxitektura! Qadimiy qurilish san`atining  oliy namunasidir. |

## Topshiriqlar

**1-topshiriq:** Matnni o‘qing. Qo‘shma gap va uning turlarini aniqlang..

### O‘zbek maqollari.

Maqol xalq og‘zaki ijodiga oid janrlardan biri sanaladi. Maqollar shaklan qisqa bo‘lgani bilan ularda juda keng ma’no mujassam bo‘ladi. Tilimizning bu bebaho boyligini o‘rganish bilan ajdodlarimiz qadimdan shug‘ullanib kelganlar.

Mashhur qomusshunos Mahmud Qoshg‘ariy XI – asrdayoq turkiy xalqlarning 400 ga yaqin hikmatli iborasini o‘zining uch jildlik lug‘atiga kiritgan. Ularning 250 dan ortiqrog‘i shakl va mazmuniga ko‘ra hozirgi o‘zbek tilidagidan farq qilmaydi.

Mashhur masalchi Gulxaniy (XIX asr) 200 ga yaqin hikmatli iborani to‘plab, ularni bir tizimga jamlab, “Zarbulmasal” asarini yaratgan.

Adabiyotshunos olimlarimiz “O‘zbek xalq maqollari” kitobida 1800 ta maqolni 31 mavzuga ajratib tavsiflashgan.Olimlarning aniqlashicha, har bir kishi 800 ga yaqin maqol va matallar haqida tushunchaga ega bo‘lar ekan. Siz-chi? Siz qancha maqolni bilasiz?

**2-topshiriq:** O‘zbek tiliga tarjima qiling.

1. А ты, ты – то о чем думал? 2. Тут же приехала машина скорой помощи. 3. Вед мы с тобой не встречались целый год! 4. Даже летом он не снимал с головы свою шапку. 5. Наконец-то я увидел тебя!

## 44-MAVZU: Ariza, bildirishnoma, bildirgi.

## Gapning tuzilishiga ko‘ra turlari.

REJA:

1.Ariza yozish tartibi.
2.Bildirish noma yozish tartibi.
3.Bildirgi yozish tartibi.
4.Gaplarning tuzulishi haqida

Ish hujjatlari bilan ishlash







**Ariza** muayyan muassasa yoki mansabdor shaxs nomiga biror iltimos, taklif yoki shikoyat mazmunida yoziladigan rasmiy hujjat sanaladi. Ish yuritishda faol qo‘llanadigan rasmiy hujjat ham arizadir.




Arizalar mazmuni, uslubi, hajmiga ko‘ra turlicha bo‘ladi. Chunki o‘quvchi yoki talabaning turli masalalar yuzasidan ta’lim muassasasi rahbariga yozadigan ariza-laridan tortib ishchi-xizmatchining, fuqarolarning korxona boshlig‘i,

hokimlargacha yozadigan arizalari bir-biridan farq qiladi. Bundan qat‘iy nazar, har qanday arizada quyidagi zaruriy qismlar ifodalanishi lozim:

—ariza yo‘llanadigan muassasa nomi yoki rahbarning vazifasi, unvoni, ismi, otasining ismi va familiyasi;
—ariza yozuvchining turarjoyi yoki vazifasi, ismi, otasining ismi va familiyasi;
—hujjat nomi (Ariza);
—ariza matni (iltimos, taklif yoki shikoyat);
—zarur bo‘lgan holatda ilova qilinadigan hujjatlar nomi;
—qog‘ozning chap tomonida ariza yozilgan vaqt (yil, kun va oy);
—qog‘ozning o‘ng tomonida ariza yozuvchining imzosi, ismi va otasining ismi bosh harflari, familiyasi.

Ariza shakli




Toshkent arxitektura qurilishinstituti
rektori R. R. Hakimovga
Qurilishni boshqarish”fakultetining
I kurs talabasi Samad Qosimovdan

**ARIZA**

Men «Umid» jamg‘armasi tanlovida yuqori natijalarga erishib imtiyozli o‘rinni qo‘lga kiritdim Shuning uchun «Umid» jamg‘armasi menga Amerika Qo‘shma shtatlariga o‘qish uchun yonlanma berishga qaror qildi.

O‘qishimni Kaliforniya universitetining Qurilish fakultetidadavom ettirish uchun ruxsat berishingizni so‘rayman.

(imzo) S. Qosimov

2020 yil 28 may

## BILDIRISHNOMA




## BILDIRISHNOMA SHAKLI

(kimga, kimdan)
*Xabar yo'llangan idora, rahbarning lavozimi va to'liq nomi+ga yo'llovchi shaxs lavozimi, to'liq nomi+dan*

**BILDIRISHNOMA**

*Matn sarlavhasi .... haqida*

**Matn**

*Topshirilgan vazifa va unga aloqador masalalar haqida axborot bayoni, ilovasi bo'lsa, ilova ro'yxati beriladi*

*Bildirishnoma tayyorlagan shaxs(lar) lavozimi*

*(imzo)* *ismi, familiyasi (lari)*

*sana*

Toshkent arxitektura qurilish instituti
rektori R. R. Hakimovga
Arxitektura fakultetining
2-18 guruh sardori
Y.Abdurahmanovadan

Bildirishnoma

Fakultetimizda bizning guruhimiz qaramog‘i uchun ajratilgan 202-auditoriyaning holati qoniqarli emas. Jumladan, qish kunlari juda sovuq bo‘lib ushbu o‘quv yili davomida biz o‘quv mashg‘ulotlarini boshqa bo‘sh auditoriyalarni izlab topib o‘tishga majbur bo‘ldik. Shuningdek xonadagi chizma taxtalarni, turli o‘quv jihozlarini yig‘ib qo‘yish uchun moslangan mebel bo‘lmaganligi bois hammasi polda qalashib yotibti va buning oqibatida xonaga kirgan har bir ustozdan tanbeh eshityapmiz.

Shu sababli guruhdagi talabalarning ota-onalari ishlaydigan ayrim tashkilotlarni shu ishga homiylik qilishlariga ruxsat berishingizni so‘raymiz.

Mutaxassislar ko‘rsatmalari asosida, guruhdoshlar bilan birga ushbu auditoriyani talab darajasida ta’mirlaymiz va jihozlaymiz.

Guruh sardori: (imzo) Y.Abdurahmanova

2021 yil 20 may







BILDIRGI

Toshkent arxitektura qurilish instituti Arxitektura fakulteti dekani Sh. Reyimbayevga
2-18 guruh talabasi F.Jamalovadan

Bildirgi

2019 yil 13-14 may kunlari Guliston davlat universitetida "O'zbek tili" fani bo'yicha o'tkaziladigan 2-bosqich Respublika olimpiadasida ishtirok qilishim kerakligi sababli, dars mashg'ulotlarida qatnasha olmasligimni ma'lum qilaman.

(imzo) F.Jamalova

2019 yil 11 may

Muallif o‘z nutqida boshqalar ifodalagan fikrlardan ham foydalanishi mumkin. Bunday fikrlar ko‘chirma gap, o‘zlashtirma gap, dialog va ko‘chirma shaklida beriladi. O‘zgalarning hech o‘zgarishsiz berilgan gapi **ko‘chirma gap** deyiladi. Ko‘chirma gapda ikki xil gap bo‘ladi***: ko‘chirilgan gap va muallif gapi***.




Ikkalasi birgalikda ko‘chirma gapli qo‘shma gapni hosil qiladi . Muallif gapining kesimi dedi, deb so‘radi, deb javob berdi, gapirdi, so‘zladi, aytdi kabi fe’llar bilan ifodalandi.




Ko‘chirma gaplar so‘zlashuv va badiiy uslublarda ko‘p ishlatiladi. Ko‘chirilgan gap muallif gapidan avval, undan keyin, uning ichida, uning ikki tomonida kelishi mumkin: "*Mehnat ishtaha ochar", - deydi bobom. Cho‘pondan so‘radik: "Bu qo‘ylar kimning qo‘yi?" “Men, - dedi u, - ertaga kelaman”.*




### Ko‘chirma gapda tinish belgilarining ishlatilishi

Ko‘chirilgan gap qo‘shtirnoq ichiga olinadi, badiiy asarlarda tire bilan ajratib beriladi. Ko‘chirma gapda, ko‘chirilgan gapning o‘rniga qarab, tinish belgilarining ishlatilishi quyidagicha bo‘ladi:

**1.** Ko‘chirilgan gap darak gap bo‘lib, muallif gapidan oldin kelsa, undan keyin vergul va tire qo‘yiladi: "*Yuring, men o‘sha tomonga boraman", - dedi Komila* (badiiy asarlarda tire ishlatiladi). So‘roq va undov belgilari qo‘shtirnoq yopilmasdan oldin qo‘yiladi.

**2.** Ko‘chirilgan gap muallif gapidan keyin kelsa, muallif gapidan keyin ikki nuqta qo‘yiladi: *Bir kun Husayn Mirzo shipga qarab yotib, vazirlariga shunday debdi: - Olib keling*! (“El desa Navoiyni”)

**3.** Muallif gapi ko‘chirilgan gap ichida kelsa, tinish belgilari quyidagicha qo‘yiladi: 1) ko‘chirilgan gapning uzilib qolgan qismida hech qanday tinish belgisi bo‘lmasa yoki vergul yoxud ikki nuqta bo‘lsa, bu belgilar tushirilib, muallif gapi har ikki tomondan vergul va tire bilan ajratiladi: *"Hazrat, - debdi Xudoyberdi unga qarab, - tandirni qurolmadim*". (“El desa Navoiyni”)

2) ko‘chirilgan gapning uzilib qolgan qismidan so‘ng nuqta qo‘yish lozim bo‘lsa, muallif gapidan oldin vergul va tire, muallif gapidan so‘ng esa nuqta qo‘yiladi: "*Noyib to‘raning gaplaridan bilinadi o‘zi, dedi Miryoqub. – Siz bo‘lgan gaplarni aytib bering"* (Ch.Avaz).

3) Ko‘chirilgan gapning uzilib qolgan qismidan so‘ng so‘roq yoki undov belgisi qo‘yish lozim bo‘lsa, muallif gapidan avval o‘sha belgi va tire qo‘yiladi, muallif gapidan so‘ng nuqta va tire qo‘yilib, ko‘chirma gapning davomi bosh harf bilan boshlanadi: "*Xadichaxon ko‘zlarini ayyorlik bilan o‘ynatib turib, kundoshiga qaradi: - Gapni eshitayotirsizmi? – dedi. – Ertaga biznikiga shaharlik mehmonlar kelishar ekan!" (*Ch.Avaz)

**4.** Ko‘chirilgan gap muallif gapining o‘rtasida kelsa, tinish belgilari quyidagicha qo‘yiladi:

1) muallif gapining uzilib qolgan qismining oxiriga ikki nuqta qo‘yilib, ko‘chirilgan gap qo‘shtirnoq ichiga olinadi; ko‘chirilgan gapdan keyin vergul va tire qo‘yilib, keyin muallif gapining davomi yoziladi: *Saodat: "Biz ham astoydil mehnat qildik", - dedi.*

2) ko‘chirilgan gap so‘roq yoki his-hayajon gap bo‘lsa, ularning belgilari qo‘shtirnoq ichida bo‘ladi: O‘qituvchimiz : "*Sen qaysi badiiy kitoblarni o‘qib chiqqansan?" - deb so‘radilar*.

**5.**Ko‘chirma gaplar hamsuhbatlarning luqmasi tarzida ifodalanganida yozma nutqda har bir luqmadan avval tire qo‘yiladi. *Bu luqmalarda muallif gapi bo‘lmaydi: - Shaharda qarindoshingiz bormi? - Yo‘q*.




**O‘zlashtirma gap**

O‘zgalarning shakli o‘zgartirilib, mazmuni ifodalangan gapi **o‘zlashtirma gap** deyiladi. O‘zlashtirma gap ko‘chirma gapga aylantirilishi mumkin bo‘lgan gapdir*:* ***Qurbon ota ertaga kelishini aytdi*** (o‘zl. gap) – *Qurbon ota dedi: “Men ertaga kelaman*” (ko‘ch. gap).




So‘roq, buyruq mazmunini ifodalagan ko‘chirma gaplar o‘zlashtirma gapga aylantirilganda, darak gap shaklida bayon qilinadi. - *Bu qanday bino, nimaga mo‘ljallaysiz? - dedi O‘ktam* (ko‘ch. gap). ***O‘ktam bu qanday bino ekanligini, uning nimaga mo‘ljallanishini so‘radi*** (o‘zlashtirma gap).

Undov, kirish so‘z qatnashgan ko‘chirma gaplar o‘zlashtirma gapga aylantirilganda, kirish so‘zlar tushib qoladi, undalma vositali to‘ldiruvchiga aylantiriladi, 1-, 2-shaxslarni ko‘rsatuvchi so‘zlar 3-shaxsga aylantiriladi:

- *Xo‘sh, Kanizakxon, qanday yangiliklar bor? - so‘radi O‘ktam* (ko‘ch. gap). ***O‘ktam Kanizakxondan qanday yangiliklar borligini so‘radi*** (o‘zlashtirma gap).




Biror matndan ko‘chirilgan gaplar **ko‘chirma** deyiladi. Ko‘chirma ikki xil bo‘ladi:

***1. Muallif gapi bilan birga qo'llangan ko'chirma:*** *Alisher Navoiy ilm olishga da'vat qilib:* "*Olim bo'lsang, olam seniki*", *- degan edi* .
***2. Muallif gapisiz qo'llangan ko'chirma***: *Shoira Zulfiya o'z qahramonlarini eng yaqin kishilarim deb bilar edi. Baxtiyor bo'lardim she'rlarim bilan shu do'stlar qalbiga kirolsam agar* .Muallif gapi bilan qo'llangan ko'chirma bayon qilinayotgan fikrni asoslash, tasdiqlash yoki inkor etish uchun keltiriladi. She'riy parchalar ko'chirma tarzida keltirilsa, qo'shtirnoqqa olinmaydi. Ko'chirma muallif gapisiz qo'llansa ham, qo'shtirnoqqa olinmaydi. Bu tarzdagi ko'chirmalar epigraf tarzida qo'llanadi va qo'shtirnoqqa olinmaydi.




**Topshiriqlar**

**1-topshiriq:** Matnni o'qing. Ko'chirma va o'zlashtirma gaplarga aylantiring.

**OTA – ONANI E'ZOZLANG**

Ota – onani e'zozlash va ulug'lash asrlar davomida avloddan – avlodga o'tib kelayotgan el – yutga xos olijanob an'analardan biridir. O'z ota – onasining qadrini bilmagan odam, do'stlarining ham hurmatiga arzimaydi. Ota – onaning qalbi mehr – muruvvatga to'liq bo'ladi, farzandlaridan jonini ham ayamaydi. Lekin yaxshi farzand ularning mehr chashmasidan oqilona foydalanadi, suiste'mol qilmaydi.

Farzandlarning ota – onasiga bo'lgan shirin so'zi, xushmuomalasi, mehribonliklari ustiga ularning jamiyat ustiga qilgan go'zal ishlari ham qo'shilsa, nur ustiga a'lo nur bo'ladi. Ota – onaning umri boqiy bo'lib tetik yashashini istasang, doimo ularning ko'ngillarini shod et. Oqil o'g'il, komila qiz :"Ota –

onamni shod qilish uchun nima ish qiloldim?” - deb vijdoni bilan suhbatlashib turadi.

Insonlardagi vijdon va or – nomus ota – onasining qadr – qimmatini tushunishdan boshlanadi. Inson bo‘lishning alifbosi shu, chunki barcha xalqlar qay tilda gapirmasin, dastlabki so‘zlari ona tilida “ota – ona”,- deyishdan boshlanadi, insonning birinchi so‘z debochasi ham ota – onadir.

Bizning dunyoga kelishimizga, o‘sib – ulg‘ayib kamolotga yetishishimizning birinchi sabablari ham – bu buyuk insonlardir. Ota – onaning jamoli, qora ko‘zlari, qoshu sochlari, kuch qudrati, go‘zal chehrasi, qaddu qomati – bularning hammasi bizda namoyon bo‘ladi.

Ular bizni katta hayotga taqdim qiluvchi ulug‘ zotlardir.

Farzand ota – onaga kuch quvvat baxsh etadi. Otalarimizning “Farzand ota – ona ko‘zining oqu qorasi, belining quvvatidir,”- degan qimmatli so‘zlari farzandga bo‘lgan mehr muhabbatni ifoda etadi. Ota- ona qayerda bo‘lmasin – ishdami, uzoq safarda, ularning ko‘z oldida doim bolalarning timsoli gavdalanib turadi, fikru - zikri bolada bo‘ladi. Albatta, bizga ko‘rsatilgan bunday mehribonchilikni biz his etishimiz va o‘zimizning namunali xulqimiz va odobimiz bilan javob qaytarishimiz zarur. Bekorga xalqimizda biror xayrli ish qilgan kishiga qarata “Sen tarbiya qilgan ota – onangga rahmat,”- deb aytilmaydi. Shunday ekan ota- onamiz nomiga doimo rahmatlar yog‘dirishimiz – farzandlik burchimizdir. Chunki ota – onalarning eng baxtlisi – bu farzandlari ortidan tashakkur eshitganlaridir. Ota – onangizni doimo izzat qiling va e’zozlang, chunki ular bizga g‘nimat.

**2-topshiriq:** She’rni ifodali o‘qing, unga sarlavha toping.

Bilmam qanday ayol bo‘lgan
Alisherning onasi?
Balki uning aqliga ham
Lol qolgan zamonasi.
Balki uning ko‘zlarida
Qolgan og‘ir bir hayol
Balki g‘amgin bir zotdir u,
Balki sho‘xchan bir ayol.
Balki buyuk farzandiga
Terib bergan chechaklar.
Balki tunlar unga bedor
Aytib bergan ertaklar.
Yolg‘iz bir so‘z ma’nosi:
Alisherning onasi - u

Navoiyning onasi.

***Abdulla Oripov***

## 45-MAVZU: Buyruq, farmoyish, ko‘rsatma.

## Nutq uslublari.

REJA:

1.Rasmiy ish qog‘ozlari bilan ishlash.
2.Buyruq.
3.Farmoyish.
4.Ko‘rsatma.
5.Stilistika.
6.Nutq uslublari.



**BUYRUQ 06-ij**
**2019.05.05**

Psihologik eksprtiza
O`tkazilishni vaqtincha
To`xtatish haqida

Pedagogika fakulteti ish faoliyatiga oid masalalarni bir tizimga va tartibga keltirish maqsadida

**BUYURAMAN:**

1. Psihologiya kafedrasi xodimlari tomonidan tegishli hujjatlar rasmiylashtirilgunga qadar psixologik ekspertizalarni o`tkazishni vaqtinchalik to`xtatish pedagogika fakulteti dekani M.Umarovga yuklansin.
2. Ushbu buyruqni tegishli idoralarga yetkazish, ularni xabardor qilish va uning bajarilishini nazorat rtish o`quv ishlari bo`yicha prorektor M.Umarovga yuklatilsin.

**Asos:**Huquqshinos F.B.Valixo`jayeva kiritgan loyiha, xidimlar uyushmasi raisi U.Z.Zahidov, Prorektorlar M.Muhiddinov, A.S.Soleyev, I.R.Pardayevlar va rektor M.SH.Umarovning munisabat belgisi.

**Rektor** **M.Sh.Umarov**

## Farmoyish

Farmoyishda biror vazifani kim, qanday va qachon bajarishi fe'lning majhullik nisbati asosida buyruq (III shaxs, birlik) shakli bilan ifodalanadi (*tayinlansin, belgilansin, o'tkazilsin, qabul qilinsin* kabi).

Farmoyish oxirida buyruqni nazorat qilish kimga yuklatilgani, ba'zan esa ilgarigi yoki boshqa hujjat bekor qilinganligi qayd etiladi.

## Uslubiyat (Stilistika). Nutq uslublari

**Uslubiyat -** tilshunoslik fanining bir bo‘limi bo‘lib, nutq jarayonida til hodisalarining maqsadga, sharoitga va muhitga mos ravishda foydalanish qonuniyatlari bilan tanishtiradi.




Uslubiyatda uslublar, til vositalarining nutqda qo'llanish yo'llari, fonetik, lug'aviy, frazeologik va grammatik birliklarning qo'llanish xususiyatlari o'rganiladi. Adabiy tilning ijtimoiy hayotdagi ma'lum bir sohada qo'llanadigan, bir qancha o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan ko'rinishi **adabiy til uslubi** deyiladi.

O'zbek adabiy tilida quyidagi asosiy nutq uslublari bor:




**1.So'zlashuv uslubi-** bu uslubning adabiy til me'yorlariga rioya qiladigan ko'rinishi adabiy so'zlashuv uslubi nutk ko'pincha dialogik nutq deyiladi.So'zlashuv uslubida ko'pincha turli uslubiy bo'yoqli so'zlar, grammatik vositalar, tovushlar tushib qolishi, orttirilishi mumkin: *Kep qoling! Obbo, hamma ishni do'ndiribsiz-da. Mazza qildik. Ketaqo-o-ol!* So'zlashuv uslubida gapdagi so'zlar tartibi ancha erkin bo'ladi, piching, qochiriqlar, kinoyalar ko'plab ishlatiladi. Ko'proq sodda gaplar, to'liqsiz gaplar, undalmali gaplardan foydalaniladi.




**2.Ilmiy uslub**-fan-texnikaning turli tarmoqlariga doir ilmiy asarlar, darsliklar ilmiy uslubda yoziladi. Mantiqlilik, aniqlik bu uslubga xos xususiyatlardir. Ilmiy uslub aniq ma'lumotlar asosida chiqarilgan ilmiy xulosalar (qoidalar, ta'riflar)ga boy bo'lishi bilan boshqa uslublardan farq qiladi: *Yomg'ir - suyuq tomchi holidagi atmosfera yog'ini. Tomchining diametri 0,5-0,6 mm bo'ladi.* Ilmiy uslubda har bir fanning o'ziga xos ilmiy atamalaridan foydalaniladi, bu uslubda so'zlar o'z ma'nosida qo'llanadi, qoida yoki ta'rifning mazmunini ochishga xizmat qiladigan ajratilgan bo'laklar, kirish so'zlar, kirish birikmalar, shuningdek, qo'shma gaplardan ko'proq foydalaniladi.



**3.**Davlat idoralari tomonidan chiqariladigan qarorlar, qonunlar, nizomlar, xalqaro hujjatlar **rasmiy-idoraviy uslubda** yoziladi. Ariza, tilxat, ma’lumotnoma, chaqiruv qog‘ozi, taklifnoma, shartnoma, tarjimai hol, e’lon, tavsifnoma, dalolatnoma, hisobot kabilar ham shu uslubda yoziladi. Bunday uslubdagi hujjatlar qisqa, aniq, barcha uchun tushunarli qilib tuziladi. Bu uslubning asosiy belgisi: jumlalarning bir qolipda, bir xil shaklda bo‘lishi. Bu uslubda ham so‘zlar o‘z ma’nosida qo‘llanadi, ko‘pchilikka ma’lum bo‘lgan ayrim qisqartma so‘zlar ishlatiladi, har bir sohaning o‘ziga xos atamalaridan foydalaniladi, *qaror qilindi, inobatga olinsin, ijro uchun qabul qilinsin, tasdiqlanadi, yuklatilsin, tayinlansin* kabi so‘z va so‘z birikmalari ko‘plab uchraydi.Rasmiy-idoraviy uslubda ko‘pincha darak gaplardan, qaror, buyruq, ko‘rsatma kabilarda esa buyruq gaplardan ham foydalaniladi. Bu uslubda gap bo‘laklarining odatdagi tartibda bo‘lishiga rioya qilinadi: *O‘z lavozimini suiste’mol qilganligi uchun M. Ahmedovaga hayfsan e’on qilinsin.*




**4.**Tashviqot - targ‘ibot ishlarni olib borishda qo‘llanadigan uslub, ya’ni matbuot uslubi **ommabop uslub** hisoblanadi. Soddalik, tushunarli bo‘lish, ta’sirchanlik, adabiy til me’yorlariga rioya qilish bu uslubning asosiy belgilaridan hisoblanadi. Ommabop uslubning radio, televidenieda ishlatiladigan ko‘rinishi og‘zaki ommabop uslub deyilsa, gazeta, jurnallarda ishlatiladigan ko‘rinishi yozma ommabop uslub hisoblanadi. Bu uslubda ijtimoiy-siyosiy so‘zlar ko‘p qo‘llanadi.

Nutq ta’sirchan bo‘lishi uchun ta’sirchan so‘z va birikmalardan, maqol va hikmatli so‘zlardan ham foydalaniladi. Bunday uslubda gap bo‘laklari odatdagi tartibda bo‘ladi, kesimlar buyruq va xabar maylidagi fe’llar bilan ifodalanadi, darak, his-hayajon va ritorik so‘roq gaplardan, yoyiq undalmalardan, takroriy so‘z va

birikmalardan unumli foydalaniladi: 1. *Azamat paxtakorlarimiz mo'l hosil etishtirish uchun fidokorona mehnat qilishyapti.*




**5. Badiiy uslub**-badiiy asarlar (nazm, nasr va dramatik asarlar) badiiy uslubda bo'ladi. Badiiy asar kishiga ma'lumot berish bilan birga, timsollar (obrazlar) vositasida estetik ta'sir ham ko'rsatadi: *O'lkamizda fasllar kelinchagi bo'lmish bahor o'z sepini yoymoqda*. Badiiy uslubda qahramonlar nutqida oddiy nutq so'zlari, sheva, vulgarizmlardan ham foydalaniladi. Badiiy uslub aralash uslub hisoblanadi, chunki bu uslubda so'zlashuv va kitobiy uslublarga xos o'rinlar ham uchraydi.




**Nutq madaniyati**

Nutq to‘g‘ri, aniq va yoqimli bo‘lishi lozim. To‘g‘ri, aniq va yoqimli gapirish uchun mantiqiy izchillikka va adabiy me’yorlarga rioya qilish kerak. Tilshunoslik fanining bir bo‘limi bo‘lib, nutq jarayonida til hodisalarining maqsadga, sharoitga va muhitga mos ravishda foydalanish qonuniyatlari bilan tanishtiradi. Uslubiyatda uslublar, til vositalarining nutqda qo‘llanish yo‘llari, fonetik, lug‘aviy, frazeologik va grammatik birliklarning qo‘llanish xususiyatlari o‘rganiladi.




**Topshiriqlar**

**Topshiriq:** Matnni o‘qing. Nutq uslublarini aniqlang.

**Muhammad Yusuf**

Shoir Muhammad Yusuf 1951yilda Andijon shahrida tug‘ildi. Toshkent Davlat universiteti (hozirda O‘zbekiston Milliy universiteti) ni tamomlagan.

Muhammad Yusuf XX asr oxiri o‘zbek she’riyatida o‘z so‘zini ayta olgan shoirlardan biri edi. Ayniqsa, uning qatag‘on qurbonlari Cho‘lpon, Qodiriy, Hayzulla Xo‘jayevlarni yod olib yozgan she’rlari o‘sha yillari xalq qalbidan chuqur joy egalladi.

Muhammad Yusufning odamiylik, sevgi va vafoni ulug‘lovchi ko‘plab she’rlari kuyga solinib, xalqimiz sevgan qo‘shiqlarga aylandi.

Shoir she’rlari sodda va ravon til bilan yozilgan. Uning ijodida xalq qo‘shiqlaridagi kabi ohangdorlik bor.Istiqlol yillari Muhammad Yusuf Vatanni madh etuvchi bir qator she’rlar yozdiki, ularga kuy bastalanib, katta-katta bayramlarda ijro etilib kelindi.

Shoir qalamiga mansub “O‘zbekiston” qo‘shig‘i mamlakatimz yoshlari madhiyasiga aylandi:

Oq yo‘rgakka o‘ragansan o‘zing bizni,
Oq yuvib, oq taragansan o‘zing bizni,
Beshigimiz uzra bedor ona bo‘lib,

Kunimizga yaragansan o‘zing bizni.

Adoying bo‘lgaymiz seni, O‘zbekiston,
Hech kimga bermaymiz seni, O‘zbekiston,
Hidoying bo‘lgaymiz seni, O‘zbekiston,
Hech kimga bermaymiz seni, O‘zbekiston.

Tuzing totib unutganlar xor bo‘ladi,
Ko‘zlariga ikki dunyo tor bo‘ladi,
Tinch kuningni ko‘rolmagan yurtfurushlar,
Bir kun bir kaft tuprog‘inga zor bo‘ladi.

Boldan shirin taxir qora bug‘doying ham,
O‘zingdan bo‘lsa gar shohi, gadoying ham,
Bir jon-u tan bir-biringdan rozi yursang,
Xudoying ham sendan rozi, xudoying ham.

Shoir Muhammad Yusuf 2001- yil vafot etdi. Uning qo‘shiqlari, she’rlari xalq xotirasida hali uzoq yashaydi.

# GLOSSARIY
# (O‘ZBEK, RUS VA INGLIZ TILIDA)

# GLOSSARIY

| O‘zbek tilidagi atamasi | Rus tilidagi atamasi | Ingliz tilidagi atamasi |
|---|---|---|
| **Arxaik –** hozirda mavjud bo‘lgan narsa – hodisalarning eskirib qolgan atamalaridir**.** | **Архаик** | **Archaic** |
| **Antonim** – qarama – qarshi, zidma’noliso‘zlar. | Антоним | **Antonym** |
| **Aniqlovchi** – gapdagi biror bo‘lakning belgisini yoki bir narsa – buyumning boshqasiga qarashli ekanligini bildiruvchi bo‘lak. | Определение | **Determination** |
| **Assimiliatsiya** – qatorkelgannutqtovushlariningbir – birigata’sirqilibo‘zigamoslashtirishi. | Ассимиляция | **Assimilation** |
| **Alfavit** – muayyan tartibda joylashtirilgan harflar yig‘indisi. | Алфавит | **Alphabet** |
| **Abbrivatsiya** – qisqartma so‘zlar yasash. | Аббривация | **Abbreviation** |
| **Bo‘g‘in** – o‘pkadan chiqayotgan havo to‘lqiniga bir zarb berish bilan aytiladigan tovush yoki tovushlar yig‘indisi. | Слог | **Syllable** |
| **Dialekt** – sheva va lahja tushunchalarining birgalikdagi ifodasi. | Диалект | **Dialect** |
| **Dissimiliatsiya** – ikkita o‘xshash tovushning noo‘xshash bo‘lib qolishi. | Диссимиляция | **Dissimilation** |
| **Etimologiya**– so‘zlarning paydo bo‘lishini o‘rganuvchi soha. | Этимология | **Etymology** |
| **Ega** –gapning kim yoki nima haqida ekanini bildiruvchi bo‘lak. | Подлежащее | **Subject** |
| **Fonetika** – grekcha phone – tovush so‘zidan olingan bo‘lib, tilshunoslikning nutq tovushlarini o‘rganuvchi bo‘limidir. | Фонетика | **Phonetic** |
| **Frazeologiya** – biron – bir tildagi iboralarni o‘rganuvchi bo‘lim. | Фразеология | **Phraseology** |
| **Frazeologik chatishma**– so‘z birikmasi tartibida bo‘lib, bir so‘z o‘z ma’nosida, ikkinchi so‘z esa ko‘chma ma’noda qo‘llaniladi. | *Фразеологические сращение* | **Phraseological fusion** |
| **Frazeologik qo‘shilma** – gap tartibida bo‘lib, bo‘lishi mumkin bo‘lmagan fikr ifodalovchi ko‘chma ma’nolik birlik. | *Фразеологическое смешение* | **Phraseological blending** |
| **Fonetik yozuv** – so‘z va qo‘shimchalarning ma’lum bir qoidaga muvofiq yozilishi. | *Фонетическое написание* | **Phonetic writing** |
| **Fe’l** – harakat ma’nosini ifodalovchi so‘z. | *Глагол* | **Verb** |
| **Fe’l nisbati** – ish – harakat bilan uning bajaruvchisi orasidagi munosabatning ifodalanishi. | *Залог глагола* | **Verb Voice** |
| **Fe’l zamonlari** – ish – harakatning paytga munosabati. | *Время глагола* | **Verb tense** |

| | | |
|---|---|---|
| **Fe'l mayli**– so'zlovchining ish – harakatga moyilligi. | *Накланение глагола* | **Verb mood** |
| **Grammatika** – so'z va gaplarning yuzaga kelishi haqidagi barcha ma'lumotlarni o'rgatuvchi tilhaqidagi fanning bo'limi. | *Грамматика* | **Grammar** |
| **Gap bo'laklari** – o'zaro tobe bog'langan so'z yoki so'z birikmasi. | *Части предложения* | **Parts of Speech** |
| **Harf** – ma'lum bir tovush uchun olingan maxsus shakl, belgi. | *Буква* | **Letter** |
| **Hol** – fe'l – kesimga bog'lanib, uning belgisini bildirgan bo'lak. | *Обстоятельство* | **Adverbial modifier** |
| **Ibora** – ko'chma ma'noda qo'llanuvchi so'zlar. | *Выражение* | **Expression** |
| **Jargonla**r – qiziqishlari, mashg'ulotlari umumiy bo'lgan ma'lum bir guruhga tegishli so'zlar. | *Жаргоны* | **Jargon** |
| **Kesim** – egahaqidagixabarnibildiruvchibo'lak. | *Сказуемое* | **Predicate** |
| **Ko'chirma gap** – o'zgalarning gapini hech o'zgarishsiz berish. | *Прямая речь* | **Reported speech** |
| **Lahja** – bir – biriga yaqin bo'lgan shevalar yig'indisi. | *Говор* | **Accent** |
| **Lingvistika** – grekcha tilshunoslik degan ma'noni bildiradi. Fe'l va nutq haqidagi barcha fanlarni umumlashtiruvchi nom. | *Лингвистика* | **Linguistics** |
| **Leksika** – grekcha "lexis – so'z" degan ma'noni bildiradi. | *Лексика* | **Lexis** |
| **Leksikologiya** – grekcha "lexicos – so'z, tushuncha", "logos – ta'limot" ma'nolarini bildiradi. So'zlarning tub, lug'aviy ma'nolarini va so'zlardagi ma'no siljishlarni, ma'no ko'chishlarni hamda so'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlarini o'rganuvchi bo'lim. | *Лексикология* | **Lexicology** |
| **Leksikografiya** – grekcha "lexicos – so'z, tushuncha", "grafos – yozmoq" degan ma'nolarni bildiradi. Biror- bir tildagi barcha so'zlarni lug'at tartibida umumlashtirib o'rganuvchi bo'lim. | *Лексикография* | **Lexicography** |
| **Metateza** – yonma – yon kelgan undosh tovushlarning o'rin almashinuvi. | *Метатеза* | **Metathesis** |
| **Modal** – so'zlovchining o'z fikriga bo'lgan munosabatini ifodalash. | *Модаль* | **Modal** |
| **Monosemantik** – grekcha "mono – bir", "sema – ma'no" demakdir. Tildagi bir ma'noli so'zlar. | *Моносемантически й* | **Mon semantic** |
| **Morfemika** – so'z tarkibi. | *Морфемика* | **Morphemic** |
| **Morfologiya**– grammatikaning bir qismi bo'lib, so'z turkumlarini o'rganadi. | *Морфология* | **Morphology** |
| **Neologizmlar** – grekcha "neo – yangi", "logos – ta'limot" so'zlaridan olingan bo'lib, yangi paydo bo'lgan so'zlardir. | *Неологизмы* | **Neologism** |

| | | |
|---|---|---|
| **Nutq** – fikrning til orqali ifodalanishi. | *Речь* | **Speech sounds** |
| **Nutqtovushlari** – nutq a’zolari orqali ifodalanuvchi tovushlar. | *Звуки речи* | **Speech sounds** |
| **Nutq organlari** – nutq tovushlarini ifodalovchi organlar. | *Органы речи* | **Speech organs** |
| **Nutqmadaniyati** – mantiqiy izchillikka, adabiy til me’yorlariga rioya qilgan holda to‘g‘ri, aniq va yoqimli so‘zlash. | *Культура речи* | **Culture of speech** |
| **Orfoepiya** – grekcha “orfo – to‘g‘ri”, “epos - nutq” degan ma’nolarni bildiradi. Tilshunoslikning to‘g‘ri talaffuzni o‘rganuvchi bo‘limi. | *Орфоэпия* | **Orthepoc** |
| **Orfografiya**– grekcha “orfo – to‘g‘ri”, “grafos – yozmoq” degan ma’nolarni bildiradi. Tilshunoslikning to‘g‘ri yozish qonun – qoidalarini o‘rganuvchi bo‘limi. | *Орфография* | **Orthography** |
| **Omonim** – shakldosh so‘zlar. | *Омоним* | **Homonym** |
| **Ot** – nomlash xususiyati mavjud so‘zlar. | *Существительное* | **Noun** |
| **Olmosh** – ma’lum bir turkumga mansub so‘zni butunlay boshqa xususiyatli so‘z bilan almashtiruvchi so‘z. | *Местоимение* | **Pronoun** |
| **Paronim** – bir – biridan bir tovush orqali farqlanuvchi so‘zlar. | *Пароним* | **Paroxysm** |
| **Polisemantik**– grekcha “poli – ko‘p”, “sema – ma’no” demakdir. Tildagi ko‘p ma’noli so‘zlar. | *Полисемантический* | **Poly semantic** |
| **Punktuatsiya** – tinish belgilarning ishlatilish tartibini o‘rgatuvchi bo‘lim. | *Пунктуация* | **Punctuation** |
| **Ravish** – ish – harakat va holatning belgisini bildiruvchi so‘z. | *Причастие* | **Adverb** |
| **Runik yozuv** – Rim yozuvlariga o‘xshab yoziladigan yozuv | *Руническая письмо* | **Runic writing** |
| **Sifat** – belgi – xususiyatni ifodalovchi so‘z. | *Определение* | **Adjective** |
| **Sinonim** – ma’nodosh so‘zlar. | *Синоним* | **Synonym** |
| **Singormanizm** – unli tovushlar moslashuvi, ohangdoshligi, uyg‘unligi. | *Сингорманизм* | **Synharmonism** |
| **Sintagma** – ma’lum bir to‘xtam orasidagi bo‘lak (so‘z) . | *Синтагма* | **Syntagmatic** |
| **Sintaksis** – grammatikaning bir qismi bo‘lib, gap va uning turlarini o‘rganadi.. | *Синтаксис* | **Syntax** |
| **Stilistika** – uslubiyat. | *Стилистика* | **Stylistics** |
| **Talaffuz** – biron – bir tovush yoki tovushlar yig‘indisining ma’lum bir alohida ohang bilan aytilishi. | *Произношение* | **Pronunciations** |
| **Taqlid** – biron – bir tovush yoki holatni takrorlab ko‘rsatish yoki talaffuz qilish. | *Имитация* | **Imitation** |
| **Tarixiy so‘zlar** – iste’moldan butunlay chiqib ketgan so‘zlar. | *Исторические слова* | **Historical words** |
| **Tasviriy ifoda** – narsa – buyumning nomini aniq atamay, | *Образные* | **Figurative** |

| | | |
|---|---|---|
| uni boshqa vositalar orqali atalishi. | *выражение* | **expression** |
| **Terminologiya** – grekcha “termin – atama”, “logos – ta’limot” so‘zlaridan olingan. Tilshunoslikning biror– bir sohaga oid ilmiy atamalarni umumlashtiruvchi bo‘limi. | *Терминология* | **Terminology** |
| **To‘ldiruvchi** – gapdagi biror bo‘lakni to‘ldirib, unga boshqaruv yo‘li bilan tobe holatda bog‘langan bo‘lak. | *Дополнение* | **Object** |
| **Turlanish** – ot turkumiga mansub so‘zlarning kelishik qo‘shimchalarini olib o‘zgarishi. | *Склонение* | **Infliction** |
| **Undalma** – so‘zlovchining nutqi qaratilgan shaxsni bildirgan so‘z. | *Обращение* | **Address** |
| **Unli tovushlar** – sof ovozdan hosil bo‘ladigan nutq tovushlari. | *Гласные звуки* | **Vowels** |
| **Undosh tovushlar** – ovoz va shovqinning o‘zaro birikishidan hosil bo‘ladigan nutq tovushlari. | *Согласные звуки* | **Consonants** |
| **Undov** – his – hayajonni ifodalash. | *Восклицание* | **Exclamation** |
| **Urg‘u** – so‘z bo‘g‘inlaridagi unli tovushlardan birining yoki gap tarkibidagi ayrim so‘zning boshqalariga nisbatan kuchliroq ovoz bilan aytilishi. | *Ударение* | **Accentuation** |
| **O‘zak** – lug‘aviy ma’no bildirib, ma’noli bo‘ bo‘linmaydigan qism. | *Корень* | **Root** |
| **O‘zlashtirma gap** – o‘zgalarning shakli o‘zgartirilib, n ifodalangan gap. | *Косвенная речь* | **Indirect speech** |
| **Sheva** – ma’lum bir hududga tegishli so‘zlar. | *Диалект* | **Dialect** |

# MUSTAQIL TA’LIM MASHG‘ULOTLARI

**Mustaqil ta`lim va mustaqil ishlar**

I.Mustaqil ta`lim uchun 1-semestrga tavsiya etiladigan mavzular:

1.O′zbekiston – yagona vatan. O′zbekiston – mening Vatanim.

2.Til –ma′naviyat ko′zgusi.

3.Til – do′stlik kaliti.

4.Institutim bilan faxrlanaman.

5.O′quv yurtim va uning istiqboli.

6.Inson va jamiyat.

7. Oila – jamiyat tayanchi

8.O′zbekiston sporti .

9.Yoshlar va sport o′yinlari

10.O′zbekiston sportining jahon maydonidagi dovrug′i.

11. Mening sevimli sport turim.

12.Tarix va zamonamiz.

13.8 dekabr – konstitutsiya kuni.

14.Konstitutsiya tarixi.

15.O′zbekistonning qadimiy shaharlari.

16.Buyuk allomalar. Alisher Navoiy.

17.San′at turlari.Men sevgan san′atkor

18.O′zbek adabiyoti namoyandalari. Z.M.Bobur.

19.Men sevgan asar

20.Milliy qadriyatlar e′zozi.

21.O′zbek udumlari.

22.Milliy va zamonaviy bayramlar

23.Kelajak yoshlar qo′lida.

**II.Mustaqil ta`lim uchun 2-semestrga tavsiya etiladigan mavzular:**

1.Yoshlarning ma′naviy qiyofasi

2.XXI asr–texnika asri.

3. Kitob – bilim manbai.

4.Alisher Navoiy nomli kutubxona

5.Tabiat  va inson.

6.Inson va yovvoyi tabiat.

7.Inson odobi bilan.

8.Nutq uslublari.So`zlashuv uslubi

9.Nutq uslublari .Badiiy  uslub

10.Nutq uslublari. Ilmiy uslub

11.Nutq uslublari. Rasmiy uslub

12.Nutq uslublari. Publisistik uslub.

13.Rasmiy ish  qog`ozlari  bilan  ishlash

14.Ariza va uning turlari

15.Tilxat va uning turlari

16.Tushuntirish xati va uning turlari

17.Bildirgi va uning turlari

18.Bildirishnoma va uning turlari

19.Ma`lumotnoma va uning turlari

20.Dalolatnoma  va uning turlari

21.Bayonnoma va uning turlari

22.Shartnoma va uning turlari

Mustaqil o`zlashtiriladigan mavzular bo`yicha talabalar tomonidan esse, tezis, ilmiy maqola yoki referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

# ILOVALAR:

# FAN SILLABUSI

## (ISHCHI FAN DASTURI)

# TARQATMA MATERIALLAR

I VARIANT

**1-TOPSHIRIQ**

**Keltirilgan har bir so‘zning antonimini toping**

Rost, hursand, keng, yolg‘on, yorug‘, tun, ingichka, sovur, semiz, yo‘g‘on, issiq, kirish, baland, tez, uzoq, yuqori, bor.

**2-TOPSHIRIQ**

**Antonim so‘zlarning tagiga chizing.**

"Kirishdan oldin chiqishni o‘yla", dedi tulki (ertakdan). Qorni to‘qning och bilan ishi yo‘q (maqol). Tor joyda osh yeguncha, keng joyda musht ye (maqol). Keng kengashib yirtillar, tor tortishib (maqol).

**3-TOPSHIRIQ**

**Nuqtalar o‘rniga I yoki U unlilaridan mosini qo‘yib, so‘zlarni ko‘chiring.**

Uzv..y, ust..n, tut..n, uz..n, chiv..n, bug..n, uyg‘..n. bo‘g‘..n, o‘tt..z, mo‘g‘...l, bo‘ys..nmoq, bur..n, qay..q, to‘lq..n, mevafur..sh.

**4-TOPSHIRIQ**

**Qavsda berilgan undosh tovushlardan mosini qo‘yib yozing.**

G‘aza(b.p), ara(b.p), asa(b,p), kano(b,p), rubo(b,p), g"oli(b,p). se(b.p), zumra(d,t). sabzavo(d,t), hari(d,t), tanqi(d,t), avlo(d,t), ijo(d,t), savo(d,t).

**5-TOPSHIRIQ**

**Yozing, sifatlarni aniqlang va tagiga chizing.**

**Namuna: (qanday, qanaqa) Qizg‘in, sokin havoda birin-ketin mardona tovushlar yangrab ketdi.**

Ertalabki ish ko‘ngilni qilar xush. Bugungi ishni ertaga qo‘yma. Halol ish-lazzatli yemish. Ziyofat turli laziz taomlar, xushxo‘r mevalar, sharbatlarga boy. Qizning qora uzun sochi mayda o‘rilgan, taqimidan pastga tushib turardi. Befoyda so‘zni aytma, foydali so‘zdan qaytma.

**6-TOPSHIRIQ**

**Oddiy gaplardan - shuning uchun, shu sababli, chunki, -ki, -da bog‘lovchilari vordamida ko‘chma gaplar tuzing.**

Tong otdi. Atrof yorishdi.

Bahor keldi. Dalada ish qizidi.

Havo issiq edi. Biz yengil kiyindik.

Men darsga yaxshi tayyorlangan edim. Sinovdan muvaffaqiyat bilan o‘tdim.

Navro‘z bayramiga puxta hozirlik ko‘rdik. Yig‘inimiz qiziqarli o‘tdi.

**7-TOPSHIRIQ**

Berilgan gaplarga zarur finish belgilarini qo‘yib yozing.

Yaxshiyamki chakalakzor uyimizga yaqin va yo‘l tanish.

Ma’lumki mehnatga hurmat ahloqning eng yuksak dsturlaridan biridir.

Kim ko‘p tersa shu ko‘p yong‘oq oladi.

Kimki bevafo bo‘lsayaxshi muomala qilishdan bebahra bo‘ladi.

Senga ma’lum bo‘lsinki men to‘g‘ri so‘zlayman.

**8-TOPSHIRIQ**

**Bog‘langan qo‘shma gaplarni rus tiliga tarjima qiling.**

Qo‘ylar qo‘raga joylashdi-yu, cho‘ponlarning ko‘ngli tinchidi. Peshonasidan quyilayotgan ter seli ko‘zga kirib achishtiradi. Bulutlar tarqalib, tog‘larda havo ochilib ketdi. Birinchi kurs qoloq deymiz, lekin ularda ham ilg‘orlar bor.

**9-TOPSHIRIQ**

O‘zbekiston avtomobil transportiga oid terminlar ishtirokida lOta gap tuzing.

**10-TOPSHIRIQ**

Quyidagi otlarni egalik qo‘shiinchalari bilan qo‘llang. Namuna: tuproq - tuprog‘i.

Qaramoq, etik, tilak, bilak, istak, rizq, butoq, axloq, ertak, nutq, og‘iz, o‘g‘ii, qayin, mavqe, bag‘ir, burun, quloq.

## II VARIANT

**1-TOPSHIRIQ**

**Fe’l zamonlarini aniqlang, tagiga chizing.**

1. majlisimiz kechqurun soat yetti yarimda boshlanadi. 2. Ishimiz soat o‘n daqiqa kam beshda tamom bo‘ladi. 3. Men bozorga borib olma, uzum, nok, qovun olmoqchiman. 4. Sen bundan ham katta mukofotga arziysan. 5. Tuvaga yuk azob beradi, odamga vijdon (maqol). 6.Qozonga yaqinlashsang qorasi, yomonga yaqinlashsang balosi yuqar (maqol). 7. Juvon o‘tdek chaqnab turgan ko‘zlarini katta-

katta ochib menga qarab turardi. 8. Kelajakda asosan suvuq betondan tashkii topgan sovuq va iliq holatdagi asfalt-betondan keng miqyosda foydalanish masalasi turibdi.

**2-TOPSHIRIQ**

**Nuqtalar o‘rniga qaratqich va tushum kelishigidan mosini qo‘yib otlarni o‘zi bog‘langan so‘z bilan birga ko‘chiring. Namuna: xalqining vakili**

U doim o‘zini xalq.. vakili yurt.. kuychisi va elchisi deb his etar, shu g‘urur uning ilhom.. o‘t oidirar, me’yoriy parvoziga qanot bog‘lar edi. Saf... oldida bo‘lishi, olg‘a boshlab borayotgan komandir qanday bo‘lsa, u ham shunday. Xalq... sevimli shoiri, adabiyotshunos olim, niadaniyatimiz yirik arbobi bo‘lgan Hamid Olimjon... kim bilmaydi, deysiz. Hamid Olimjon... doimo barhayot siymosi xalqimiz... qalbida yashaydi.

**3-TOPSHIRIQ**

**« Mening oilam » mavzusida qisqacha bayon yozing.**

**4-TOPSHIRIQ**

**Har bir fe’lga -yapti, -moqchi, -ib, -moqda qo‘shimchalaridan birini mosini qo‘yib yozing va rus tiliga tarjima qiling.**

Namuna : kesilmoq - kesilyapti, kesilmoqchi, kesilib, kesilmoqda. To‘planmoq, uyalmoq, chizilmoq, o‘ylanmoq, sevinmoq, bog‘Ianmoq, bo‘ylamoq.

**5-TOPSHIRIQ**

**Berilgan so‘zlardan -la, -Ian, -lash qo‘shimchalari bilan fe’l yasang.**

Kichik, tayyor, tez, toza, to‘g‘ri, ulug‘, yuksak, yangi, yaqin, o‘tkir, yaxshi, hurmat, davo, dazmol, yara, tarbiya, isbot.

**6-TOPSHIRIQ**

**Ko‘chirma gaplarning o‘zlashtirma gaplarga aylantiring.**

"Menga biror gaping bormi?", -deb so‘radi Shoyimov.

"Men hcch qanaqa Maqsud degan bolani tanimayman", -dedi G‘ayrat.

"Senga nima qildi?", -so‘radi Rinat.

Sen buni qayoqdan bilasan ? dedi hayron bo‘lib Shoyimov.

**7-TOPSHIRIQ**

**Qo‘shma fe’llar yordamida gaplar tuzing.**

Mehnat qilmoq, mehmon bo‘lmoq, yod qilmoq, ish qilmoq, ta’zim qilmoq, sodir bo‘lmoq.

**8-TOPSHIRIQ**

**Quyidagi so‘zlarning antonimini toping. Namuna: katta-kichik**

Shirin, qari, kun, past, yaxshi, baland, go‘zal, issiq, oq, tug‘ilmoq, do‘st, yumshoq, qiyin, botir, quyuq, rost.

**9-TOPSHIRIQ**

**Berilgan gaplardagi undalmani topib, tagiga chizing.**

To‘xta, hey Quyosh, eshit bizning quvnoq qo‘shig‘imizni. Onajon ! Poyingizga gullar to‘shay mehrimdan. O‘qituvchi, mehribon ustoz, hech tuganmas Sizga hurmatim. Bugun yana nima « karomat » ko‘rsatding, G‘ayrat. Dildora, sen qaysi togarakkka a’zo bo‘lding. O‘zbekistonim ! Nurafshon o‘lkam ! Istiqloling muborak !

**10-TOPSHIRIQ**

Savollarga javob bering

Siz nechanchi kursda o‘qiyapsiz ?

Yoshingiz nechada ?

Siz uylanganmisiz (yoki) ?

Siz turmush qurganmisiz ?

Sizning farzandlaringiz bormi ?

Qaysi tilni o‘rganayapsiz ?

Qayerda ishlaysiz ?

Sizning oilangiz kattami ?

## III VARIANT

### 1-TOPSHIRIQ

**Ravishdoshlarni rus tiliga tarjima qiling.**

Kulib, ishlab, yurib, gapira-gapira, kula-kula, to‘xtab, olib, berib, tashlab, eshitib, (konvertga) solib, (darsni) tayyorlab, (paxtani) terib, (qatnov oqimi) bo‘lib, (chegaralangan maydonga) yetib, (motorlashganlik darajasini) aniqlab

### 2-TOPSHIRIQ

**Quyidagi so‘z birikmalarini rus tiliga tarjima qilib yozing.**

Aks ettirmoq, zulmga qarshi, norozilik bildirmoq, kun bermaslik, ularning ustidan kulmoq, xalq ijodi, hu tufayli, qo‘shiq bo‘Iib kuylanmoq, asarlar yozdi, kamchiliklarni ochib tashlaydi, Qo‘qonda vafot etdi.

### 3-TOPSHIRIQ

**Kichraytirish erkalash qo‘shimchalarini tagiga chizib, shu so‘zlarni qaysi so‘z turkumiga oid ekanligini ko‘rsating.**

Jo‘ravoy, bolaginam, kampirlarning ishi senga yoqadimi. Bugun qo‘rg‘oncha ship-shiydam, o‘g‘ri urganday vahima edi. Tanishib olaylik, yigitcha, otingiz nima. O‘g‘ilchangni yana yaslida ko‘rdim, qo‘zichoqday o‘ynab yuribdi. Sarg‘ayish bo‘lmasin, suluv kelinchak!

### 4-TOPSHIRIQ

**O‘zbek tiliga tarjima qiling.**

Забавнаяисторияпроизошланедавноспольскимводителем- дальнобойшиком. Если бы не опасный обгон, совершенный им, вряд ли бы кто мог поверит, что такое возможно. Задержав 40-тонный ГРУзовик за нарушение правил дорожного движение, полиция едва успела задать виновнику первый вопрос, как он заснул мертвецким сном.

### 5-TOPSHIRIQ

**Quyidagi fe’llar ishtirokida gaplar tuzing.**

Og‘rimoq, rioya qilmoq, ko‘tarilmoq, pasaymoq

**6-TOPSHIRIQ**

**Quyidagi fe’llarni shaxs-son qo‘shimchalari yordamida tuslang.**

O‘tirmoqchi edi, bajaryapti, ishonaman, yugurmaymanmi

**7-TOPSHIRIQ**

**Quyidagi so‘zlatdan sifat yasang Namuna : avval-avvalgi**

An'ana, asab, ahloq, aql, baxt, bilim, bola, bosqich, guruch, gul, davom, daraja, janjal,jun, imtiyoz.

**8-TOPSHIRIQ**

**7-topshiriqdagi sifatlar bilan 6ta gap tuzing.**

Namuna : Biz avvalgi darsda bu qoidani o‘rgandik.

**9-TOPSHIRIQ**

**Navro‘z bayrami haqida bayon yozing.**

**10-TOPSHIRIQ**

**Berilgan so‘zlarni o‘zbek tiliga tarjima qilib,« Bizning xona » mavzusida matn tuzing.**

На столе, в столе, под столом, за столом, перед шкафом, в середине комнаты, за окном, стулья, вокруг стола, цветы в вазе, на стене висит картина.

## IV VARIANT

**1-TOPSHIRIQ**

**Yozing. Gaplardagi bosh bo‘laklarni toping, ega bitta chiziq bilan, kesimni ikkita chiziq bilan chizing, ustiga qqaysi so‘z turkumi bilan ifodalanganini yozib qo‘ying.**

Alisher go‘zal Farg‘onada, so‘lim qishloqda, shinam bir hovlida yashar edi. Olimjon bog‘ ko‘chadan qishloqqa borardi. Hamdamjoning ismini otasi bilib qo‘ygan. Yovvoyi bir daraxtga kimdir novda ulabdi. Tog‘dan kelar pildirab, ariqlarda shildirab. muzday zilol, tiniq suv... Yo‘ldosh aka yechinib, yuvinib bo‘lgach, yonimizga kelib o‘tirdi.

**2-TOPSHIRIQ**

**Bozor iqtisodiyotiga oid so‘z birikmalarini rus tiliga tarjima qiling.**

-past sifatli tovarlar -qadoqlangan tovarlar -sof daromad -foizlar ko‘rinishidagi

-fermerning shartnoma bo‘yicha bajargan ishidan olgan daromadi

**3-TOPSHIRIQ**

**Uyushgan bo‘laklarni tagiga chizib, qavs ichida so‘roq bering. Namuna : Sizni kutar lagerlar, bog‘lar (nima ?)**

Qobil bobo qo‘l qovushtirib uning ketidan yurar va yig‘lar edi. Muqannash devorlarning oltin, kumush, ko‘k, qizil, oq, pushti, sariq gullari yulduzdek yashnab, uyga bir hayotiylik berar edi.

Ustoz va mehribon o‘qituvchimga otashin salom. Tepadan o‘ngga tanish ko‘chalar, uylar, dalalar bir-bir ko‘rinib o‘tardi.

**4-TOPSHIRIQ**

**Rus tiliga tarjima qiling, ko‘makchilarni topib tagiga chizing.**

**Namuna : yer ustida-На землею**

Shkaf ichida, qum ichida, suv tagida, yer ostida, daftar ostida, xona o‘rtasida, bog‘ atrofida, ikki deraza orasida, darazt orqasida, uy ichidan, suv ostida, yer tagida, shkaf orqasida, uy oldida, mening oilamda, suv ichidan.

**5-TOPSHIRIQ**

**Tarjimai holingizni qisqacha yozib bering. « Tarjimai hoi »**

**6-TOPSHIRIQ**

**Bosh va ergash gaplarni aniqlang, ularni rus tiliga tarjima qiling.**

Batal'onimga Shokirovga o‘xshaganlardan yana besh-oltita bo‘lsa, katta yo‘lga chiqib olardik. Siz aytganingizdek qilsam, hech narsa o‘zgarmaydi. lmtihonlardan yaxshi va a’lo baholarga topshirsam edi, onam hursand bo‘lar edilar. Agar tehnikaga suyanmaganimizda, ishimizhali tugamas edi. Agar astoydil ishlamoqchi bo‘Isangiz, sizga men yordam beraman. Vaqtim bo‘lganda edi, siz bilan birga borar edim.

**7-TOPSHIRIQ**

**Quyidagi so‘zlar ishtirokida gaplar tuzing.**

Namuna : o‘qish, kitob, so‘z, oshiradi, kishining, boyligini. Kitob o‘qish kishining so‘z boyligini oshiradi.

Yo‘qotish, hasharotlarni, kerak, zararli. Brigadamizda, bor, bizning, bog‘bon, tajribali. Uchratdik, biz, sexida, Karim, Aminovichni, quyuv, zavodning. Radio, biz, tinglar. edik. ertalab. Yozilgan, o‘qidik, bolalarga, hikoyani, kichik. O‘quvchilar, tayyorlanayaptilar, kutib olishga, bayramni.

**8-TOPSHIRIQ**

**Quyidagi otlarini kelishik qo‘shimchalari bilan turlang.**

B.k kim ? nima ? o‘qituvchi, bahor, talabalar

**9-TOPSHIRIQ**

**Quyidagi qo‘shimchalar bilan sifat yasang.**

-li : g‘ayratli... -siz : so‘zsiz... -mon : bilarmon... -gin, g‘un, kin : qizg‘in... -ser: serhosil...

-ba : badavlat...

**10- TOPSHIRIQ**

**Gaplardagi ikki va undan ortiq so‘zli birikmalarni ajratib yozing. Namuna : har bir mahalla - bir oila.**

Barcha mahalla qo‘mitalarida saylovlar o‘tkazildi. Shaharda ko‘p qavatli baland binolar qurilmoqda. Domla dasturxonni ochdi, bitta kulchani ushatibm o‘zi ozgina yedi, dadamga ham manzirat qildi.

## V VARIANT

**1-TOPSHIRIQ**

**Quyidagi so‘z'ar ishtirokida gaplar tuzing.**

| **«2, qoniqarsiz» FX, F** | |
| 3,0 dan kam | 60 dan kam |

Talabalar bilimini baholash tizimi (Yevropa  kredit Transfer tizimi , ECTS - European Credit Transfer System).

A (90-100); B (80-89,9); C (70-79,9); D (67-69,9); E (60-66,9); FX (50-59,9); F (0-49

# FANNING O‘ZIGA XOSLIGIGA QARAB O‘RGANISH BO‘YICHA BOSHQA KELTIRILGAN MATERIALLAR

## Unli va undoshtovushlarga oid mashqlar

**1-mashq.** Quyidagi so‘z birikmalarini o‘qing. o, a, i tovushlarining talaffuziga e’tibor bering.

Qon tomiri, qora qosh, oppoqqor, qaror qilmoq, baland qayrag‘och, chiroyli qaldirg‘och, qarag‘ay daraxti.

**2-mashq.**Quyidagi so‘zlarni to‘g‘ri o‘qing.

Qon, qop, qor, qoch, qaysi, qal’a, qamchi, qani, qaror, qayrag‘och, qaldirg‘och, qarag‘ay.

**3-mashq.** Quyidagi so‘zlarni o‘zbek tiliga tarjima qiling va ular ishtirokida gap tuzing.

Погода, охота, голос, звук, еда, столовая, пицца.

**4-mashq.**Nuqtalar o‘rniga x, h undoshlaridan mosini qo‘yib, maqollarni ko‘chiring.

1. ...alq ishi-...aq ish. 2. Odamning ...usni me...natda. 3. Ish ishta...a ochar. 4. ...alol ish-lazzatli yemish. 5. ...azina g‘oyibdan emas, me...natdan. 6. Suvsiz ...ayot, me...natsiz ro...at bo‘lmas. 7. Me...nat ba...t keltirar.

**5-mashq.**Quyidagi so‘zlarni rus tiliga tarjima qiling.

Ot, tom, moy, son, don, bosh, osh, joy, kon, lola, mol, mohir, nok, non.

**6-mashq.** Quyidagi so‘zlar tarkibidagi unlilarning har ikki o‘zbek va rus tilidagi talaffuziga alohida e’tibor berib o‘qing.

On-o‘n, mol-mo‘l, tort-to‘rt, som-so‘m, sok-so‘k.

**7-mashq.**1-ustundagi nuqtalar o‘rniga a, 2-ustundagi nuqtalar o‘rniga o harflari qo‘yib, so‘zlarni qiyoslab o‘qing, a, o tovushlarining talaffuziga e’tibor bering.

**1-ustun 2-ustun**

b...s b...s
q...ra q....ra
ch...l ch...l
n...m n...m
s...f s...f

**8-mashq.**Nuqtalar o‘rniga kerakli bo‘g‘inlarni qo‘ying, so‘ngra yozing.

**Namuna:** olmazor.

Ol...zor, me...zor, pax...kor, yax...lak, Chi...zor.

**9-mashq**.Nuqtalar o‘rniga zarur harflarni qo‘yib, so‘z birikmalarini ko‘chirib yozing.

Shara...li burch, rangli meta..., mamlakat bo‘yla... sa..ar, ulkan za...ar, aniq re...a, samimiy tasha...ur, beqaror sh...mol, z...vqli ...ayot, be...oyda ur...nish, shonli sa...ifa, istiro...at bog‘i, qimmatb...ho mukofot, aloqa texnik...mi.

**10-mashq.**So‘zlarni o‘zbek tiliga tarjima qiling va ular ishtirokida to‘rtta gap tuzing.

Играть, проходить, четыре, десять, лес, растение, правый, спросить, товарищ.

**11-mashq.**Quyidagi so‘zlarni o‘qing, talaffuz hamda yozilishiga e’tibor bering va ularni ko‘chirib yozing.

Mudir, muhim, mumkin, ko‘mir, temir, pushti, umid, muxbir, kulgi, tulki, to‘siq, to‘lqin, og‘il.

## Omonim, paronim, sinonim, antonim.

**1-mashq.** Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning sinonimlarini ayting.

Nega shuncha go‘zal ko‘rinar olam?

Nega qarab to‘ymas ko‘zlarim?

Nega jo‘sh uradi, ko‘piradi qon?

Nega misday qizir yuzlarim?

Nega hayajonda tuyg‘ular, hislar?

Nega lablarimda kezar tabassum?

Hayot go‘zal, hayot maroqli,

Shuning uchun erka ko‘nglim shod.

**2-mashq.** O‘qing sinonimik qatordagi bosh so‘zni topib, bu so‘zlarning ma’nosidagi farqlarni aytib bering.

Uzoq, olis, yiroq; shabada, shamol, yel, sabo; faxrlanmoq, g‘ururlanmoq, mag‘rurlanmoq; yurak, qalb, dil, ko‘ngil; jo‘ra, og‘ayni, birodar, oshna, do‘st.

**3-mashq.** Quyida berilgan sinonimlar qatorini davom ettiring.

Ayyor, mug‘ombir, ....
Aniq, yaqqol, ...
Balli, barakalla, ...
Bitirmoq, tugatmoq, ...
Darrov, darxol, ...
Juda, g‘oyat, ...
Kabi, singari, ...
Katta, ulug‘, ...
Mazali, lazzatli, ...
Ozgina, oz-moz, ...
Puxta, pishiq, ...
To‘satdan, qo‘qqisdan...

Sinonimlar ishtirokida his-hayajon mazmunidagi gaplar tuzing. Unda tinish belgilarning qo‘llanishiga ahamiyat bering.

**4-mashq.** Quyida berilgan paronimlarni sifatga oidlarini aniqlang, tarjima qiling va gaplar tuzing.

harom-haram quruq-qo‘riq yaroqsiz-yarog‘siz
ertangi-ertagi chirik-churuk halol-xalal
sodda-soda kuzgi-ko‘zgu ijobiy-ijodiy
ziyrak-zirak yorug‘-yoriq buyuk-bo‘yoq
anqov-anqo oriq-ariq azim-azm

**5-mashq.** Nuqtalar o‘rniga qavs ichidagi paronimlarning mos keladiganini qo‘yib ko‘chiring, kerakli o‘rinlarda qo‘shimchalar qo‘shing.

1. Boburning Qobul .... topilgan emas. Mashina ... tepasiga ko‘tarilar ekan, derazadan salqin shamol urildi. (dovon-devon)

2. Mirzakarimboyni Toshkentning to‘rt ... biladi. O‘zbek xalqi ichidan o‘nlab ...lar yetishib chiqqan (daha-daho).

3. Ot ... shayladi, o‘q-anjomin boyladi. Sizning har bir so‘zingiz biz uchun tilladan ...(abzal-afzal).

**6-mashq.**Ko‘chiring. Matndagi paronimlarni toping, ma’nolarini izohlang.

1. Konstitutsiya 6 bo‘lim, 26 bob, 128 moddadan iborat. Ayni biz bop ketmon ekan, endi hech ham qiynalmaymiz. 2. Ularning tub maqsadini bilib olishimiz kerak. 3. Erta bahorda o‘n tup mevali daraxt ko‘chatidan ekdik

**7-mashq.**Quyidagi paronimlarning ma’nolarini izohli lug‘atdan toping va ular ishtirokida gaplar tuzing.

Ramz-razm, yolqin-yorqin, sayil-sayr, sada-sado.

**8-mashq.**Berilgan so‘zlarning sinonimlarini toping.

Do‘st, ozoda, ko‘rkam.

**9-mashq.**Berilganso‘zlardan omonimlarni ajrating va ular ishtirokida gap tuzing.

Bosh, oyoq, qo‘l, tok, soch, kul.

**10-mashq.**Matnni o‘qing va mazmunini aytib bering.

**T O SH K E N T**

Toshkent – juda qadimiy va navqiron shahar. Uning yoshi 2000 yildan oshib ketgan. U tarixda Choch, Shosh, Binkent kabi nomlar bilan atalgan.

Toshkent go‘zal shahar. Ayngiqsa, mustaqillik yillarida uning chiroyi yanada ortib bormoqda. Ko‘plab yangi binolar, ko‘chalar barpo etilmoqda.

1977-yilda Toshkent metrosining birinchi yo‘nalishi ish boshlagan. Hozirda uning Chilonzor, O‘zbekiston va Yunusobod yo‘llari bo‘ylab poyezdlar qatnovi yo‘lga qo‘yilgan. Uning Alisher Navoiy, Amir Temur xiyoboni, Chorsu, Chilonzor kabi go‘zal va ozoda bekatlari kishi ko‘zini quvontiradi.

Toshkentda ko‘plab madaniy muassasalar mavjud. Bog‘lar, teatrlar, konsert zallari xalqimiz xizmatida. Toshkentda bir qancha muzeylar faoliyat yuritmoqda. Alisher Navoiy nomidagi adabiyot muzeyi, Temuriylar tarixi Davlat muzeyi, Olimpiya shuhrati muzeyi shular jumlasidandir. Ular xalqimizning boy tarixi va bugungi yutuqlari haqida hikoya qiladilar.

Toshkentga har kuni minglab sayyohlar, chet ellik ishbilarmonlar, halqaro delegatsiyalar tashrif buyuradilar. Shahrimiz mehmonlarni iliqqarshi oladi. Ular uchun shinam mehmonxonalar qurilgan. Muhimi mehmondo‘st O‘zbekiston xalqi ularni ochiq chehra bilan kutib oladi.

Jahonga yuz tutgan O‘zbekistonimizning qadimiy va hamisha navqiron poytaxti Sharq yulduzi deb bejiz tarannum etilmasligini mehmonlarimiz ham ta’kidlashmoqda.

**Topshiriq.** O‘z shahringiz (qishlog‘ingiz) haqida kichik hikoya tuzing

**11-mashq.**Lug‘atdan foydalanib, berilgan iboralarga sinonim va agar bo‘lsa antonimlarni toping.

Qo‘y og‘zidan cho‘p olmagan, chumoliga ozor bermaydigan, ilonning yog‘ini yalagan, kapalagi uchgan, boshi qotgan.

**12-mashq.**Iboralarning ruscha muqobilini toping. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

Sanamay sakkiz deydigan; chumchuq pir etsa, yuragi shir etadigan; yulduzni benarvon uradigan; yerga ursa ko‘kka sakramoq.

**13-mashq.**Antonimlarni topib, ko‘chiring. Yod oling.

1. Kattaga hurmatda, kichikka izzatda bo‘l. 2. U goh kulib, goh yig‘lab bo‘lgan voqeani aytib berdi. 3. Yaxshi topib gapiradi, yomon qopib. 4. Ilmsiz bir yashar, ilmli ming yashar.

**14-mashq.**Maqollarni o‘qing va ma’nosini sharhlang. Zid ma’noli so‘zlarni o‘zi bog‘langan so‘z bilan birgalikda ko‘chiring.

1. Yaxshi so‘z - jon ozig‘i, yomon so‘z - bosh qozig‘i. 2. Do‘st achitib gapirar, dushman – kuldirib. 3. Oz so‘zla, ko‘p tingla. 4. Eskisiz yangi bo‘lmas, yomonsiz yaxshi.

**15-mashq.**Berilgan zid ma’noli so‘zlarning qanday so‘z turkumiga mansub ekanligini aniqlang.

Mehnatsevar-dangasa, kelmoq-ketmoq, yolg‘onchi-rostgo‘y, ost-ust, toza-iflos, qisqa-uzun, urush-tinchlik, kulmoq-yig‘lamoq.

**16-mashq.**Avval o‘lchov-hajmni bildirgan zid ma’noli so‘zlarni, keyin paytni bildirgan zid ma’noli so‘zlarni topib, gaplar tuzing.

Kecha-kunduz, yo‘g‘on-ingichka, katta-kichik, avval-keyin, ozg‘in-semiz, ilgari-hozir, baland-past, tonggi-tungi.

## Egalik qo‘shimchalariga oid mashqlar

**1-mashq.**Egalik shakllaridagi otlarni ko‘chirib yozing, shaxs va sonini aniqlang. Masalan: davri – III shaxs, birlik.

to‘lqinволна

halovatliспокойный, спокойно

ufq горизонт

vafodor преданный, верный

tikстройный, ровный, прямой

imonliздесь,порядочный

bo‘y cho‘zganрастущий

**2-mashq.**Berilgan so‘zlarga I va III shaxs egalik qo‘shimchalaridan birini qo‘shib, namunadagidek yozing. Hosil bo‘lgan so‘z shaklini tushuntirib bering.

**Namuna:**quloq-qulog‘im, quduq-qudug‘i.

Ishtirok, pichoq, ertak, bo‘taloq, farq, axloq, tok, to‘garak, tirnoq

**3-mashq.** Quyidagi otlarga II shaxs egalik qo‘shimchasini qo‘shib, namunadagidek yozing va yuz bergan o‘zgarishni izohlang.

**Namuna:** Bag‘ir – bag‘ring.

O‘rin, qorin, burun, singil, ko‘ngil, mag‘iz.

**4-mashq.** Berilgan otlarni ko‘plik shakliga aylantiring.

Sher, tadbirkor, mashina, mezbon, shoir.

**5-mashq.** Gaplarni ko‘chiring, ko‘plik sonda qo‘llangan otlarning gapdagi vazifasini aniqlang.

1. Do‘stlar, bu mening eng yaqin oshnam, tanishing. 2. Bu o‘tlar oftobda rosa qurigan, yaqinida gugurt chaqmang, o‘t ketib qolmasin. 3.Sergap, ezma bo‘lmang, birovni gapini behuda bo‘lmang. 4. Ko‘p o‘lkalarda bo‘ldim, lekin yurtimiz hammasidan a’lo. 5. Qo‘lingdagilarni qo‘y, o‘g‘lim, tez borib qo‘ylarni qaytarib kel.

## Kelishik qo‘shimchalariga oid mashqlar

**1-mashq.** O‘qing. Rivoyat mazmunini so‘zlab bering.

**Xushmuomilalik**

Xushmuomilalik yarim baxtdir, ya’ni u baxt eshigini ochishi mumkin, xolos. Biroq, bu bilan baxtni uzoq ushlab bo‘lmaydi. O‘zingiz o‘ylang, inson xushmuomila bo‘lsa-yu, lekin mehribonlikni va g‘amxo‘rlikni bilmasa, birovning mushkulini oson qilmay faqat o‘zining shaxsiy manfaati uchun ish yuritsa, hurmatga sazovor bo‘lmaydi, yakkalanib qoladi.

Xushmuomilalik zaminida mehnatsevarlik bilan bir qatorda mehribonlik va g‘amxo‘rlik qaynab tursa, odam umrbod baxtli hayot gashtini suradi.

(H.Ziyoev)

**2-mashq.** Nuqtalar o‘rniga mos otlarni qo‘yib, so‘z birikmalarini ko‘chiring.

... onasi, ... bordi, ... chiqdi, ... ko‘chasi, ... jo‘nadi, ... intizomni, ... kichik, ... o‘qidi, ... javobi.

**3-mashq.** Nuqtalar o‘rniga jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasini qo‘ying.

1. Suvlar... tikilsam, ko‘zim yoshlanur, jarlar... egilsam – aylanur boshim. (Mirtemir) 2. Ko‘k... boqqan yiqilur.(Maqol) 3. Odobli bola el... manzur. (Maqol) 4. Maqtov ahmoq... yoqar. (Maqol)

**4-mashq.** Quyidagi so‘zlarni o‘z daftaringizga ko‘chirib yozing, belgilangan so‘zlarning qaysi kelishik shaklida ekanligini aniqlang.

1. Yaxshisi, bu uchrashuvni tezlashtirish kerak. 2. Bog‘da olma, o‘rik, shaftoli gulladi. 3. O‘zbekistonning hayvonot olami rang-barang. 4. Do‘kondan o‘quv qurollar sotib oldim. 5. Yer kurrasi boshini tang‘idik.

**5-mashq.** O‘qing. Rus tiliga tarjima qiling.

**Hadislardan namunalar**

1. Ilmning ofati unutishdir. Uni noahil kishiga gapirish esa uni zoye qilishdir.

2. Oʻzing yaxshi koʻrgan narsangni oʻzgalarga ham yaxshi bil.
3. Agar biror yomonlik qilsang, ketidanoq yaxshilik qil.
4. Kimki gʻazabi kelsa, jim boʻlsin.
5. Kechirimli boʻlinglar, shunda sizlarga ham kechirimli boʻlishadi.
6. Olim boʻl (ilm beruvchi boʻl) yoki ilm oʻrganuvchi boʻl, yoki tinglovchi boʻl, yoki ilmga va ilm ahliga muhabbatli boʻl. Beshinchisi bilimsiz boʻlma, halok boʻlasan.
7. Uzr aytishga majbur qiluvchi ishlarni kamaytiringlar.
8. Odamlar orasini buzadigan chaqimchilikdan saqlaninglar.

**6-mashq.**Maqollarni yod oling. Ruscha muqobilini toping.

1. Qoʻrqqanga qoʻsh koʻrinar.
2. Egilganga egil, kerilganga keril.
3. Maqtanganning uyiga bor, kekkayganning toʻyiga.
4. Bir tovuqqa ham don kerak, ham suv kerak.

**7-mashq.**Rus tiliga tarjima qiling. Chiqish kelishigidagi soʻzlarga savollar bering.

1. Janubdan kelgan shamol issiq boʻladi. 2. Biz bugungi tadbirdan juda mamnun boʻldik. 3. Uning atlasdan did bilan tikilgan koʻylagi oftobda tovlandi. 4. Toshkentdan Samarqandgacha mashinada toʻrt soatcha yuriladi.

## Ot soʻz turkumiga oid mashqlar

**1-mashq.** Toʻrtlikni oʻqing va yod oling.

Hayot dengiz kabi toʻlqinli, qirli,
Ammo halovatli, cheksiz mehrli,
Imonli kishilar buyuk umrbod,
Odamzod koʻnglini etar quvnoq, shod.

Dunyoda odamzod mangu yashamas,
Ufqqa boʻy choʻzgan chinor ham boʻlmas,
Aziz Vataniga vafodor boʻlsa,
Pomir choʻqqisiday tik yashar, oʻchmas.

**2-mashq.**Suhbat

Sen boʻsh vaqtingda nimalar qilishni yoqtirasan?

Boʻsh vaqtimda musiqa tinglashni yaxshi koʻraman.

Senga qanday musiqa yoqadi?

Menga zamonaviy musiqa yoqadi. Lekin ba’zan mumtoz musiqalarni ham eshitaman.

Yosh xonandalardan kimlarni koʻproq tinglaysan?

Sevara Nazarxon, Abdulaziz Karim menga juda yoqadi. Ularni sevib tinglayman.

**3-mashq.** O‘zbek tiliga tarjima qiling.

1. Любите книгу – источник знаний. 2. В школьном саду кипит работа. 3. За завтраком мы обсудили вчерашнюю поездку. 4. Все мы должны беречь родную природу.

**4-mashq**. Tez aytishlarni o‘qing.

Botir botmas botqoqqa,

Bobur qo‘ymas botmoqqa.

Sapura supadagi ko‘rpacha yoniga supracha yozdi.

**5-mashq.** Suhbat

- Darsdan keyin nima qilmoqchisan?

- Darsdan keyin bozorga boraman.

- Biror nima xarid qilmoqchimisan?

- Ha, ertaga biznikiga mehmonlar kelishadi. Shunga xo‘l mevalar sotib olishim kerak.

- Qaysi bozorga borasan?

- Oloy bozoriga boraman. U yerda mevalar ko‘p. Tanlash imkoniyati bor. Sen-chi, sen nima qilasan?

- Men darsdan keyin buvimnikiga boraman Bugun amakimning tug‘ilgan kuni.

**6-mashq.** Berilgan maqollarni rus tilidagi muqobilini toping. Ularni yod oling.

1. Boshga balo tildan. 2. Yaxshi gapga ilon inidan chiqar, yomon gapga pichoq qinidan. 3. Bekorchidan el bezor. 4. Yigit so‘zidan, arslon izidan qaytmaydi.

**7- mashq.**O‘zbek tiliga tarjima qiling.

1. После уроков я поеду к бабушке. 2. В нашей группе учится 32 студента. 3. К празднику мы готовим ряд мероприятий. 4. Книга принадлежит учителю. 5. До города Газалкента 40 минут езды.

**8-mashq.**She’rni ifodali o‘qing va yod oling.

**O N A**

Ko‘kda yulduz o‘chsa nogahon,

Bitdi, derlar qaysi bir taqdir,

Bunday g‘amni ko‘tarmoq oson,

Bu, ehtimol, bizlar haqdadir.

Ba’zi tunlar ko‘kka tikib ko‘z,

Eslab deyman onamni shu on:

Ona ketsa, yulduz-ku yulduz,

Qulab tushsa arziydi osmon.

*A.Oripov*

**9-mashq.**Gaplarni ko‘chiring. Otlarni qaysi gap bo‘lagi bo‘lib kelayotganini aniqlab, tagiga chizing.

1. Muhammadqodir Abdullayev 1973-yilda Andijonning Jalabek mavzesida tug‘ilgan. (U.Shukurov) 2. Oqqan daryo oqaveradi. (Maqol) 3. Oyijon, chindan ham shishaning ichida jin bormi? (X.To‘xtaboyev)

**10-mashq.** Har biri besh so‘zdan iborat ikkita gap tuzing. Otlarni bitta yoki ikkitasini ko‘plik shaklida qo‘llang. Gap bo‘laklarini aniqlab, tagiga chizing.

**Savol va topshiriqlar**

1. Ot deb nimaga aytiladi?
2. Otlar qanday ma’nolarni bildiradi?
3. Otlar qaysi qo‘shimchalar bilan keladi?
4. Otlar qanday gap bo‘lagi vazifasini bajaradi?

**11-mashq.** O‘qing, otlarni aniqlang. Ularning qaysilari biror shaxs yoki narsalarga atab qo‘yilgan otlar.

Gulbadanbegim Zahiriddin Muhammad Boburning qizi bo‘lib, u 1523-yili Qobulda tug‘ilgan. Onasi Dildorbegim temuriy Sulton Mahmud Mirzoning qizi bo‘lgan. Otasining farmoniga ko‘ra u katta onasi, ya’ni Humoyun Mirzoning onasi Mohimbegim qo‘lida tarbiyalangan.

Gulbadanbegim zamonasining oqila, donishmand ayollaridan edi. Akbarshohning taklifi bilan “Humoyunnoma” - ajoyib va muhim tarixiy asarni yozgan. “Humoyunnoma” Bobur va Humoyun podshohlarning hayoti va sarguzashtlarining qisqacha tarixi bo‘lib, “Boburnoma”ning mantiqiy davomidir. “Akbarnoma”ning muallifi Abul Hazlning yozishicha, Gulbadanbegim 1603-yilda 80 yoshida vafot etgan.

**12-mashq.**O‘zingiz eshitgan yoki o‘qigan kitoblaringizdan hayvonlarga atab qo‘yilgan nomlardan bir nechtasini yozing. Ular ishtirokida og‘zaki gaplar tuzing.

**13-mashq.** Viloyatingizdagi shahar, tuman, ko‘l, daryo, anhor va boshqa joy nomlarini bir necha guruhga ajratib, har biriga uchtadan misol yozing.

**14-mashq.** O‘qing. Atoqli otlar qaysi gap bo‘lagi bo‘lib kelayotganini aniqlang.

Akam Dilshodning Sen-chi , Mavjuda,

Odati qiziq. Qara ukangga.

Ish taqsimlab u Hamrobek, suv och

Ko‘rgazar yo‘riq. Darhol ekinga.

Hoy, Umarjon, sen Akam Dilshodbek

Molga sol xashak. Taqsimlaydi ish.

Uyni supurib, O‘zi to‘p tepib,

Suv keltir, Qo‘shoq. Qilmas hech yumush
*(Po‘lat Mo‘min)*

## Olmosh so‘z turkumiga oid mashqlar

**1-mashq.**Gaplarni avval ot, keyin sifat, so‘ng son o‘rnida qo‘llangan olmoshlarni aniqlang.

1. U o‘ymakor eshikni qiya ochib ichkari kirdi. (X.Sultonov) 2. O‘rtog‘ing yugurishda birinchi ekan, sen-chi, nechanchi o‘rindasan? 3. Cholning chapdast, chaqqon o‘g‘li bor ekan, mening ham shunday farzandim bo‘lsa edi. (Ertakdan) 4. Men ham shunday o‘ydaman, fikr-u yodim undadir, gar o‘zim har joydaman. (Y.Sulaymon) 5. Bu ish uchun senga qancha vaqt kerak?

**2-mashq.**Nuqtalar o‘rniga oldingi gap mazmunidan kelib chiqib, mos keladigan olmoshlarni qo‘ying. Bu olmoshlar qaysi so‘z turkumi o‘rnida qo‘llanganini aniqlang.

**Namuna:** Uning beshta kitobi bor. Yana... bo‘lsa o‘nta bo‘ladi.

Uning beshta kitobi bor. Yana shuncha bo‘lsa o‘nta bo‘ladi.

1. Men, Bahodir, Elbek, Hilola boqqa bordik. ... u yerdan kech qaytdik. 2. Uning ko‘ylagi yashil ekan. ... rang menga ham yoqdi. 3. Ziyoda bilan Durdona yaqin dugona. ... – beshinchi sinf o‘quvchilari.

**3-mashq.**Berilgan so‘roq olmoshlarini boshqa so‘zlarga almashtiring va ular ishtirokida gaplar tuzing. So‘z turkumini aniqlang.

**Namuna:** Kim? – Tikuvchi. Opam atel’yeda tikuvchi bo‘lib ishlaydi.

Kim?, qanday?, nechanchi?, nima?, nechta?, qancha?, qaysi?

**4-mashq.**Gaplarni ko‘chiring. Olmoshlarni topib, ularning yozilishini tushuntiring.

1. Meniki va seniki shu aziz tuproq, ko‘z qorachig‘iday asraylik o‘rtoq! 2. Mening ikki onam bor, ikkisi ham mehribon. (Uyg‘un) 3. Shundaylar bo‘lmasa agar dunyoda, bunchalar muhtaram bo‘lmasdi ayol. (A.Oripov) 4. Otang seni ko‘rmadi, chog‘i. 5. Sen qancha kitob olgan bo‘lsang, men ham o‘shancha miqdorda olib keldim.

## Son so‘z turkumiga oid mashqlar

**1-mashq.**Topishmoqning javobini toping. Avval miqdor sonlarni, so‘ng tartib sonlarni ko‘chiring.

To‘planib o‘n o‘g‘il-qiz,
- Mezbon-mehmon o‘ynaymiz
Deyishar: - Sobir, sana,
Adashib ketma yana.
Toq sonlar bo‘lar mezbon,
Juft sonlar aziz mehmon
Nodir bo‘ldi birinchi.
Ikki – singlim “Durdona”,
Uchinchisan, Guldona.
To‘rtsan, Dilshod, Lola – besh,
Dildor – olti, yetti – Esh.
Sakkizinchi sen, Gulqiz,
Ahmadullo-chi – to‘qqiz.
Iya, o‘n yo‘q-ku, qarang!
Topmas Sobir, bosh – garang.
Sobir sanar: - Ko‘ring-chi,
O‘rtoqlari kulishar:
- Boshqa sana, - deyishar.
- Yordam bering siz endi,
Chiqmagan o‘n kim edi!
(Sobir)

**2-mashq.**Uch, besh, yetti, o‘n sonlarini avval miqdor son, keyin tarib son shaklida qo‘llab, ular ishtirokida gaplar tuzing.

**3-mashq.**Gaplarni ko‘chiring. Sonlarni gapdagi vazifasini aniqlab, tagiga chizing.

1. Bir otasi, bir onasi, necha yuz ming bolasi. (Topishmoq) 2. Mening kitoblarim hammasi bo‘lib yettita. 3. Opam bizga uzgan olmalaridan to‘rttadan berdi. 4. Bir daraxtda o‘n ikki shox, har shoxda o‘ttiz yaproq, yaprog‘ining bir yog‘i qora, bir yog‘i oq. (Topishmoq)

**4-mashq.**“Bizning guruhimiz” mavzusida matn tuzing. Unda miqdor va tarib sonlar ishtirok etsin.

**5-mashq.**Tartib sonlarni toping, ularni raqamlar bilan yozing.

1. Birinchi iyun – Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni. 2. Alisher Navoiy bir ming to‘rt yuz qirq birinchi yil to‘qqizinchi fevralda Hirot shahrida tug‘ildi. 3. Chol bilan kampir uch nafar qizlari bilan yashar ekanlar. (Ertakdan)

**6-mashq.**Tez aytishni aytib ko‘ring. O‘zingiz ham sonlar ishtirok etgan tez aytishlarni topib, guruhdagilar bilan musobaqa o‘ynang.

Tyan-Shan tog‘ining tagida Toshtemir tog‘aning traktori to‘qson tonna temirni tortolmay tirillab turibdi.

**7-mashq.**Sonlarga qavs ichidagi qo‘shimchalarni qo‘shib ko‘chiring. Tartib sonlarni raqamlar bilan yozing.

1. Zulfiqorovning xotini bir (ta) qiyiqchada uch-to‘rt (ta) anor olib keldi. (Abdulla Qahhor) 2. Pahlavonning ikki (nchi) madori qolmadi. (Navoiy) 3.Hilola qirq (inchi) uy, yigirma (nchi) xonadonda yashaydi. 4. Ota-onasining ikki (ala)si, yoxud bir (ta) si keksayib qolganda ularni rozi qilmagan kishi ikki dunyoda xor bo‘ladi. (Hadis)

## Sifat so‘z turkumiga oid mashqlar

**1-mashq.**Sifatlarni aniqlang va tagiga chizing.

1. Unumli mehnat keltirar davlat. 2. Rejali ish buzilmas. 3. Odobli bola elga manzur. 4. To‘g‘ri odam egri so‘zdan or qilar. 5. Tikansiz gul, mashaqqatsiz hunar bo‘lmas. 6. Intizomli lashkar yengilmas. 7. Ozod Vatanimiz-tinchlik tayanchi. 8. Yoshligimiz shunchalar erkin, quvnoq va beg‘ubor.

**2-mashq.**Savollarga javob bering. Javobingizda qavs ichida berilgan sifatlardan foydalaning.

1. Bizning armiyamiz qanday armiya? (buyuk, kuchli, qudratli, qahramon) 2.Bizning hayotimiz qanday? (quvnoq, go‘zal, ajoyib) 3. Qanday shamol esyapti? (mayin, yoqimli, yengil) 4. Qanday gullar ochildi? (chiroyli hushbo‘y) 5. Nozima qanday o‘quvchi? (quvnoq, chaqqon, tirishqoq, qobiliyatli).

**3-mashq.**Berilgan sifatlarni qiyosiy va orttirma daraja shaklida yozib chiqing. Ulardan so‘z birikmalari hosil qiling.

Chiroyli, kuchli, ulug‘, buyuk, eski, pishiq, rahmdil, katta.

**Namuna:** chiroyli-chiroyliroq-eng chiroyli. Chiroyli qiz, chiroyli ko‘ylak.

**4-mashq.**Berilgan so‘z birikmalari yordamida gaplar tuzing.

Yangi mavzu, baland imorat, intizomli talaba, keksa odam, shirin uyqu, zangori ekran, sovuq shamol, zamonaviy qishloq.

**5-mashq.**Berilgan matndan sifatlarni aniqlab, darajasini ayting.

### Tog‘da tong.

Tog‘da tong otishini kuzatish juda ajoyib bo‘ladi. Dastlab tog‘ning eng baland cho‘qqilari pushti rangda tovlanadi. Bu cho‘qqilar quyoshni birinchi bo‘lib kutib oladilar. Keyin quyosh balandroq ko‘tariladi, oqish osmon och ko‘kimtir tusga kiradi. Cho‘qqilardagi qorlar jimir-jimir qilib yaltiray boshlaydi.

Oddiy daraja:

Qiyosiy daraja:

Orttirma daraja:

**6-mashq.** Do‘stingizning xususiyatlarini taqqoslang va jadvalni to‘ldiring.

| **Ijobiy hislatlar** | **Salbiy hislatlar** |
|---|---|
| | |

## Sifatdoshga oid mashqlar.

**1- mashq.** Nuqtalar o‘rniga qavs ichida berilgan sifatdosh hosil qiluvchi qo‘shimchalardan mosini qo‘yib, gaplarni ko‘chiring.

1. Quyoshning damini g‘ir-g‘ir es (-gan, -qan) shamol bo‘g‘ar edi. 2. Kechasi bilan yoq (-gan, -kan, -qan) yomg‘ir tong otar paytiga borib tindi. 3. Uzoqni mo‘ljallab yo‘lga chiq (-gan, -kan, -qan) yo‘lchilar kechga yaqin Taft shahri yaqinida to‘xtashdi. 4. Ola ek (-gan, -kan, -qan) oz olar, raso ek (-gan, -kan, -qan) soz olar.

**2-mashq.** Nuqtalar o‘rniga sifatdosh yasovchi qo‘shimchalardan mosini qo‘yib ko‘chiring.

1. Oq... suv doim toza va sovuq bo‘ladi. 2. Ekinni erta ek..., hosilini erta o‘r... (maqol). 3. Imtihon topshir... talabalar ro‘yhati e’lon qilindi. 4. Tuni bilan yoq... yomg‘ir tonga yaqin qorga aylandi.

**3-mashq.** O‘zbek tiliga tarjima qiling.

1. Собравшихся приветствовал ректор университета профессор С.С.Касымов. 2. Студенты, работающие над квалификационной работой, должны много читать, умет анализировать. 3. У нас в университете много преподавателей, хорошо знающих иностранные языки. 4. Кто трудится честно, всегда в почете. 5. Я встретил сегодня актера, игравшего в знаменитой опере. 6. Я внимательно смотрел на актера, игравшего главного героя.

**4-mashq.** Quyidagi so‘zlardan sifatlarning o‘tgan zamon formasini yasang va ular ishtirokida gaplar tuzing.

Tamomlamoq, boqmoq, tegmoq, yig‘lamoq, o‘rganmoq, olmoq.

**5-mashq.** Qavs ichida berilgan fe’llardan avval o‘tgan zamon sifatlarini, so‘ngra hozirgi zamon sifatlarini hosil qilib ko‘chiring. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

(o‘qi) kitob, (bajar) topshiriq, (ol) xabar, (yubor) xat.

## Ravish so‘z turkumiga oid mashqlar

**1-mashq.**Nuqtalar o‘rniga yordam uchun so‘zlardan mosini qo‘yib, gaplarni ko‘chiring.

1. .... men o‘zbek tilini bilmas edim. 2. .... o‘zbek tilini o‘rgana boshladim. 3. .... sen yangi matnning mazmunini yaxshi tushundingmi? 4. .... qiyin matnlarning mazmunini aytib bera olmayman. 5. .... universitetimizda o‘zbek tili to‘garagi ochildi. 6. .... to‘garak mashg‘uloti yaxshilanmoqda.

Yordam uchun so‘zlar: hozir, kundan-kunga, ilgari, bugun, hozircha, yaqinda, o‘tgan yili.

**2-mashq.**Lug‘atdan foydalanib, quyidagi ravishlar ishtirokida gaplar tuzing.

Yangicha, astoydil,sekin, birdan, darrov, yaxshi, ko‘p, tez, piyoda, to‘satdan.

**3-mashq.**So‘zlarni o‘zbek tiliga tarjima qiling. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

Откуда?, куда?, там, туда, где-то, вперед, каждыйдень, весь день.

**4-mashq.**So‘zlar yordamida birinchi ustunda payt ravishlarini, ikkinchi ustunda o‘rin ravishlarini yozing.

Erta, oldinga, ertaga, ichkari, past, ichkarida, tashqari, hozir, hozirdan, hali, yuqoriga, avval, ilgari, o‘rtada, chapda, chapdan, ertalab.

**5-mashq.**Matndan ravishlarni ajratib olib, turini aniqlang.

### O‘zbek maqollari.

Maqol xalq og‘zaki ijodiga oid janrlardan biri sanaladi. Maqollar shaklan qisqa bo‘lgani bilan ularda juda keng ma’no mujassam bo‘lgan.

Tilimizning bu bebaho boyligini o‘rganish bilan ajdodlarimiz qadimdan shug‘ullanib kelganlar.

Mashhur qomusshunos Mahmud Qoshg‘ariy XI-asrdayoq turkiy xalqlarning 400 ga yaqin hikmatli iborasining o‘zining uch jildlik lug‘atiga kiritgan. Ularning 250 dan ortiqrog‘i shakl va mazmuniga ko‘ra hozirgi o‘zbek tilidagidan farqqilmaydi.

Mashhur masalchi Gulhaniy (XIX asr) 200 ga yaqin hikmatli iborani to‘plab, ularni bir tizimga jamlab, “Zarbulmasal” asarini yaratgan.

Adabiyotshunos olimlarimiz “O‘zbek xalq maqollari” kitobida 1800 ta maqolni 31 mavzuga ajratib tavsiflagan.

Olimlarning aniqlashicha, har bir kishi taxminan 800 ga yaqin maqol va matallar haqida tushunchaga ega bo‘lar ekan. Siz-chi? Siz qancha maqolni bilasiz?

## Ravishdoshlarga oid mashqlar

**1-mashq.**Nuqtalar o‘rniga qavs ichidagi qo‘shimchalardan mosini qo‘yib, gaplarni ko‘chiring.

2. Uzun qorong‘i yo‘lakdan chiq... (-gach, -kach, -qach), Unsin to‘xtadi. 2. Yomg‘ir tinib, bulutlar tarqal...(-gach, -kach, -qach) tiniq osmonda quyosh nurlari yana porladi. 3. Bulut yuqorila..(-b, -y), asta-sekin osmonni qopladi. 4. Ko‘z ochib – yum...(-guncha, -kuncha), qoramtir osmon mavj urib turgan qor dengizga aylandi.

**2-mashq.**Quyidagi fe’llardan ravishdoshlar hosil qilib yozing.

Namuna: Ayt, aytib, aytgach, aytgani.

Eshit, ek, chiq, yig‘, o‘qi.

**3-mashq.**Qavs ichidagi fe’llardan ravishdoshlar hosil qilib, gaplarni ko‘chiring.

Tong ham asta-sekin ota boshladi. Qo‘ylar o‘rinlaridan (tur), qo‘zilarni (ergashtir), jilg‘a tomon yura boshladilar. Oqish kul rang osmon (yorish), (oqar) moviy tusga kirmoqda edi: yulduzlar goh (miltillar ko‘rin), goh (uch) turardi.

**4-mashq.**O‘zbek tiliga tarjima qiling.

1. Окончив университет, я буду преподовать историю. 2. Прочитав Ваше письмо, я очень обрадовался. 3. Студенты войдя в аудиторию, сели за стол. 4. Надев пальто, отец вышел из дома. 5. Сегодня я рано встал, оделся, умылся, позавтракал и пошел в библиотеку. 6. Он шел не оглядываясьназад

**5-mashq.**Ravishdoshlar yasalgan fe’llarning infinitiv shaklini aytib bering.

**Namuna:** o‘ynab-o‘ynamoq.

So‘zlay, to‘ldirib, ola, ko‘rsatib, ko‘ra, ishlab, qila, gapirib, ishlay, sanab, bajara, kurasha, o‘qib, boshlay, aytib.

**6-mashq.**Nuqtalar o‘rniga mos qo‘shimchalarni qo‘ying.

1. Quyosh charaq... chiqdi. 2. Nazira yugur... chiq... ketdi. 3. Volodya indama... bosh chayqadi. 4. Hakimjon so‘qmoqlarda yur... ber..., oyog‘ida oyoqqolmadi. 5.Mehmon kul... - kul... bo‘lgan voqeani gapir... berdi. 6. O‘ktam dadasini qidir... - qidir... chorvoqdan topdi.

## Fe’l.

**1-mashq.**Lug‘atdan foydalanib fe’llarni tarjima qiling. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

So‘ramoq, kelmoq, olib kelmoq, kutmoq, topmoq.

**2-mashq.**O‘zbek tiliga tarjima qiling.

1. Выполнить задание. 2. Выучить правило. 3. Запомнить новые слова. 4. Перевести статью. 5.Знать употребление слов. 6. Ответить на вопросы.

**3-mashq.**Nuqtalar o‘rniga mos fe’llarni qo‘yib gaplarni ko‘chiring.

1. O‘qimoq - ... 2. Bilim ... – har bir insonning burchi. 3. Vatanni ... – iymondandir. 4. Malakali mutaxassis bo‘lib ... – orzumiz. 5. Vatanga ... har bir fuqaroning burchi.

**Fe'llar:** munosib bo‘lish, olish, yuksalmoq, sevmoq, yetishish.

## Fe'l shakllari. Harakat nomiga oid mashqlar.

**1-mashq.**Harakat nomlarini topib, tagiga chizing, hosil bo‘lishini tushuntiring.

Sog‘lom bo‘lish uchun uyda ham, o‘qish joyida ham tozalikka rioya qilish, turli harakatli o‘yinlar o‘ynash va toza havoda yurish zarur.

O‘qish va ishlash bilan birga vaqtida dam olish ham kerak. Gimnastika, yugurish, futbol, suvda suzish kabi mashg‘ulotlar, uyda va o‘qishda, sabzavot, poliz, bog‘ va o‘quv tajriba uchastkasida ekin ekish, chopish, sug‘orish kabi jismoniy mehnat qilish muskullarning bir tekisda rivojlanishiga, uning chiniqishiga, epchil va chaqqon bo‘lishiga yordam beradi.

**2-mashq.**Quyidagi fe'llardan har uchala qo‘shimcha yordamida harakat nomi yasang. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

Otlan, gaplash, tayyorla, ayt, kul, ber, ishla, tingla.

**3-mashq.**Quyidagi so‘z birikmalari ishtirokida gaplar tuzing.

O‘qish mumkin, kelishi zarur, yozish kerak, uyg‘onish fasli, qizg‘in bellashuv, qiziqarli uchrashuv.

**4-mashq.**Rus tiliga tarjima qiling.

1. Aytish oson, bajarish qiyin. (Maqol) 2. Xonada chekish mumkin emas. 3. Shifokorga kasallik belgilarini aniq aytish kerak. 4. Men o‘qishga kirish uchun ikki yil urindim. 5. Kutubxonadan istagan kitoblaringizni olishingiz mumkin. 6. Kecha fakultetimizda shoirlar bilan uchrashuv bo‘lib o‘tdi.

**5-mashq.**Nuqtalar o‘rniga harakt nomi yasovchi qo‘shimchalar qo‘yib, gaplarni ko‘chiring.

1. Bilim ol… va yuksal… sharafli burchimizdir. 2. Yaxshi o‘q… bizning asosiy vazifamizdir. 3. Yuqori hosil ol… texnikadan foydalana bil…ga bog‘liq. 4. Kosmonavtlar qo‘rq… bilmas kishilardir. 5. Ular singar bo‘l… ko‘p narsani bil…, qunt bilan o‘q… va ish… lozim.

## Qo‘shma fe'llarga oid mashqlar.

**1-mashq.**Nuqtalar o‘rniga mos yordamchi fe'llarni qo‘yib ko‘chiring.

1. Men do‘stimga xat yozib ... . 2. Kechagi kitobni o‘qib ... . 3. Azizani kecha institutda uchratib ... . 4. Men o‘zbek tilida xat yoza ... . 5. Ukamning yozgan inshosini ko‘rib ... . 6. Biz imtihonlarga puxta tayyorlanib ... .

**2-mashq.**Quyidagi qo‘shma fe’llar ishtirokida gaplar tuzing.

Qo‘l qo‘ymoq, javob bermoq, yozib bo‘lmoq, o‘qib chiqmoq, bilib olmoq, o‘qib yurmoq, kutib o‘tirmoq.

**3-mashq.**Quyidagi gaplarni rus tiliga tarjima qiling.

1. Maqolning mazmunini so‘zlab bering. 2. Do‘stingdan iltimos qilib tur. 3. Hozircha mana shu kitobdan foydalanib turamiz. 4. Nikolay o‘zbekcha kitoblarni o‘qib turadi. 5. Men hozir dam olib yuribman. 6. Ertaga qishloqqa borib kelaman.

**4-mashq.** Quyidagi qo‘shma fe’llar ishtirokida gaplar tuzing.

Bajara olasan, ishlab yuribman, so‘zlab berdik,borib kelamiz, ishlab turibsiz.

**5-mashq.** O‘zbek tiliga tarjima qiling.

1. Хаким изложил свою точку зрения. 2. Тыможеш перевести это на узбекский язык? 3. На нашем факультете организована работа кружка молодых поэтов и писателей. 4. На дом было задано выучить стихотворение Айбека «Na’matak».

## Fe’l zamonlariga oid mashqlar

### O‘tgan zamon

**1-mashq.** Fe’llarni tegishli shaklda qo‘llab gaplarni ko‘chiring.

1. Abror bolaligida juda to‘polonchi (bo‘lmoq). 2. Toshkent shahridagi ko‘plab uylar zilziladan keyin (qurilmoq). 3. Tog‘amni ko‘rgani kasalxonaga (bormoq). 4. Men Navoiy nomli 1-maktabni (bitirmoq). 5. Sayohatga (otlanmoq) do‘stlarimizni vokzalgacha (kuzatib bormoq). 6. Shahrimiz keyingi yillarda ancha (ko‘rkamlashmoq).

**2-mashq.**Rus tiliga tarjima qiling.

1. Men bu yili Toshkent Axborot texnologiyalari universitetiga o‘qishga kirdim. 2. Dadam kecha bir qancha kitoblar olib keldilar. 3. Hozir Toshkentda ko‘plab yangi binolar qurildi. 4. Katta opam tibbiyot institutini tamomladi. 5. Bolaligimda balandlikdan qo‘rqar edim. 6. Uning o‘zi ham ilgari sport bilan shug‘ullanardi.

**3-mashq.**Gaplarni o‘zbek tiliga tarjima qiling.

1. В этом году в наш университет поступило около 10.000 заявлений. 2. Мы все были рады твоему поступлению в институт. 3.В этом году я был в командировке в городе Карши. 4. Я никогда не был в этих местах. 5. Кнам в университет приехали знаменитые преподаватели. 6. Сегодня мы были в музее истории Тимуридов.

**4-mashq.** Berilgan fe’llarni o‘tgan zamon davom fe’li shaklida qo‘llab, gaplar tuzing.

**Na’muna:** tanishmoq – tanir edim, qo‘rqmoq – qo‘rqar edim.

Qatnashmoq, bajarmoq, o‘zlashtirmoq, ulgurmoq, o‘rganmoq.

**5-mashq.** Nuqtalar o‘rniga berilgan so‘zlardan mosini qo‘yib yozing.

1. Osmon tiniq, ... shohi. Oq bulut kezar gohi. 2. ... adibimiz Odil Yoqubov bilan uchrashuv bo‘lib o‘tdi. 3. Hozir ... da qayoqqa ham borardik.
So‘zlar: ko‘k, qorong‘i, suyukli.

**6-mashq.**Matnni o‘qing. O‘tgan zamon fe’llarini toping. Matn yuzasidan savollar tuzing.

**Cho‘lpon**

Asl ismi-sharifi Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon 1983 yilda Andijonda tug‘ilgan. O‘zbek shoiri, tarjimoni va san’atshunos olimi. Cho‘lpon - uning adabiy taxallusi. U avval madrasada, keyin rus-tuzem maktabida ta’lim olgan.

Cho‘lpon bir qator ro‘znomalarda xizmat qilgan. O‘zbekiston badiiy studiyasi va boshqa tashkilotlarda yuqori lavozimlarda ishlagan.

Cho‘lpon ajoyib shoir, mohir tarjimon va adib edi. 1929 yilda uning “Kecha va kunduz” asari bosilib chiqdi.

1927 yildan Cho‘lponga xujum boshlandi. O‘zbekiston madaniyat xodimlari 2-quriltoyida uni zaldan xaydab chiqarishdi.

1937 yil shoir qatl qilindi. Istiqlol yillarida o‘zbek xalqining munosib farzandi qadr – qimmat topdi.

## Hozirgi zamon

**1-mashq.** Gaplarnirus tiliga tarjima qiling.

1. Saida endilikda ingliz tili bilan muntazam shug‘ullanyapti. 2. Yurtimiz kun sayin chiroy ochib bormoqda. 3. Hozir u o‘z ishidan ancha pushaymon bo‘lyapti. 4. Biz Navro‘z bayramiga katta tayyorgarlik ko‘ryapmiz. 5. Men o‘qituvchimni kutib turibman. 6. Said hali ham shaxmat to‘garagiga qatnashib yuribdi.

**2-mashq.** O‘zbek tiliga tarjima qiling.

В настоящее время Ахрор работает над кандидатской диссертацией. В своей работе он хочет сравнить факты русского и узбекского языков. Для этого он много читает, записывает и прослушивает речь носителей двух языков. Он очень много трудится, ибо он знает, что без труда, без упорства не достичь ни одной цели.

**3-mashq.**Suhbatdan fe’llarni aniqlang. Ularning qaysi zamonda ekanligini ayting.

- Assalomu alaykum.
- Va alaykum assalom.

- Kechirasiz, bu Rustam akaning xonadonlarimi? Menga Saidjon kerak edi, men uning kursdoshi Ashur bo‘laman.
- Saidjon hozir uyda yo‘q, bir joyga ish bilan ketgandi.
- Qachon kelishini aytolmaysizmi?
- Yo‘q, uzr, bilmayman, qachon qaytishini aytmadi. Kech tomon bir qo‘ng‘iroqqilib ko‘ring. Balki, kelib qolar.
- Ha, albatta qo‘ng‘iroqqilaman. Bezovta qilganim uchun uzr.

**4-mashq.** Nuqtalar o‘rniga gaplarning mazmuniga mos hozirgi zamon fe’llarini qo‘yib ko‘chiring.

1. O‘zbek xalqi tinchlik uchun ... . 2. Osmonda to‘lin oy ... . 3. Ariq suvi bir xilda, jimgina, sharpasiz va shabadasiz ... . 4. Mamlakatimizda minglab zavodlar ... va ... . 5. Yomg‘ir tindi, ammo osmonni bulut ... .

**5-mashq.** Qavs ichida berilgan fe’llarni mos zamonda qo‘llab, gaplarni ko‘chiring.

1. Kutubxonada hayot (qaynamoq). 2. O‘qish zalidagi katta stol atrofida bir necha kishi ro‘znoma va oynoma (o‘qimoq). 3. Bu yerga O‘zbekistonning hamma tarafidan talabalar (kelmoq). Ular o‘z o‘quv yurtlari haqida (suxbatlashmoq). 4. Qirdan g‘ir-g‘ir shabada (esmoq). 5. Daryo suvini bahor (toshirmoq), odam qadrini mehnat (oshirmoq).

**6-mashq.** Quyidagi fe’llardan hozirgi-kelasi zamon fe’li shaklini yasang. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

O‘zlashtirmoq, o‘rganmoq, boshlamoq, so‘zlamoq, bormoq, ishlamoq, javob bermoq.

## Kelasi zamon

**1-mashq.**Qavs ichidagi so‘zlardan kelasi zamon gumon fe’llarini yasang va ko‘chirib yozing.

1. Majlisda biz soat 17 gacha (bo‘lmoq). 2. Bu kitobingni ertaga (qaytarib bermoq). 3. Ro‘znoma va oynomalarga u ertaga (yozilmoq). 4. Dala hovliga sen ham dam olish kuni (chiqmoq). 5. Siz institutni bitirgandan keyin o‘z viloyatingizga (ketmoq). 6. Ertaga Aziza bilan siznikiga (bormoq).

**2-mashq.** Quyidagi fe’llarni kelasi zamon gumon fe’li shaklida qo‘llab gaplar tuzing.

**Namuna:** Odina men ertaga darsdan keyin siznikiga borarman.

Bormoq, kirmoq, tozalamoq, saylamoq, yozib olmoq, mukofotlamoq, o‘rganmoq.

**3-mashq.** Quyidagi so‘zlarni kelasi zamon maqsad fe’li shaklida qo‘llab, shu fe’llar ishtirokida 7 ta gap tuzing.

Bajarmoq, to‘qimoq, qaytmoq, o‘rganmoq, mukofotlamoq, ko‘rmoq, yubormoq.

**4-mashq.**Qavs ichidagi so‘zlardan kelasi zamon maqsad fe’li yasang, gaplarni ko‘chirib yozing.

1. Ular o‘zbek yozuvchilarining yangi asarlaridan parchalar (o‘qimoq). 2. Bog‘imizda o‘zimiz har xil mevali daraxtlar (yetishtirmoq). 3. Opam universitetning matematika fakultetiga (kirmoq). 4. Ukam shaxmat to‘garagiga (yozilmoq). 5. Bugun yig‘ilish (bo‘lmoq).

**5-mashq.**Gaplarni rus tiliga tarjima qiling.

1. Men bugun kutubxonaga bormoqchiman. 2. Siz bilan bu to‘g‘risida gaplashmoqchi emasman. 3. Dadam yangi yilda menga yangi kvartira olib bermoqchilar. 4. Institutni bitirib o‘z shahringizga qaytarsiz? 5. Siz o‘zingiz uchun nimalar sotib olmoqchisiz? 6. Sodiqjonga mendan salom aytarsiz.

**6-mashq.** Kelmoqfe’lini barcha zamon ikkinchi shaxs birlik shaklida qo‘llab gaplar tuzing.

**7-mashq.**Maqollarni o‘qing. Rus tilidagi muqobilini toping.

1. Erta ekkan, erta o‘radi.
2. Zar qadrini zargar bilar.
3. Bola shirin, odobi undan shirin.
4. Qari bilganni pari bilmas.
5. Oy yoritadi, ammo isitmaydi.

## Fe’l nisbatlariga oid mashqlar

**1-mashq.**Fe’llarning mumkin bo‘lgan nisbat shakllarini yasang. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

Bil, o‘qi, tushun, top, tani.

**2-mashq.** Gaplarni o‘qing. Fe’llarni qaysi nisbatdaligini ayting. Rus tiliga tarjima qiling.

1. Maktabimizda mingga yaqin o‘quvchi o‘qiydi. 2. Bu yil universitetga mingdan ziyod talabalar qabul qilindi. 3. Saida bilan Nozima derazalarni yuvishdi. 4. Biz maktab bog‘iga terak nihollarini o‘tqazdik. 5. Akam bu yil institutni bitiradi. 6. Tohir shu kuni uzoq yo‘lga otlandi.

**3-mashq.** Maqollarning o‘zbekcha muqobilini ayting. Fe’l nisbatlarini tushuntiring.

1. Друзья познаются в беде. 2. Знание – сила. 3. Яблоко от яблони далеко не падает. 4. Куда большая телега, туда и маленькая. 5. Сем раз отмерь, один раз отрежь.

**4-mashq.**–n, -in, -l, -sh qo‘shimchalarining har biri bilan o‘zlik nisbatidagi fe’l hosil qiling, ularni qatnashtirib 4 ta gap tuzing.

**5-mashq.** –tir, -dir qo‘shimchalaridan zarurini qo‘yib, orttirma nisbatdagi fe’llar hosil qilib ko‘chiring.

Ayt, yoz, qiziq, yuv, gapir, kes, kul, eshit, unut, ajrat, bil, ko‘kar, ek, quvon, sez, kel, sevin.

**6-mashq.** Birgalik nisbatidagi fe’lli gaplarni ko‘chiring, birgalik nisbat hosil qiluvchi qo‘shimchalarning tagiga chizing.

Ko‘p qavatli uylarda yashovchilar o‘zlari tashabbus boshlashdi. Hashar qilib uy oldini tozalashdi. Mevali daraxtlar va gul ko‘chatlari o‘tqazildi. Sayyora va Nigora jambil va turli gul urug‘larini sepishdi. Gulzorlar payhon bo‘lmasligi uchun atrofni pastgina panjara bilan o‘rashdi.

**7-mashq.**Gaplarni o‘zbek tiliga tarjima qiling.

1. Мы договорились с Нигорой о встрече. 2. Мои родители живут в Самарканде. 3. Я познакомлю тебя со своими однокурсниками. 4. Газета напечатана в типографии университета. 5. Сегодня мы собираемся в университетском клубе. 6. Сегодня мои родители возвращаются из командировки.

## Fe’l mayllariga oid mashqlar

**1-mashq.** Buyruq gaplarni ko‘chiring. Buyruq maylidagi fe’llarning shaxs- sonini ko‘rsating.

**Namuna:** Texnikadan unumli foydalanaylik. / 1 shaxs, ko‘plik /

Qimmatli bolalar, o‘rtoqlarga do‘stona yashashni, ishda, o‘qishda bir-biringizga yordam berishni o‘rganingiz. Sizning orangizda, har turli millat bolalari orasida, katta bolalar va kichiklar orasida haqiqiy o‘rtoqlik bo‘lsin.

**2-mashq.** Maqollarni o‘qing. Mazmunini rus tilida ayting.

1. Gap bilan shoshma, ish bilan shosh. 2. Sanamay sakkiz dema. 3. Bir tup tok eksang, bir tup tol ek. 4. Bugungi ishni ertaga qo‘yma. 5. Avval o‘yla, keyin so‘yla. 6. Tiling bilan dilingni bir tut.

**3-mashq.** Gaplarni o‘qing. Mayl qo‘shimchalarini ajrating va uslubiy vazifalarini aniqlang.

1. O‘zbekiston, seni shuncha sevmasam, Qalbim seni deb, jo‘sh urmaganda, Nurli ko‘ringaymi bu jahon menga? 2. O‘g‘limizga bir yaxshi xat yozsak. 3. Tishlarimni ko‘rmak istasang, Havasingni marvaridga ayt, Gar o‘zimni ko‘rmak istasang, Yovni yengib, zafar bilan qayt. 4. Behabar bo‘lmang: ushog‘i yerga nogoh tushmasin, Donai bir non ushog‘in tanga darmon, deb biling. 5. Oltin yerda qolsa ham, bilim yerda qolmas. 6. Nainki inson bir oz egilib, ariqdan bir piyola suv olib icholmasa!

2.

**4-mashq.** Gaplarni rus tiliga tarjima qiling.

1. O‘zingni, o‘z uyingni o‘zing asra. 2. Elu yurt dardiga darmon bo‘laylik. 3. Ertaga hamma hasharga kelsin. 4. Sen yaxshisi, buguncha dam ol. 5. Gulnoraga ayt: tepaga qo‘ng‘iroqqilsin. 6. Qani, oldimga tushib ko‘rchi.

**5-mashq.** Shart maylidagi fe’llar ishtirokida 5-6 ta gap tuzing. Ularni rus tiliga tarjima qiling.

**6-mashq.**Matnni o‘qing. Mazmunini aytib bering.

### O‘zbek xalqining mard o‘g‘loni

Sobir Rahimov 1902- yil fevralda Toshkent shahrida tug‘ilgan.

1922 -yilning yozida harbiy xizmatga ko‘ngillilar qatorida chaqiriladi. Bokudagi harbiy maktabda o‘qiydi va usta chavandoz ham mohir qilichboz bo‘lib yetishadi.

1925- yilda harbiy maktabni a’lo baholar bilan tamomlagach, Samarqanddagi o‘zbek otliq diviziyasi ixtiyoriga keladi. Bu yerda u vzvod komandiri bo‘lib xizmat qiladi.

1936- yilda Sobir Raximovga kapitan harbiy unvoni beriladi.

1941 -yilda Sobir Rahimov Smolensk shahrida motorlashtirilgan polk komandirining o‘rinbosari edi. Ikkinchi jahon urushi davrida dovyurak o‘zbek o‘g‘li yurt ozodligi uchun dushmanga qarshi jon – jahdi bilan kurashadi.

1942 -yil iyunda Don daryosi atrofidagi qattiq janglar vaqtida u diviziya komandiri va polkovnik unvonida bo‘lgan Sobir Rahimovga 1943- yil mart oyida general – mayor unvoni beriladi.

1945- yil 26- mart kuni Gdansk shahri uchun jang ketayotgan bir paytda o‘zbek xalqining mard o‘g‘loni qahramonlarcha halok bo‘ladi.

Yurtining porloq kelajagi uchun jon fido qilgan o‘g‘lonini xalqimiz aslo unutmadi. Bugun uning nomi bilan poytaxt tumanlaridan biri, metro bekati, maktablar atalgan. Eng asosiysi, Sobir Rahimovning qutlug‘ nomi minnatdor avlodlar xotirasida yashamoqda.

## Yordamchi so‘zlar

**1-mashq.** Nuqtalar o‘rniga yordamchi so‘zlardan mosini qo‘yib, gaplarni ko‘chiring. Yordamchi so‘zlarning gapdagi o‘rnini tushuntirib bering.

Vatan tuyg‘usi, Vatan tushunchasi biz ... sajdagohday muqaddas, sajdagohday pok... ulug‘ bo‘lmog‘i kerak. Jahon keng, dunyoda mamlakat ko‘p, ... bu olamda O‘zbekistonimiz yakkayu yagona.

**2-mashq.**<u>Haqida, va, orqali, shuning uchun, chunki</u>yordamchi so‘zlari ishtirokida gaplar tuzing. Ularning gapdagi vazifasini izohlang.

**3-mashq.**Quyidagi sxema asosida gaplar yozib keling.

1. ______________ , shuning uchun __________.
2. _________ va _______ _____________________.

3. ______________, chunki ___________________.
4. _____, ________ hamda ____ ___________________.
5. _________ bilan _________ ____________________.

## Bog‘lovchilarga oid mashqlar

**1-mashq.** Gaplar ichida kelayotgan bog‘lovchilarni izoxlang.

Quvnoq va sho‘x kuylarga boydir go‘zal vatanim. (Po‘lat Mo‘min). Keyin Salima va oyisi mezbonlar bilan xayrlashib uylariga qaytishdi. (Harxod Musajon) O‘zi uddaburon, qo‘rqmas, biroq o‘qishda mazasi yo‘qroq. (N.Hozilov). Tanalaridek ozgina namlik bilan ularga hayot baxsh eta boshlashdi, ammo kunlar o‘tgan sari bargchalar kattalashib, ko‘proq suv, ko‘proq oziq-ovqat so‘ray boshlashdi. (X.To‘xtaboyev)

**2-mashq.**Nuqtalar o‘rniga bog‘lovchilardan mosini qo‘yib, gaplarni ko‘chiring, ularga tavsif bering.

1. Tuyaqush ... Qoplon ikkalalari do‘st bo‘libdilar. Qoplon chin so‘zli, do‘stga sadoqatli, g‘amxo‘r ... mehribon bo‘lganligi uchun harsillab yetib kelibdi. (Ertakdan) 2. Pochcham ... ammam bu gul, bu hayvonotlarning har bittasini nuridiydalariday parvarish qiladilar. Tushlik nonushtasi uchun suzma bermoqchi edim, bechora qushlar juda ham yovg‘onsirab ketdi. (Hofur Hulom) 3. Buvisi, onasi ketishsa-chi to‘ylarga, Uyni poylab o‘tirar chiqmay ko‘cha-ko‘ylarga. (Ilyos Muslim)

**3-mashq.**Ikki guruhga bo‘lining. Birinchi guruh va, ammo, lekin, biroq bog‘lovchilari yordamida gap tuzsin. Ikkinchi guruh esa gap ichida chunki, shuning uchun, shu sababli bog‘lovchilarini qo‘llasin.

**4-mashq.** Suhbat.

- Shahrimizdagi qaysi muzeylarni bilasiz?

- Men Temuriylar tarixi muzeyi, Olimpiya shuhrati muzeyi, O‘zbekiston xalqlari tarixi muzeyi, San’at muzeyi, Shahidlar xotirasi maydonidagi muzeylarni bilaman.

- Uy – muzeylardan-chi?

- O‘rol Tansiqboyev, Muxtor Ashrafiy, Oybek uy-muzeylarida bo‘lganman.

- Ular sizda qanday taassurot qoldirgan?

- Har gal muzeyga borganimda xalqimizning boy tarixi va madaniyatidan iftixor tuyg‘usini xis etaman. Qolaversa, uning me’moriy yechimi, ayniqsa istiqlol yillarida qurilgan muzeylarning ko‘rkamligidan lol qolaman.

## Ko‘makchilarga oid mashqlar

**1-mashq.**O‘qing, nuqtalar o‘rniga ko‘makchilardan mosini qo‘yib, ko‘chiring. Ko‘makchilar ma’nosini izohlang.

1. Har bir bola menga o‘xshagan o‘yinqaroq, bolalar ... bu yerda ermak topiladi. (Hofur Hulom) 2. Qaytishda bo‘lsa, o‘rtog‘larim ... chillak o‘ynaguncha guzardan muzqaymoq olib chap tarafdan keldim. (Hakim Nazir) 3. Bog‘da gul chaman-chaman, Men gullarni quchaman. Zavqla ochib qulochim, sho‘x qush... uchaman. (Po‘lat Mo‘min) 4. U so‘zining ustidan chiqdi, Tesha... gul ko‘chatining tagini yumshatib, kun ora suv quyib turdi. (Harhod Musajon).

**2-mashq.**Ko‘makchilar o‘rniga kelishik qo‘shimchalardan mosini qo‘ying. Gap ma’nosida qanday o‘zgarish sodir bo‘layotganini ayting.

1. Onam (uchun, -ga) salom berdim. 2. Mustaqillik (haqida, -dan) gaplashdik. 3. Maktab (tomon, -ga) qarab jo‘nadim. 4. Oynai jahon (orqali, -dan) eshitdik.

**3-mashq.**Tushirib qoldirilgan ko‘makchilarni o‘rniga qo‘yib, gaplarni ko‘chiring.

Mustaqillik ... xalqimizning turmushi o‘zgardi. Hamma Vatan, yurt ... o‘zining kerakligini anglab yeta boshladi. Istiqlol ... gap ketsa, o‘z fikrini bemalol ayta oladigan bo‘ldi.

**4-mashq.** Ko‘makchilar ishtirokida gaplar tuzing.

Kabi, qaramay, burun, keyin, so‘ng, ichida, oldida, yonida.

**5-mashq.** O‘zbek tiliga tarjima qiling.

1. Тахир ушел вместе с Бабуром. 2. Не смотря на дождь стадион был полон болельщиками. 3. Мне трудно писать чернилами, лучше напишу авторучкой. 4. Как только я пришел домой, мать приготовила ужин. 5. Так как было пасмурно, мы отложили поездку в горы.

**6-mashq.** Matnni o‘qing. Mazmunini aytib bering.

**O‘zbek maqollari.**

Maqol xalq og‘zaki ijodiga oid janrlardan biri sanaladi. Maqollar shaklan qisqa bo‘lgani bilan ularda juda keng ma’no mujassam bo‘ladi.

